

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

2/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

2/2-сан 2024

март

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Сапардурды АБАЕВ	Раьно ОРИПОВА
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
ХАЙРУЛЛА АЛЯМИНОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Дилшода САПАРБАЕВА
Интизар АБДИРИМОВА	Феруза САПАЕВА
Тўлкин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Марифжон АХМЕДОВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Шахло БОТИРОВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Вохид КАРАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Шохида ИСТАМОВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Лола ИСРОИЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Улфат МАХҚАМОВ	Қонысбай ЮСУПОВ
Уролбой МИРСАНОВ	

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

Saydullayeva M. A. Tibbiy OTM talabalarini lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zaruriyatlarini	6
Исакулова Н.Ж. Божхона соҳасига оид терминларни ўқитишда тадқиқот лойиҳалардан фойдаланиш	11
Botirova M.M. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining iqtisodiy madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish komponentlari	20
Хайитова М.К. Обзор современной ситуации преподавания русского языка как иностранного	24
Алибекова Л.Р. Применение интерактивных методов обучения на занятиях русского языка для студентов медицинских вузов	31
Kidirniyazova P.S. Saparniyazova D.E.The problem of modality in modern linguistic	36
Mamutova Y. Pedagogical and methodological conditions as a criterion for improving the quality of english language teaching in secondary school	42
Jurayeva M.A., Qosimova Sh.A. Interconnection of diverse fieds with applied linguistics	50
Pulatova Sh. S. Latin as the main language of medicine	57
Akbarova R. F. General problems of translating english fairy tales into russian language	64

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Salimov E.X. Talabalarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari	73
Nazarov O.D. Talabalar boshchiligidagi media loyihalar bilan shug'ullanish talabalar uchun texnologiya sohasida yangi ko'nikmalarni rivojlantirish	81
Asliddin I.B. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik jihatlari	88
Muhammetsaidov B.K., Daminova R.B. Pardaboyev J.E. Texnik ijodkorlik faoliyatida o'quvchilar muhandislik kompetensiyalarini steam-ta'lim vositasida rivojlantirish	95
Mahmudova S. A. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning uslubiy asoslari	104
Yuldasheva M.E. Pedagogik nizo va uning xususiy sabablari, oldini olish yechimlari	109
Narziyeva N. N. Bo'lg'usi veterinar mutaxassislarini tadqiqotchilik kompetensiyalarini mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirish	118
Rabbonayeva D.T. O'qish savodxonligi darsligidagi matnlar uchun PIRLSdagi kabi topshiriqlar tuzish	127
O'ktamov D.O. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	131
Zokirov M.A. Perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati	137
Mo'ydinova D. Q. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	142
Ganiyeva Sh.A., Anvarova Sh.A. Kichik yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari	147
Kaxharova M. M. Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar nutqining leksik-grammatik tomonini rivojlantirish texnologiyalari	152
Abidova N.Z. Bo'lajak logopedlarning inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	158
Matkarimov A. M. Oilada ta'lim muhitini rivojlantirishning ijtimoiy- pedagogik shart-sharoitlari	164
Nazarova Z.T. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish muammolari	175
Adilova M.F., Vositova H. H. Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining psixologik tayyorlash tizimi	182
Hudayberdiyeva M. O. Yuqori sinf o'quvchilarining milliy mentalitetiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash	188



Parpiyev O.O. Yozma nutq kompetensiyasini baholashga doir talablarning davlat ta'lim standartlarida va o'quv dasturlarida ifodalanishi	194
Xashmova M.K. Креатив педагогика инновацион йўналиш сифатида	201
Усаров. Ж. Э. Умаров Э.Д. Талабалар мустақил фаолиятини ташкил этишнинг педагогик-психологик асослари	208
Позилов М.Н., Каримова Ф.С., Сунатуллаева С., Абдураимова Ў. Олий таълим тизимида назорат жараёнини ташкил этиш ва бошқаришнинг самарали йўллари	213
Рустамова Н. Р. «Виртуальный» опыт как один из видов витагенного опыта	219
Терехова О.Е. Педагогические способности и трудности в профессиональной деятельности преподавателя как основа формирования педагогического мастерства	223
Хайдарова Г.Н. Исследование медийного контента и его использование в образовании	228
Садикова Д.Х. Значение и роль steam технологий при подготовке студентов к педагогической деятельности	232
Dadaboieva G. Communicative competence as a prevention of mental diseases of university students	239
Nishonova Sh.M. The role and effect of stereotype in communication	244

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Atadjanova D.U. Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning ma'naviy-axloqiy merosida ilimga va e'tiqodga munosabatning tarbiyaviy ahamiyati	249
Nurboeva N. B. Amir Temur davrida ayollarga bo'lgan munosabat	256
Isroilova X. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish	260
Ismoilova M.H. Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati	264
Маллаева Э. Бэконнинг ижтимоий-тарихий ва сиёсий қарашлари	269

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Раҳмонов З. Масофавий таълим муҳитида бўлажак ўқувчиларда ахборот компетентликни шакллантиришнинг педагогик шароитлари	274
Oqnezarov T.J., Kadirov T.B. O'qituvchilarda bulutli texnologiyalarga asoslangan dasturiy mahsulotlar (google disk)dan foydalanish kompetentligini shakllantirish	281
Eshaliyev U. S. Informatika fani bo'lajak o'qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish metodikasi	288
Nazarova N.R. "Sun'iy intellektning ta'limga ta'siri: maktablarga sun'iy intellektning kirib kelishi	292
Mo'minova X.R. Chegirmalar nazariyasi asosida xosmas integralning geometrik masalalarga tadbiqu	296
Abdullayev B.P. Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning didaktik modeli	302
Axatqulov A.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivollantirish	310
Умурзақова У.Н. Экологик таълим ва рақамли технологиялар: афзалликлари ва муаммолари	317
Назиров Р.Р., Югаев Ш.М. Толали ўликни шнекли-қозикли ишчи органлар таъсирида тозалаш жараёнини назарий таҳлили	321

БАСЛАЎШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Umarova Sh. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'ururni rivojlantirish	328
Pardayev A.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositalarida rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	334
Qayumxo'jayeva F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	340

Jo'rayeva Sh.K. Boshlang'ich sinflarda jarangli va jarangsiz undosh tovushlar	348
Qoraboyev H.K. O'quvchilarga matn mazmunidan chetga chiqish tavsifida beriladigan uy vazifalarini tashkil etish	355
Soliyev I.S., Yigitaliyeva O.G'. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik imidji va kompetentligi	362
Soliyev I.S., Tursunaliyeva D.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish uchun multimediyadan foydalanish usuli va o'yinning ahamiyati	365
Xudayqulova F. B. Boshlang'ich ta'lim sifatini baholash xalqaro dasturlari va innovatsion texnologiyalari	370
Adizova N. B., Bobomurodova Sh. Birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida ifodalangan hikoyalarni kreativ topshiriqlar asosida tahlil qilish metodikasi	375
Adilova M.F., Xodjayeva N.A. «4k» modeliga asoslangan innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish	380
Jo'rayeva N. T., Marasulova D. N. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish	386
Kayumova N.M. Milliy qadriyatlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarini shakllantirishning metodik imkoniyatlari	392
Pardaboeva D.G'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslariga jalb qilishda tanqidiy tiklash usullari orqali klaster yondosish	399
Axmadaliev M.M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning uslubiy asoslari	404

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Jumayev X.X. Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish	412
Choriyev B.B. Xalq cholg'ularida ijrochilikni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda cholg'u oilalarining tashkil etilishi	418
Xidirov K.A. XX asrning dunyoga dovrug'i ketgan o'zbek san'at darg'alari	422
Xakimov O.B. Ud cholg'usining qo'shiq ijrochiligidagi ahamiyati	425
Gulomova N.X. Ta'lim oluvchining bilim olishida chizmachilik darslarida ko'rgazmalilik tamoyili	432
Toshpulatov F.U. Chizmachilik darslarida ilmiy tushunchalar va talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati	438
Rasulova F.S. "Qirqim" mavzularini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning amaliy tadbig'i	442
Содиқжон М.О. Тасвирий санъат ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлик даражаси компетенциясини шакллантириш омиллари	447

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Abdullayev N. A. Sportchilarni jismoniy holatini qayta tiklashning metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslari	452
Qambarov K.I. Voleybol sport turining yoshlarni tarbiyasi va jismoniy rivojlanishida tutgan o'rni	458
Qambarov K.I. Futbol murabbiylarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikning tutgan o'rni	462
Bo'riyeva G. I. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari tavsifi	467
Raximberdiev J.N. Kurash sport turining xalqaro qoidalarini talabalarga pedagogik o'rgatish zarurati	473
Ergashov K.A. Jismoniy tarbiyada chaqqonlik va eρχillik harakatlarini shakllantirish	478
Одилов О.Н. Булажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг ўзига хослиги ваилмий-назарий таҳлили	483
Radjapov U.R. Yengil atletikaning uloqtirish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi	488



TIBBIY OTM TALABALARINI LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANIDAN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATLARI

Saydullayeva M. A

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Tayanch soʻzlar: lotin tili, oʻqitish metodikasi, tibbiy terminlar, topshiriq va mashqlar, kommunikativ kompetensiya, malaka va koʻnikma.

Ключевые слова: латинский язык, методика преподавания, медицинские термины, задания и упражнения, коммуникативная компетентность, компетенции и умения.

Key words: latin language, teaching methodology, medical terms, tasks and exercises, communicative competence, competence and skills.

Kirish. Bugungi kunda Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini oʻqitish metodikasi soʻngi yillarda juda koʻp yutuqlarni qoʻlga kiritmoqda. Yaʼni har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar boʻlmoqda. Hozirgi kunda, dunyoda tibbiy terminlarni oʻqitish metodikasiga andoza boʻlayotgan bu taʼlim yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan maʼlum boʻlishicha, xalqaro tibbiy terminlar oʻqitish metodikasida malakaviy koʻnikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan boʻlib, uni amalga oshirish oʻquv topshiriqlari sifatiga koʻproq bogʻliq boʻlib bormoqda.

Dunyoda ingliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni oʻqitishga doir ilmiy adabiyotlarda oʻquv topshiriqlarining mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida eʼtibor beriladi va taʼlim jarayonida savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada oʻquv topshiriqlari oʻzaro muloqotning samarali boʻlishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan oʻquv topshiriqlari avvaldan belgilangan maʼlum mezonlar asosida shakllantirilib bormoqda.

Turli oliygohlarning tibbiyot fakultetlarida lotin tilini oʻrgatish uzoq va davomiy anʼanadir. Biroq oʻquv fani nomining oʻzi “Lotin tili” yoki “Lotin

tili va tibbiyot terminologiyasi asoslari” ba’zi izohlarni talab qiladi. Avvalo, lotin tilini o’rganishda ikkita tub farqli yo’nalishga e’tibor berishingimiz kerak. Bir tomondan, umumta’lim fani sifatida qaraladigan lotin tilini o’qitish tilning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, umumiy til va uning grammatik tizimi bilan tanishishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, tilni o’rganish tarixiy va madaniy lahzalarni taqdim etish bilan uyg’unlashtiriladi. Bu talabalarga qadimgi me’rosning zamonaviy Yevropa va jahon madaniy tizimlarining shakllanishidagi muhim roli haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu yo’nalish gumanitar, birinchi navbatda, filologiya fakultetlari uchun dolzarb bo’lib, bu yerda asosiy maqsad talabalarining umumiy madaniy va lingvistik dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, ularning zamonaviy “jonli” tillarga ilmiy-tahliliy yondashuvini rivojlantirishga ko’maklashishdir.

O’zbekistonda ham tibbiy terminlarni o’qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish malakaviy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko’zda tutilmoqda. Talabalarda ta’lim - tarbiya, qonun va qoidalardan hamda didaktik tamoyillaridan kelib chiqib, talabalarining Lotin tili va tibbiy terminologiya fanining asosini o’zlashtirishga, shuningdek bu bilimlarni amaliyotda qo’llash, shakllantirishga va tibbiy atamalarni lotin va yunon dubletlarini o’rganishga yo’naltirilgan. O’z kasbiy mahoratlarini kengaytirish va rivojlantirish, ularning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiradi va ulardagi mavjud ko’nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, bo’lajak tibbiyot sohasida ta’lim olayotgan talabalarining ko’nikma va malakalarini o’zlashtirgan holda kasbiy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi; talabalarining mazkur yo’nalishdagi bilimlarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda egallashini ta’minlash; bakalavriyat talabalarini to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish; grammatik formalarni tushunish va atamalarining ma’nosini bilish; mustaqil ravishda lug’atsiz yoki lug’at bilan anotomik, klinik va farmasevtik atamalarni tarjima qila olish va tuzishga qaratilgan.

Talabalar tibbiy atamalarni keyingi kurslarning maxsus modul dasturlarida qo’llash, tushunish va tadbiiq etishda yordam beradi. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o’qitishda terminni tushunish, o’qiy olish, gapira olish va yoza bilishlari kerak. Bunday vaziyatda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o’qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini to’g’ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan terminlarni moslashtira olish, mashqlarni o’qib ma’nosiga tushuna olish hamda to’g’ri va mazmunli yoza olish ko’nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas’uliyatli vazifa tibbiy terminlar



o'qitiladigan oliy ta'limlarda o'quv topshiriqlari orqali amalga oshiriladi. Shu ma'noda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitish ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslari takomillashtiriladi. Bular quyidagilar:

- lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda talabalarda pragmatik yondashuv asosida takomillashtirilgan savol, mashq va topshiriqlardan foydalanilganda nutqiy ko'nikmalar rivojlanib, natijada talabalarning o'qish savodxonligi muayyan darajada oshgani aniqlanadi;
- o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda ularning vazifaviy farqlanishi belgilab olingani sababli topshiriq – bo'lajak mutaxassisni fikrlashga, o'quv topshiriqlari bilan ishlashga yo'naltirishi va shu bilan birga shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni sinash vazifasini ham bajarishi asoslanadi;
- tibbiy oliy ta'limda “savol”, “mashq” va “topshiriq” tushunchalarga ma'no-mohiyatiga ko'ra pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berildi, qo'llanilish o'rinlari, bajaradigan vazifalariga ko'ra tasniflanadi;
- ta'limda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda o'quv materiallari bilan ishlashda matnga va vaziyatdan kelib chiqib savol berishning darajalari aniqlanadi, savol tuzishga kognitiv-pragmatik usulda yondashish tavsiya qilinadi;
- tibbiy oliy ta'limda tinglab tushunish ko'nikmasi bilan birga talabada muloqot vaziyatiga ko'ra terminlarni to'g'ri tarjima qilish va to'g'ri talaffuz qilish malakasi ham baravar rivojlanishi lozimligini nazarda tutib, talabani to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatishning usul va vositalari ishlab chiqiladi;
- tibbiy oliy ta'limda mashq, ko'nikma va malaka hosil qilish, savol va topshiriqlar biror amalni bajarishga yo'naltirish, fikrlashga undash hamda eng, muhimi, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni sinash, baholash vazifasini bajarishi aniqlanadi.

Lotin tili birinchi kurs talabalari uchun mutlaqo yangi fan bo'lib, u ilgari o'rganilmagan va shuning uchun o'rganishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Tibbiyot oliy o'quv yurtida talabalarga tibbiyot terminologiyasini o'rganish va undan foydalanish asoslarini nafaqat universitetda, balki ularning keyingi kasbiy faoliyatida ham singdirish, boshqacha aytganda, terminologik jihatdan malakali shifokor tayyorlash maqsadida lotin tili o'qitilmoqda. Lotin tili fani tibbiyot yo'nalishlarida o'qiladigan barcha fanlar, xususan, anatomiya,

biologiya, biokimyo, mikrobiologiya, farmakologiya, klinik fanlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Talabalarni lotin tilida o‘qitishni optimallashtirish maqsadida yangi usullar faol joriy etilmoqda. Grammatik va leksik material puxta ishlab chiqilgan, tafakkur mantiqini, ongni va atamalardan foydalanishda savodxonlikni, tibbiy terminologiyaning turli quyi tizimlarida erkin yo‘naltirishni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator tibbiy terminlarni o‘qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Isroilova M.S., Rustamova S.Sh., Saydullayeva M.A., Abdullayeva R.M., kabilarning “Lotin tili va tibbiy terminologiya” nomli darsligi yaratildi. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni targ‘ib qilganlar. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, uzluksiz ta‘limda lotin tili va tibbiy terminlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ta‘kidlash joizki, tibbiy terminlarni o‘qitish metodikasiga turli davrlarda filolog olimlar ham dastur, darslik mualliflari sifatida o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Turdiyeva K., Hamraqulova M., Berezovskaya R., Mahkamovlar kabilar shular jumlasidandir. Kondratev, M.N Chernyavskiy lotin tili va tibbiy terminologiya fanining ta‘limi, maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan g‘oyalariga tayanib lotin tili o‘qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda ko‘nikmalarni rivojlantirish, lug‘at va matn asosida xorijiy tilni, jaxon ma‘naviyatini talaba tafakkuriga singdirish, talabani turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo‘nalishni boshlab berdi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, lotin tili terminologiyasini hisobga olgan holda “Lotin tili” fanining o‘ziga xos xususiyatlari tibbiyot fakultetlarida barcha uchta terminologik quyi tizimlarda (anatomik, klinik va farmasevtika) tibbiy lotin atamalarini qo‘llashning o‘rnatilgan amaliyotiga e‘tibor qaratgan holda kurs yaratish maqsadga muvofiqdir. Ularni iloji boricha aniqroq qilish uchun tartiblash va tizimlashtirish, foydalanish shu maqsadida lotin tilining grammatik tuzilmalari o‘rganilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Основные направления в методике преподавания иностранных языков в XX вв. / Под ред. М.В. Рахманова. – М.: Педагогика, 1972. – С. 4.
2. Шейлз Д. Коммуникативность в обучении современным языкам. современных языков для целей общения».



3. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / отв. ред Б. А. Серебренников. М.: Наука, 1988. С. 8-69.
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: учеб. Пособие /Мн. Тетра Системс, 2004. 256 с.
5. N.N. Goncharova Linguistic picture of the world as an object of linguistic description.
6. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. - М.: ЗАО «Шико», 2011.
7. Энциклопедия лекарств. - М.: РЛС, 2011.
8. Язык медицины. Всероссийский межвузовский сборник научных трудов. Вып. 2. - Самара, 2007.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada asosan tibbiyot terminlarining o'qitish metodikasida malakaviy ko'nikmalarini va ularni amalga oshirishda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье преимущественно говорится о формировании и развитии профессиональных навыков в методике преподавания медицинских терминов и коммуникативной компетентности при их применении.

SUMMARY

This article mainly talks about the formation and development of professional skills in the teaching methodology of medical terms and communicative competence in their implementation.



БОЖХОНА СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ТАДҚИҚОТ ЛОЙИҲАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Исакулова Н.Ж.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Таянч сўзлар: божхона, термин, божхона иши, божхона назорати, божхона менежменти, товаршунослик, халқаро божхона ҳуқуқи, божхона юриспруденция, божхона статистикаси, ўқув лойиҳа, тадқиқот лойиҳаси.

Ключевые слова: таможня, термин, таможенная работа, таможенный контроль, таможенное управление, товароведение, международное таможенное право, таможенное правоведение, таможенная статистика, учебный проект, исследовательский проект.

Key words: customs, term, customs work, customs control, customs management, commodity science, international customs law, customs jurisprudence, customs statistics, educational project, research project.

Таълимни лойиҳалаш – бу таълим жараёнини, унинг алоҳида турлари ва йўналишларини ташкил этишга қаратилган лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнидир. Ўқув лойиҳа қуйидагиларда кўриш мумкин:

ўқув жараёнини режалаштириш ва ташкил этиш турларидан бири;

бу барча элементлар ўзаро боғланган, муайян ва барқарор яхлитликни ташкил этадиган таълим сифатини (таълим олувчилар ва ўқув фаолияти) ёки алоҳида элементларни такомиллаштириш учун бошқарув тизимини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнидир;

таълим олувчилар ва катталарнинг амалий мақсадли биргаликдаги фаолияти, бу болаларнинг атроф-муҳитдаги дунё билан ўзаро мулоқот қилишнинг ўз ҳаётий тажрибасини шакллантириш имкониятларини очади;

таълим жараёнида таълим олувчиларнинг предмет ўрнини актуаллаштириш таълим технологияси;

таълим олувчиларнинг ҳақиқий эҳтиёжлари ва қизиқишларига, болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларига асосланган, таълим олувчиларнинг ўз-ўзини фаоллигини ва ўз-ўзини англашини рағбатлантирувчи усул;



таълим олувчилар ва катталар учун муҳим бўлган жиддий ўйин;
таълим жараёнини боғча деворларидан атроф-муҳитга (табиий ва ижтимоий муҳитга) олиб борадиган бир неча усуллардан бири);

таълим олувчи шахсининг ўсишини таъминловчи, бу ўсишни қайд этиш имконини берувчи, болаларни ўсиш босқичлари орқали-лойихадан лойихага олиб борувчи таълим технологияси [4].

Педагогикада лойихалар методи – бу муаммони таълим олувчилар ва ўқитувчи томонидан батафсил ишлаб чиқиш орқали дидактик мақсадга эришиш йўли бўлиб, у жуда реал, аниқ амалий натижа билан тугаши, у ёки бу тарзда белгиланган бўлиши керак. Лойиха методи – таълим олувчиларнинг мустақил фаолияти бўлиб, ўқитувчи раҳбарлигида амалга оширилади, ижодий, тадқиқот, шахсан ёки ижтимоий аҳамиятга эга бўлган муаммони ҳал қилишга ва моддий ёки интеллектуал маҳсулот шаклида муайян натижа олишга қаратилган [3].

Замонавий таълим лойихаси таълим имкониятлари, тадқиқот ва экспериментни бирлаштиради. Ўқитувчи учун ўқув лойихасининг асосий мазмуни таълим олувчининг лойиха фаолияти асосида ўзгариши (янги билим, кўникма, муносабат)дир. Талабалар учун - ўқув лойихасини мустақил бажариш. Таълим лойихалари бугунги кунда узлуксиз таълимнинг деярли барча босқичларида қўлланилади.

Тадқиқот лойихаси тадқиқот предмети ва усулларининг аниқ таърифини беради. Бу лойихалар пухта ўйланган лойиха тузилиши, белгиланган мақсадлар, лойиханинг барча иштирокчилар учун долзарблиги, ижтимоий аҳамияти, пухта ўйланган усуллар, жумладан, тажриба-синов ишлари ва натижаларни қайта ишлаш усуллари талаб этилади. Умуман олганда, бу тахминан илмий тадқиқотларга тўғри келадиган иш бўлиши мумкин; мавзуни асослаш, муаммо ва тадқиқот мақсадларини белгилаш, гипотезани илгари суриш, ахборот манбалари ва муаммони ҳал этиш йўллари белгилаш, натижаларни лойихалаш ва муҳокама қилишни ўз ичига олади. Тадқиқот лойихалари одатда узоқ ва тез-тез талабаларнинг имтиҳон ишларини ёки рақобатбардош аудиториядан ташқари ишларни ўз ичига олади [3].

Замонавий таълим амалиётида энг кўп тарқалган лойихаларнинг хусусиятларига эътибор қаратайлик. Microsoft мутахассислари томонидан тайёрланган лойиха қўлланмасида берилган таърифга кўра, ўқув лойихаси “туғалланган ўқув мавзуси, ўқув бўлимини ўрганиш, стандарт ўқув курси ёки бир нечта курсларнинг бир қисмини шакллантиришга йўналтирилган ишнинг ташкилий шакли” деб таъкидланган. Бундай лойихалар шерик-



чилик хусусиятига эга бўлган ва лойиҳа иштирокчилари учун аҳамиятли бўлган муаммоларни ҳал этишга қаратилган талабаларнинг биргаликдаги (ўқув, тадқиқот ва ўйин) фаолияти давомида амалга оширилади. Бу фаолият умумий мақсадга ва ишлашнинг келишилган усулига эга.

Таълим лойиҳаларини амалга оширишда кўп йиллик тажрибага эга мутахассислар томонидан яратилган мактаб тизимидаги лойиҳалардан фойдаланиш бўйича кенг адабиётлар мавжуд. Бундан ташқари, бу ҳақда Интернет кидирув тизимларидан кенг маълумот олиш мумкин (Айрим сайтларнинг маълумотномалари ва манзиллари рўйхати боб охирида берилган.) Ушбу материални умумлаштиришга асосланиб, ушбу турдаги лойиҳанинг моҳияти ва ўзига хослигини белгилайдиган характерли хусусиятлар, универсал босқич ва жараёнларни аниқлаш мумкин [1].

Таълим олувчиларга тадқиқот лойиҳасини ёзишда тадқиқот лойиҳасининг аниқ тузилишига риоя қилиш малакали лойиҳалаш кўникмаларини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди, кейинчалик ундан жиддий тадқиқот қоғозларини ёзишда фойдаланиш мумкин. Тадқиқот лойиҳаси таркиби қуйидагича:

- сарлавҳа саҳифаси;
- мундарижа;
- кириш;
- асосий қисм (боблар);
- хулоса;
- рефератлар;
- иловалар (зарур бўлса).

Талабаларнинг тадқиқот лойиҳасининг биринчи саҳифаси-титул саҳифаси бўлиб, унда ишнинг мавзуси, унинг муаллиф(лар)и ва раҳбари ҳамда ўқув-тадқиқот лойиҳаси ёзилган таълим муассасаси кўрсатилади.

Талабалар тадқиқот лойиҳасининг титул саҳифасини лойиҳалаш, шунингдек, уни ёзишда лойиҳа тузилишига риоя қилиш қоидалари белги-ланган.

Сарлавҳа саҳифасида қуйидаги маълумотлар бўлиши керак:

тадқиқот лойиҳаси амалга оширилган таълим ташкилотининг тўлик номи;

тадқиқот доирасини белгилайдиган лойиҳанинг номи; номи қисқа ва аниқ тадқиқот мазмунига мос бўлиши керак;

талабанинг фамилияси, исми, отасининг исми;

гуруҳ, таълим йўналиши;



тадқиқот раҳбарининг фамилияси, бош ҳарфлари, илмий даражалари ва унвонлари;

йил ва шаҳар-саҳифанинг пастки қисмида, марказда.

Сўнгра лойиҳанинг мундарижаси тузилиб, у тадқиқот лойиҳасининг асосий элементлари: кириш, боблар, параграфлар, хулоса, маълумотномалар рўйхати, иловалардан иборатдир. Тадқиқот лойиҳасининг мазмуни жадвалидаги барча сарлавҳалар бўлимларни ишга туширувчи саҳифа рақамлари билан белгиланади. Лойиҳа жадвалидаги сарлавҳалар матндаги сарлавҳаларни айнан такрорлаши керак.

Тадқиқот лойиҳаси бобларининг сарлавҳалари тадқиқот мантиқига амал қилиши керак. Гапларнинг бадиий ва сўроқ шакллари таълим олувчиларининг алоҳида лойиҳалари боблари ва параграфлари сарлавҳалари сифатида мос келмайди.

Тадқиқот лойиҳасининг мазмуни жадвали ишнинг тузилишини дарҳол кўрсатиш учун асосий қисм олдига қўйилади.

Кириш тадқиқот лойиҳасининг барча асосий қондаларини қисқа шаклда ўз ичига олади. Кириш ўз ичига олиши керак:

тадқиқотнинг долзарблиги;

тадқиқот муаммоси;

мавзунинг таҳрири;

предмет, объект;

мақсад, гипотеза;

вазифалар;

тадқиқот усули;

амалий аҳамияти ва янгилиги;

ўрганилган адабиётларнинг қисқача таҳлили.

Тадқиқот лойиҳасининг асосий қисми 2-3 бобдан иборат бўлиши мумкин. 1-бобда, одатда, ўрганилаётган муаммо юзасидан адабий манбалардан олинган назарий материални таҳлил қилиш натижалари келтирилган бўлиб, бу ерда тадқиқот усуллари ва методлари атрофлича муҳокама қилинади.

2-3 бобда лойиҳанинг амалий босқичлари баён этилади, назарий маълумотлар шарҳланади ва ўрганилган ҳодисалардаги маълум қонуниятлар тажриба давомида очиқ берилади. Тузилишига кўра тадқиқот лойиҳасининг боби хулосалар билан яқунланади. Бобларда келтирилган лойиҳанинг асосий қисми ўз ичига:

мавзуга оид адабиётларни кўриб чиқиш ва тадқиқот йўналишини танлаш;

ахборот манбаларининг тавсифи;
 умумий тушунча ва асосий тадқиқот усуллари тақдимоти;
 назарий ва / ёки экспериментал тадқиқотларнинг мазмуни;
 тадқиқот натижаларини таҳлил қилиш ва умумлаштириш.

Тадқиқот лойиҳасининг хулосаси қўйилган вазифалар саволларига жавоб берувчи иш натижаларининг қисқача баёнидир. Хулоса матнида олинган натижалар ёки уларнинг мазмуни батафсил баён этилмаглиги керак, булар лойиҳа доирасида бажарилган ишларнинг тезисларидир.

Хулоса ёзишнинг асосий талаби шундаки, у ҳар бир боб учун хулосалар матнини такрорламаслиги керак. Хулоса қилиб айтганда, тадқиқот натижалари асосида умумлаштирилган хулосалар шакллантирилади ва тавсиялар тақлиф этилади. Мақсадга эришиш даражасини баҳолаш, гипотеза шартларини синаш натижалари ва кейинги тадқиқотлар истиқболлари кўрсатилади.

Хулосадан сўнг мурожаатлар рўйхати жойлаштирилади. Бу лойиҳа асос қилиб олинган (келтирилган, матнда қайд этилган, тадқиқот жараёнида фойдаланилган, лекин лойиҳанинг асосий матнида акс этмаган) ахборот манбалари рўйхати. Рўйхат алифбо тартибида тузилади.

1-босқич магистратура талабалари учун “Customs” мавзусида тадқиқот лойиҳаси тавсия этилади ва жадвал ишлаб чиқилади.

Customs. Use of the term Customs can be confusing. Customs (the institution) collect Customs (duties) on goods which enter the Customs territory, at Customs (the location), which is often at the border (also called Customs) with the help (in some cases), of Customs brokers. An individual or firm licensed by customs authorities can perform the functions of a broker, organizing entrance and clearance of imported goods through customs. Most often a broker represents the importer in dealings with the customs authorities facilitating the trade of merchandise for a consignee or shipper.

Customs duties are in the Customs tariff. In many countries, the Customs institution has nothing to do with the setting of tariffs – at most, they provide budget-makers with statistical data to enable simulations. Customs may also collect revenue other than tariff revenue (for example, VAT, or sales tax, or excise, or any other tax collected on imported or exported goods). Over the years, Customs has also collected domestic taxes (excise on domestic goods, VAT), and has thus expanded into the fiscal area.

The place where duty is collected is usually known as Customs (the Customs house). This was traditionally at the point of entry into the territory, and became synonymous with border crossing. However, over the years, goods were



cleared inside the territory, so Customs may operate well outside the border area. In effect, the concept of border has evolved from a geographical notion to a functional one.

What makes things more complicated is that there can be several Customs territories, i.e. places with individual customs regulations, within the sovereignty of one state or within an economic and political union. For instance, there are border checks between the Schengen Area portions of the EU customs territory and those portions in the Common Travel Area formed by the United Kingdom, Crown Dependencies, and Ireland. Breakaway provinces may have their own Customs tariffs and regimes.

Besides, some parts of the country may be excluded from the Customs territory (such as free trade zones). They are also called free ports. These are areas within which goods may be landed, handled, and re-exported freely. The purpose is to remove obstacles to trade and to permit quick turnaround of ships and planes. Only when the goods are moved to consumers within the country in which the zone is located do they become subject to tariffs and customs regulation. Free-trade zones are found around major seaports, international airports, and national frontiers.

The same Customs territory may apply to several countries. In this case states form a Customs union which is an international association organized to eliminate customs restrictions on goods exchanged between member nations and to establish a uniform tariff policy toward nonmember nations. For instance, the Russian Federation is a member of the Customs Union of Russia, Belorus and Kazakhstan. It came into effect on January 1, 2010. As a result, customs clearance of goods originating in any of these three states, along with goods that have been imported into one of these three states from other countries and released for free circulation, may be transferred between the three states without undergoing customs clearance and customs control procedures. The member states continued with economic integration and removed all customs borders between each other after July 2011.

Тадқиқот лойиҳаси вазифалари	Талабалар томонидан бажариладиган вазифалар
тадқиқотнинг долзарблиги	
тадқиқот муаммоси	
мавзунинг таҳрири	
предмет, объект	
мақсад, гипотеза	



вазифалар	
тадқиқот усули	
амалий аҳамияти ва янгилиги	
ўрганилган адабиётларнинг қисқача таҳлили	
Тадқиқот лойиҳасининг асосий қисми	1-қисмдаги терминлар
	2-қисмдаги терминлар
	3-қисмдаги терминлар
Хулоса	

Тингловчилар учун “The world customs organization” мавзусида тадқиқот лойиҳаси тавсия этилади ва жадвал ишлаб чиқилади.

The world customs organization. The World Customs Organization (WCO), established as the Customs Cooperation Council (CCC) is an independent intergovernmental body whose mission is to enhance the effectiveness and efficiency of Customs administrations.

In 1947, thirteen European countries established a Study Group to examine customs issues identified by the General Agreement on Tariffs and Trade (GATT). This work led to the adoption in 1948 of the Convention establishing the Customs Co-operation Council (CCC), which was signed in Brussels. On January 26, 1953 the CCC's inaugural session took place with the participation of 17 founding members. WCO membership subsequently expanded to cover all regions of the globe.

In 1994, the organization adopted its current name, the World Customs Organization. Today, WCO members are responsible for customs controls in 179 countries representing more than 98 per cent of all international trade. As the global center of Customs expertise, the WCO is the only international organization with competence in Customs matters.

The WCO's governing body – the Council – relies on the competence and skills of a Secretariat and a range of technical and advisory committees to accomplish its mission. The Secretariat, comprising over 100 international officials, technical experts and support staff of some nationalities. The WCO Secretariat is headed by a Secretary General, who is elected by the WCO membership to a five year term. The vision statement of the WCO is “Borders divide, Customs connects”.

As a forum for dialogue and exchange of experiences between national Customs delegates, the WCO offers its Members a range of Conventions and



other international instruments, as well as technical assistance and training services provided either directly by the Secretariat, or with its participation. The Secretariat also actively supports its Members in their endeavours to modernize and build capacity within their national Customs administrations.

In order to achieve its objectives, the WCO has adopted a number of customs instruments, including but not limited to the following:

The International Convention on the Harmonized Commodity Description and Coding System used as the basis for customs tariffs and for the compilation of international trade statistics. It comprises about 5000 commodity groups, each identified by a six digit code arranged in a legal and logical structure with well-defined rules to achieve uniform classification.

The International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs procedures was originally adopted in 1974. It comprises several key governing principles: transparency and predictability of customs controls; standardization and simplification of the goods declaration and supporting documents; simplified procedures for authorized persons; maximum use of information technology; minimum necessary customs control to ensure compliance with regulations; use of risk management and audit based controls.

ATA Convention and the Convention on Temporary Admission. Both the ATA Convention and the Istanbul Convention are WCO instruments governing temporary admission of goods. The ATA system, which is integral to both Conventions, allows the free movement of goods across frontiers and their temporary admission into a customs territory with relief from duties and taxes. The goods are covered by a single document known as the ATA carnet that is secured by an international guarantee system

Besides the vital role played by the WCO in stimulating the growth of legitimate international trade, its efforts to combat fraudulent activities are also recognized internationally. By promoting the emergence of an honest, transparent and predictable Customs environment, the WCO directly contributes to the economic and social well-being of its Members.

Finally, in an international environment characterized by instability and the ever-present threat of terrorist activity, the WCO's mission to enhance the protection of society and the national territory, and to secure and facilitate international trade, takes on its full meaning.

Тадқиқот лойиҳаси вазифалари	Талабалар томонидан бажариладиган вазифалар
тадқиқотнинг долзарблиги	



тадқиқот муаммоси	
мавзунинг таҳрири	
предмет, объект	
мақсад, гипотеза	
вазифалар	
тадқиқот усули	
амалий аҳамияти ва янгилиги	
ўрганилган адабиётларнинг қисқача таҳлили	
Тадқиқот лойиҳасининг асосий қисми	1-қисмдаги терминлар
	2-қисмдаги терминлар
	3-қисмдаги терминлар
Хулоса	

Замонавий таълим лойиҳаси таълим имкониятлари, тадқиқот ва экспериментни бирлаштиради. Ўқитувчи учун ўқув лойиҳасининг асосий мазмуни таълим олувчининг лойиҳа фаолияти асосида ўзгариши (янги билим, кўникма, муносабат)дир. Талабалар учун эса ўқув лойиҳасини муштақил бажаришдир.

Адабиётлар:

1. Колесникова И. А. Педагогическое проектирование: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений. Электронный ресурс: http://pedlib.ru/Books/3/0212/3_0212-127.shtml. Дата обращения: 11.06.2020.
2. Лекция: «Типы учебных проектов». Электронный ресурс: https://studopedia.ru/10_196385_lectsiya-tipi-uchebnih-proektov.html Дата обращения: 11.06.2020.
3. Метод проектов в обучении: классификация проектов. Электронный ресурс: <https://multiurok.ru/blog/mietod-proiektov-v-obuchienii-klassifikatsiia-proiektov.html>. Дата обращения: 11.06.2020.
4. Образовательное проектирование. Электронный ресурс: https://studme.org/125485/sotsiologiya/obrazovatelnoe_proektirovanie Дата обращения: 11.06.2020.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада божхона соҳасига оид терминларни ўқитишда тадқиқот лойиҳаларидан фойдаланиши таҳлил этилган. Божхона соҳасига оид терминларни ўқитишда тадқиқот лойиҳалар ишланмаси намуна сифатида ишлаб чиқилди.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется использование исследовательских проектов при преподавании терминов, связанных с таможенным делом. В качестве модели была создана разработка исследовательских проектов по преподаванию терминов, связанных с таможенной сферой.

SUMMARY

This article analyzes the use of research projects in teaching of customs related terms. The development of research projects in teaching of terms related to the customs field was developed as a model.



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARINING IQTISODIY MADANIYAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH KOMPOONENTLARI

Botirova M.M.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy madaniyat, komponent, motivatsion komponent, faoliyat komponent, refleksiv komponent

Ключевые слова: экономическая грамотность, экономическая культура, компонент, мотивационный компонент, деятельностный компонент, рефлексивный компонент

Key words: economic literacy, economic culture, component, motivational component, activity component, reflexive component

Jahon miqyosida bo'lajak o'qituvchilarni iqtisodiy savodxonligini shakllantirish, o'quvchilarda tejamkorlik sifatlarini tarbiyalash kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvga asoslangan modellarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassalari talabalarini xalqaro baholash dasturlariga muvofiq matematik va tabiiy fanlar bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga maqsadli tayyorlash, iqtisodiy tejamkor interaktiv dasturiy vositalarni ishlab chiqish malakasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarning adaptiv variantlarini qo'llash asosida iqtisodiy bilimlarni tarkib toptirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish mazkur jarayon komponentlarini ham aniqlashtirishni talab etadi. Mavjud tadqiqotlar tahlili asosida ta'lim oluvchilarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning quyidagi komponentlari yetakchi o'rin tutishini ko'rsatdi.

Motivatsion komponent – bu iqtisodiy masalalarning mazmuni va ahamiyatini, ularning huquqiy normalari va iqtisodiy madaniyatning ma'naviy-axloqiy asoslari bilan o'zaro bog'liqligini anglash bilan belgilanadi.

Kognitiv komponent – iqtisodiy fikrlash va shaxsiy ahamiyatlilikning anglanishi. Jamiyat, davlat, mintaqa va oila iqtisodiy munosabatlaridagi faktlar, tushunchalar, g‘oyalarni tushunish va mulohaza yuritish uchun yetarli iqtisodiy bilimlarga egalik darajasi bilan belgilanadi.

Faoliyat komponenti – hayotiy va kasbiy faoliyatga doir iqtisodiy masalalarni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

Refleksiv komponent – hayotiy va kasbiy faoliyat jarayonida o‘zo‘zining iqtisodiy savodxonligi, tejamkorligi va ish samaradorligini tahlil etish va baholay olish.

Oliy ta‘lim muassasalari uzluksiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, «muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdir. Har bir ma‘ruza, seminar, mustaqil ta‘lim, laboratoriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatning tarkibiy qismlaridan tuzilgan bo‘ladi. Ularni hal qilish esa talabadan ijodiy izlanishni talab etadi. Chunki muammoli holatgacha davr, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham talabadan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishni taqozo etadi. Topshiriqlarni mustaqil bajarish talabalardan tafakkur jarayonlari (analiz, taqqoslash, qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, guruhlash) va shakllaridan (tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan) foydalanishni talab qiladi. Talabalar iqtisodiyotga oid fan asoslarini egallash jarayonida ijodiy mahsulot berish uchun tinimsiz harakat qiladilar. Ularning bilishga, bilim olishga undovchi mayllari turg‘un, mustahkam va barqaror qiziqishga aylana boradi. Jumladan, talabalar tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug‘ullana boshlaydilar. Hatto bu yoshlar, o‘z aqliy mehnati mahsullari bilan olimpiada, ilmiy-amaliy anjumanlarda, ixtirochilar va ratsionalizatorlar konkurs- tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnasha oladilar. Bularning barchasi, tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, moddiy borliqni yanada aniqroq ifodalash, yaratish faoliyatlarida faol qatnashish uchun intilish, muammoli holat va vaziyatlarni hal qilish jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi».

Bo‘lajak iqtisodchilarda analitik tafakkurni rivojlantiruvchi tanqidiy tafakkur uning tayyorlik darajasi, zamonaviy informatsiyalarni muntazam qabul qilish qobiliyati, moslashish emas, balki rivojlanish, yangiliklarni topishga nisbatan psixologik yo‘nalishi barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Bo‘lajak innovator yoshlarning yuksak axloqiy tarbiyasi bilan bir qatorda uning ijodiy madaniyati chinakam gumanistik, fuqarolik jamiyati barpo etishda muhim ma‘naviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday jamiyatda bo‘lganidek, mamlakatimiz taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarini



tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi, muloqot kompetensiyasi kabi xislatlarini tarkib toptirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabanning o‘zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun bo‘lajak iqtisodchining o‘zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo‘rqmay o‘z ustida ishlashi kerak. Shu bilan birga ular o‘zlarida analitik tafakkurni rivojlantirishga individual harakat qilishi zarur. Demak, pirovard maqsad bo‘lajak iqtisodchilarda mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantirish haqida nazariy bilimlar berish, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun, ular bilan yakka holda shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil ishlashi, mustaqil bilim olishlari uchun keng yo‘l ochib berish shu kunning zaruratiga aylanishi kerak.

Zamonaviy ta‘lim tizimi bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kreativ yondashuvlar asosida ijodiy, kasbiy layoqatini tarbiyalash mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan ta‘lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash innovatsiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida kognitiv fikrlash qobiliyatini tarbiyalash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning intellektual resurslarini yaratish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda har bir shaxs dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etishi, yer yuzasidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g‘oyasi, maslak-muddaolarini bilish uchun ham tanqidiy fikr yurita olish davr talabi bo‘lmoqda. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishishi uchun ham har bir inson tanqidiy fikr olishi zarur. Ta‘limning bugungi vazifasi esa talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta‘lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan ongli analitik tafakkuri orqali oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Кучкарова Н. М. Олий таълим муассасаларида талабаларнинг иқтисодий маданиятини ривожлантириш компонентлари // Муғаллим хэм узликсиз билимлендириў. – С. 38.
2. Маманазаров А. Б. Талаба-ёшларнинг иқтисодий маданиятини ривожлантириш жараёнидаги типологик хусусиятлар // Современное образование (Узбекистан). 2017.
3. Kapitonova N. V. universitetning ta‘lim muhitida talabalarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik printsiplari va shartlari // BDU gazetasi. 2010. №15. URL: <https://>



cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-printsipy-i-usloviya-formirovaniya-ekonomicheskoy-kultury-studentov-v-obrazovatelnoy-srede-vuza (дата обращения: 22.12.2023).

4. Nazarova G. A. Current state of development of analytical thinking in future economists // Science and Innovation xalqaro ilmiy jurnali, 2023. – №2. – Б. 724-730. (13.00.00.1/12).

5. Nazarova G. (2021). Methods of directing economics to scientific research activities // current research journal of pedagogics (2767-3278), CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS2(6): June 2021 DOI: <https://doi.org/10.37547/pedagogy-crjp-02-06-18> ISSN 2767-3278 © 2021 Master Journal P. 90-95.

6. Nazarova G. A. (2022). Factors for the Development of Creativity and Critical Thinking in Future Economists Based on Analytical Thinking // Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(5). – P. 70-74.

7. Abdualievich Z. M. students in future teachers' development mechanisms of perceptive skills to increase social activity // International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 43-46.

8. Abdualievich Z. M. Factors affecting the educational environment // journal of education, ethics and value. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 37-39

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada talabalarning iqtisodiy madaniy ko'nikmalarini shakllantirishning komponentlari haqida bilimlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены знания о компонентах формирования экономических и культурных навыков студентов.

SUMMARY

This article describes the knowledge about the components of the formation of students' economic and cultural skills.



6. Gapsalamov, A. R., Bochkareva, T. N., Akhmetshin, E. M., Vasilev, V. L., Anisimova, T. I. (2020). Digital society: new challenges for education. *Periodico tche quimica*, 17(34), 803-816.

7. Morales, D., Ruggiano, C., Carter, C., Pfeifer, K., & Green, K. (2020). Disrupting to Sustain: Teacher Preparation Through Innovative Teaching and Learning Practices. *Journal of Culture and Values in Education*, 3(1), 1-20. <https://doi.org/10.46303/jcve.03.01.1>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Talabalar boshchiligidagi media loyihalar bilan shug'ullanish talabalar uchun texnologiya sohasida yangi ko'nikmalarni rivojlantirish va talabalar uchun texnologiya sohasida yangi ko'nikmalarni rivojlantirish muammo va yechimlari haqida ma'lumotlar berildi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлена информация о проблемах и решениях участия в медиа-проектах под руководством студентов для развития новых технологических навыков у студентов и развития новых технологических навыков у студентов.

SUMMARY

This article provides information on the challenges and solutions of engaging in student-led media projects to develop new technology skills for students and developing new technology skills for students.



TALABALARDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Asliddin I.B.

Andijon davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: anʼanalar, etnomadaniy kompetensiya, ilmiy dunyoqarash, empatiya, millat genofondi, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, odob–axloq, meʼyorlari, tarixiy–milliy manabalar, tolerantlik.

Ключевые слова: традиции, этнокультурная компетентность, научное мировоззрение, эмпатия, генофонд нации, межнациональные отношения, национальная культура, этикет, нормы, историко–национальные ресурсы, толерантность.

Key words: traditions, ethnocultural competence, scientific worldview, empathy, the gene pool of the nation, interethnic relations, national culture, etiquette, norms, historical and national resources, tolerance.

Kirish. Respublikamizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi, talaba yoshlar orasida turli xalqlar madaniyatini oʻrganish millatlaaro totuvlikni yanada mustahkamlaydi. Ularda etnomadaniyatni shakllanishiga zamin yaratadi. Talabalar turli xalqlarning turmush–tarzi, madaniyati va urf–odatlariga xos boʻlgan xususiyatlarini oʻrganish orqali kelajakda oʻquvchilarda milliy gʻurur va iftixorni shakllantirish malakasini egallaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora–tadbirlari toʻgʻrisida”dagi qarorida “taʼlim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota–onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz toʻgʻrisida bilimlarni shakllantirish ularni oʻrganish, saqlash, targʻib qilish, oʻrgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan–avlodga bezavol oʻtib borishini taʼminlash”[2] vazifasi belgilangan. Darhaqiqat, talaba–yoshlarni oliy taʼlim jarayonida kasbiy faoliyatga ham maʼnaviy ham pedagogik jihatdan tayyorlash muhim sanaladi. Ayniqsa ularda milliy maʼnaviyatimiz, xalqimizning asriy maʼnaviy merosi haqidagi bilim va tasavvurlarini mustahkamlash dolzarb hisoblanadi. Oʻquv–tarbiyaviy jarayonlarda talabalarga etnik yaʼni milliy tarbiyaga asoslangan yondashuvlar

amalg oshirish maqsadga muvofiq. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4–moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf–odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [1]–deb ko‘rsatilgan, demak har bir fuqaroni milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish masalasi ta‘minlangan. Shunday ekan, talabalarni ham o‘z millatining qadriyatlarini va an‘analariga sadoqatli qilib tarbiyalash orqali etnokompetensiya shakllanishiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunining 4–moddasida “Ta‘lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi”[3] tamoyili keltirilgan. Qonunda ko‘zlangan maqsad ham yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirishdan iborat. Oliy ta‘lim potentsiali jamiyat talablarini bajara oladigan darajada tashkil etilishi zarur. Asosan o‘quv–tarbiyaviy jarayonlar, auditoridan tashqari vaqtlarda talabalarga mamlakatimizning ijtimoiy–madaniy sohadagi taraqqiyotini ta‘minlash hamda millatlararo birdamlik, ijtimoiy nizolarni oldini olishi, milliy madaniyat va turli konvensiyalar o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash borasidagi siyosati haqida ma‘lumotlar beriladi. “Pedagogika va psixologiya” ta‘lim yo‘nalishida “Etnopedagogika” fani mazmunida ham bevosita biz tadqiq qilayotgan muammo hal etilishiga erishildi. Tajriba-sinov ishlarimiz 4-bosqich talabalari bilan “Etnopedagogikada milliy urf–odatlar, an‘analar, udumlar, marosimlar tarbiya vosita sifatida”, “Etnopedagogikada komil inson tarbiyasi” kabi mavzularida dars mashg‘ulotlari olib borildi. Mavzular mazmuniga milliy tarbiyaning muhim jihatlari, umuminsoniy qadriyatlar, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda etnomadaniyatga rioya qilish kabi masalalar yoritildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Qator olim hamda tadqiqotchilar madaniyat nazariyasi va oliy ta‘limda talabalarda etnomadaniy kompetensiya shakllantirish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Ular har bir millatga xos yondashuvlarni nafaqat maktablarda balki, oliy ta‘lim muassasalarida ham tatbiq etish zarurligini tavsiya etgan. Bu borada mamlakatimizda va xorijdagi tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda tadqiqot muammosiga doir qator olimlarining izlanishlarini tahlil qildik. Xususan Grant[5], S. K.Sliter[8], J.Gey[4], S.Nito[7] kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘quv reja va ta‘lim mazmuniga milliy madaniyat, talabalar orasida sog‘lom muhit yaratishni singdirish, talaba–yoshlarning psixik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘lim jarayonini tashkil etish lozimligi tavsiya etilgan.

L.Spenser, S. Spenserlar jamiyat taraqqiyotida har bir kasb egasidagi kompetensiyaning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslagan va ularni olti guruhga



ajratgan (psixomotor, daliliy bilimlar, shaxslararo, intellektual–kognitiv, motivatsion) Talabalarda etnokompetensiyani shakllantirish orqali kasbiy motivatsiyani uyg‘otish va qiziqishini oshirishga erishiladi. Natijada ularda kelgusi pedagogik faoliyatga intilish va tayyorgarlik ko‘rish zarurati paydo bo‘ladi.[9]

Nemis olimi D.Glovka o‘zga millat madaniyatini o‘rganish orqali millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmatga erishish mumkinligi haqida ilmiy g‘oyani ilgari surgan hamda multimadaniyat tushunchasi, maqsad va vazifasini asoslab bergan Mamlakatning ijtimoiy–siyosiy mavqei bevosita millatlaro o‘zaro birdamlik bilan belgilanadi. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning tub mohiyati ham shundan iborat.[6]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hozirgi vaqtda talabalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishni yangi bosqichda ekanligini ko‘rsatmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri islohatlar ta‘lim jarayonida milliylikga qarshi harakatlarga olib borish havfini ortirmoqda. Natijada islohatlar talabalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda muhim elementiga e‘tibor qaratishni muhim ekanligini ko‘rsatib berdi. Shu maqsadda biz tadqiqotimiz davomida pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 4–bosqich talabalari bilan “Etnopedagogika” o‘quv fanini o‘qitishda tatbiq etilgan “Empatiya“ metodi joriy etildi.

“Etnopedagogikada komil inson tarbiyasi” mavzusida “Empatiya” metodi amaliyotga joriy etildi.

Maqsad: Talabalarga tarbiyaviy ishlarning umuminsoniy omillari haqida ma‘lumot berish. Umuminsoniy qadriyatlar negizini etnomadaniyat tashkil etishini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: proyektor, ekran, kompyuter, viderolik.

Darsning borishi. Talabalar 4–5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi.

O‘qituvchi talablarga empatiya haqida qisqacha ma‘lumot beradi.

Empatiya–ko‘pchilik yodidan chiqarib yuboradigan asosiy insoniy xususiyat. Bu boshqa odamning kechinmalarini his eta bilishdir. Empatiya o‘zgalar ongi va hissiyotini o‘qiy olish yoki uni bevosita his qila olish qobiliyatidir. Empatiya simpatiya kabi o‘zgaga yaxshilik qilish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin, ammo u o‘zgaga yomonlik qilishdan tiyilish uchun kerak. Insonlarning ijtimoiylashuvi, o‘zaro hamkorligi ularning yashab qolishi uchun bevosita yo‘l bo‘lsa, empatiya ana shu yo‘ldan ketuvchilarning birligini ta‘minlaydigan zehniy vosita. Empatiya avlodni, tug‘ishganlarni himoya qilish, genetik bardavomlikni ta‘minlash uchun shakllangan evolyutsion mexanizmlardan biridir.

Guruhlariga topshiriq: O‘qituvchi kichik guruhlariga turli millat vakillari (o‘zbek, tojik, qirg‘iz, rus, koreys)ning hissiyotlari ifodalangan syujetli rasmlar



tarqadi. Rasmga qarab millat vakillarining o'ziga xos kayfiyati yoki fe'l-atvorini sahna ko'rinishi shaklida ifodalab berishlarini taklif qiladi. Vaqt belgilanadi.

Guruhlar taqdimoti. Talabalar sahna ko'rinishini namoyish qiladi. Har bir guruh tanlagan millat vakillarini kayfiyati, hissiyotlarini ko'rsatib beradi. So'ngra o'qituvchi bilan muhokama qilinadi.

O'qituvchi tarbiyaviy ishlarning umuminsoniy omillari xususida qisqacha ma'lumot beradi. Umuminsoniy omillari qadriyatlar va ularni insonlarni tinchlik–totuvlikka, mehr–oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi.

Milliy va diniy qadriyatlarimizda ota–onaning qadr–qimmatini ko'klarga ko'tarish. Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal–azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar avlodan–avlodga o'tib kelmoqda. Sizlar bo'lajak pedagog–psixolog sifatida o'quvchilar ongiga yuqorida keltirilgan omillarni singdirish zarur.

Darsning yakuni. O'qituvchi empatiya metodi orqali har qanday insonni yoki boshqa millat vakillarini ruhiy holatini his qilishi, ularga ma'nau va jismonan ko'mak berish insonlarga xos qadriyat ekanligi bilan xulosa chiqaradi.


Uyga vazifa: Ixtiyoriy ravishda xoxlagan millatning etnomadaniyatiga xos peyzaj yoki milliy ish qurolini chizish yoki yasab kelish, esse yozish topshirig'i beriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tajriba–sinov natijalari asosida talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik jihatlarini uni quyidagi rasmga keltiramiz (1–rasmga qarang).

Millat genofondini saqlashga o'rgatish mohiyati shundaki, har bir elat va millatning kelajagini o'ylash va uning rivojlanishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Unda talabalar ongiga millat va uning tarixiy taraqqiyotini bilish, uning an'analari, urf – odat va qadriyatlarini asrash va kelgusi avlodga yetkazish muhim vazifa ekanligini singdirish.

Milliy madaniyatni davom ettirish, maktab o'quvchilariga xalq amaliy san'ati, duradkorlik, kashtachilik, do'ppichilik, kulolchilik, o'zbek milliy kiyimlari tarixi va uni o'rganish bo'yicha ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq.

Tarixiy–milliy manabalarini asrash deganda talabalar o'zi tug'ilib o'sgan hududdagi, mamlakatimizdagi tarixiy joylar, muzey va obidalar bilan virtual yoki



1–rasm. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik jihatlari

vizual tanishadi. Ularning milliy boylik ekanligini his qiladi. Kelgusi pedagogik faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliy meros va uni asrab avaylashga o'rgatadi.

O'quvchi shaxsi va huquqini hurmat qilish bo'lajak pedagog–psixolog sifatida talabalar o'quvchilarning qonuniy huquqlari, fuqarolik burchi, ma'suliyatini bilishi va ularga amal qilish lozimligini uqtiradi.

Odob–axloq me'yorlariga rioya qilish–tarbiya metodlarini bilish, o'zbekona odob–axloq sifatlarini egallash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, muhtojlarga yordam berish, tabiatni asrash va uni boyitishga hissa qo'shish kabilar o'rgatiladi.

Boshqa xalqlarning an'analari va madaniyatiga hurmatda bo'lish ma'lumki mamlakatimizda turli millat vakillari yashaydi. Millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an'ana va urf–odatlarini o'zaro hurmat qilish, ularning milliy bayramlari, taomlari, kiyimlari o'zgachaligi bilan ajralib turishini anglash muhim. O'quvchilarga yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida millatlararo totuvlik g'oyasini singdiradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish shaxs kamolotidagi eng muhim omil sanaladi. Talabalar millatlarning yuzaga kelishi, ularning taraqqiyot bosqichlari, tarixiy qahramonlari millat rivoji haqida ilmiy bilimlarga va tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish–mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir. So'nggi yillarda davlatimiz siyosatining ustuvor



yo'nalishlaridan biri jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy–ma'rifiy aloqalarni kengaytirish davr talabi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyov tomonidan "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[10]gi farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf–odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy–iqtisodiy shart–sharoitlar yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, millatlar hamda elatlarning vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishni ko'zda tutiladi.

Tolerantlik millatlararo bag'rikenglik–fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo'lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lmagan nuqtai nazarlariga, dinlari, urf–odatlari, an'analari va madaniyatiga nisbatan murosai–madorada namoyon bo'ladi.

Sanab o'tilgan pedagogik jihatlar talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotimizda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning yana muhim omillaridan biri tilni mukkamal o'zlashtirishdir. Ya'ni talabalar nafaqat o'zbek tili balki xoxlagan boshqa xorijiy yoki boshqa millat tillarni o'rganishi mumkin. Til etnik madaniyatni ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qilishi bilan birga, o'z xalqining madaniyatini anglashga ham yordam beradi. Talabaning o'z tilini bilishi, millat madaniyatini rivojlantirish va asrash shuningdek xalqining taqdirini ham namoyon qiladi. O'z navbatida mamlakatimizdagi xoxlagan tilda o'qish va so'zlashish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida keltirilgan metod vositasida talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishga bir muncha erishildi. Eksperimentator o'qituvchilar respondent talabalarni individual xususiyati, ular shaxsini hurmat qilgan holda, huquqi va erkinligini ta'minlash asosida tajriba ishlarini olib bordi. Asosan talabaning shaxsiy imkoniyatlari, ularni ichki faolligini rivojlantirish e'tiborga olindi.

Yuqorida pedagogik jihatlar o'quvchilarning etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan va ularni global jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashda yordam bera oladigan amaliy uslublardir.



Har bir talabanning shaxsiy etnik jihatlarini o'rganish va boshqalar bilan o'zaro ta'sirlashish yordamida, ularga boshqa madaniyatlar va fikrlar bilan atrofidagi dunyoni tushunish va tajriba qilish imkoniyatini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi. T.: 2019 yil 31 dekabr, 1059-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. T.: 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son.
4. Gay, G. Culturally responsive teaching: Theory, research and practice, New York: Teachers College Press, 2000.–199 p.
5. Grant C. Multicultural education: Commitments, issues, and applications, Washington, DC: Association for Supervision and Curriculum Development, 1977. – 213 p.
6. Гловка Д., Новиков Л. Сравнительная педагогика инструмент сотрудничества между Востоком и Западом//Советская педагогика, 1991. №6. С.126–134.
7. Nieto, S. Affirming diversity: The sociopolitical context of multicultural education, New York: Longman, 2000. – 354 p]
8. Sleeter, C.E. Multicultural education as social activism: State University of New York Press, New York, 1996.– 368 p]
9. Спенсер Л., Спенсер С. Компетенсии на работе. Издательство: Гиппо, 2010–384 с].
10. Sh.Mirziyov. "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi.T.: PF-5876-son

РЕЗИОМЕ

Maqolada talabalarda etnomadaniy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik jihatlarini pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalarida etopedagogika fanini o'qitishda "empatiya" metodini o'tkazish orqali yoritib berishni maqsad qilib qo'yidik. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ta'lim islohatlari tub zamirida milliylikni saqlagan holatda amalyotga joriy etish muammolarini hal etishda, biz yoritib bergan jihatlardan muhim elementlar sifatida foydalanish mumkin. Bu esa nazariy muammolarni hal qilishda amaliy yordam tariqasida ilmiy izlanuvchilarga dasturi–amal . bo'lib xizmat qiladi.

РЕЗИОМЕ

В статье мы поставили цель осветить педагогические аспекты формирования этнокультурной компетентности учащихся путем проведения метода "сопереживания" в обучении этнопедагогике студентов 4-го этапа образовательного направления педагогика и психология. В настоящее время образовательные реформы в нашей стране могут быть использованы в качестве важных элементов при решении проблем внедрения в практику в условиях сохранения национального самосознания. Это программа–практика для научных исследователей в качестве практической помощи в решении теоретических задач. служит.

SUMMARY

In the article, we aim to highlight the pedagogical aspects of the formation of students' ethno-cultural competence by using the "empathy" method when teaching ethnopedagogy to students of the 4th stage of the educational direction «pedagogy and psychology». Currently, educational reforms in our country can be used as important elements in solving the problems of implementation in practice in conditions of preserving national identity. This is a practical program for scientific researchers as a practical guide in solving theoretical problems, serves.



TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATIDA O‘QUVCHILAR MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARINI STEAM-TA’LIM VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Muhammetsaidov B.K., Daminova R.B.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Pardaboyev J.E.

Yangi asr Universiteti

Tayanch so‘zlar: STEAM-ta’lim, ijodiy faoliyat, muhandislik ko‘nikmasi, mexanizm, transformatsion, axborotlarni yig‘ish, texnik modellashtirish.

Ключевые слова: STEAM-образования, творческая деятельность, инженерные навыки, механизм, трансформация, сбор данных, техническое моделирование.

Key words: STEAM education, creative activity, engineering skills, mechanism, transformation, data collection, technical modeling.

Hozirgi bosqichda yangi ishlab chiqarish jarayonlarini keng joriy etish yosh muhandislar, texniklar, ishchilardan yuqori intellektual rivojlanishni, ishlab chiqarishning ilmiy, texnik, iqtisodiy asoslarini chuqur bilishni, mehnatga ongli ijodiy munosabatni talab qiladi.

Bugungi kunda qo‘shimcha ta’lim nafaqat shaxsni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida, iqtisodiyotining mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ham ko‘rib chiqilmoqda. Muhimi, tizimli ishlab chiqarish ishlarida barcha o‘quvchilar bevosita ishtirok etishlari zarur.

Ta’lim va o‘qitish jarayonida o‘quvchilar zamonaviy sanoat, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish asoslari, qurilish, transport, xizmat ko‘rsatish sohalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, zarur ko‘nikma va qobiliyatlarni, u yoki bu kasbga qiziqishni rivojlantirishlari zarur. O‘quvchilar kasbni maqsadli tanlash va o‘rta maktabni tamomlash paytida uzluksiz ta’lim olishlari uchun maktabdan tashqari tegishli o‘quv muassasasiga jalb qilish ishlari zarur, chunki darsdan tashqari mashg‘ulotlar ularning kasb tanlashida muhim rol o‘ynaydi. Bunday faoliyatning mazmuni, -yo‘nalishi, uning tashkiliy shakllari va usullari eng muhim ahamiyatga ega. Shuni yodda tutish kerakki, o‘quvchilarning texnik



ijodidagi yangilik subyektivdir. O'quvchilar ko'pincha ixtiro qilingan va ishlab chiqarilgan mahsulotni yaratishadi. Ijodiy faollik o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarni yoshligidan boshlab ijodiy faoliyatga jalb etish, qiziquvchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligi, xotira, o'z-o'zini baholash, idrokning rivojlanishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Yosh o'tgan sayin bu sifatlar mustahkamlanib, takomillashib boradi va shaxsiyatining ajralmas xususiyatlariga aylanadi.

Ijodiy faoliyatning muhim omili ijodiy jarayonning uzluksizligidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, epizodik ijodiy faoliyat samarasiz. Bu ma'lum bir ishni bajarishga qiziqishni uyg'otish, ish paytida kognitiv faollikni oshirish va hatto muammoli vaziyatning paydo bo'lishiga hissa qo'shishi mumkin. Biroq epizodik ijodiy faoliyat hech qachon kasb va mehnatga barqaror ijodiy munosabatni, ixtiro va ratsionalizatorlikni, eksperimental tadqiqot ishlarini, shu bilan birga, shaxsning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga bo'lgan intilishni rag'batlantirmaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, butun yil davomida doimiy, tizimli ijodiy faoliyat ijodiy ishlarga barqaror qiziqishni rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'quvchilarning texnik ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadlarini belgilashga hizmat qiladi.

STEAM-ta'lim nafaqat kasbiy tayyorlanishni va o'quvchilarning qobiliyatni rivojlantirishni maqsad qiladi shu bilan birga turli fanlar bo'yicha individual ravishda, ishlash qobiliyati va ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. STEAM-ta'limi asosida o'qitish quyidagilarga imkon beradi:

- tabiiy va kundalik hayot hamda tabiatni tushunish va qadrlash
- tevarak atrof va koinotni tushunish;
- axborotlar va ma'lumotlarni izohlash hamda tahlil qilish;
- tadqiqot va tanqidiy so'rov - g'oyalarni ishlab chiqish va sinash;
- muammolarni hal qilish va vaziyatni baholash;
- tajriba, yangi bilimlar, g'oyalar va mahsulotlarni kashf etish;
- turli xil fanlar va fanlar bo'yicha o'zaro aloqadorlikda ishlash;
- ijodkorlik va innovatsiya - yangi mahsulotlar va yondashuvlarni shakllantirish.

Bularning barchasi dunyoning o'zgaruvchan va texnologik yo'nalishida muvaffaqiyatga erishish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular bizga o'quvchilarning faol shaxslar sifatida rivojlanishiga yordam beradi va jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega.

Rejalashtirilgan o'quv natijalariga erishishga imkon beradigan STEAM-ta'limining texnologik tarkibiy qismi loyihaviy o'qitish texnologiyasidir. Har qanday texnologiya singari, loyihaviy o'qitish ham ma'lum xususiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Biroq, STEAM-ta'limidagi loyihalar STEAM-tayexnologiyalar deb atash mumkin bo'lgan loyihalarning paydo bo'lishi haqida gapirishga imkon beradi.

STEAM-ta'limning asosiy xususiyatlarining tavsifiga o'tamiz:

1. STEAM-ta'lim ma'lum bir pedagogik maqsad uchun ishlab chiqiladi. STEAM-ta'lim zamonaviy fan-texnika sanoat mahsulotini yoki uning turli xil fan sohalari yoki turli fanlaridan olingan bilimlarga asoslangan prototipini yaratishga qaratilgan.

2. STEAM-ta'lim texnologiyasi ma'lum texnik bosqichlarga muvofiq qurilib muayyan harakatlar algoritmini o'z ichiga oladi. STEAM-ta'limni ishlab chiqish bo'yicha dars turli mavzularga oid loyiha uchun zarur bo'lgan bilimlarni yangilashdan boshlanadi. Keyin brifing beriladi va yakunida o'quvchilar zamonaviy sanoatning real mahsulotlarining prototiplarini ishlab chiqish, yaratish va sinovdan o'tkazish bilan shug'ullandi.

3. STEAM-ta'lim rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

STEAM-ta'limni ishlab chiqish standart loyihalarni ishlab chiqish ketma-ketligiga o'xshash bir necha bosqichda, ammo shunga qaramay, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

1. O'quvchilarga STEAM-ta'limning maqsad va vazifalarini belgilashni o'rgatish.

2. STEAM-ta'limni ishlab chiqish.

3. Zamonaviy sanoat mahsulotini yoki uning prototipini loyihalash yoki modellashtirish.

4. Olingan mahsulotni sinab ko'rish.

5. Tugallangan STEAM-ta'limni muhokama qilish.

Quyida STEAM-ta'lim asosida mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda ijodiy tadqiqod ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini qarab chiqamiz.

STEAM ta'lim mashg'ulot ishlanmasi.

O'quvchilarga robototexnikani uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida o'rgatish, odatda, konstruktorlik yordamida amalga oshiriladi. Robot dizaynlar, mexanik qismlar, datchiklar, dasturlashtiriladigan birlik, aktuatorlardan iborat. Ushbu tarkibiy qismlardan to'garaklarda o'quvchilar robot, mashinalarning prototiplarini, turli xil qurilmalarni va boshqa texnik vositalarni yasay olishi mumkin.(2.3-rasm)



1-rasm. Robototexnik
konstruksiya



2-rasm. Robototexnik
konstruksiya

Modellar o‘quvchi dizaynerlar tomonidan yaratiladi. Korpus va yasalgan qurilmalar texnologiya yordamida amalga oshiriladi: 3D bosib chiqarish, lazerli kesish, quyish va h.k. Bunda mikrokontroller yoki mini-kompyuterni boshqaruv masalasi bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda “Arduino yarim chili” platformasi elektronika va robototexnika ta’lim dasturidan foydalanish imkonini beradi. (2-rasm)

Majmuada analog va raqamli kirish-chiqish portlari mavjud bo‘lib, ularga qurilmalarni ulashga imkon beradi: tugmalar, sensorlar, motorlar va boshqalar bilan ishlashda platforma o‘quvchilardan elektrotexnika va elektronikaga oid bilimlarni talab qiladi.

Robot yoki boshqa qurilmani prototiplash dizayni, montaj, dasturlashni o‘z ichiga oladi. Masalan, dasturlashni o‘rganayotganda robotni yig‘ish bosqichi o‘tkazib yuborilishi mumkin va o‘quvchi tayyor robot modeli bilan ta’minlanadi.

STEAM-ta’lim mashg‘uloti turli fanlar integratsiyasini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Masalan texnologiya fanini fizika fani bilan integratsiyasini amaliy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Mavzu: Kundalik hayot va robotlarni loyihalashda og‘irlik kuchidan foydalanish qoidasini o‘rganish.

Mavzu	Kundalik hayot va robotlarni loyihalashda og‘irlik kuchidan foydalanish qoidasi
Darsning maqsadi	Olamning tuzilishi va ularni bilishning ahamiyati haqida ilmiy bilimlarning mohiyatini shakllantirish. Inson faoliyati va hayot tarzini anglashga o‘rgatish.
Pedagogning vazifasi	Mehnatga hurmatni shakllantirish, <ul style="list-style-type: none"> ● Mehnat ahliga hurmat va xayrihohlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish; Hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish; <ul style="list-style-type: none"> ● yangi bilimlarga va yangi harakat usullariga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish; ● keyingi ta’lim faoliyati uchun motivatsion asosni ishlab chiqish.



O'quvchilar vazifasi	g'oyalarni ilgari surish, «qadimgi quruvchilarning tosh bloklarini qanday ko'tar» ganligini izoxlash o'qituvchi bilan hamkorlikda kuzatuv va tajriba o'tkazish; ilmiy-tadqiqot faoliyati davomida sabab-oqibat munosabatlarini o'rganish; faoliyat maqsadini belgilash, maqsadga erishish; ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish; atrofdagi narsalar va asboblardan foydalanish
----------------------	---


O'quv faoliyati uchun motivatsiya

O'quvchilarga motivatsiya berish orqali ta'lim makoniga ongli ravishda kirib borishni (**men xohlayman + bajarish mumkin**) ta'minlash.

XEOPS piramidasining rasmlarini namoyish etiladi va interfaol doskada tosh bloklarning o'lchamlari, uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot beriladi. Keyin kran va ekskavatorning rasmlari ko'rsatiladi.

1-rasm

A)




B)





O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
O'qituvchi savol beradi: Qadimgi quruvchilarda bunday mashinalar bo'lganmi?	O'quvchilar javob berishadi: Yo'q, u paytlarda bunday mashinalar yo'q edi, barcha ishlar qo'l bilan qilingan.
O'qituvchi yana savol beradi: Agar yo'q bo'lsa, qanday qilib ular piramidalarga ulkan tosh bloklarini qo'yishga muvaffaq bo'lishdi?	O'quvchilar javob berishadi: biz bilmaymiz, lekin bilishni xohlaymiz.
O'qituvchi yana savol beradi: qadimgi quruvchilar piramidaning bloklarini ko'l kuchi yordamida ko'tarishi mumkinmi va inshootlarni yana qanday yo'llar bilan qurish mumkin?	O'quvchilar javob berishadi: bloklar juda og'ir, biz ularni shu tarzda ko'tarish mumkinligiga shubha qilamiz.
O'qituvchi o'quvchilarning tahminlarini sinab ko'rish uchun tadqiqot o'tkazishni taklif qiladi.	O'quvchilar o'zlari bilmagan vazn muvozanatining muhim qoidasi mavjudligini tushunadi.
O'qituvchi tomonidan ilgari to'plangan tarozilarni (dastlab prototipi) va turli og'irlikdagi yuklar to'plamini har bir guruhga tarqatadi.	O'quvchilar turli og'irlikdagi yuklar to'plami bilan ishlaydi
O'qituvchi yana savol beradi: yukning og'irligi bir xil, nima uchun tarozilar muvozanatlanmaydi? Bir xil yuklarni sinfda turli xil masofalarga osib qo'ygan holda ularni muvozanatlashni taklif qiladi. Agar yuklar faqat bir xil masofada to'xtatilgan bo'lsa, u xolda ular muvozanatda bo'ladi.	Bir xil yuklarni sinfda turli xil masofalarga osib qo'ygan holda ularni muvozanatlashga harakat qiladi.

<p>Darsning maqsadini aniqlashtirish - bu yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish, maqsadni amalga oshirishga qaratilgan kelajakdagi mashg'ulotlar uchun loyihani yaratish. (Maqsad. Yangi harakat usulini qanday yaratish kerak?) O'qituvchi darsning maqsadini aniqlab beradi: og'irliklar muvozanatining notanish xususiyatlari va xossalarini, uni qanday qo'llashni o'rgatadi. O'quvchilarga yangi qoidani o'rganish uchun kitoblar, filmlar yoki internetda foydalanish va keyin tarozida topilgan natijalarni tekshirishni tavsiya qiladi.</p>	<p>Konstruksiyalangan loyihani amalga oshiradi. Yangi bilimlarni (standartlarni) egallash va mustahkamlash uchun o'quvchilar tomonidan yangi ish tartibini o'zlashtirish talab etiladi.</p>
	<p>Amaliyotda masofani o'lchab, jadvalni to'ldirish orqali tekshiradi.</p>
<p>Piramidalar haqidagi savolga qaytamiz. O'qituvchi savol beradi: Agar yo'q bo'lsa, qanday qilib ular piramidalarga ulkan tosh bloklarini qo'yishga muvaffaq bo'lishdi?</p>	<p>O'quvchilar bunday blokni ko'tarish uchun uzun tutqich kerakligini aytadilar.</p>

Interfaol doskada biz kuchni, yukni va kuchlanish nuqtasini aniqlash uchun robotlar harakatini amalga oshiruvchi monipulyator (tirsak) vazifasini tahlil qilamiz, natijada laboratoriya ishini bajarishning to'g'riligi tekshiriladi va standart bilan taqqoslanadi.

Bilimlar va harakat usullarini integratsiyalash.

Mustaqil ravishda yangi turdagi vazifalarni bajarish va o'z-o'zini sinovdan o'tkazish, bosqichma-bosqich taqqoslash (o'zini boshqarish va assimilyatsiyaning o'zini o'zi baholash + muvaffaqiyat holatini boshdan kechirish).

Interfaol doskada taqdim etilgan vositalardan foydalanib, o'quvchilar qo'l monipulyator (tirsak) qoidasi qayerda qo'llanilishini aniqlaydilar. Bajarilgan



ishning to'g'riligi tekshiriladi va turli belgilar bilan ifodalanadi (yashil / qizil belgilar).

Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash. Yangi bilimlarni amalda qo'llash chegaralarini aniqlash va yangi harakatlar usulida bajariladigan vazifalarni bajarish.

Oraliq bosqich (ilova) sifatida taqdim etiladi.

Shu vaqt oralig'ida qo'l qoidasini (harakatlanuvchi va tosh bloklar, eshiklar, muruvat va boshqalarda) qo'llash variantlarini ko'rib chiqamiz.

O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga o'quvchilar o'yin maydonchasining elementini konstruksiyalash taklif etiladi, unda oddiy mexanizm qo'llaniladi.

Dars faoliyati

O'quvchilar o'zlarining o'quv faoliyatini tahlil qiladilar va baholaydilar.

Barcha ishlar bitta (o'qituvchi) stoliga o'rnatish orqali birlashtiriladi.

O'quvchilar darsdan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar, jummalarni to'ldiradilar:

Bugun bildim ...

Men hayron bo'ldim ...

Menga qiyin bo'ldi

Menga dars juda yoqdi

Men ushbu bilimlarni kundalik hayotda ko'pgina vaziyatda, maktabda foydalanishim mumkin, degan fikrlarni bildiradilar.

STEAM-ta'limni fanning turli sohalarida qo'llash mumkin, ammo Respublikamizda maktabdan tashqari faoliyatda o'quvchilar orasida robototexnika, mexatronika va muhandislik to'garaklarining tashkil etilishi, STEAM-ta'limni amalga oshirish imkonini yaratdi. Ta'lim robototexnikasi texnologiya fanini o'rganishda samaraliroq bo'lib, STEAM-ta'lim tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi. Robotlar konstruksiyalardan foydalanish va yig'ishda o'quvchilar fizika, texnologiya, matematika, kibernetika, AKT va boshqa fanlar bo'yicha bilimlarni umumlashtirib, innovatsion ilmiy-texnik ijodkorlik jarayoniga jalb etiladi. Bugungi kunda robototexnika ilmiy texnologiyalarni ommalashtirish va muhandislik ixtisosliklarining nufuzini oshirishda muvaffaqiyat qozonmoqda. Zamonaviy qo'shimcha ta'lim muassasalari va maktablarida robototexnika bo'yicha o'qitish shartli ravishda uch qismga bo'linishi mumkin: boshlang'ich, o'rta va yuqori. Ushbu mavzuni o'rganish va har qanday maktabda robotlarning rivojlanishini dasturlashtiriladigan qurilmalarni o'z ichiga olgan maxsus dizaynerlardan foydalanishga asoslangan.

**Адабиётлар:**

1. Muxammadsaidov B.K., Pardabayev J.E., Daminova R.B. Robototexnika o'rganishda haraktli mexanizmlarni loyihalash // "Maktab va hayot". Ilmiy-metodik jurnal № 3 / Toshkent. 2021. – B. 22-24.
2. Pardaboyev J.E. Robototexnika texnik ijodkorlikni rivojlantirishning inovatsion yo'nalishi// "Maktab va hayot". Ilmiy-metodik jurnal № 8 / Toshkent. 2020. – B. 30-32.
3. Pardaboyev J.E. Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishda STEAM-ta'lim texnologiyasi // "Xalq ta'limi". -Toshkent. 2021. № 2. B. 85-88.
4. Muxammadsaidov B.K., Pardabaev J.E., Daminova R.B. Technology to develop students' technical thinking in technology classes// In volume 10, of World Bulletin of Social Sciences (WBSS), May, 2022
5. Pardabaev J.E. "STEAM" - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students" // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar texnik ijodkorlik faoliyatida muhandislik kompetensiyalarini STEAM-ta'lim vositasida rivojlantirish, ta'limning inovatsion texnologiyalari robototexnika, modellashirish, konstruksiyalashtirish, muhandislik ko'nikmasini shakllantirish to'g'risida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет о развитии инженерных компетенций в технической творческой деятельности учащихся на внеклассных занятиях средствами STEAM-образования, инновационных образовательных технологиях робототехника, моделирование, конструирование, формирование инженерных навыков.

SUMMARY

This article deals with the development of engineering competencies in the technical creative activities of students in extracurricular activities by means of STEAM education, innovative educational technologies robotics, modeling, design, and the formation of engineering skills.



BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING USLUBIY ASOSLARI

Mahmudova S. A

*Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamenti raisi o‘rinbosari*

Tayanch so‘zlar: musiqa darsi, pedagogik metodlar, ko‘nikma, malaka, innovatsion ta’lim.

Ключевые слова: Урок музыки, педагогические методы, умения, навыки, инновационное воспитание.

Key words: Music lesson, pedagogical methods, skills, qualifications, innovative education.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta’lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta’lim tizimida pedagog - kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko‘tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o‘qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida talimga ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga yo‘naltirishning ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali talim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan bolib, ta’limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo‘lib turibdi.

Umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida Respublikamizda o‘sib kelayotgan yoshlarning madaniy, ma’naviy va estetik komolotiga erishishi asosiy o‘rin tutadi. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari aynan ularni badiiy tafakkuri, estetik didi, madaniy saviyasini birinchi navbatda shakllantirishni talab etadi bu vazifani amalga oshirmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalaridagi taraqqiyotni to‘la-to‘kis ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyat kompetentligini tashkil etishda musiqa san’ati va pedagogikaning integratsiyalashuvi bo‘lgan uning kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to‘liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator (musiqa pedagogikasi, amaliy va nazariy,

uslubiy, dirijor, vokal-xor, cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ta‘lim) komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo‘lgan bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarini o‘rganish uchun integral yondoshuv zarur. Pedagogik oliy ta‘limda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, talim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy tayyorgarlik haqida ham shunday deyish mumkin-ki, undagi o‘zgarishlar, jamiyatning rivojlanishi, ta‘lim tizimini rivojlantirayotgan sharoitlar bilan bog‘liq.

“Musiqa madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg‘or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag‘batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o‘quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy va ma‘rifiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning yangicha va samarali ish sirlari tajribalarini o‘rganish;
2. Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to‘sqinlik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo‘llarini izlash;
3. Tajribali o‘qituvchilarning darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalarini qo‘llab o‘tish borasidagi o‘ziga xos usullari, ularni farqli va o‘xshash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o‘z faoliyatida tadbiq etishga o‘rganish.

Ta‘limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta‘sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Musiqiy ta‘limning ko‘p darajali tizimi o‘quv jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning rolini, talabalar va talabalarning ijodiy va tadqiqot faoliyatining ahamiyatini oshiradi. Shunday qilib, so‘nggi yillarda zamonaviy musiqiy pedagogikada musiqiy va pedagogik ta‘lim sohasidagi innovatsion jarayonlarni ilmiy tushunishga, shuningdek pedagogik pedagogikaga alohida o‘rin berildi.



Vaqt sinovidan o'tgan, eng samarali mahalliy ishlanmalar va xorijiy tajribani birlashtirgan texnologiyalar. Ushbu jarayon ko'p tomonlama maxsus va yaxlit ilmiy yoritishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik ta'lim texnologiyalarini, musiqiy obrazning ko'p darajali tizimidagi innovatsion loyihalarni har tomonlama o'rganishga etarlicha e'tibor bermaslik ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi hozirgi bosqichda mintaqada musiqiy ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish, bolalar va yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlarining o'zgarishiga moslashuvchan va tezkor javob berish zarurati bilan bog'liq.

XXI asr pedagogikasining yangi haqiqatlari musiqachi-tadqiqotchilar oldida yangi vazifalarni ham ilgari surmoqda:

- zamonaviy musiqiy ta'limning asosiy qonuniyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash;
- yetakchi musiqachi-o'qituvchilarning amaliy va nazariy tajribasini umumlashtirish, o'z ahamiyatini yo'qotmagan musiqiy pedagogikaning an'anaviy usullarini mustahkamlash;
- innovatsion jarayonlarni ilmiy tushunish, musiqiy va pedagogik ta'lim sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarni tahlil qilish;
- musiqiy ta'limning turli sohalarida amaliyotchi o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida o'quv qo'llanmalarini yaratish.

Innovatsion jarayonlarni ilmiy tushunish yigirmanchi asrning birinchi o'n yilliklaridan, «innovatsiya», «innovatsiya» atamaları fanning turli sohalarida paydo bo'la boshlagan paytdan boshlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, turli manbalardagi yangiliklar juda keng talqin qilingan: neoplazmalar, har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega sohada o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan yangiliklar. Shunga ko'ra, falsafa, Madaniyatshunoslik, sotsiologiya, boshqaruv nazariyasi, iqtisodiyot, psixologiya, pedagogika chorrahasida turli xil bilim sohalaridagi yangiliklarning umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan fan innovatsiya deb nomlana boshladi.

Musiqiy ta'lim tizimiga eng yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ijodiy faol shaxsni shakllantirishga yordam beradi. O. V. Penkina va T. I. Straznikova musiqiy-nazariy fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy faolligini shakllantirishning maqbul usullarini aniqlash bo'yicha tajriba-tajriba ishlarini olib borishdi. Tadqiqot dasturi KGUKI xalq madaniyati Akademiyasining musiqa va gumanitar ta'lim fakulteti talabalarini va xormeyster talabalarini qamrab oldi. Uning vazifalariga ijodiy ta'limning



didaktik tamoyillari va usullarini, talabalarning ijodiy rivojlanishining tashkiliy, motivatsion, operatsion va ijodiy, kognitiv tarkibiy qismlarini har tomonlama tekshirish kiradi.

Talabalarning ijodiy faoliyatining motivatsion, ijodiy, operatsion tarkibiy qismlari o'rganildi. Har bir alohida komponentni shakllantirish darajasi va mezonlari aniqlandi (kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy muammolarni mustaqil hal qilishga qaratilgan reproduktiv-qidiruv, ijodiy-evristik va ijodiy). Pedagogik eksperimentning aniqlovchi bosqichida turli xil ijodiy vazifalar tekshirilayotgan guruhlarda sinovdan o'tkazildi va tahlil qilindi: berilgan akkord ketma-ketligi uchun ohang yaratish, bitta ovozli ohang uchun pastki tovushlarni yozish, aranjirovkalarni bajarish - xalq ijodiyotining haqiqiy namunalari asosida wok; kursning o'rganilayotgan bo'limlari bo'yicha mualliflik asarlari, akkompaniment variantlari namunalari va boshqalar. bundan tashqari, pedagogik eksperimentning shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida talabalarning ijodiy faolligini shakllantirish dinamikasi umumlashtirildi.

Innovatsion g'oyalarni ilgari suruvchi o'qituvchilarning nazariy materiallari va amaliy tajribasini va mintaqasidagi zamonaviy innovatsion jarayonlarning umumiy yo'nalishini o'rganish va umumlashtirish musiqiy ta'lim sohasidagi amaliy o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish, umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, madaniyat va san'at universitetlarida eng istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Musiqiy ta'limning mintaqaviy ko'p bosqichli tizimidagi innovatsion jarayonlarni o'rganish hali boshlang'ich bosqichdan o'tmoqda. Paradigma o'zgarishiga moslashuvchan va tezkor javob berish, ta'lim va tarbiya jarayonining sifatini optimallashtiradigan naqsh va yo'nalishlarni aniqlash uchun amaliyotchi o'qituvchilar va tadqiqotchi o'qituvchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi.

Yaxshi tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllanishi yanada faol kechishini ko'rsatdi. Chunki, doimiy ravishda ilg'or, tajribali o'qituvchilar bilan bo'lgan aloqa, ularning ijodiy ishlarini bevosita kuzatish, o'rganish, eng yaxshi tajribalarni egallashlari va o'zlashtirishlariga yordam beradi. Hozirgi davrda har bir o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biri darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish va otkaza olish ko'nikmasidir. O'z tarkibiga ko'ra bu ko'nikma anchagina murakkabdir. Buning uchun: Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo o'quv - biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o'qitilishida



pedagogik texnologiyalarni qoʻllay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur.

Pedagogik faoliyatga texnologik jihatdan talabalarni tayyorlash talaba oʻquv mashgʻulotlari davomida egallagan va amaliy mashgʻulotlar, pedagogik amaliyotlar davomida mustahkamlab borish lozim boʻlgan nazariy psixologik, pedagogik va metodik bilimlarni amalda ongli, ishonchli va muvaffaqiyatli qoʻllay olishiga koʻp jihatdan bogʻliqdir.

Adabiyotlar:

1. Yoʻldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, -Fan, 2001 - yil.
2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Talimda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent, - Fan, 2008 - yil.
3. Sharipova G. Musiqa oʻqitish metodikasi. TDPU, 2004 - yil.
4. Махмудова С. Инновацион ёндашув асосида умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг музикий маданиятини шакллантириш технологиялари. –Т.: 2018. “Замонавий таълим”журнал. №8. 61-65 бет.
5. Махмудова С. Pedagogical and Professional Competences of Music Teaches in Educational Process. Eastern European Scientific Journal.Ausgabe 2-2018. ISSN: 2199-7977.(Germany).
6. Махмудова С. Shashmaqom A classic music of orient DIVA International Diplomat –(Mailing address : DIVA International Diplomat p/a Salle de Presse 1 Palais des Nations 1211 Geneva 10. E-mail: mailto:maritfosse21@gmail.com. №2, 201840-43.

РЕЗЮМЕ

Maqolada musiqa oʻqituvchilarini maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, musiqa oʻqituvchisini amaliy faoliyatiga tayyorlash boʻyicha ularning egallashi lozim boʻlgan zarur bilim, koʻnikma, malakalari haqidagi tushunchalar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены теоретические и практические основы инновационных технологий подготовки учителей музыки к духовно-просветительской деятельности. Также проанализированы понятия о необходимых знаниях, умениях, навыках, которыми они должны обладать для подготовки учителя музыки к практической деятельности.

SUMMARY

The article highlights the theoretical and practical foundations of innovative technologies for preparing music teachers for educational and educational activities. Also, the concepts of the necessary knowledge, skills, qualifications that they must acquire in order to prepare the music teacher for his practical activities are analyzed.



PEDAGOGIK NIZO VA UNING XUSUSIY SABABLARI, OLDINI OLISH YECHIMLARI

Yuldasheva M.E.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: nizo, pedagogik nizo, nizo xususiyatlari, nizo sabablari, nizoning oldini olish yo'llari.

Ключевые слова: конфликт, педагогический конфликт, особенности конфликта, причины конфликта, пути предупреждения конфликта.

Key words: conflict, pedagogical conflict, features of conflict, causes of conflict, ways to prevent conflict.

Ta'lim va tarbiya tizimida isloxotlar qanchalik jadallashib bormasin, undagi o'qitish qoidalari takomillashmasin baribir ta'lim muassasalarida pedagogik nizolarning tez-tez sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda inson xulq-atvorini o'zgarishi va ehtiyojlarining kengayishi natijasida uning dunyoqarashi ham o'zgarib bormoqda. Ta'lim muassasalarida diyarli xar kuni pedagogik nizolar, xal qilinishi kerak bo'lgan pedagogik vaziyatlar vujudga kelmoqda. Bu murakkab vaziyatlarni oldini olishda esa pedagoglarning yetarlicha psixologiya va nizoshunoslik fanlaridan bilimga ega bp'lishlarini, ayniqsa xar qanday vaziyatda ham komunikabel, ya'ni inson ko'ngliga yo'l topa olishlarini taqozo etmoqda.

Konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to'qnashuvi oqibati paydo bo'lgan salbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik hodisadir.

Nizotuzilmasi: nizoli vaziyat, nizo ishtirokchilari, nizo obekti, ishtirokchilarning nizoli o'zaro ta'siri va nizo sababi.



Nizo tuzilmasi

nizo ishtirokchilari

Tayanch so‘zlar: ta’lim, muhandis, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, elektron qo‘llanma.

Ключевые слова: образование, инженер, Цифровая экономика, информационные технологии, электронное руководство.

Key words: education, engineer, Digital economy, information technology, electronic management.

Bugungi kunda ta’lim borasida kuzatilayotgan o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimi, o‘quv jarayonida xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta’lim dasturlari ixtisoslik yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlaridir. Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish, istiqbollarini inobatga olgan holda shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu o‘zgarishlar asosida jamiyatda faol, ijodkor tashabbuskor, sohaga oid yangiliklarni tez o‘zlashtira oluvchi, kasbiy malakaga ega mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilib qo‘ymoqda.

Bo‘lajak muhandislarni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha elektron o‘quv resurslaridan unumli foydalanishga o‘rgatishda o‘qituvchi bo‘lajak muhandislarning o‘quv faoliyati jarayonini to‘g‘ri taqsimlash kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

Ta’lim beruvchi tizimli talabalar bilan ishlash natijasida ularga olinadigan nazorat ishlarini fanning xususiyati, dasturi va qiziqishlarga mos ravishda o‘quv topshiriqlarini o‘zgartirib borib, mustaqil ta’limga ajratilgan vaqtini qisqartirish, ularda individual ishlashga qiziqishini oshirish, mustaqil ta’lim bilan ishlashga oid kompetensiyani rivojlantirish lozim. Bitiruvchi kurs talabalari uchun ijodiy va texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan individual nostandart topshiriqlardan foydalanish mumkin [3].



Elektron o‘quv nashr raqamlashtirilgan zamonaviy bilimlar sohasiga to‘g‘ri keladigan tizimlashtirilgan ma‘lumotlardan tashkil topishi talabalar tomonidan shu fanga oid bilim, ko‘nikma malakalarini ijodiy va faol egallashlarini ta‘minlashi kerakligi talab etilgan.

Elektron darslik — ma‘lum soha va yo‘nalish hamda mutaxassislikning DTS, malaka talabi va o‘quv dasturini to‘liq qamrab olgan hamda yuqori ilmiy-uslubiy saviyada tayyorlangan asosiy o‘quv elektron nashr hisoblanadi. Elektron o‘quv-qo‘llanma - bu muayyan fanning o‘quv dasturidagi mavzularining qisman yoki to‘liq qamrab olgan holda tuzilgan elektron nashr tushuniladi [4].

Gipermatn-bu elektron shaklda berilgan va tarmoqlangan, tizimli bog‘lanishli, bir fragmentdan ikkinchisiga bir lahzada o‘tishni ta‘minlaydigan matn.

Intellectual yadro – matematik amallarni sonli va belgili shakllarda ifodalovchi maxsus dasturlar uyg‘unligi.

Kompyuterli tushuntirish - induktiv xulosa chiqarish va savollarga “Ha”, “Yo‘q” qabilidagi javoblar orqali ko‘rgazmali tushuntirish.

Vizuallashtirish - rasm, grafik va animatsiyalar vositasida ko‘rgazmali tarzda taqdim etish.

Barcha murakkab tizimlarni yaratishdagi kabi elektron o‘quv-metodik majmualarni tayyorlashda ham ishning muvaffaqiyati muallifning tajriba va qobiliyatiga bog‘liq. Maqsadga muvofiq, elektron o‘quv metodik majmua tayyorlash uchun o‘quv-metodik qo‘llanma asosini tashkil etuvchi dasturlar mavjud. Ular quyidagilar:

Test. Tashqi ko‘rinishidan bu elektron o‘quv-metodik majmuaning sodda shakli. Murakkab bo‘lgan savollarni tanlash va aniqlik bilan ifodalash, shuningdek savollarga javoblarni sharhlash orqali tuziladi. Aniq bir yo‘nalishda test ma‘lum fan sohasi bo‘yicha ta‘lim oluvchilarning bilim, mahorat va ko‘nikmalari haqida obyektiv xulosa qilish imkoniyatini berishga xizmat qiladi. Bunda bilimni yuqori natijalariga erishish uchun eng qulay yo‘lni tanlash imkonini beradi.

Ensiklopediya va Vikipediya. Bu o‘quv metodik majmuaning asosiy shakllari. Ma‘no jihatidan ensiklopediya atamasi jamlanma yoki majmua demakdir. Bugungi kunda uning elektron shakli Vikipediya paydo bo‘lib mazkur majmualarda to‘plangan ma‘lumot to‘liq va ta‘lim standartlariga nisbatdan ham ortig‘i bilan bo‘lishi kerakligini bildiradi. Chunki u barcha foydalanuvchilarni qanoatlantirishi kerak.

Ijodiy muhit. Zamonaviyalektron o‘quv metodikmajmualar o‘quvchilarni o‘rganilayotgan obyektlar va o‘zaroabog‘liq obyektlar sistemasi modellari bilan ijodiy ishlashlarini ta‘minlashiakerak. Aynan o‘qituvchiatomonidan kreativ yondoshuvgajasoslangan topshiriqlar va tushunchalarni berilishi o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga, mustahkamlashga yordam beradi.



Dasturiy nuqtayi nazaridan, elektron o'quv-metodik majmuaning eng murakkab qismlaridan biri ijodiy muhitni shakllantirishga qaratilganligi hisoblanadi. Ijodiy muhit o'quvchilarni mavzular ustida jamoa bo'lib ishlashini, bilim oluvchilarning bir maqsad doirasida uyushishini ta'minlaydi va ularning muammoli masalani hal qilishga qaratilgan fikri yoki faoliyatini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Elektron o'quv metodik majmualar undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat. Elektron o'quv-metodik majmualar tayyorlashda taqdim etilayotgan ma'lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo'lishligi ahamiyatlidir.

Bo'lajak muhandislarga bilim beruvchi har bir o'qituvchi yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda, olib boradigan mashg'ulotlarni dasturlashtirilgan elektron o'quv-metodik omillar asosida tashkil qilib, bo'lajak muhandislarning kreativ tafakkurini sifatli o'sishiga e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. "Elektr mashinalari" fanining elektron o'quv-metodik vositalar asosida o'qitish maqsadi va pedagogik asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi: o'quv ustaxonalaridagi ba'zi stanoklarning yo'qligi sababli, ularning ishlash jarayonini raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ko'rsatib tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj.

Raqamli texnologiyalar o'rni va muammosini hal qilish uchun kerak bo'lgan ayrim fanlar bo'yicha kurslardan hosil bo'lgan bilimlarni, dalil va tushunchalar yoki, axborotlarni talabalardan ijodiy qayta ishlash talab etiladi. Zarur ma'lumotlar va harakatlarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish ijodiy izlanish elementlarini shakllantirishga va oqilona usullarni tanlashga olib keladi.

Elektr mashinalari fani mashg'ulotlarini o'tkazish, o'quv jarayonini rejalashtirish, talabalar bilimini baholay olish, mahalliy va tabiiy materiallardan foydalanish, darslarni tahlil qilish, pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha OTM kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda fanning asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va masalalar yechish orqali yanada boyitadi. Shuningdek, darslik va o'quv-qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, o'quv materiallaridan foydalanish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Elektr mashinalari fanini bo'lajak muhandislarga o'rgatish jarayonida bo'lajak muhandislarga nazariy, amaliy, tajriba va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining barcha mavzularini raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'qitish mumkin. Raqamli texnologiyalar mashg'ulotlarda qo'llansa, ta'lim oluvchi



o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni, mavzularni o'zlashtirish va tasavvur qilishini tezlashtirish imkonini yaratadi. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan didaktik vosita sifatida ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. "Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarga o'qitish, axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va kreativ faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi".

2. "Raqamli ta'lim texnologiyalariga moslashgan o'quv-metodik maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun o'qituvchiga ta'limning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish hamda mukammal ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchi axborotlashtirilgan o'qitish metodikasi va nazorat qilish dasturlari sharoitdan kelib chiqib yangi g'oya va qo'shimcha fikrlar kiritish imkoniyatlarini yaratadi".

3. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimida foydalanishga moslashgan o'qitishning raqamli ta'lim sifatini yangi texnologiyalarni amalga oshirish natijasida o'qituvchilar o'zlarini elektron axborot bilan ta'minlanganlik bosqichlarini oshiribgina qolmay, balki deyarli o'qishga kerak bo'ladigan dunyodagi elektron axborot jamlanmalaridan, foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

"Raqamli texnologiyalar kompyuter va mobil aloqa vositalari asosida o'quv-bilish jarayonini qisman yoki to'liq dasturlashtirishga moslashtirilgan didaktik vosita sanaladi. Ular ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini rivojlantirishning strategik shakllaridan biri hisoblanib, o'qitishning innovatsion texnologiyalarining vositasi sifatida amaliyotda qo'llaniladi. Pedagogik dasturlashtirilgan vositalari dinamik illyustratsiyalar, ovozli jarayonlar, animatsiyalar kabi effektlarni amalga oshiruvchi dasturlardan foydalanib yaratiladi" [5].

Raqamli ta'lim texnologiyalari quyidagi turlarga ajraladi: o'rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq qilish uchun dasturlar, o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Raqamli ta'lim texnologiyalari tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturlar, texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladigan elektron o'quv qo'llanmalar yaratishga mo'ljallangan dasturlar ichida Lectora dasturi eng maqbullaridan biridir.

Dastur asosan: masofali ta'lim kurslarini yaratishda; taqdimot fayllarini yaratishda; nazorat testlarini yaratishda; ppt formatidagi fayllarini boshqa ta'lim formatlariga (SSORM yoki AISS) o'tkazishda; intellektual o'qitish kurslarini yaratishda keng foydalaniladi.

Lectora dasturida yaratilgan kurslarni elektron ta'lim standartlari bo'lmish SSORM va AISS larda nashr etish mumkin. Shuningdek, Lectora dasturi hozirda mavjud bo'lgan LMS tizimlar talablari bilan mos keladi. Lectora dasturida yaratilgan o'quv kurslarini bir tugmani bosish orqali ularni dinamik web sayt ko'rinishda, HTML, SD disklarda ishlaydigan, bitta faylga yig'ilgan exe ko'rinishda, SSORM va AISS standartlarida hech qanday dasturlash tillarini bilmadan ham o'tkazish mumkin. Shuningdek, Lectora dasturi orqali nazorat ishlarining elektron ko'rinishini tashkillashtirish mumkin, xususan 7 xil (yolg'on-rost, bitta to'g'ri javobli, bir necha to'g'ri javobli, moslikni topish, esse, qisqa javob kiritishli, hot point) shaklidagi elektron testlar, so'rovnomalarni yaratish mumkin. Elektron nazorat yakunida Lectora dasturi elektron pochta orqali va tashqi SGI skript, XML, SSORM, AISS ili LRN standartlariga asosan natijalarni olish yoki yuborish mumkin. Lectora dasturi dasturchilar uchun yaratilmagan bo'lsa-da, oxirgi chiqqan versiyalarida dasturlash tilidan xabardor bo'lgan foydalanuvchilar uchun kengaytirilgan ilovalari bilan boyitildi. Bu esa o'z navbatida dasturlash tilidan xabardor bo'lgan foydalanuvchilar uchun katta imkoniyatdir" [1].

1-rasm. Lectora dasturining ishga tushirilish oynasi

Dasturni ishga tushirganda 1-rasmdagi ko'rinishga ega bo'ladi: Lectora dasturining asosiy oynasi: sarlavha imkoniyatlari, sahifa o'lchami va HTML sahifa joylashuvi. Bunda kerakli sozlashlarni bajarib, ishga tayyorlab olamiz. Lectora – all inclusive muhit bo'lib imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik, Java, Streak va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Lectora dasturi bu-internet, telegram messenjeri, elektron pochta yordamida yuklab olish yoki fleshkartalar, kompakt disklar va shu kabilar yordamida bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga uzatish, saqlash va o'rnatish imkoniyatiga ega va ulardan interfaol, rang-barang, multimediali elektron darslik, elektron metodik majmualar tayyorlashga mo'ljallangan keng imkoniyatli va ishlatishga qulay bo'lgan dasturiy vosita bo'lib, undan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanishga moslashtirilgan.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan EQLarning ishlatuvchi uchun qulayligiga mashg'ulotlarga talabalarning qiziqishini oshirishga hamda butun mavzuni o'zlashtirish jarayonining ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlash xususiyati hisoblanadi.



Bo'lajak muhandislar "Elektr mashinalari" fanini mustaqil o'zlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishi, fanning sillabusidagi ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlaridagi mavzularini, ayniqsa, elektr mashina jihozlarini ishlashiga oid bo'lgan bilimlarni o'rganishlarida qo'l keladi. Elektron qo'llanma bo'lajak muhandislarga o'zlashtirish uchun berilayotgan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish, ularni kreativ qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish imkoniyatini bersa, talabalarga o'qitish metodlarini o'zgartirish, ta'limaluvchining o'ziga o'tadi.

Bundan tashqari elektron qo'llanmalar oddiy darsliklardan farqli ravishda shunday ishlab chiqilishi kerakki, u quyidagilarni ta'minlasin:

kompleksning mazmunini mayda (to'liq) tashkil etish; interaktivlik — foydalanuvchi harakati bilan bog'liq holda ma'lumotlar namoyishini o'zgartirish qobiliyati, shuningdek, o'rganish sarlavhasini o'zgartirish qobiliyati; gipotetik ma'lumotlarning gipermatnli tuzilishi (ta'riflarga qo'shiladi); vizual ma'lumotlardan foydalanish — turli xil rasmlar va harakatlar va boshqa aralash vositalar; "Axborotni mustahkamlash, olingan ma'lumotlarni nazorat qilish va baholash uchun elektron o'quv-uslubiy majmuaga joriy qilingan hayotiy va boshqaruv apparatlaridan foydalanish; turli elektron yozuvlar va real o'quv materiallariga ulanishlar (giperhavolalar) ramkasidan foydalanish imkoniyati" [2].

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni ta'minlash uchun elektron o'quv metodik majmualarni yaratuvchilar elektron o'quv metodik majmualarga qo'yiladigan talablardan tashqari majmua uchun mundarijani loyihalash texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Алексеев В.Э., Усманов В.В., Фролов В.М. Рекомендаси по разработке учебных пособий для дистанционного обучения. – Пенза: ПГТИ, 1998. – 256 с.
2. Ничкало Н.Г., Филанова Г.Н., Суходолской О.В. подготовки учителя тпуда: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2012. – 000 с.
3. G'afforova T., Qurbonov A. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi: Nasaf, 2003. – 112 b.
4. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituvchining zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSs) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 70 b.
5. [http://uz.infosom.uz/2012/04/26/axborot ta'lim muhitining ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari / http://web.uvis.sa/hpd/hsms/ Viktoriya Universitetining ilmiy-tadqiqot guruhining maxsus sayti.](http://uz.infosom.uz/2012/04/26/axborot%20ta%20lim%20muhitining%20ta%20lim%20sifatini%20oshirishdagi%20imkoniyatlari%20http://web.uvis.sa/hpd/hsms/Viktoriya%20Universitetining%20ilmiy-tadqiqot%20guruhining%20maxsus%20sayti)

РЕЗЮМЕ

Ushbu ishda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari hamda ularni ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной работе рассматриваются информационные технологии, применяемые при подготовке будущих инженеров к профессиональной деятельности, а также их значение в образовательном процессе.

SUMMARY

This paper examines information technologies used in the preparation of future engineers for professional activity, as well as their importance in the educational process.



PERSEPTIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI

Zokirov M.A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: qobiliyat, idrok, perseptiv qobiliyat, ta'lim jarayoni, natija, pedagogik qobiliyat, pedagog.

Ключевые слова: способность, восприятие, познавательная способность, образовательный процесс, результат, педагогические способности, педагог.

Key words: ability, perception, perceptive ability, educational process, result, pedagogical ability, pedagogue.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlari hamda 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zarurati, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining pedagogik mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Perseptiv qobiliyatlarni yangicha yondoshuvlar asosida rivojlantirish masalalari bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Kelajakda zarur bo'lgan bu umumiy qobiliyatlar oliy ta'limda ham keng e'tibor qozongan bo'lsa-da, ularni qanday egallash yoki osonlashtirish usullari hali ham bir oz noaniqligicha qolmoqda.[1]

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilarning ijtimoiy-pertseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi shartlarning umumiylikini amalga oshirish bilan ta'minlanadi:



- o'qituvchining ijtimoiy idrokining o'ziga xos xususiyatlari bilan talabani ijtimoiy-pertseptiv kompetentsiyasini aniqlash orqali bolani eng yuqori ontologik qiymat sifatida idrok etish asosi sifatida pedagogik jarayon ishtirokchilariga subyektiv munosabatni boshlash;
- insonparvarlik, izchillik tamoyillari asosida o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik fanlarning pertseptiv mazmuni va yo'nalishini kengaytirish va chuqurlashtirishni ta'minlaydigan pertseptiv fanlararo aloqalarni ta'minlash;
- talabalarning ijtimoiy idrokdagi subyektiv tajribasini faol amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish usullaridan foydalangan holda yangilash (ijtimoiy-pertseptiv treninglar o'tkazish, muammoli pertseptiv vaziyatlarni modellashtirish va boshqalar), bu kelajakdagi o'qituvchining ijtimoiy-pertseptiv kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlari, perseptiv qobiliyatlari, irodaviy sifatleri, intellektual salohiyati, aql-idroki, fikrlashi, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta va biri ayrim darajadan iboratdir. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini shakllanishga qaratilgan. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnatini sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste'dod, ya'ni inson nerv tizimida anatomik-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. O'qituvchining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin.[2] Bu qobiliyatlarni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib aytish mumkin emas.

Bugungi kunga qadar qobiliyatlarning rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zarurati buyuk allomalarimiz tomonidan va respublikamiz olimlari, MDH davlatlari va xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Biz tadqiqot ishlarimiz doirasida ushbu mavzu ustida ish olib borgan, ushbu tadqiqot yuzasidan turli davrlarda o'z nuqtai-nazarini bildirgan olimlarning ishlarini taxlil qildik.

Qobiliyat muammosini o'rganish uzoq tarixga ega. Qobiliyat tushunchasini fanga birinchi bo'lib Platon (miloddan avvalgi 428-348) kiritgan. Uning aytishicha, "hamma odamlar bir xil vazifalarni bajarishga qodir emaslar;

chunki odamlar o‘z qobiliyatlariga ko‘ra juda farq qiladi: ba’zilari boshqarish uchun, boshqalari-yordam berish uchun, boshqalari qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik uchun tug‘iladi».[3]

Sharq mutafakkir allomalarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar ham o‘z davrda o‘zlarini fikrlarini bildirib o‘tgan.

Abu Nasr Farobiy tug‘ma qobiliyatli insonlar ham qandaydir tarbiyaga, charxlashga muhtoj. Agar bunday odamlar to‘g‘ri tarbiyalanmagan bo‘lsa, ularning qobiliyatlari tezda yo‘qolishi aniq. Tug‘ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir, ba’zilari undan foydalanib yaxshi natijalarga erishsa, boshqalari yaxshi natijaga erisha olmasligi mumkin” [4] deb ta’kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino - barcha qobiliyatlar inson ruhining funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, moddiy emas va tananing moddasidan farq qiladi [5] deb takidlagan.

Abu Rayhon Beruniy insondagi ruhiy jarayonlarni, avvalo, tabiatda oliy mavjudot-insonning bilish jarayonini. inson bilimlarini boyitish, ma’rifatli bo‘lishidagi roli jihatidan o‘rganishga va talqin etishga harakat qildi. Shu sababli uning yuqorida keltirilgan asarlarida sezgilar va aqliy bilish, o‘zini tuta bilish, xotira, tasavvur, diqqat, idrok va qobiliyat kabi shaxsiy xislatlarni olamni bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda ko‘rsatadi.[6]

Ruscha-o‘zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug‘atida qobiliyat quyidagicha ta’riflanadi. Qobiliyat-shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig‘indisidir.[7]

Psixologiya darsliklarida qobiliyatga bir qancha ta’riflar berib o‘tilgan.

Qobiliyat-bu kishining biror faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidir.[8]

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig‘indisiga aytiladi.[9]

Qobiliyat-shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.[10]

Qobiliyat-shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir.[11]

Frensis Galton «Inson qobiliyati va ularning rivojlanishini o‘rganish» nomli yana bir kitobini nashr etdi, u individual farqlarga oid birinchi ilmiy ish hisoblanadi.[12]



Qobiliyat bizning tadqiqotimizda shaxsning o'ziga xos individual psixologik xususiyati bo'lib, bu xususiyati uning irodaviy sifatida belgilanadi, bir yoki bir nechta faliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, ko'pgina tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat deganda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beruvchi shaxs xususiyatlarini umumiy majmui deb aytib o'tadilar.[13]

Pedagogik qobiliyatning bir qancha turi bo'lib, ularning har biri o'qituvchiga pedagogik jarayonda biror bir faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, akademik qobiliyat - o'qituvchiga fanga oid nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam bersa, didaktik qobiliyat - ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.[14] Bundan tashqari perseptiv qobiliyat talaba yoki suhbatdoshining ichki olamini ko'ra olishga, tushunishga, kommunikativ qobiliyat - muloqot o'rnatishga, konstruktiv qobiliyat - o'z va jamoa faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yordam beradin. [15]

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnikaning ya'ni jamoa va shaxs bilan muloqot qilish mahorati, muloqot jarayonini nazorat qila olish, jamoani tashkil qilish, o'z kayfiyatini, ovozi va harakatlarini boshqara olish mahoratining o'rni ham muhimdir.

Hozirgi davr pedagogik ta'lim konsepsiyasi avvalo o'qituvchi ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni, ularni yuksak kasbiy-pedagogik mahoratcho'qqisiga ko'tarishni talab etmoqda. Bugun pedagogning pedagogik qobiliyati, e'tiqodi va o'quv jarayonini yaxshi bilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot uchun katta ahamiyatga ega ekanligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, pedagog jamiyatning a'zosi sifatida o'z mavqei va faol o'rnini o'quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rni, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni xurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning bilimdonligi uning yangi bilimlar, o'zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, perseptiv qobiliyati orqali pedagog o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar. Mazkur fikrlar, o'quvchi shaxsining rivojlanishida uning faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak, o'quvchi shaxsining rivojlanishida muhim



hisoblangan jarayonlar ta'lim-mustaqil ta'lim, tarbiya-o'zini o'zi tarbiya, ma'lumot-mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar bilan bir qatorda, oilada, mahallada, ta'lim muassasasida va tengdoshlar o'rtasida vujudga keluvchi o'zaro ta'sir jarayonini ham ta'lim va tarbiya jarayonlari komponenti sifatida inobatga olish zarur.[16]

Adabiyotlar:

1. Kleimola and Leppisaari Learning analytics to develop future competences in higher education: a case study *Int J Educ Technol High Educ* (2022) 19:17 <https://doi.org/10.1186/s41239-022-00318-w>
2. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N. Voxidova, K. Matnazarova *Pedagogika (Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti) darslik* 2013 (294-b)
3. А.В.Карпов, Е.Ф.Ященко. *Психология способностей*. Челябинск Издательство ЮУРГУ 2007 (11-b)
4. Эргашева, Н. М. Farabi's doctrine of perfecting human being / Н. М. Эргашева, Б. К. Номонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 9 (11). — С.
5. Абдукаримова Гулчехра Баратовна *Философские взгляды Абу Али ибн Сино на образование // Достижения науки и образования*. 2019. № 4
6. Haydarov.F.I.,Jo'rayev.N.S. *Psixologiya tarixi:O'quv qo'llanma/Toshkent;2010-(39-b)*
7. Турғунов Қ. Русча ўзбекча психология терминларининг изоҳли луғати." Ўқитувчи» нашриёти Т.1975 (163-б)
8. Umarov В.М. *Psixologiya: darslik- Toshkent Voris-nashriyoti* 2012.(74-b)
9. Zufarova М.Е. *Umumiy psixologiya O'rta maxsus kasb hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.O'zbekiston faylasoflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2010. (295-b)*
10. Mavlonova R,Abdurahimova D. *Pedagogik mahorat:O'quv qo'llanma. -T.:Fan va texnologiya,2009.-*
11. Xoliqov A. A *Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011 (52-b)*
12. Карпов А.В, Ященко Е.Ф. *Психология способностей: Учебное пособие. – Челябинск: Изд-во ЮУРГУ, 2007. – 12-б*
13. Иванов Ю.Ю., Сорокина Т.В. *Педагогическое мастерство. – М.: МЭГУ, 1993. – 96,*
14. Корепанова М.В. *Основы педагогического мастерства: учебник для студентов. 2-е изд. – М.: Академия, 2012. – 240 с.,* Азизходжаева Н.Н. 15. *Педагогик технология ва педагогик махорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТГПУ, 2003. – 174 б.*
15. Зязюн И.А. *Культура общения учителя // Ж. Народное образование.– 1990.–№ 6 – С.17,* Хозяинов Г.И. *Педагогическое мастерство преподавателя. – М.: Высшая школа. –1988. –168 с.*
16. Umarov В.М. *Psixologiya: darslik- Toshkent Voris-nashriyoti* 2012.(74-b)
17. Турғунов С.Т. *Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-хунар таълими.– 2006. – № 1. – 222-б.*

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada qobiliyat va persektiv qobiliyatlarni ta'lim tarbiya jarayonidagi o'rni xususida yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается роль способностей и познавательных способностей в образовательном процессе.

SUMMARY

This article describes the role of abilities and perceptive abilities in the educational process.



BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mo'ydinova D. Q

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kreativ fikrlilik, kreativ kompetentlik, shaxs fantaziyasi, tarbiyalanuvchi.

Ключевые слова: знания, умения, компетентность, творческое мышление, творческая компетентность, личная фантазия, студент.

Key words: knowledge, skills, competence, creative thinking, creative competence, personal fantasy, student.

O'qituvchilar har doim ta'lim sohasida muhim shaxs bo'lganlar va ular albatta kreativ fikrlash borasida boshqa shaxslardan ajralib turishadi. Tarbiya fani o'qituvchisi esa alohida iste'dod, qobilyat, bilim, ko'nikma va shaxsiy-axloqiy hislatlarga ega bo'lishi kerak. Chunki u nafaqat ta'lim jarayoni balki, o'quvchidagi ma'naviy-axloqiy hislatlarni shakllantirish jarayonida ham bevosita ishtirok etadi.. Ammo, ushbu jarayonda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi kreativlik qobilyatiga ega bo'lmasa, o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotni yo'lda qo'yishda bir qator to'siqlarga uchraydi. Nima uchun kreativlik tarbiya fani o'qituvchisiga kerak. Chunki, hozirgi zamon o'zgarishi va yangicha dunyoqarashga mos fikr-mulohazali shaxs bo'lish, kreativlikning asosiy komponentlarini o'zida mujassam etishga bog'liq.

O'qituvchining kreativligi deganda, o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi, hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi kabi ijodiy xislatlar tushuniladi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi

sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlarini tahlil qilar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash quyidagicha:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi, "ko'p" degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi "o'zgartirish" degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi "noyob" degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi "qo'shish" degan so'zga asoslanadi.

Pol Torransning to'rtta kreativlik ko'nikmasini (ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, yaratuvchanlik) o'zida rivojlantirgan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchi bilan shug'ullanayotganda, ta'limni ham, tarbiyani ham, tarbiyalanuvchida muajassam etadi. Avvalo, kreativ fikrlash uchun bilimga ega bo'lsa va u bilimni amalda qo'llay olsa o'z pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil etgan bo'ladi. Bo'lajak tarbiya o'qituvchisida qancha ko'p bilim, ko'nikma va malaka mavjud bo'lsa rivojlanish va kreativ fikrlash qobiliyati ham shunga monand rivojlanadi. Kreativ fikrga ega o'qituvchi bola bilan shug'illanganda, bola erkin, o'zini hotirjam his qiladi. Bunday o'qituvchi bolaga nima kerakligi, bola nima hohlayotganligi va albatta u nimalarga qiziqishini bilgan holda uni rivojlanishiga ko'maklashadi.

Kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchi boshqa hamkasblariga nisbatan o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, hohish-idrokini bilgan holda uni o'z qiziqishlari oqimiga to'g'ri yo'naltirishga harakat qiladi. O'quvchilarning barchasi o'zgacha fikrli, qobiliyatli, bilimli va albatta o'zgacha tarbiya ko'rgan bo'lishadi. Kreativ fikrli o'qituvchi o'zgacha tarbiyalanuvchiga ham, o'zgacha muhitda ham, bilimni va fikrini o'quvchi ongiga singdira oladi. Bu fikr va bilimni o'quvchi ongiga singdira olish har hil usulda bo'lishi mumkin. Masalan, qiziqarli o'yinlar, savol-javoblar, ko'rgazmalar va hozirgi kunda yangicha texnologiyalardan tarkib topgan videoroliklar orqali o'quvchini bilim olishga yana bir turtki bo'la oladi. Albatta, bunda bo'lajak tarbiya o'qituvchisini kreativ fikrlilik qobiliyati keng bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi



“Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatлари, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda pedagoglar ushbu omillarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) tavakkal qilishdan qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Kreativ muhitda pedagog bo‘lajak o‘qituvchilar diqqat-e‘tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma‘lumot, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘ziga jalb etib, ularda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Oliy ta‘lim muassasalarida ham pedagoglar bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo‘lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi”.

Albatta, bo‘lajak tarbiya o‘qituvchisi kreativ fikrli bo‘lib, yuqorida ta‘kidlagan xatolarga yo‘l qo‘ymas o‘quvchilar ham bu o‘qituvchiga nisbatan ijobiy fikrga ega bo‘ladilar. Uning fikri, hohishi va tanlovi bo‘lajak tarbiya o‘qituvchilari uchun muhim sanalib, bu omillar orqali ular o‘quvchilardaham kreativ fikrlilikni shakllantira oladilar. Bu esa tarbiya fanio‘qitish jarayonining samarasini tam‘inlashga xizmat qiladi.

“O‘quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o‘zaro bog‘liq vazifani e‘tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o‘quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashtirish, bilim egallashtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi – o‘zlashtirilgan bilimlarni ta‘limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi. Quyidagi ko‘rsatkichlar o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish mezonlari sifatida taklif qilindi: mustaqil qaror qabul qilish; o‘z imkoniyatlariga ishonch; faol izlanuvchanlik; fikrlash tezligi; fikrlash moslashuvchanligi; g‘oyaning o‘ziga xosligi; g‘oyaning mukammalligi; g‘oyaning ijobiy yo‘naltirilganligi; axborotlarni qayta ishlash va maqsadli qo‘llay olish; tasavvur kengligi; bir-biridan uzoq fikrlarni o‘zaro bog‘lay olish; g‘oya salmog‘ini baholay olish; yechimning nafis, bejirim va oddiyliigi; ko‘plab g‘oyalarni yuzaga keltira olish; g‘oyaning asosliliigi. Ushbu



sifat ko‘rsatkichlarini baholashda test sinovi, muammoli topshiriq va tajriba usullaridan foydalaniladi”.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi kreativ fikrga ega bo‘libgina qolmasdan, balki bu fikrlarni o‘quvchi ongiga so‘z vositasida singdira olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lmog‘i lozim. Ya‘ni, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi o‘zida kreativlikni shakllantirib, ammo amalda qo‘lly olmasa natijaga erishish qiyinlashadi. Agar so‘z vositasi yaxshiligi, o‘quvchilar bilan shug‘ullanish qobiliyati yaxshi bo‘lib lekin, kreativ fikrga ega bo‘lmasa o‘quvchiga bilimni va ilmni o‘rgatayotganda bir qancha hatolarga yo‘l qo‘yadi. O‘quvchilar bilan ishlash muhitida ularni darsga jalb qilish, qiziqtirish va dars jarayonini intellektual o‘yinlar bilan boyitish bu o‘quvchining bilim olishiga ishtiyoqini ortishiga bir muncha sabab bo‘ladi. Kreativ fikrli o‘qituvchi o‘quvchilar bilan dars jarayonida intellektual o‘yinlardan foydalana olsa o‘zi kutgan natijaga erisha oladi. Bu orqali o‘quvchilar orasida raqobatdoshlik bo‘ladi va raqobat bor joyda har tomonlama o‘sish bo‘ladi. Bu o‘yinlarni o‘ylab topish, yangicha metodlardan foydalanish kreativ fikrli tarbiya o‘qituvchisiga xos xususiyatlardir.

Kasbiy faoliyat jarayonida pedagogning kreativligi turlicha namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

Me‘yoriy hujjatlar (o‘quv fanlari bo‘yicha DTS, o‘quv dasturi va rejalarini)ni tayyorlash.

O‘quv manbalari (darslik, o‘quv-metodik va metodik qo‘llanma, tavsianoma, lug‘at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish;

Ta‘lim jarayoni va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash;

O‘quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish ;

Ta‘lim jarayonini mazmunli, jonli, jo‘shqin tashkil etish;

Ilmiy-tadqiqotlarni to‘g‘ri usulda va muvaffaqiyatli olib borish;

Ilmiy va metodik yig‘inlarda faol ishtirok etish hamda chiqishlar qilish;

Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlanmalarni taqdim etish;

Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o‘tish;

Ushu manbalarni o‘zida shakllantirgan bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi har tomonlama kreativ fikrlilikni ham shakllantiradi. Masalan, “ta‘lim jarayonini mazmunli, qiziqarli, jonli, jo‘shqin tashkil etish” orqali tarbiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilarni ham, o‘zida ham kreativ fikrlilikni mujassam etadi. O‘quvchilar esa fikrini erkin bayon qilish orqali tengdoshlari bilan fikr almashadi. Shu bilan birga darsga bo‘lgan e‘tibori, qiziqishi va ishtiyoqi ham ortadi. O‘quvchilarda buni rivojlantirish uchun albatta, bo‘lajak tarbiya o‘qituvchisi avvalo o‘zida kreativ fikrlilikni rivojlantirishi lozim. Tarbiya fani o‘qituvchining kreativligi nafaqat o‘zida balki, yuqorida ta‘kidlaganimizdek o‘quvchilarda ham kreativ



fikrlashni oshiradi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchining rivojlanishi bilan to'xtab qolmasdan, kelajakda jamiyatni ham, yurtning rivojlanishi uchun ko'mak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 8(1), 75-77.
2. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). Talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 585-594.
3. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(12), 60-64.
4. Umidjon o'gli, T. J. (2022). Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining estetik madaniyatini rivojlantirish mazmuni. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(23), 473-475.
5. Umidjon o'gli, T. J. (2022). Kreativ yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining estetik kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(23), 480-482.
6. Jalalov, Bakhromjon Bekmurzaevich, H. A. Khatamov, and F. U. Na saidenova. »Advantages of collective learning.« *Scientist of the XXI century* (2016)
7. B.N. Oripov. *Modern pedagogical technology, didactics and methodology of teaching Fine Arts. (educational and methodical guide)* Tashkent - 2013.
8. Сиддиқов, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). Objectives Of The Youth Activity By Teaching Training. *Учёный Ххi Века*, (6-2 (19)), 41-44.
9. Туйчиева И.И., & Ганиева Г.В. (2016). Характеристика Принципов Планирования Работы По Развитию Речи. *Ученый Ххi Века*, (11 (24)), 48-53.
10. Уринова, Н. М., & Байджанов, Б. Х. (2016). Социально-Педагогические Особенности Подготовки Будущих Учителей К Воспитательной Работе. *Учёный Ххi Века*, (4-2 (17)), 21-24.
11. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование Различных Методов, Форм И Средств В Воспитании Молодежи. *Актуальные Проблемы Современной Науки*, (5), 80-83.
12. (<https://azkurs.org/reja-kirish-talim-tizimini-isloh-qilish-zamon-talabi-kadrlar-t.html>);
13. (<https://azkurs.org/mavzu-konikma-va-malakani-shakllantirish-talim-jarayoni-sifati.html>);
14. (<https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-qishloq-va-suv-xojaligi-vazirligi-tosh-v3.html>);
15. <https://azkurs.org/pedagogik-kompetentlik-va-kreativlikni-shakllantirish.html>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda ularni shaxsiy va kasbiy rivojlantirishda tutgan o'rni haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются педагогические возможности развития творческого мышления будущих учителей образования и их роль в личностном и профессиональном развитии.

SUMMARY

This article discusses the pedagogical possibilities of developing creative thinking skills of future teachers of education and their role in personal and professional development.



KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Ganiyeva Sh.A., Anvarova Sh.A.
Farg'ona davlat universiteti

Tayanch so'zlar: grammatika, fikrlash, ijodiy usul, qobiliyat, an'ana, hayotiy muammolar.

Ключевые слова: грамматика, мышление, творческий метод, способности, традиции, жизненные проблемы.

Key words: grammar, thinking, creative method, ability, tradition, life problems.

Kirish. Ma'lumki, o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o'z maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Mana shu davrda paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi.

Xalq ta'lim tizimi sohasidagi ta'lim jarayonida fikrlashni rivojlantirish, o'quvchini hayotiy muammolarni hal qilishning ijodiy usullarini o'zlashtirishga, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish uchun mo'ljallangan dastur va darsliklar asosida bilim va ko'nikmalar yaratish, o'quvchilarga faqat nazariy bilimlar emas, balki kundalik hayotda murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, berilgan ma'lumotni tahlil qila olish, oddiy narsalardan ham kreativlik ya'ni ijodkorlik qobiliyatini shakllantira olish, to'g'ri fikrlash, mulohaza yuritish kabi asosiy hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda, ta'lim berayotgan o'qituvchilarni ham tanqidiy va kreativlik bilimlarini oshirish juda muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashda ularning fikrlash qobiliyatlari, o'z fikrlarini erkin ayta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab ta'limi rivojlanishining hozirgi bosqichi uning mazmunini aniqlashga yondashuvlarni sifat jihatidan o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu o'quvchi shaxsini rivojlantirish g'oyasiga asoslangan Xalq ta'limning yangi konsepsiyasining shakllanishi bilan bog'liq. Bu o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvlarning tubdan



o'zgarishini anglatadi, bunda bilimlar shaxsni rivojlantirish mexanizmlari uni o'zlashtirish jarayoniga kiritilgandagina to'liq bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'tmishda ham atoqli otlarga qiziqish bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar bayon qilingan. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillarida boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar N.Husanov, G'.Sattorov, E.Begmatov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek nomshunosligi, ayniqsa, uning toponimika, etnonimika sohaslarida jadal rivojlandi. Endilikda, o'zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani monografik tarzda o'rganilganligini qayd etish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, yodnomalardagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. O'zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'zbek antroponimlarining materiallarini to'plash, ismlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma'nolarini tadqiq qilish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish ishiga, ismlarning imloviy, izohli lug'atlarini tuzish sohasiga S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. O'zbek ismlarining imloviy va izohli lug'atlari tuzilgan. Shunga qaramasdan, o'zbek antroponimlarining paydo bo'lishi, rivoji, ismlarning nominatsion xususiyatlari, ism berishning motivativ asoslari, bunda lingvistik va nolingvistik tamoyillarning tutgan o'rni, antroponimiyani sotsiolingvistik nuqtai nazardan ilmiy tadqiq qilish kabi muammolar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Ismlar tizimini sotsiolingvistik aspektda o'rganmasdan turib antroponimlarni paydo bo'lishi, antroponimlar tizimining rivojlanishi, boyish va o'zgarishi xususiyatlarini ilmiy asoslash mumkin bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda bolalar adabiyotida berilgan obrazlar orqali badiiy-estetik usullar, tasniflash va qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ismlarning shakli, talaffuz xususiyatlari, ism anglatuvchi ma'nolarda o'zbek milliy tilining fonetik, orfoepik, tilning ixchamlik va qisqalikka intilish xususiyatlari ham ifodalanadi. Bu hol ismlarga qo'shiladigan erkalash-kichraytirish shakllarida, ismlarning qismlarida, ularni shaklan qisqartirib talaffuz qilishda hamda mintaqaviy-lahjaviy

variantlarida namoyon bo'ladi. Ismlarning boyligi turli tillarda miqdoran turli darajada. O'zbek tili ismlar majmuasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ismlarning miqdoran ko'pligi bu tilda shaxslarning o'zaro farqlash, ajratib olish imkoniyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ismlar, laqablar, taxalluslar va kishining nomlanishining boshqa turlari ona tilining qimmatli, bebaho boyligidir. Asarlarda keltirilgan ismlar orqali o'quvchilarda badiiy-estetika ularning qahramonlarga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Adabiyot so'z san'ati ila hayotni o'rganadi va tasvirlaydi (uning mag'zini chaqadi), hayotni tadqiqi jarayonida undan muayyan xulosa va saboqlar chiqaradi (hukmgga keladi), hayotdan dars otadi («hayot darsligi» vazifasini o'taydi), hayotni qayta (umid va orzular asosida) yaratadi. Demak, so'z san'atining obyekti — tabiat, jamiyat va insonni birlashtiruvchi, bizdan tashqarida yashovchi cheksiz-chegarasiz olamdirdir. Inson san'at va adabiyotning bosh predmetidir. Yozuvchi Maksim Gorkiyning ta'biricha, « O 'zining intilishlari, ishlarining butun xilma-xilligi bilan, o'zining o'sishi va tanazzulga ketishi jarayoni bilan odam badiiy adabiyotning materiali bo'lib xizmat qiladi». Aristotel («Poetika»), V.G.Belinskiy («Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi») larning fikriga ko'ra, qadimgi yunon (Gomeriing «Iliada», «Odissey» asarlari, Esxil, Sofokl tragediyalari) san'atidan boshlab, inson san'at asarining bosh predmetiga aylangan. Hamon, u adabiyot va san'atning kashflarini, yutuq va kamchiliklarini sarhisob qiluvchi asosiy o'lchov bo'lib kelmoqda. Shu sababdan inson tasviri yo'q joydan san'atni izlash noo'rindir. To'g'ri, badiiy asarni varaqlasangiz, inson obrazidan tashqari, uni o'rab olgan tabiat (peyzaj) ham, hayvon-u o'simliklar ham, jamiyat ham, buyumlar, predmetlar ham tasvirlanadi. Yuqorida ta'kid etganimizdek, adabiyot va san'atda borliqning hamma atributlari o'z aksini topadi, faqat ular bitta shartga bo'ysunadilar, ya'ni ular inson xarakteri va ruhiy holatining u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qilishlari lozim. Adabiyot esa insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil va tadqiq qiladi, tasvirlaydi: kitobxon ko'z o'ngida u fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi odam tarzida gavdalanadi. Shu sabab ham adabiyotda qayta yartilgan olam insoniy lashgan olam mukammalligi, ezgulikni uyg'otadigan go'zalligi bilan inson ong-shuuriga qattiq ta'sir etadi; uni komil insoniylikka yetaklaydi.

Ta'kidlash joizki, har bir keltirilgan asar qahramonlari aynan asarga monand tarzda o'quvchining badiiyligiga va estetik qobiliyati qay darajada ekanligiga mos holda yaratiladi. Adabiyot esa insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil va tadqiq qiladi, tasvirlaydi, kitobxon ko'z o'ngida u fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi



odam tarzida gavdalanadi. Yosh avlodning estetik bilimlarini shakllantirish, ularni o'tmish madaniyati bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan. Bolalar hayotdagi, mehnatdagi, tabiatdagi go'zallikni ko'rishga, unga hissiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Estetik ideallar shakllanmoqda. Harakatlar, fikrlar, tashqi ko'rinishda mukammallikka intilish rag'batlantiriladi. O'qituvchi estetik didning hamma odamlar uchun har xil ekanligini unutmasligi kerak. Ba'zi bolalar klassik musiqani hayratda qoldiradilar, boshqalari hard rock bilan xursand bo'ladilar. Bolalarni boshqa odamlarning va davrlarning didini o'ziga xosligi bilan bog'lashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish kerak. Bolalarning amaliy badiiy faoliyatida ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ularga rasm chizish, ertaklar tuzish, plastilindan haykaltaroshlik, raqsga tushish, cholg'u asboblari o'ynash, qo'shiq aytish, she'r aytishni o'rgatadilar. O'qituvchilar tomonidan teatrlashtirilgan tomoshalar, konsertlar, adabiy kechalar, ko'rgazma va festivallar tashkil etiladi. Natijada, bola faol ijodiy faoliyatga qo'shiladi, go'zallikni o'z qo'li bilan yaratishni o'rganadi.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tartibi yosh avlodga nafaqat ta'lim faoliyatida, balki kundalik hayotda ham zarur bo'lgan ko'nikmalar va fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini taklif qiladi. Ushbu texnologiyaning asosiy mezonlaridan biri bu o'quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirishdir. O'quvchilarning umumiy madaniy, shaxsiy va badiiy-estetik ko'nikmalarini rivojlanishini, o'rganishga, o'rgatish va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amaliy amalga oshirishni ta'minlaydi. O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yurtimiz rivojlanishida Sharqona tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizdagi o'quvchi-yoshlarni o'rta asr Sharqining buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganlaridek, mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda ushbu tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega ekanligini uqtirish bugungi globallashuv jarayonida o'rni muhim sanaladi. Ayniqsa, to'liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o'quvchilar e'tiqodiga aylanadi va ularning tafakkuri hamda faol amaliy estetik fikrlash quroli hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov A. Barkamol avlod orzusi.– T.: Sharq NMIU, 1999-yil.



3. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. – T.: Cho'lpon, 2006.
4. Adabiyot va san'at. Adabiy tanqidiy maqolalar, o'ylar, munozaralar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
5. E.Begmatov "O'zbek tili antroponimlari" Filol. Fanlari d-ri... diss. Avtoref.-Toshkent, 1965. -28 b.;
6. G'.Sattorov O'zbek ismlarining turk qatlami: Filol. Fanlari nomzodi...diss.avtoref.-Toshkent,1990.-21 b.;
7. N. Husanov XV asr o'zbek adabiy namoyondalaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Filol. Fanlari d-ri... diss. Avtoref.-Toshkent, 1996.-66 b.
8. S.Rahimov. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. Fanlar nomzodi... diss.avtoref.-Toshkent, 1998. 25 b.;
9. I.Xudoynazarov Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari:Filol.Fanlari nomzodi...dis. Avtoref.- Toshkent, 1998.;
10. Xudoyberganor R. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. Avtoref.-Toshkent, 2008.-24 b.
11. E.A.Begmatov O'zbek ismlari ma'nosi.-Toshkent: O'zME, 1998.-604 b.
12. <https://www.adabiyot.uz>
13. <https://www.ziyo.net>
14. <https://www.lib.uz>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kichik yoshdagi maktab bolalarining psixologik-pedagogik qobiliyatlari va ularda maktab davridan shakllanuvchi badiiy-estetik qobiliyatlar haqida mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье даны размышления о психолого-педагогических способностях детей младшего школьного возраста и художественно-эстетических способностях, формирующихся у них со школьного периода.

SUMMARY

This article presents reflections on the psychological and pedagogical abilities of young school children and the artistic and aesthetic abilities that are formed in them from the school period.



OG'IR NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR NUTQINING LEKSIK-GRAMMATIK TOMONINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kaxxarova M. M

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch soʻzlar: texnologiya, leksik-grammatik, metodik, muloqot, nutq, psixologik, didaktik, interfaol, individual.

Ключевые слова: технология, лексико-грамматическая, методическая, коммуникативная, речевая, психологическая, дидактическая, интерактивная, индивидуальная.

Key words: technology, lexico-grammatical, methodological, communicative, speech, psychological, didactic, interactive, individual.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar nutqining leksik-grammatik tomonini rivojlantirish texnologiyalarining tavsifi

Ta'lim-tarbiya texnologiyalari (pedagogik texnologiyalar) tushunchasi – ta'lim jarayonlarini loyixalashtirish, samarali ta'limiy tizimlarni tashkil etishga qaratilgan pedagogik ilm yoʻnalishidir. U tarbiyalanuvchining ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi bilan bogʻliq muammolarni yechishni ta'minlovchi yoʻl, usul, qadamlar ketma-ketligidir.

Psixologik-pedagogik lugʻatda “ta'lim texnologiya” tushunchasi ijtimoiy tajribani avlodlarga taqdim etish shakllari, usullari, metodlari, vositalari hamda mazkur jarayonni texnik jihozlashni oʻz ichiga oluvchi birlik sifatida talqin etiladi.

Bunda ta'lim-tarbiya texnologiyalari muolaja, ya'ni ma'lum xatti-harakatlari tizimi, natijani kafolatlovchi pedagogik jarayonni ishlab chiqish va ketma-ketlikda amalga oshirish ish-harakatlar majmuasi sifatida ta'riflanadi. Didaktik texnologiyalar oʻquv metodikasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini toʻliq boshqarish, ta'limiy va tarbiyaviy sikllarni loyihalashtirish va amalga oshirish - gʻoyasi ta'lim-tarbiya texnologiyasini asosini tashkil etadi.



Ko'pgina ilmiy adabiyotlarni tahlil etish asosida "Texnologiya" so'ziga quyidagi ta'riflarni aniqladik:

Texnologiya bu – ma'lum ish, san'at jarayonida ko'llaniluvchi usullar majmuasidir.

"Pedagogik texnologiya– bu ta'lim shakllarini muqobillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir" (YunESKO)

"Pedagogik texnologiya – pedagogik jarayonni boshqarish omili sifatida quyidagi mazmunga ega: PT - ta'lim jarayonini loyihalash asosida tashkillashtirish, uning samarali natijasini kafolatlovchi xususiyatlarga, (pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik stil, pedagogik aniqlik) pedagog faoliyatining innovatsion hususiyatlariga (ijodkorlik – kreativlik, yuksak professionalizm – akmeologiya, tahliliy va tanqidiy yondoshuv - refleksiya) tayangan holda ta'limning yangi shakl va usullarini yaratish va amaliyotga joriy etishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir" (S.Yo'ldosheva).

Shu o'rinda ko'pgina ta'limiy texnologiyalar orasida didaktik o'yin texnologiyalarni alohida e'tibor berish joiz. Tarbiyalanuvchilarni nutqini va fikrlash operatsiyalarini faollashtirish, bog'langan nutqini rivojlantirish hamda umumiy ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida aqli zaif bolalar maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin faoliyati quyidagi hollarda qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'tiladigan mavzular, tushunchalarni o'zlashtirish maqsadida mustaqil texnologiyalar sifatida;
- biror keng qamrovli texnologiyaning ma'lum qismi yoki elementi sifatida;
- maktabgacha ta'lim muassasasida o'tiluvchi mashg'ulotlar o'rniga yoki ularni bir qismi sifatida.
- madaniy dam olish uylariga qaratilgan texnologiyalar sifatida ("Mo'jizalar maydoni", "Yulduzli daqiqa", "Bilimtoylar" kabi o'yinlar).

Mashg'ulotlarda didaktik o'yin texnologiyalari tarbiyalanuvchilarni o'qish faoliyatiga kirishishiga sharoit va qiziqish uyg'otuvchi o'yin usullari va vaziyatini yaratishni o'z ichiga oladi.

Didaktik o'yin texnologiyalarining asosiy va eng muhim belgisi – to'g'ridan-to'g'ri ta'limiy maqsadga qaratilgani hamda o'quv-bilish sohasiga yo'naltirilgan, asoslangan pedagogik natijalariga to'liq muvofiqligidir. "Texnologiya" (yunonchadan "techne" – mahorat, san'at; "logos" – tushuncha, ta'limot) so'zlaridan olingan bo'lib, "mahorat, san'at to'g'risidagi ta'limot" ma'nosini anglatadi[56]. Texnologiya deganda muayyan faoliyatning mohirlik,



mahorat bilan, san'at darajasida tashkil etilishi tushuniladi. Qaysi sohada qo'llanilayotganidan qat'iy nazar texnologiyalar vaqt, mablag', mehnat sarfini tejashga, avvalgidan ko'ra ko'proq samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Bunda faoliyat kechadigan jarayon o'ta aniqlikda faoliyat kechadigan jarayonni barcha omillar, hatto, eng kichik, mayda unsurlargacha hisobga olingan holda ishlab chiqiladi va natijasi asoslanadi.

O'qitish tizimiga individual ta'lim texnologiyalari joriy etilgandan buyon o'tgan vaqt mobaynida tabaqalashtirilgan, dasturiy, rivojlantiruvchi, modul, muammoli, loyiha, interfaol, hamkorlik, kompyuter, masofaviy, innovatsion va mustaqil ta'lim texnologiyalari kabi o'nlab ta'lim texnologiyalari asoslandi. Mazkur ta'lim texnologiyalarining har biri o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etgan holda aniq maqsadga xizmat qilsa-da, ular umumiy jihatlarga ham ega. Umumiy jihat ularning barchasi shaxsga yo'naltirilishi bo'lib, uning ichki imkoniyatlarini namoyon etish, mavjud qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga, yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim-tarbiya jarayonini kam kuch, mablag' va vaqt sarflagan holda samarali, unumli, muvaffaqiyatli tashkil etishga yordam berishida namoyon bo'ladi.

Qayd etib o'tilgan ta'lim texnologiyalarining mohiyati, mazmuni, didaktik imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish asosida maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda individual, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, interfaol ta'lim hamda o'yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish yaxshi natija beradi degan xulosaga kelindi. Ayni o'rinda ushbu texnologiyalarning og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishdagi didaktik imkoniyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Individual ta'lim texnologiyalariga ko'ra logoped og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning har biri bilan individual ishlaydi. Tarbiyalanuvchilar bilan individual ishlash uchun logoped dastlab ularning har birining shaxs sifatidagi va nutqiy kamchiligi to'g'risidagi ma'lumotlardan to'la xabardor bo'lishi zarur. Bu maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning individual xususiyatidan kelib chiqqan holda ular nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan metodikani shakllantirish imkonini beradi[1, 2].

Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar va ularning og'zaki nutqidagi kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lish ular bilan og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar bilan ta'limni yakka tartibda tashkil etishga shart-sharoit yaratadi. Logoped dastlab og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar bilan individual ta'limni samarali tarzda tashkil etish uchun bunga imkon beradigan ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) omillardan xabardor bo'lishi kerak[3,4].

Shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan texnologiyalar orasida tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari ham muhim o'rin tutadi. Tabaqalashtirilgan holda yondashish maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning ko'rish darajasi, og'zaki nutqdagi kamchilik xususiyatini inobatga olgan holda ularni bartaraf etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitning yaratilishini ta'minlaydi. Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik faoliyatni tashkil etar ekan, logoped davlat talablaridan kelib chiqqan holda tarbiyalanuvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda ular uchun maxsus ta'limiy ishlanmalarni yarata olishi kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida o'yinlar nihoyatda muhim o'rin tutadi. O'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, ko'ra og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotni olib borishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Zamonaviy sharoitda maxsus ta'lim muassasalarida bevosita nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishga doir texnologiyalardan ham samarali foydalanilib kelinmoqda. Quyida ana shunday texnologiyalardan ayrimlari keltirilib, ularning didaktik imkoniyatlari haqida ma'lumot beramiz.

Tovushni talaffuz qilish texnologiyasi[1]. Texnologiyaning maqsadi barcha muloqot jarayonida bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikma-malakalarini shakllantirishdan iborat. Ana shu maqsadga erishishga qaratilgan pedagogik jarayon nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarni tovushlarni idrok qilish va to'g'ri talaffuz qilishga tayyorlash, alohida ovozlarni to'g'ri talaffuz qilishga erishish asosida tashkil etiladi. Texnologiya pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirishga asoslanadi. Tovushni talaffuz qilish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tayyorgarlik bosqichi (logopedik massaj, artikulyatsion gimnastik mashqlar yordamida artikulyatsiya organlarining aniq harakatlariga erishish, tovushning havo yo'nalishlari bo'yab tarqalishini ta'minlovchi ko'nikma, malakalarni shakllantirish, barmoqlar uchun gimnastik mashqlar, qo'llarni massaj qilish, predmetli-amaliy faoliyat (bog'ichlar, yasash, barmoqlar harakatini rivojlantirish, mozaika, tuzish-qurish, to'qish) yordamida barmoq va



qo‘l harakatlarini rivojlantirish, fonematik jarayonlarni shakllantirish, tayanch tovushlarni qayta ishlash).

2. Dastlabki talaffuz ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bosqichi (tayyorgarlik bosqichida amalga oshirilgan harakatlarni artikulyatsiya a‘zolari harakati bilan uyg‘unlashtirish, tegishli tovushning artikulyatsiya bazasini yaratish, jarangdor va sonor tovushlar (l, m, n, r kabilar)ni ifodalash uchun havo oqimi va ovozni qo‘shish, alohida tovushlarni talaffuz qilishni ta‘minlash), tovushning avtomatlashuvini va tabaqalanishini ta‘minlash).

3. Muloqot ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Bu turdagi texnologiyalar orasida L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova, E.M.Mastyukova, M.V.Ippolitova, I.I.Ermakova kabi tadqiqotchilar tomonidan asoslangan texnologiyalar keng ommalashgan[8].

Kichik maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirishni metodlari F.A.Rau, F.A.Rau, R.E.Levina, A.G.Ippolitova, G.A.Kashe, G.V.Chirkina, O.N.Usanova, O.V.Pravdina, T.V.Filichina va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan[1].

Bolada tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to‘g‘ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tamonlama rivoji bilan bevosita bog‘liqdir. Maktabgacha muassasalarda lug‘atni boyitishga, to‘g‘ri talaffuz qoidalarini egallashga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e‘tibor beriladi.

L.F.Spirova meyordal va nutq buzilishiga ega bo‘lgan bolalarni tovush analiz qilish xususiyatlarini taqqoslab tekshirish ishlarini olib borgan. Tekshirishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, hatto bitta tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilish ham tovush analizigi o‘z ta‘sirini ko‘rsatar ekan.

L.F.Spirova meyordal talaffuzga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning tovush analizi qobiliyatini aniqlash uchun so‘zdagi berilgan tovushni topish orqali aniqlash mumkinligini ko‘rsatdi. Bolalarda tovush analiz qilish qobiliyatini aniqlashning yanada yengil shakli bu berilgan tovushni so‘z tarkibidan topish yoki shu tovushga oid rasm topishdir. Keyinrok esa berilgan tovushga oid so‘z o‘ylab topish, so‘zdagi oxirgi undosh tovushni topish kabi tovush analizini shakllantiruvchi shakllardan foydalanish mumkin.

Bolalarda nutqining leksik-grammatik tomonidagi kamchiliklarni tahlil qilish (N.A.Nikashinaning) quyidagi tovush turlari kamchiliklari uchun umumiy xulosa qilishga sabab bo‘ldi:

- tovushning nutqda bo‘lmasligi – uni talaffuz qila olmaslik, artikulyatsiya va talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni almashtirish;



- tovushlarni almashtirish-tovush alohida to‘g‘ri talaffuz qilinadi, lekin so‘z va gaplarda bir guruhdagi tovushlar bilan almashtiriladi;
- tovushlar nutqda bo‘ladi, lekin artikulyatsiya jihatdan aniq talaffuz qilinmaydi.

Yuqorida nomlari keltirilgan barcha mualliflar bolalarda kuzatiladigan nutqning leksik-grammatik tomoniningdagi kamchiliklar hamda fonematik eshituvning rivojlanmaganligini maxsus logopedik yordamsiz bartaraf etib bo‘lmaydi, deb e‘tirof etadilar.

Adabiyotlar:

1. Abidova, Nilufar. «Problems of Preparing Future Defectologists to Work in the Conditions of Inclusive Education.» *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 2505-2511.
2. Абидова, Н.З. Организация работы учителя-логопеда в условиях инклюзивной практики / *Mahtab va hayot, журналы, № 4 (168) / 2022, 23-26 Б.*
3. Борозинец Н.М., Шеховцова Т.С. Логопедические технологии: Учебно-методическое пособие – Ставрополь, 2008. – 224 с.
4. Борозинец, Н. М. Логопедия. Фонетико-фонематическое недоразвитие речи, общее недоразвитие речи, алалия : учебное пособие / Н. М. Борозинец, Т. С. Шеховцова, М. В. Колокольникова. — Ставрополь : Северо-Кавказский федеральный университет, 2016. — 203 с.
5. Лурия, А. Р. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования: Учеб. пособие / А.Р.Лурия. - Москва : Academia, 2002. - 345 с.
6. Лынская, М. И. Преодоление алалии и задержки речевого развития у детей. Метод сенсорно-интегративной логотерапии : конспекты занятий / М. И. Лынская ; под редакцией С.Н. Шаховская. - Москва : Логомаг, 2015. — 90 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganildi hamda tahlil qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучена и проанализирована психолого-педагогическая и методическая литература по технологиям развития лексико-грамматической стороны речи у детей с тяжелыми дефектами речи.

SUMMARY

This article has studied and analyzed psychological, pedagogical and methodological literature on technologies for the development of the lexical and grammatical aspects of speech in children with severe speech defects.



BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING INKLYUZIV TA‘LIM JARAYONIGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abidova N.Z.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bola, pedagog, inklyuziv tayyorlik, motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ребенок с особыми образовательными потребностями, педагог, инклюзивная готовность, мотивационная, познавательная, оперативная, рефлексивная.

Key words: inclusive education, child with special educational needs, teacher, inclusive readiness, motivational, cognitive, operational, reflective.

Jahon ta‘lim tizimida bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorlashni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash, tizimli yondashuv asosida ta‘limni tashkil etish, kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ moduli ta‘lim texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorlashni yuqori sifatli bilimlar resurslaridan foydalanib rivojlantirish, bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorgarligini rivojlantirishning kompetensiya-kontekstli texnologiyalari, multimediali elektron resurslarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, kasbiy faoliyatni loyihalashtira oladigan bo‘lajak mutaxassis kadrlarni ijodiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘limga tayyorligi – bu alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta‘limini amalga oshirishga munosabat hamda integrativ shaxsiy ta‘lim, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xususiyatlari va ular bilan ishlash usullari haqida g‘oyalar mavjudligini bildiradi.

Bir qator tadqiqotchilar “inklyuziv tayyorlik” tushunchasiga to‘xtaladi, bu shaxsning murakkab ajralmas subyektiv sifati, shu jumladan, psixologik va pedagogik tuzilmalar, shuningdek, amaliy tajriba (V.V.Xitryuk) sifatida

tushuniladi va kasbiy pedagogik faoliyatning xususiyatlari, shu jumladan, kasbiy muhim shaxsiy fazilatlar bilan belgilanadi (O. A. Kozireva).

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak logopedlarning inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorgarligini o'rganish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Birinchi marta bu atama I.N.Hafizullina tomonidan ishlatilgan. U inklyuziv kompetensiyani "o'quvchilarning turli xil ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani umumiy ta'lim muhitiga kiritishni ta'minlaydigan, inklyuziv ta'lim jarayonida kasbiy funksiyalarni bajarish qobiliyatini belgilaydigan integrativ shaxsiy ta'lim sifatida" belgilagan [8].

Bo'lajak logopedlarning inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorgarligi inklyuziv ta'lim sohasida kasbiy va pedagogik funksiyalarni amalga oshirish, o'quvchilarning turli xil ta'lim ehtiyojlarini baholash va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'quv jarayoniga qo'shilishini kafolatlash, ularning rivojlanishi uchun qulay muhitni tashkil etish qobiliyati sifatida (D.N.Korneyev, N.Y.Korneyeva, A.A.Salamatov) [4]; ularning funksional vazifalarini bajarish qobiliyati sifatida (S.A.Kurnosova, T.S.Ovchinnikova, Y.V.Petrova) [6]; inklyuziv amaliyotni amalga oshiradigan bo'lajak logopedlarning maksimal samaradorligini ta'minlaydigan integral va shaxsiy ta'lim sifatida (A.O.Kozireva) [3] belgilanadi.

Tadqiqot doirasida bo'lajak logopedlarning inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorgarligining tuzilishi to'g'risida turli xil qarashlar tahlil etildi, natijada bir qator mualliflar tomonidan e'tirof etilgan inklyuziv kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarni ajratildi: motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv (I.N.Hafizullina) [8]; kasbiy-motivatsion, kasbiy-kognitiv, kasbiy-reflektiv, kasbiy-operatsion (D.N.Korneyev, N.YU Korneyeva, A.A. Salamatov) [5]; motivatsion-qiymatli, shaxsiy, bilim, faoliyatli (S.A. Kurnosova, T.S. Ovchinnikova) [6].

A.O.Kozireva inklyuziv kompetensiyaning tuzilishi bo'lajak logopedlarning uning faoliyat turlariga muvofiq maxsus mahoratidan iborat deb hisoblaydi, hamda uning diagnostik, kommunikativ, didaktik, prognostik, transformatsion, ta'lim, ijtimoiy tomonlarini ajratadi. Muallifning xulosalari tayyorlik va kompetensiya o'rtasidagi munosabatlar g'oyasiga asoslanadi [3].

B.A.Taxoxov bo'lajak logopedlarning inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi ko'rsatkichlarini aniqlaydi: kasbiy faoliyatni ongli ravishda tanlash; o'quvchilarga gumanistik yondashuv; ularning kasbiy faoliyati uchun axloqiy javobgarlik; ijodiy yondashuvning mavjudligi; kasbiy etikani bilish va ularga rioya qilish; kasbiy muloqot madaniyati [7].



Ko‘rib turganimizdek, tadqiqotchilar “bo‘lajak logopedlarning inklyuziv tayyorligi”, “bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorgarligi” tushunchalarini, ularning mazmuniga turli nuqtai nazarlarni ilgari surdilar.

Bir qator tadqiqotlar inklyuziv tayyorlik ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni ta‘kidlaydi: faoliyatning maqsad va vazifalarini aniqlash va undan foydalanish, vazifalarni hal qilish, boshqalarga ijobiy munosabat qobiliyati (S.O.Shindryayev) [9]; maqsadlarni qabul qilish va inklyuziv ta‘lim vazifalarini bilish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan ijobiy psixologik munosabatlarning mavjudligi, rivojlanish xususiyatlari haqida asosiy bilimlarning mavjudligi [1]; alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, ularning ota-onalari, bo‘lajak logopedlar bilan o‘quv va sinfdan tashqari ishlarda yetarli darajada o‘zaro bag‘rikenglik munosabatlar o‘rnatish (N.Z.Abidova) [2].

Bo‘lajak mutaxassisning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorgarligining kognitiv komponenti kognitiv kompetensiyasini o‘z ichiga oladi. Kognitiv kompetensiya pedagogik faoliyat haqidagi g‘oyalarning yaxlitligini ta‘minlaydi, shaxsning kognitiv faolligini faollashtiradi, kognitiv tajriba tarkibiy qismlarini rivojlantirish va boyitishga yordam beradi, ma‘lum nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun to‘g‘ri vaqtda ma‘lumotni idrok etish, ongda qayta ishlash, xotirada saqlash va ko‘paytirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi.

Bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorgarligining refleksiv komponenti refleksiv kompetensiyasini o‘z ichiga oladi. Refleksiv kompetensiya logopedning o‘z faoliyati asoslarini tushunish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, uning davomida uning qobiliyatlari, shaxsiy yutuqlari qayta baholanadi; uning kasbiy harakatlari natijalarini ongli ravishda nazorat qilish, haqiqiy pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Refleksiv kompetensiya logopedga o‘z-o‘zini bilish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘z shaxsiyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Inklyuziv kompetensiya tizimining bir qismi bo‘lgan refleksiv kompetensiya – bu inklyuziv ta‘limga tayyorgarlik jarayonida ta‘lim va kasbiy faoliyatda aks ettirish, shuningdek, inklyuziv ta‘limdagi kasbiy faoliyatda aks ettirish qobiliyatidir:

- inklyuziv ta‘lim g‘oyalarini amalga oshirish tajribasini, ularning ta‘lim, kasbiy faoliyati va hamkasblarining tajribasini tahlil qilish;
- inklyuziv ta‘limning turli pedagogik vaziyatlarida optimal yechimni tanlash;
- ularning akademik, kasbiy faoliyati natijalarini adekvat baholash, xatolarini payqash va ularni tuzatishga intilish qobiliyati;

- kasbiy va shaxsiy o‘shiga bo‘lgan ehtiyoj va ularning inklyuziv kompetensiyalari darajasini oshirish.

Bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta’lim jarayoniga tayyorgarligining operatsion komponenti operatsion asosiy kompetensiyalarni — pedagogik jarayonda inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish, mustaqil pedagogik vazifalar, qidiruv va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, paydo bo‘layotgan pedagogik vaziyatlarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan o‘zlashtirilgan pedagogik faoliyat usullari va tajribasini ifodalovchi aniq kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Inklyuziv kompetensiyaning funksional sohasi operatsion asosiy kompetensiyalar tizimi bilan ifodalanadi:

- diagnostika – o‘quvchilar jamoasining rivojlanish darajasini, shaxsni rivojlantirishni, alohida o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashni, umuman, pedagogik jarayonning holatini va uning alohida bosqichlarida inklyuziv ta’limda to‘g‘ri tashxis qo‘yish qobiliyati;
- prognostik – inklyuziv ta’limda muayyan pedagogik harakatlar natijalarini taxmin qilish qobiliyati;
- konstruktiv – inklyuziv ta’lim muhitida pedagogik faoliyatni diagnostika ma’lumotlariga mos maqsadlarni belgilash va o‘quvchilarning turli xil ta’lim ehtiyojlarini, turli xil shakllar, usullar va vositalarni hisobga olgan holda ularning pedagogik faoliyatini malakali rejalashtirish orqali qurish qobiliyati;
- tashkiliy – inklyuziv o‘quv muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etish, kasbiy faoliyatda shaxsiy yondashuvni ijodiy qo‘llash (masalan, individual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish) qobiliyati;
- kommunikativ – inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirishga hissa qo‘shadigan pedagogik jarayon subyektlari bilan konstruktiv munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati;
- texnologik – turli xil ta’lim ehtiyojlari va turli xil rivojlanish buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim usullari va texnologiyalarini amalga oshirish qobiliyati;
- tuzatish – oraliq va yakuniy diagnostika natijalarini hisobga olgan holda har qanday bosqichda pedagogik jarayonning borishini tuzatish qobiliyati;
- tadqiqot – pedagogik hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish qobiliyati.

Tadqiqotlar va mavjud amaliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta’lim jarayoniga tayyorgarligini shakllantirish mexanizmlari uning tarkibiy qismlariga (motivatsion-qiymatli, kognitiv,



faollik va refleksiv) va bo'lajak mutaxassislarning oliy ta'lim sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlariga (ta'limning mazmunining dolzarbligi; ta'lim konteksti; o'quv materialni tizimli hamda mustaqil o'qish, bahs-munozara, debat, musobaqa, "Mahorat darsi", muammoli ma'ruza, seminar, "Maslahat darsi", didaktik, rolli, ishbilarmonlik va imitatsion o'yinlar kabi ta'lim jaraenida turli shakl, metod va usullarini taqdim etish; o'quv ma'lumotlari va kasbiy vazifalarning amaliyotga yo'naltirilganligi; o'quv rejaralarining o'zgaruvchanligi va harakatchanligi, o'qitish shakllari va usullari) muvofiq belgilanishi kerak.

Bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni amalga oshirishning asosiy mexanizm sifatida biz nazariy (faol ma'ruzalar, davra suhbatlari, ijtimoiy va kasbiy munozaralar, vebinarlar) va amaliy (munozaralar, vaziyatlarni hal qilish, aqliy hujum, master-klasslar, amaliyot saytlari, loyiha usuli) mashg'ulotlarni tavsiya etamiz.

Shunday qilib, logopedlarini inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorlash mexanizmlarini tadqiq qilishning dolzarbligi ta'lim muhitining ehtiyojlari bilan bog'liq va bir qator qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan. Ushbu masalani o'rganish bilan shug'ullanadigan mualliflar bo'lajak logopedlarni amaliyotga yo'naltirilgan tayyorlashga e'tibor berishadi, bu nafaqat bilimlar tizimini shakllantirish, balki ularni kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Faol va interaktiv ish shakllari hamda usullari bilan to'ldirilgan o'quv dasturini amalga oshirish biz tomonidan bo'lajak logopedlarning kompetensiyasini shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida belgilangan.

Adabiyotlar:

1. Abidova, Nilufar. «Problems of Preparing Future Defectologists to Work in the Conditions of Inclusive Education.» *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 2505-2511.
2. Абидова, Н.З. Организация работы учителя-логопеда в условиях инклюзивной практики / *Мaktab va hayot, журналы, № 4 (168) / 2022, 23-26 Б.*
3. Козырева, О.А. Методология моделирования профессиональной компетентности педагога / О.А.Козырева. - *Educational Technology & Society* 11(1) 2008. - С. 375-377.
4. Корнеев Д.Н., Корнеева Н.Ю., Саламатов А.А. Инклюзивная компетентность педагога профессионального обучения: от идеи к диссеминации педагогического опыта / Д.Н. Корнеев, Н.Ю. Корнеева, А.А. Саламатов // *Современные наукоемкие технологии.* - 2016. - № 5. - С. 116-120.
5. Кузьмина, Н.В. Профессионализм педагогической деятельности / Н.В. Кузьмина, А.Л. Реан. - СПб., 1993. - 53 с.
6. Кучерявенко И. А. Проблема психологической готовности к профессиональной деятельности / И. А. Кучерявенко // *Молодой ученый.* - 2011. - № 12. - Т.2. - С. 60-62.
7. Ус О.А., Правилина А.А. Подготовка педагогов к работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) в условиях инклюзивного образования // *Научно-методический электрон-*



ный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 29. – С. 111–114. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56561.htm>

8. Хитрюк, В.В. Толерантность будущих педагогов к детям с особыми образовательными потребностями: к вопросу о готовности к работе в условиях образовательной инклюзии / В.В. Хитрюк, О.А. Ульянова // Вестн Брѣсцкага унвер. Серия 3. Философия. Педагопка. Психология. - 2013. - № 1. - С. 120-128.

9. Шматко, Н.Д. Для кого может быть эффективным интегрированное обучение / Н.Д. Шматко // Дефектология. - 1999.- № 1. - С. 41-46.; № 2. - С. 49-56.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada bo‘lajak logopedlarning inklyuziv ta‘lim jarayoniga tayyorligini shakllantirish muammosi o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, maqolada “inklyuziv tayyorlik” tushunchasi tahlil etilgan, inklyuziv tayyorlik ko‘rsatkichlari, tarkibiy qismlarining mazmuni tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается проблема формирования готовности будущих логопедов к инклюзивному образованию. Вместе с этим в статье анализируется понятие «инклюзивная готовность», показатели инклюзивной готовности, содержание ее компонентов.

SUMMARY

This article discusses the problem of developing the readiness of future speech therapists for inclusive education. At the same time, the article analyzes the concept of “inclusive readiness”, indicators of inclusive readiness, and the content of its components.



OILADA TA'LIM MUHITINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Matkarimov A. M

„Oila va xotin qizlar“ ilmiy tadqiqot instituti

Tayanch soʻzlar: oila, oiladagi taʼlim muhiti, xalqaro baholash tadqiqotlari, oʻquvchilarning taʼlimdagi muvaffaqiyati

Ключевые слова: семья, образовательная среда в семье, международные оценочные исследования, достижения учащихся в образовании.

Key words: family, educational environment in the family, international assessment studies, student achievements in education.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Xalqaro kongress markazida maktab taʼlimini isloh qilishga bagʻishlangan tadbirda „Bugun ota-onalarning ham masʼuliyatini oshirishimiz kerak. Ota-onalarning taʼlimga munosabatini oʻzgartirmagunimizgacha hech narsaga erisha olmaymiz[11]» deb taʼkidlashi ota-ona institutining yosh avlodning taʼlim olishdagi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumtaʼlim muassasalari oʻquvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning taʼlim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bogʻlagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy meʼyor sifatida ham talqin qilinishi mumkin boʻlib, bu tushuncha oʻquvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim boʻlgan bilim, koʻnikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy taʼlim tizimiga tadbiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari oʻrganilganligi hamda shu jihatlarini hisobga olgan holda taʼlimdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bogʻliq.

Asosiy qism. Xalqaro baholash tadqiqotlarida oʻquvchilarning taʼlimdagi muvaffaqiyati yuqori koʻrsatkichga ega emasligi, milliy taʼlim tizimi va oila hamkorligiga doir muammolarni yetarli darajada hal qilinmaganligi bilan

izohlanadi. Bu masala milliy ta'lim tizimining siyosiy maqsadi sifatida shakllanmog'i darkor. Shuningdek, oilalarda ta'lim muhitining rivojlanishi oila joylashgan hududga ham ko'p jihatdan bog'liq. Oiladagi ta'lim va tarbiya jarayoniga ko'maklashish hududdagi oilalar bilan ishlash muassasalari, kattalar ta'limi markazlari, yoshlar markazlari, bolalar bog'chalari, maktablar, diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar va o'smirlarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va bu orqali ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlash davlat siyosati darajasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar qatoriga kiradi. Jumladan maktablarda asosiy dars mashg'ulotlardan so'ng uy vazifalarini tayyorlash va ma'lum bir dastur asosida qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish, shu maqsadda professional kadrlarni tayyorlash, hududdagi barcha oilalar vaziyatidan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlash takliflari shakllanishi lozim.

Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlarida „o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati“ tushunchasi keng qo'llanilgan bo'lib, o'quvchining ta'lim mazmunini mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llay olishini ko'rsatadi. O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyati tushunishliligi;
- „umumta'lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi“ning samaradorligi;
- oilalarda ta'limiy qadriyatlarining rivojlanganligi;
- ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanishning mavjud holati.

Oiladagi ta'limiy muhit bilan bog'liq muammolarning asosiysi ota-onalarning pedagogik kompetentsiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, jamiyatda farzand tarbiyasi va ta'limi bo'yicha professional ta'lim dasturlarining mavjud emasligi, kamligi yoki mazmuning sifat darajasi pastligi. Buning natijasida ota-onalar internet tarmog'i orqali, o'z tanishlari orqali tajriba almashish orqali istagan ma'lumotlarini topishga harakat qiladi. Yana bir jihati aynan oiladagi ta'lim muhitini rivojlantirishga doir ma'lumotlar oiladagi tarbiyaviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarga nisbatan kamroq uchraydi. Ota-onalarning pedagogik kompetentsiyalarini rivojlantirish institutsional va professional yondoshuvni taqozo etadi.

Ma'lumki, „Ta'lim to'g'risida“gi qonunning 3-bobida „ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari“ ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, mazkur qonun bilan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar ham belgilab qo'yilgan. Jumladan, ta'lim ustuvorligining tan



olinishi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi kabi printsiplar ta'limning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, Ta'lim to'g'risidagi 5-moddada „jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi „, deb qayd etilgan[1]. Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda ayrim ota-onalar tomonidan farzandining ta'limi uchun to'la holda maktab mas'uli degan noto'g'ri tushuncha shakllangan. Bu tushuncha esa farzandlarning ta'limda muvaffaqiyatsizligi bilan uzviy aloqaga ega.

Rossiyalik olim G.F. Shershenevich „Oila – nikoh orqali birlashgan va ittifoq tuzgan shaxslar va ulardan tug'ilgan shaxslar ya'ni er, xotin va farzandlarning birgalikdagi yashashidir“ [22; 259] deb ta'kidlab o'tgan. Olimning fikricha, oila nafaqat aholini ko'payishi va rivojlanishi uchun javobgar bo'lgan, balki shaxsni tarbiyalovchi, balki muayyan yashash muhitini yaratib beruvchi va insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi eng muhim muhit hisoblangan, hisoblanayapti va bundan keyin ham hisoblanadi [22; 260]. Olim „shaxs sifatida shakllantiruvchi eng muhim muhit“ sifatida ta'limiy muhitni ham nazarda tutadi. Aslida, oila farzandlarning ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantirish tarbiyaning bir turi sifatida qarash mumkin bo'ladi. Farzandlarda ta'limga nisbatan qadriyali munosabatni rivojlanishi ularning shaxs sifatida ham, jamiyatdagi faol fuqoro sifatida ham bo'lajak mutaxassis sifatida ham ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy hamda kasbiy munosabatlarning sifat ko'rsatkichini ta'minlab, ularda mas'uliyatlilik, javobgarlilik, o'z manfaatidan halq manfaatini yuqori qo'yish kabi xususiyat va qadriyatlarni tarkib toptiradi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi. Bularni amalga oshirishda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro muloqot ham muhim ahamiyatga ega[5; 11]. Oila sharoitida ota-onalarning o'zlari atrofdagilar bilan ijobiy muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari hamda farzandlarda ham juda yoshlikdan muloqot madaniyati sifatlarining shakllanib borishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Ota-onalarning o'z farzandlarini qo'llab-quvvatlashi hamda oiladagi ta'lim muhit va munosabatning rivojlanganligi pedagog faoliyatini samaradorligi hamda sinfda ijobiy o'rganish muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga



ega. O'qituvchining o'z kasbidan roziligini qo'llab-quvvatlash maktablarda yuqori malakali o'qituvchilarni saqlab qolishning garovi hisoblanadi. Birgalikda ishlash va qo'llab-quvvatlash hamda maktabdagi ijobiy ijtimoiy muhitni va kuchli yetakchilik mahorati kabi ijtimoiy omillar o'qituvchilarning o'z kasbidan qoniqishi va ularni ish joylarida saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Insoniyat taraqqiyoti, jamiyat rivojini tarixiy kontekstda tahlil qilinar ekan, uning turli bosqichlarida shu davrni tavsiflovchi iboralar qo'llanilganligini ko'rish mumkin. „Ilk uyg'onish davri“, „Uyg'onish davri“, xususan „Sharq renessansi“, XX asrga kelib „kollektivlashtirish“, „elektrlashtirish“, „politexnizatsiya“, „industriyalashtirish“ va „kosmos asri“, „avtomatlashtirish“ va hakazolar. Biroq insoniyat tarixidagi taraqqiyot bosqichlarining mazmuni, mohiyati, nomlanishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar inson omili, unga ta'lim berish, uni tarbiyalash jamiyatni har qanday sharoitidagi ijtimoiy buyurtmasi bolib qolavergan[2; 50]. Iboralarning mazmuni taraqqiyotning keyingi bosqichi oldingi bosqichiga nisbatan inson omili ta'sirini kattalashib borayotganini ko'rish mumkin. Bu esa maktab ta'limi bilan birgalikda oilalarda ta'lim muhitini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Oilada ta'lim muhitini rivojlantirish xususida ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili oilada ta'lim muhitining pedagogik jihatlarini aniqlashtirishga imkon beradi.

J. L. Epstein o'z ilmiy asarida oilada farzandlarning „o'rganish orqali rivojlanishini qo'llab-quvvatlashini“ alohida ta'kidlab o'tadi. Oilada farzandlarning o'quv faoliyatiga jalb etish, mustaqil o'rganishini rag'batlantirish, uy vazifalarini tayyorlashishda yordamlashish, turli fan sohalariga doir suhbatlarni tashkil etish uchun tashabbuskorlik qilish kerak ekanligini ta'kidlab o'tadi[6; 395]. Oilada ta'lim muhitining shakllanishi va rivojlanishi ota-onalarning ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatining rivojlanganligi, ta'limni o'zlarining ustuvor vazifasi ekanligini to'liq his qilganligi, mohiyatini anglaganligi bilan tavsiflanadi. Oilada farzandlarning maktabgacha bo'lgan davri ularning intensiv o'rganish jarayoni va maktab ta'limi uchun boshlang'ich bilimlar bilan birgalikda o'rganish strategiyalarini shakllanishi bilan katta ahamiyatga ega.

M.Senechal va J. A. LeFevre o'z ilmiy tadqiqotida farzandlarning o'qish kompetentsiyasini oila muhitida rivojlantirishni tadqiq qiladi. Bolalarda o'qishga, kitobga bo'lgan ijobiy munosabat to'liq oilada shakllanadi. Ota-ona yoki akakalar bilan hamkorlikda kitob mutolaa qilishi, kitobni muhokama qilish „oilaviy qadriyat“ sifatida shakllanishi aynan maktabgacha bo'lgan davrda shakllanishiga urg'u beradi[15; 445].

A. T.Henderson va K. L. Mapp o'z ilmiy tadqiqotlarida oilada ota-onalarning „o'rganish uchun qulay muhit“ yaratishining amaliy mexanizmlari keltirib o'tilgan. Jumladan, farzandlarning tinch muhitda o'rganishi, farzandlarning



xonalari „motivatsiya berish“i kerak ekanligi, ta’lim orqali rivojlanish uchun barcha ta’lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo’lishi ta’kidlab o’tilgan[8; 241].

H. B. Weiss va J. N. Edwards o’zlarining tadqiqot ishlarida oilada farzandlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash bevosita ta’lim orqali amalga oshirishni tavsiya qilinadi[21; 218]. Bolalarning ijtimoiy qobiliyatlari, jamoada ishlashda faol munosabat shakllanishi hamda guruh a’zolariga empatiya ko’rsata olishi ham oilada shakllantiriladi.

K. V. Hoover-Dempsey va H. M. Sandlerlar esa farzandlarning ta’lim olishida rag’batlantiruvchi omil sifatida ota-onalarning maktab bilan hamkorligini keltirib o’tadilar[9; 4]. Ota-onalar uchun tashkil etilgan tadbirlarda „majburiyat“ sifatida emas, baki „ihtiyoiriy“ ishtirok etishi, o’qituvchilar bilan farzandining o’qishdagi rivojlanishi xususida suhbatlashishi farzand uchun namuna xususiyatiga ega bo’lib, ta’limga bo’lgan munosabati ijobiy tomonga o’zgaradi.

W. S. Grolnick va M. L. Slowiaczek o’z tadqiqot ishida oilada farzandlarning mustaqilligini qo’llab-quvvatlash masalasi yoritilgan. Oilada farzandlarning mustaqil bilim olishni rag’batlantirish, ularda mas’uliyat hissini rivojlantirish hamda o’zini o’zi boshqarishni rag’batlantirilishi ularning maktab ta’limida muvaffaqiyatli bo’lishini ta’minlaydi[7; 237].

J. Trusty va S. G. Niles esa o’z tadqiqot ishida esa farzandlarning kasbga yo’naltirishda, ularda ijtimoiy kasbiy mas’uliyatning dastlabki bosqichini rivojlantirish aynan oila muhitida amalga oshirilishi ta’kidlab o’tiladi. Farzandlarning qiziqish va talantlarini yo’naltirish va unga muvofiq ta’lim va kasb egallash imkoniyatlari xususida suhbatlar qurish hamda jamiyatda mavjud imkoniyatlarni tushuntirish oila davrasida amalga oshirilishi mazkur tadqiqot ishida o’z aksini topgan[20; 146].

S. B. Sheldon o’z ilmiy maqolasida ota-onalarning farzandlarining maktabdan tashqari ta’limini qo’llab-quvvatlashini bayon qilib o’tgan. Bolalarning maktabdan tashqari mashg’ulotlarda, turli tadbirlarda, sport mashg’ulotlarida ishtirok etishini ta’minlash, qo’llab-quvvatlash, har bir yutug’ini kuzatib borish bolalarda faol shaxsiy rivojlanish kontseptsiyasini rivojlanishi uchun asos bo’ladi[16; 149].

Oilada farzandlarning madaniy ta’lim olishi ularning madaniy, tarixiy, ijtimoiy ongini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. M. Souto-Manning o’z ilmiy maqolasida bolalarda madaniy qadriyatlarga munosabat, o’z milliy madaniyatini anglashi, madaniy ta’limning shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini anglashi oiladagi madaniy ta’limga bo’lgan munosabatlar natijasida shakllanishi ta’kidlab o’tiladi[17; 153]. Bolalarda moddiy va madaniy boylik o’rtasidagi ustuvorlik belgilashning ilk tasavvurlari oila muhitida shakllanadi. Bolalarni muzey, teatr, kino va boshqa madaniyat muassasalariga ota-ona hamrohligida olib borish, har



bir san'at asarining mazmunini tushunishiga yordamlashish bolalarning tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birgalikda, ularning kreativligi, ijodkorligini rivojlantiradi. Shuningdek, bu bolalarda boshqa madaniyatlarga hurmat, o'z madaniyatidan faxrlanish tuyg'usini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

A.Lareau esa ota-onalarning ta'lim sohasidagi islohatlarga befarq emasligi, tashabbuskorligi va faolligi oiladagi ta'lim muhiti hamda atrofidagi insonlarga ham ijobiy ta'siri haqida o'z maqolasida bayon qilib o'tadi [12; 480]. Maktab yoki hududlardagi ota-onalar tashabbuskorlik faoliyatlarida ishtirok etish orqali ham jamiyat ijtimoiy hayotidagi muammolarni atroficha o'rganish, amaliy faoliyat ko'rsatish bo'yicha ota-onalarning tajribalari „multiplikator“ xususiyatiga ega. Bu esa jamiyatda ta'limga bo'lgan munosabatning ijobiy dinamikligini ta'minlaydi.

Olima Q. Abdurasulova hozirgi davrdagi oilaviy munosabatlar sohasidagi o'zgarishlarni quyidagicha keltirib o'tadi.

- oila a'zolarining soni kamayib bormoqda (tug'ilishning kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkich kamayib bormoqda);
- oilaning ijtimoiy va madaniy qiymati tushib bormoqda;
- oilaning jamiyatdan ajralish va o'z qobig'ida o'ralib qolishga intilishi sodir bo'lmoqda;
- nikohdan ajralishlar soni oshib, noqonuniy tug'ilgan farzandlar soni ko'paymoqda;
- muvaffaqiyatsiz tuzilgan oilalar ko'paymoqda;
- ota-onalarning pedagogik tajribasi va mahorati kamayib bormoqda [4; 23].

Oilalardagi ta'lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat institutsionallashgan holda quyidagi ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi:

- Ota-onalar uchun kurslar, ma'ruzalar, oilalar uchrashuvi;
- Ota-onalar tashabbuslari asosida shakllantirilgan ta'limiy ahamiyatga ega tadbirlar (sayohatlar, uchrashuvlar, loyihalar va boshqalar);
- Turli tashkilot, muassasalar hamkorligidagi tadbirlar (tibbiyot muassasalari, mahalla va oilalar hamkorligi);
- O'z-o'ziga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan maslahat berish va qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan tashkilotlar;
- Ommaviy axborot- vositalari, gazeta va jurnallar, flayerlar orqali oilalarni qo'llab-quvvatlovchi media tashkilotlar [18; 212].

Oiladagi tarbiya qadriyat darajasiga ko'tarilishi lozim va bu oilaning ta'lim funksiyasini rivojlantiradi. Quyida pedagog olim M.R. Textor tomonidan taklif etilgan oilaning ta'limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o'tilgan.

- Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi muloqotning mazmuni va sifatining oshirilishi (jumladan muloqotda qo'llaniladigan so'zlar, atamalarni to'g'ri



- qo'llash va tushuntira olishi, ilmiy, hayotiy-amaliy faoliyatdagi ahamiyatini tushuntira olishi);
- farzandlarini dunyoni, atrof-olamni o'rganishda, anglab yetishda va jamiyatda ijtimoiy munosabatlar o'rnatishda qo'llab-quvvatlash;
 - oilada ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega o'yinlar o'ynash, kitobxonlikka o'rgatish, farzandining ilk yoshidan boshlab ovoz chiqarib kitob o'qib berish, uy sharoitida kichik tajribalar o'tkazish, birgalikda filmlar tamosha qilish, kitoblar, telefilmlar, kitoblar, fan yoki siyosat haqida suhbatlashish,
 - farzandlarining o'rganish va erishga yutuqlarini rag'batlantirish orqali ularni maktabgacha ta'lim muassasalari tayyorgarligi hamda maktabda o'qishiga ijobiy munosabatni rivojlantirish;
 - maktabda va sinfda sodir bo'layotgan voqealar haqida muntazam muloqot o'tkazish, uy vazifalarini tayyorlashda qo'llab-quvvatlash, muntazam ravishda kelgusi rejalari haqida suhbatlashish va rejalarini amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlash;
 - boshqa ota-onalar va o'qituvchilar doimiy aloqada bo'lishi, farzandining ta'lim sohasida qo'shimcha ehtiyojlarini qondirish uchun maktabdan tashqari muassasalar bilan doimiy aloqada bo'lishi va qo'llab-quvvatlashi [19; 155].

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o'zgarib bormoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy ehtiyojlari ham o'zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashmoqda va ularning fikrlash darajasi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar asosan Z va α gen avlodlariga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdin maktablarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdagi funktsional vazifalari salmog'i, ijtimoiy ma'suliyati yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi xalqaro baholash tadqiqotlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta'lim va uning sifatiga talablari oshib borayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko'plab muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi [19; 266]. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o'qituvchilarning hamkorlikka qiziqishi yo'qligi bilan tavsiflanadi. Otterpohl und Wild [13; 295] o'z tadqiqotlarida qat'iy xulosa sifatida, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona „hamkorlik“ tushunchasiga ega bo'lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek maktab ma'muriyati, o'qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari tubdan bir-biridan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo'lganda tashkillashtiriladigan kam sonli suhbatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda albatta kommunikativ muvafiqlashtirish jarayoni zarur bo'lib, ota-ona va maktab



hamkorligi aslida qanday bo'lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim[13; 293].

Oila va uning ma'naviy-iqtisodiy farovonligi bir vaqtning o'zida shaxsning axloqiy-ruhiy barkomolligiga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga olib keladi. Shu bois oila va undagi hayotning turli jihatlarini tadqiq qilish ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega [2; 50].

Oilada ota-onalar bolalar bilan muloqot jarayonida muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi. Masalan: biror-bir voqea, hodisaning mohiyatini tushuntirishda, bolaga u tomonidan sodir etilgan biror-bir noto'g'ri xatti-harakat uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda ota-onalar, avvalo, nimalarga e'tibor berishi kerak: birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan variantlari saralanadi, uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta'sir tashkil qilinadi. Biroq, hali tanlangan ta'sir metodiga adekvat bo'lgan, u orqali pedagogik ta'sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya'ni, ma'lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan so'ng, ta'sir metodini tanlab bevosita ta'sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Bola ota-onaning xatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, ular aytgan so'zlarni takrorlaydi. Demak, ota-ona bola shaxsi shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi lozim[3; 11].

Oilada farzandlar bilan muloqot deganda, kishilarning o'zaro muloqotga kirishish tizimi tushuniladi, uning asosiy mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Ota-onalar bu jarayonni tashkil etishi, faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqishi, va boshqarishi lozim. Chunki farzandlar hayotda asosiy andozani oilada, ulardan oladilar. Muloqotchanlik ham oilada shakllanib, rivojlanadi. Oiladagi muloqotning tarbiyaviy ahamiyati, ota-onaning farzandlari bilan faol muloqotga kirisha olishi, tarbiya jarayonida ularni bilishi, o'rganish kaliti va tarbiyaviy faoliyatining ijodiy xarakteri, bola shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlar paydo bo'lishining oldini oladigan, farzandlarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan muhim vositadir.

Xulosa. Ota-onalar farzandlarini ta'lim jarayonida yangi bilimlarga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini qo'llab-quvvatlashi va bunda metodik jihatdan yordam berishi lozim. Ma'lumki, o'rganishga bo'lgan motivatsiya individual xususiyatga ega. Bunda shaxsiy qiziqish, maqsad va ustuvorliklar hal qilivchi ahamiyatga



ega. Shunday bo'lsada, umumiy holatda oilada ta'lim muhitini rivojlantirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish muhim hisoblanadi:

1. Aniq va real maqsadlar: Aniq va real maqsadlarni shakllantira olishi farzandlarning maqsadli hamda o'rganishga bo'lgan yo'nalishli faoliyatini belgilab beradi. O'rganishga bo'lgan yo'nalishli faoliyat ma'lum bir vaqt oralig'ida bilim darajasini ortishi bilan belgilanadi. Masalan til o'rganishda A1 darajadan, 3 oydan so'ng A2 darajaga erishishini ko'rsatadi. Aniq va real maqsadlarning shakllanishi o'rganish ta'lim oluvchi uchun maqsadlarga erishish uchun vosita vazifasini o'taydi.

2. Qiziqish va ishtiyoq. Agar mavzu va uning mazmuni farzandlarda qiziqish va ishtiyoq uyg'otsa o'rganishga bo'lgan motivatsiya shunga mitanosib ravishda ortadi. Bu esa farzandning faol o'rganish bilan band bo'lishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ota-ona farzandidagi har bir elementar qiziqishni anglashi va unga ishtiyoq berishi kerka bo'ladi. E'tibor bermalik oqibatida bolada keyingi qiziqishlarini aytmaslik, o'rtoqmaslik va natijasiz degan xulosa shakllanishiga olib keladi.

3. Mukofot va e'tirof: Mukofot farzandlarning o'rganish motivatsiyasini saqlab qolish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Bu marralarga erishish yoki ma'lum ballarni to'plash shaklidagi mukofotlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, boshqalarning e'tirofi, masalan, o'qituvchilar yoki ota-onalarning maqtovi o'rganishga bo'lgan motivatsiyani rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda, moddiy ko'rinishdagi mukofot yoki e'tirof pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq emas degan xulosa o'rinli deb hisoblanadi.

4. Ma'no va mazmunni anglab yetish: Farzandlar o'rganishning maqsadi va ahamiyatini tushunsa va unda hissiy-kognitiv bog'liqlik vujudga kelsa o'zini-o'zi o'rganishga nisbatan rag'batlantira oladi. Hissiy-kognitiv bog'liqlik o'rganilayotgan mavzunining ahamiyatini tushunishi, ta'lim oluvchi o'z shaxsiy, kasbiy hayoti bilan bog'liqligini anglashi, real vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini bilishi uning o'rganishga bo'lgan faoliyatini jiddiy tus olishiga turtki bo'ladi.

5. Ijobiy o'rganish muhiti: Farzandlarning motivatsiyasi ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'rganish muhitida rivojlanib boradi. Bunday muhit ta'lim oluvchiga o'zini qulay his qilishi, rag'batlantiradigan, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradigan muhitni anaglatadi.

6. Qobiliyat va salohiyatiga ishonish: Agar ota-onalar farzandlarini o'z qobiliyati va salohiyatiga ishonтира olsa, ular o'rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga va barcha shaxsiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga harakat qiladi.

7. O'rganish jarayonini „kashfiyot“ga qiyoslash: Kashfiyotlar bosqichma-bosqich izlanish orqali natijalarga erishishni tavsif etadi. O'rganish jarayonini



ham kashfiyot sifatida talqin qilish orqali o'rganish „majburiy“ va „vazifa“ sifatida emas, balki „ixtiyoriy“, „Aha effektiga“ ega jarayonga aylanadi. O'rganish jarayoni o'rganishning faol davridan boshlab majburiyat sifatida emas, balki kashfiyotlar singari „rivojlantiruvchi, qiziqarli hamda sermazmun“ faoliyat sifatida tasavvur uyg'otishga erishish lozim bo'ladi. O'rganish tasavvur kuchini rivojlantiradi hamda ta'lim oluvchinni „chegarasiz fikrlash“ imkonini taqdim etadi.

Oilada shakllangan ta'lim muhiti milliy ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatning rivojlanishi oiladagi ta'lim muhiti bilan uzviy aloqadorlikka ega.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“ gi Qonuni// O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. Abdullaeva D.U. Oila haqidagi ijtimoiy tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi fenomen// Pedagogika jurnali, 2022 yil, 1-son.- B. 50-53
3. Abdulleeva M. A. Oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T. 2009. – B.11.
4. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.
5. Alimova G.Oilada bolalar muloqotchanligini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari/ Kasb-hunar ta'limi, 1-son, 2019. -11-14B.
6. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools// Office of Educational Research and Improvement (ED), Washington, DC.; Disney Learning Partnership, Burbank, CA.; DeWitt Wallace/Reader's Digest Fund, Pleasantville, NY. 2001.-p. 395
7. Grolnick, W. S., & Slowiaczek, M. L. Parents' Involvement in Children's Schooling: A Multidimensional Conceptualization and Motivational Model// Child Development, Vol. 65, No. 1. (Feb., 1994), pp. 237-252
8. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement// SEDL – Advancing Research, Improving Education, 2002. -p. 241
9. Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. Why Do Parents Become Involved in Their Children's Education? Review of Educational Research, 67(1), 1997. P. 3-42. <https://doi.org/10.3102/00346543067001003>
10. <https://kun.uz/91547033>
11. Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse, Bewertungen und Perspektiven. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik, 2010. -p. 266
12. Lareau, A. Unequal Childhoods: Class, Race, and Family Life (2nd ed.). University of California Press, 2011 -p. 480 <http://www.jstor.org/stable/10.1525/j.ctt1ppgj4>
13. Otterpohl, N. & Wild, E. (2019). Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie. Springer Reference Psychologie Berlin, 2019. p. 293-306Springer.
14. Sacher, W. Eltern, Lehrkräfte und pädagogische Fachkräfte als Partner – Voraussetzungen und Wege ihrer Kooperation. In G. Aich, C. Kuboth, M. Gartmeier & D. Sauer (Hrsg.), Kommunikation und Kooperation mit Eltern (1. Auflage, 2017. p. 21-34).
15. Sénéchal M, LeFevre JA. Parental involvement in the development of children's reading skill: a five-year longitudinal study. Child Dev. 2002 Mar-Apr;73(2). -p. 445-460



16. Sheldon, S.B. Linking School–Family–Community Partnerships in Urban Elementary Schools to Student Achievement on State Tests. *The Urban Review* 35, 2003 -p. 149–165. <https://doi.org/10.1023/A:1023713829693>

17. Souto-Manning, M. *Multicultural Teaching in the Early Childhood Classroom: Approaches, Strategies, and Tools, Preschool–2nd Grade*. New York: Teachers College Press: Washington DC, 2003. -p. 153

18. Textor, M.R.: *Allgemeine Förderung der Erziehung in der Familie*. § 16 SGB VIII. Stuttgart 1996. -p. 212.

19. Textor, M.R.: *Die Bildungsfunktion der Familie stärken: Neue Aufgabe der Familienbildung, Kindergärten und Schulen?* Nachrichtendienst des Deutschen Vereins für öffentliche und private Fürsorge 2005, 85 (5), -p. 155-159

20. Trusty, J., & Niles, S. G. *School Counseling and Student Outcomes: Summary of Six Statewide Studies// Professional School Counseling*, v16 n2, 2012.- p.146-153.

21. Weiss, H. B., & Edwards, J. N. *Linking School-Family-Community Partnerships in Urban Elementary Schools to Student Achievement on State Tests*, 1992. -p. 218.

22. Шершеневич Г.Ф. *Учебник русского гражданского право*. Т. 2, м., -М., 2015, С.259.

РЕЗИОМЕ

Maqolada milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda oila va undagi ta'lim muhitining rivojlanganligi ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligi bayon qilingan. Xalqaro baholash tadqiqotlarida ham oila, oiladagi ta'lim muhiti kabi ijtimoiy-pedagogik jihatlariga kent e'tibor qaratilgan. O'quvchining ta'limda muvaffaqiyatga erishishida oilada ta'lim muhitining shakllanganligi hamda ota-onalarning ta'limga bo'lgan ijobiy munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada shuningdek oilada ta'lim muhitini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan.

РЕЗИОМЕ

В статье утверждается, что развитие семьи и ее воспитательной среды является социально-педагогической необходимостью в развитии отечественной системы образования. В международных оценочных исследованиях также уделяется внимание социальным и педагогическим аспектам, таким как семья и образовательная среда в семье. Формирование образовательной среды в семье и положительное отношение родителей к образованию имеют решающее значение для успехов ученика в учебе. Также в статье анализируются проблемы, связанные с развитием воспитательной среды в семье.

SUMMARY

The article argues that the development of the family and its educational environment is a social and pedagogical necessity in the development of the domestic education system. International evaluation studies also pay attention to social and pedagogical aspects, such as the family and the educational environment in the family. The formation of an educational environment in the family and a positive attitude of parents towards education are crucial for a student's academic success. The article also analyzes the problems associated with the development of the educational environment in the family.



OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Nazarova Z.T.

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat, kompetensiya, oily ta'lim, motivatsiya, ta'lim-tarbiya, pedagogik jarayon, refleksiv faoliyat.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, компетентность, семейное воспитание, мотивация, воспитание, педагогический процесс, рефлексивная деятельность.

Key words: professional activity, competence, family education, motivation, education, pedagogical process, reflective activity.

Bugungi kunda pedagogika sohasini rivojlantirish, bu sohada yetuk pedagogik kadrlarni yetishtirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oily ta'lim muassasalarida pedagogika fanlar tizimini chuqurlashtirilgan tartibda o'tish, yangi pedagogik kadrlarni kasbiy kompetentligini oshirish, ularni to'liq kasbiy kompetensiyalar bilan ta'minlash ishlari tizimli bosqichlarda ro'yobga chiqmoqda.

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimining formal tuzilmasi o'qituvchilar, ta'lim vositalari, talabalar hamda o'qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchilarni kasbiy pedagogik kompetentligini shakllantirishdan maqsad – davlat ta'lim standartlariga muvofiq mazkur, ya'ni gumanitar soha pedagogika ta'limi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalardan muayyan fan g'oyalari ko'ra yetuk, malakali kadrlarni tayyorlashdir.

Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki, oliy ta'limda tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya



jarayonining mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning refleksiv monitoringi konseptsiyasini ishlab chiqish ilgari surilgan gipotezani har tomonlama asoslashga o'tish imkonini beradi.

Biz bilamizki kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bolgan bilim, konikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi, biror narsadan xabardorligi bo'lsa, kompetentsiya esa ma'lum bir sohadagi mutaxassisning bilimini anglatishini tushunamiz.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis eng avvalo:

- muloqot qila olish qobiliyatlari;
- jamoada samarali ishlash;
- ishni o'z vaqtida bajarish;
- mehribonlik;
- ijodkorlik;
- ishga mehrlil yondashish;
- yonidagi odamlarni o'ziga jiplashtirish;
- vazminlik;
- mulohazakorlik;
- ijrochilik;
- natijaga yo'nalganlik;
- qaytma aloqa qila olish;
- stressga barqarorlik;

- nostandart vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaslik va to‘g‘ri takliflar yarata olish;
- axborotlarni tahlil qila olish;
- o‘z fikrini tinglovchiga to‘liq va aniq etkaza olish hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirishni va ma’lum natijalarga erishishni ta’minlaydigan xususiyatlar (motivlar, e’tiqodlar, munosabat) ga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik kompetentlik pedagogik jarayon asosida namoyon bo‘ladi. Qachonki pedagogik jarayon to‘g‘ri vujudga kelsagina, ta’lim beruvchi o‘z kompetentligini samarali qo‘llay oladi. Xo‘sh o‘zi pedagogik jarayon nima? Shu tushuncha haqida bilib olamiz.

Pedagogik jarayon – o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘zaro ta’siri deb ataladi, u belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan va vaziyatni oldindan rejalashtirilgan o‘zgarishlarga, o‘qituvchilarning xususiyatlari va fazilatlarini o‘zgartirishga olib keladi. Boshqacha aytganda, pedagogik jarayon ijtimoiy tajribaning shakllangan shaxs (shaxs) sifatlariga aylanishi jarayonidir. Bu jarayon ta’lim, tarbiya va rivojlanish jarayonlarining mexanik aloqasi emas, balki yangi yuqori sifatli ta’limdir. Yaxlitlik, umumiylik va birlik pedagogik jarayonning asosiy belgilaridir.

Pedagogik jarayonda kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon boladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid malumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir.

Maxsuskompetentlikkasbiy-pedagogikfaoliyatnitashkiletishgatayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash va rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- metodik kompetentlik pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash,



metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

- informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

-innovatsion kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

-kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, tinglovchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

-texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

-ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy takomillashib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish-pedagogik muammo sifatida qaralsa, quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1. Kognitiv (bilimga egalik) darajalarini takomillashtirish.
2. Operatsion (faoliyat ko'nikmalarining shakllanganligi, texnologik savodxonlik).

3. Ma'naviy-axloqiy (shaxsiy rivojlanish va kasbiy mehnat natijalarini qadriyatli baholash, qadriyatlarni o'zlashtirish).

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi

Kasbiy komponentlari	Dasturiy bosqichlar va kutiladigan natijalar	Shakl va metodlar
Motivatsiya	Talabalar tomonidan ijtimoiy kompetensiyalarning dolzarb ahamiyatining qabul qilinishi, kasbiy-ma'naviy burchning anglanishi; har bir o'quv vazifasini muhim, amaliy zarurat, ish sifatida qabul qilish	-muayyan ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish; - muammoli savollar; -mavzuni muammoli tahlil qilish; - qaror qabul qilishga o'rgatish; -o'z o'zini tanqidiy baholashga o'rgatish.
Kognitiv	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarni qo'llashga nazariy tayyorligi; o'quv materialini tizimli o'zlashtirish va uni qo'llashga tayyorlik	- fan o'qituvchisining namuna-idealini yaratish; - pedagogik keyslarni echishda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish; - talabalarga ularning qiziqish, motiv va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik vazifalar taklif qilish.
Operatsion-faoliyat	Ijtimoiy kompetensiyalarni amalga oshirishga texnologik tayyorlik; talabalarni o'z ijtimoiy kompetensiyalarini boshlang'ich sinflarda qo'llashga jalb qilish.	- o'quv materiallarini fanlararo tahlil asosida umumlashtirish; -asosiy bilim va malakalarni umumlashtirish -murakkab o'quv vazifalarini berish, yakka tartibda amaliy topshiriqlar berish, master klass.



Diagnostik faoliyat	O'quvchilarni tarbiyalashga kasban, ma'nan tayyorlik.	- mashg'ulotlarda turli rolli o'yinlarni tashkil qilish; - "o'qituvchi-o'quvchi", «o'quvchi o'quvchi», «o'quvchi ota ona», «ota-ona o'qituvchi» shakllaridagi muammoli vaziyatlarni adolatli, nsonparvarona hal qilish, faollik, mas'uliyat; – pedagogik tavsifnomalar, xulosa, loyihalar tuzish.
---------------------	---	---

Bugungi kunda oily ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi shaxsiy talablar muhim ahamiyat kasb etadi:

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirishi;
- keng ilmiy duyoqarashi veteran e'tiqod sohibi bo'lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
- o'z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;
- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoqlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg'usini, xatti - harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi, har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlash, pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.



Ayniqsa, bo'lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimliligi katta ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. . diss. T.: 2007.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son,70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning ayrim muammolari va yechimlari yuzasidan metodik tavsiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлена информация о методических рекомендациях относительно некоторых проблем и решений повышения профессиональных компетенций будущих преподавателей высших учебных заведений.

SUMMARY

The article provides information on methodological recommendations regarding some problems and solutions for improving the professional competencies of future teachers of higher education institutions.



INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PSIXOLOGIK TAYYORLASH TIZIMI

Adilova M.F., Vositova H. H.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kasbiy faoliyat, mutaxassis, psixologik tayyorlash, ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ijodiy fazilat, o'z-o'zini rivojlantirish, intilish, mustaqillik va tashabbuskorlik.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, профессиональная деятельность, специалист, психологическая подготовка, содержание обучения, учебный процесс, творческие качества, саморазвитие, стремление, самостоятельность и инициатива.

Key words: future primary school teachers, professional activity, specialist, psychological training, educational content, educational process, creative qualities, self-development, aspiration, independence and initiative.

So'nggi yillarda insonning yuqori kasbiy mahoratga erishish muammosiga qiziqish jamiyatda turli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada ortishi bilan paydo bo'ldi. Zamonaviy jamiyatining rivojlanish tendentsiyalari odamlarni mustaqillik, moslashuvchanlik, har bir kasbga ijodiy va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga yo'naltiradi. Bu jamiyat taraqqiyotini ta'minlabgina qolmay, balki odamlarning munosib hayot kechirishining ham kalitidir.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy jabhasidagi tub o'zgarishlar ta'limning ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishi bilan birga ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini qamrab olgan kuchli innovatsiya to'lqiniga olib keldi. Bularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni yuqori kasbiy saviyada o'qitish va tarbiyalash muammolarini hal etishga qodir pedagog kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

So'nggi paytlarda jamiyatning global inqirozli, jumladan, ekologik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolarni hal etish zarurligi tobora dolzarblashib bormoqda. Olimlarning fikricha, mazkur muammolar



ko'p jihatdan ta'lim tizimidagi inqiroz bilan bog'liq bo'lib, bu jamiyatga zarur bo'lgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va barqaror rivojlanish modeliga o'tishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu inqiroz keyingi yillarda oliy kasbiy-pedagogik ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan quyidagi holatlar:

- pedagog kadrlar tayyorlashning standart tizimi bilan kasbiy faoliyatining individual-ijodiy tabiati o'rtasida;

- hozirgi davrda davlat va jamiyat tomonidan zamonaviy o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligining haqiqiy darajasi o'rtasida;

- pedagogik muammolarni hal qilishda tizimli tahlildan foydalanish zarurati bo'lsa-da, biroq bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga yaxlit yondashuvning mavjud emasligi o'rtasida;

- oliy ta'limda reproduktiv tabiatdagi o'qitishning ustunligi bilan birga pedagogik faoliyatda individual-ijodiy yondashuv o'rtasida, ya'ni bunda «Ustoz-shogird» tizimidagi ta'limning o'zaro ta'siriga alohida ahamiyat beriladi.

- jamiyatning iqtisodiy inqiroz sharoitida bir tomondan, o'qituvchilik kasbiga sadoqatli va uning yuksak maqsadini tushunadigan mas'uliyat hissi, fuqarolik faolligi rivojlangan pedagoglarga bo'lgan ehtiyoji bo'lsa, ikkinchi tomondan pedagoglik kasbi nufuzining pasayishi, ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash bilan bog'liq jiddiy inqirozlar, yoshlar orasida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishning susayishi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ushbu qarama-qarshiliklarning mavjudligi yoshlarda o'quv jarayonida tashqi motivatsiyaga tayanishi, kasbiy bilim-ko'nikmalarning etarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi va kasbiy o'zini o'zi anglash ehtiyojlariga to'sqinlik qiladi. Bunday sharoitlarda ta'lim sifatini barcha bosqich va shakllarda oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimidagi inqirozni bartaraf etish ma'muriy, moddiy va tashkiliy ta'minotni kuchaytirish bilan birga, uning ilmiy, o'quv va uslubiy ta'minotini yaxshilashni ham o'z ichiga oladi. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ham to'liq taalluqlidir.

Oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonining turli jihatlari: ta'lim mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish, ularning bilim, ko'nikmalarini baholash va nazorat qilish shakllariga ta'sir qiladi. Bu esa ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etishda ifodalanadi va o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tashkiliy va boshqaruv jarayonlari uchun ijobiy sharoitlarni ta'minlashi lozim bo'lgan qulay innovatsion ta'lim muhitini ta'minlashni taqozo etadi [1].



Bugungi kunga qadar talabalarni kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash masalasi borasida juda katta tajriba to'plangan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda bu shaxsiy sifatlarni shakllantirishning bir turi sifatida uning maqsadi individual psixologik xususiyatlarini aniqlash, motivatsiya va qobiliyatlarni rivojlantirish bilan belgilangan. Jumladan, L.N.Zaxarova (1993), V.V.Rijov (1995) va G.V.Sorokoumovalar (2011) muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlash uchun shaxsning ichki psixologik resurslarini jalb qilish va faollashtirishni tadqiq qilishgan [2]. Ular psixologik tayyorgarlik natijasi sifatida shaxsning ichki dunyosi va xulq-atvorining kognitiv, motivatsion, kommunikativ, refleksiv, ijodiy va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarini shakllantirish jarayonida ifodalanadigan faoliyatga psixologik tayyorlikning ma'lum darajasi ekanligini ta'kidlashadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari talabalarni zarur kasbiy bilimlarni mustaqil ravishda egallash, ularni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish usullari bilan birga o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishga ham qaratilgan. Ushbu muammolarni hal qilishda bo'lajak mutaxassislarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda kuzatilayotgan o'qituvchi shaxsiga bo'lgan ijtimoiy talabning o'zgarishi, uning psixologik tuzilishida ijodiy fazilatlar, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, mustaqillik va tashabbuskorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qituvchi shaxsini, dunyoqarashini psixologik va boshqa tegishli fanlar nuqtai nazaridan kengroq rivojlantirish bu borada yangicha yondashuvlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi [3].

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitini yaratish bo'lajak mutaxassislarni psixologik tayyorlashga innovatsion yondashuvni amalga oshirish orqali ham yordam berishi mumkin. Biroq, hozirgi kunga qadar, «innovatsiya muammolari va ularni hal qilish vazifalariga imkon beruvchi tamoyil, usul va uslublar tizimi» sifatida akmeologik yondashuv A.A.Derkach va V.G.Zazykinlar tomonidan innovatsiya doirasida 2003-yilda nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. sh uchun asosan qo'llanilgan.

Shuningdek, N.V.Kuzmina (1993), A.A.Derkach (1997), A.G.Laptev (1998), G.P.Filippova (1998), S.L.Kandybovich (2000), O.G.Moskalenko (2000), V.N.Markov (2007), E.V.Selezneva (2007), I.N.Noss (2007), V.S.Agapov (2007), E.P.Kostenko (2008) va V.R.Orestovalar (2010) turli faoliyat sohalarida innovatsion mexanizm va usullarga erishish muammolarini tadqiq qilishgan.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion yondashuvlarni qo'llash yo'llari ancha kam o'rganilgan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf



o'qituvchilarining psixologik tayyorgarligida innovatsiyon yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari haligacha maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmagan [4].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsiyon yondashuvga asoslangan psixologik tayyorgarligi kontseptsiyasi hali yaratilmagan. Zamonaviy jamiyatning turli mutaxassislariga, shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoji oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatda o'zini o'zi rivojlantirishga tayyorlik darajasi o'rtasidagi muayyan qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Talabalarni psixologik tayyorlash jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, u o'quv jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan bilimko'nikmalarni egallash bilan birga, kasbiy faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga bosqichma-bosqich harakatni amalga oshirishga yordam beradigan aqliy fazilatlarini shakllantirishga hissa qo'sha olsin [5].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining psixologik tayyorgarligiga innovatsion yondashuvni kasbiy ta'lim tizimining hodisasi sifatida psixologik tayyorgarligi jarayoni yaxlit tashkil etish tamoyillariga asoslanadi [9]. Talabalarda kasbiy o'zini o'zi anglash uchun psixologik shart-sharoitlar kasbiy shakllantirish jarayonidan boshlanadi. Shu sababli oliy ta'limning kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliy jarayonda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy o'zini o'zi anglash psixologik shart-sharoit sifatida amaliy jarayonda shakllanadigan va rivojlanadigan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi [6].

Innovatsion yondashuv kasbiy faoliyatda shaxsning sub'ektiv rivojlanishi bilan bog'liq faolligi va ijodkorligining yuqori natijalarini ta'minlaydi. Shuningdek, bu kasbiy jihatdan muhim motivatsiyani, o'qituvchilik faoliyatining operatsion sohasining psixologik tarkibiy qismlari hisoblangan kasbiy bilim, o'z-o'zini anglash, pedagogik qobiliyat, individual sub'ektivlik asosi sifatidagi ijodkorlikni o'z ichiga oladi. Ularning shakllanishi L.S.Vigotskiy tomonidan psixikaning rivojlanishida ta'limning etakchi roli, proksimal rivojlanish zonasi kontseptsiyasi to'g'risida tuzilgan pozitsiyaga asoslanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuv shaxsiy o'zini o'zi anglash muammosini kengaytirishga imkon beradi va tashqi dunyo bilan keng aloqalar tarmog'iga kiritilgan shaxs to'g'risidagi bilimlarni yaxlit shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuv bo'lajak mutaxassislarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchilarni maksimal darajada foydalanishga



yo'naltiradi. Bu yondashuv tabiatan insonparvarlikka yo'naltirilgandir [7]. Chunki u nafaqat yetuk mutaxassislarni shakllantirish qonuniyatlarini ilmiy asosda ochibgina qolmay, balki hayotiy istiqbolning mavjudligi va ahamiyatini anglash, ijodiy motivatsiya darajasini oshirish, hayotdagi insonparvarlik qadriyatlarini ko'paytirishga yordam beradi.

Jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy inqiroz sharoitida, ko'pchilik uchun o'zini o'zi anglash muammosi ayniqsa keskinlashdi. Shubhasiz, o'z-o'zini anglash jarayoni asosan insonning hayotiy sharoitlari asosida belgilanishi bilan birga, uning yutuqlarining muhim qismi: qadriyatlari, irodasi, motivatsiyasi, qobiliyatlari o'ziga bog'liq. Qolaversa, kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvning asosiy omili sifatida o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini rivojlantirish juda katta salohiyatga ega.

O'zini o'zi anglash va o'z-o'zini rivojlantirish - bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni doimiy ravishda yangilash, kasbiy mahoratni oshirish, kasbiy muhim hamda shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdir. Bularning barchasi insonning o'z-o'zini rivojlantirish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish bo'yicha olib boradigan faoliyat natijasidir [8].

Shunday qilib, bilim maxsus kasbiy adabiyotlarni o'qish, tushunish va yodlash natijasigina bo'lib qolmay, balki u ko'nikma va malakalarni shakllanishi hamda ma'lum harakatlar tizimini bajarish imkonini beruvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, bu jarayon insonning ehtiyoj, maqsad va munosabatlariga turtki bo'ladi.

Ammo inson o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini rivojlantirish orqali «o'z faoliyati»ni qanday yaxshilash mumkinligini bilib oladi. Psixologik tayyorgarlik shaxsiy va kasbiy o'sish sharti sifatida o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun ma'lumot berib, ushbu bilim va ko'nikmalarni olishga yordam beradi. Binobarin, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining psixologik tayyorgarligi kasbiy pedagogik mahoratga erishishda katta rol o'ynaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorlashda innovatsion yondashuvning ahamiyatli jihati shundaki, talabalar shaxsini rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik ularning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, maqsadi, motivi va axloqiy tamoyillarini shakllantirishda, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'ladigan bilim-ko'nikmalarni egallashida tutgan o'rni bilan belgilanadi [9].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlashga qo'yiladigan yangi talablar o'qituvchi shaxsiga



bo'lgan ijtimoiy talabning o'zgarishi bilan bir qatorda so'nggi o'n yilliklarda psixologiya fanida sodir bo'lgan o'zgarishlarning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Adilova M.F. (2022). Innovation yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish. Integration of science, Education and practice. Scientific-methodical journal, 3(7), 99-106.
2. Adilova M.F. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. Eurasian Scientific Herald, 10, 53-58.
3. Adilova M.F. (2022). Psychological and pedagogical factors of innovative approach to the formation of communicative competence of the future teacher. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 304-308.
4. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021)– Б.567-570.
5. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишининг психологик қўллаб-қувватлаш / “Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети, 2021 йил 21 апрель. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.
6. Салаева М.С. Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак педагогларнинг виртуал академик мобиллигини шакллантириш // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.
7. Салаева М.С. Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизмлари // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» журналы № 6/3 - 2022 жыл. – Б. 83-88.
8. Салаева М.С., М.Джумабаева. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali. ISSN (E) – 2181 – 1334. Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021. Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz
9. Salaeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 83–91. ISSN 2181-3558. VOLUME 1, ISSUE 3. AUGUST 2022. DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion ta'lim muhitida psixologik tayyorlash, shuningdek, shaxsning ichki dunyosi va xulq-atvorining kognitiv, motivatsion, kommunikativ, refleksiv, ijodiy va axloqiy-ma'naviy xususiyatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются вопросы психологической подготовки будущих учителей начальных классов в инновационной образовательной среде, а также формирования познавательных, мотивационных, коммуникативных, рефлексивных, творческих и нравственно-духовных особенностей внутреннего мира и поведения личности.

SUMMARY

The article highlights the issues of psychological training of future primary school teachers in an innovative educational environment, as well as the formation of cognitive, motivational, communicative, reflective, creative and moral and spiritual characteristics of the inner world and personality behavior.



YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING MILLIY MENTALITETIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH

Hudayberdiyeva M. O

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: milliy mentalitet, o'rta maktab o'quvchilari, ta'sir etuvchi omillar, madaniy jihatlar, ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi, etnik o'ziga xoslik, oilaviy tarbiya, ommaviy madaniyat, xalqaro munosabatlar, psixologik xususiyatlar.

Ключевые слова: национальный менталитет, старшекласники, факторы влияния, культурные аспекты, социальная среда, образовательная система, этническая идентичность, семейное воспитание, массовая культура, интернациональные отношения, психологические особенности.

Key words: national mentality, high school students, factors of influence, cultural aspects, social environment, educational system, ethnic identity, family education, mass culture, international relations, psychological characteristics.

Kirish. Yoshlarning maqsadi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim jihatlarini o'z ichiga olgan ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Muayyan mamlakat yoki jamiyatning o'ziga xos madaniy xususiyatlari va qadriyatlarini aks ettiruvchi milliy mentalitet ayniqsa muhimdir. O'rta maktab o'quvchilari kontekstida milliy mentalitet ularning dunyo haqidagi tasavvurlariga, ijtimoiy munosabatlariga va o'ziga xosligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantiradigan omillarni aniqlash ularning xatti-harakatlari va rivojlanishini tushunishda muhim qadamdir. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantirishda madaniy jihatlar muhim rol o'ynaydi. Bunga til, tarix, urf-odatlar, din, san'at va adabiyot kiradi. Til aloqa va bilimlarni uzatish vositasi sifatida madaniy qadriyatlarni saqlash va uzatish uchun katta ahamiyatga ega[1]. Tarixiy meros va urf-odatlar ma'lum bir millatga mansubligini anglashni shakllantiradi va madaniy o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

O'rta maktab o'quvchilari o'sadigan ijtimoiy muhit ham ularning milliy mentalitetiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy qadriyatlar, ta'lim, ijtimoiy

mavqe va ijtimoiy me'yorlar ma'lum bir madaniyatda muhim va maqbul bo'lgan narsalar to'g'risida g'oyalarni shakllantiradi. Oila, do'stlar, maktab va umuman jamiyat bilan o'zaro munosabatlar o'rta maktab o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy sharoitlar o'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetiga ham ta'sir qiladi. Iqtisodiy barqarorlik yoki beqarorlik, turmush darajasi, ta'lim olish imkoniyati va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari yoshlar dunyosi va istiqbollari haqidagi tasavvurlarga ta'sir qiladi.

Ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari o'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktab dasturi, o'quv materiallari va o'qitish usullari milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va madaniy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Televidenie, Internet va ijtimoiy tarmoqlarni o'z ichiga olgan ommaviy axborot vositalari ham dunyo haqidagi qarashlar va tushunchalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi[2]. Har bir o'rta maktab o'quvchisining individual xususiyatlari ularning milliy mentalitetiga ham ta'sir qiladi. Bunga shaxsiy manfaatlar, xarakter, o'z-o'zini identifikatsiya qilish darajasi va madaniy qadriyatlarga munosabat kiradi.

Globalashuv va axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydigan zamonaviy dunyoda milliy o'ziga xoslik va mentalitet masalalari, ayniqsa ta'lim sharoitida dolzarb bo'lib qolmoqda. O'rta maktab o'quvchilari kattalar hayotining boshida o'zlarining mentalitetlarini turli omillar, jumladan madaniy, ijtimoiy va ta'lim jihatlari ta'sirida shakllantiradilar[3]. Ushbu maqolada biz o'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ko'rib chiqamiz.

O'rta maktab o'quvchilarining mentalitetini shakllantiradigan asosiy omillardan biri bu ta'lim muhitidir. O'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quv materiallariga kiritilgan madaniy jihatlar milliy qadriyatlar va an'analarni tushunishga ta'sir qilishi mumkin. Oilaviy ta'lim o'rta maktab o'quvchilarining mentalitetini shakllantirishning asosiy elementidir. Oilalar urf-odatlar, qadriyatlar va tilni etkazadilar, bu esa milliy ongga ta'sir qiladi. Ota-onalar o'rta maktab o'quvchilarining o'z madaniyati va tarixini qanday qabul qilishlarida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy o'rta maktab o'quvchilari ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari bilan doimiy aloqada. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie va boshqa ommaviy axborot vositalari milliy o'ziga xoslik tushunchalarini shakllantirishi mumkin. Media tarkibidagi madaniy xususiyatlarni aks ettirish o'rta maktab o'quvchilarining mentalitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Atrofdagi ijtimoiy-madaniy muhit va jamiyat ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda[4]. Turli xil madaniy guruhlar bilan o'zaro aloqalar, jamoat hayoti va madaniy tadbirlarda qatnashish o'rta maktab o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirishi va ularning milliy o'ziga xoslikka bo'lgan munosabatini shakllantirishi mumkin.

Globalashuv va xalqaro almashinuv sharoitida o'rta maktab o'quvchilari turli madaniyat vakillariga duch kelishmoqda. Ushbu o'zaro ta'sir boshqa millatlarni yanada ochiq va bag'rikeng idrok etishga va global dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentaliteti ta'lim muhitidan tortib oilaviy tarbiyaga qadar bo'lgan ko'plab ta'sirlarning natijasidir. Ushbu omillarni tushunish o'rta maktab o'quvchisining shaxsiyatining milliy o'ziga xosligi nuqtai nazaridan har tomonlama va chuqur rivojlanishiga yordam beradigan ta'lim dasturlarini yanada samarali shakllantirishga imkon beradi. Madaniyatlarning xilma-xilligini ongli ravishda idrok etish uchun sharoit yaratish va zamonaviy ko'p millatli jamiyat sharoitida uyg'un shaxsni shakllantirishga hissa qo'shib, milliy an'analarga hurmatni rag'batlantirish muhimdir.

Milliy mentalitet-bu ma'lum bir millat yoki etnik guruh odamlarining fikrlash, xulq-atvori va qadriyat munosabatlarining xususiyatlarini shakllantiradigan madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillarning murakkab to'plami[5]. Zamonaviy jamiyatda milliy mentalitet masalalari, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash va tarbiyalash nuqtai nazaridan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. O'rta maktab o'quvchilari bolalik va kattalar hayotining chorrahasida bo'lib, ularning milliy mentalitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli omillar ta'sirida.

Zamonaviy jamiyat madaniyatlar, tillar, dinlar va urf-odatlarining mozaikasidir. Shu nuqtai nazardan, o'rta maktab o'quvchilari o'zlarining mentalitetini belgilaydigan turli xil ijtimoiy-madaniy omillarga duch kelishadi. Oila o'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oila ichidagi urf-odatlar, qadriyatlar, aloqa tili dunyoni idrok etishga va undagi o'z o'rniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'rta maktab o'quvchilari birinchi marta madaniyat, til va urf-odatlardagi farqlarga duch keladigan joy. O'qituvchilar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar, o'quv jarayoni va sinfdan tashqari ishlar mentalitetning shakllanishiga ta'sir qiladi[6]. Zamonaviy o'rta maktab o'quvchilari televizor, Internet, ijtimoiy tarmoqlar kabi turli manbalardan olingan ma'lumotlarga boy. Media maydoni madaniyat, siyosat, jamiyat haqidagi g'oyalarni shakllantiradi va milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga ta'sir qiladi.

O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantirishning muhim jihati bu o'z shaxsiyatini va o'zini o'zi anglashni izlash jarayonidir. Bu yoshda yoshlar ma'lum bir milliy yoki etnik guruhga mansubligini faol ravishda anglaydilar, ularning ildizlari va dunyodagi o'rnini tushunishga intilishadi. O'z xalqi yoki etnik guruhining tarixini bilish o'rta maktab o'quvchilariga ma'lum bir madaniyat va urf-odatlariga mansubligini anglashga imkon beradi. Ona tilini o'rganish, milliy bayramlar va marosimlarda qatnashish madaniy merosni saqlash va milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi. Boshqa madaniyatlar vakillari bilan o'zaro munosabatlar o'rta maktab o'quvchilariga dunyoqarashini kengaytirish, turli xalqlar mentalitetidagi farqlar va o'xshashliklarni tushunish imkonini beradi.

Zamonaviy dunyo o'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan globallashuv va migratsiya jarayonlari bilan ajralib turadi. Metropoliyalarda va yirik shaharlarda o'rta maktab o'quvchilari turli madaniyatlar va tillarga duch kelishadi, bu esa boshqa xalqlar va madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Boshqa mamlakatga yoki mintaqaga ko'chib o'tayotgan o'rta maktab o'quvchilari uchun yangi muhit va madaniyatga moslashish ularning milliy mentalitetini shakllantirishning muhim bosqichidir[7]. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash har bir insonning ijtimoiy-madaniy konteksti, tarixiy merosi, global tendentsiyalari va individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Shaxsiyatning ongli va uyg'un rivojlanishi uchun sharoit yaratish juda muhimdir

Milliy mentalitet-bu ma'lum bir millat yoki madaniyatga xos bo'lgan qadriyatlar, urf-odatlar, urf-odatlar va munosabat tizimini o'z ichiga olgan murakkab tushuncha. O'rta maktab o'quvchilari kontekstida bu mentalitet turli omillar, jumladan, ularning oilaviy muhiti, ta'lim muhiti, ijtimoiy-madaniy kontekst va boshqa ko'plab jihatlar ta'sirida shakllanadi. O'rta maktab o'quvchilari o'rtasida milliy mentalitetni shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillarni ko'rib chiqing.

Oila o'smirlar mentalitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu erda ular asosiy qadriyatlarni o'rganadilar, o'z xalqining urf-odatlarini haqida bilib oladilar, shaxslararo muloqotning birinchi tajribasiga ega bo'ladilar va madaniy me'yorlarni o'rganadilar. Oilaviy muhit, ota - onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning bola hayotiga jalb qilish darajasi-bularning barchasi milliy mentalitetning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab, shuningdek, o'rta maktab o'quvchilarining mentalitetini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu erda ular turli xil ijtimoiy-madaniy jihatlarga



duch kelishadi, o'rtloqlar va o'qituvchilar bilan muloqot qilishadi, o'z xalqining tarixi va madaniyatini o'rganadilar. O'quv dasturlari, o'qitish metodikasi, maktab tadbirlari - bularning barchasi o'rta maktab o'quvchilarining o'z millati va uning dunyodagi o'rni haqidagi g'oyalarini shakllantiradi.

Axborot texnologiyalari va internetning rivojlanishi bilan ommaviy axborot vositalari o'smirlar mentalitetini shakllantirishda tobora ta'sirchan omilga aylanmoqda. Ular dunyo haqida turli manbalar orqali ma'lumot olishadi: televizor, ijtimoiy tarmoqlar, video hosting va boshqalar[8]. Ushbu ma'lumot qanday taqdim etilishi va u qanday qadriyatlarni targ'ib qilishi muhimdir. Xalqning tarixi va madaniyati uning mentalitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy voqealar, qahramonlar, madaniy an'analar va urf-odatlarini bilish o'rta maktab o'quvchilariga o'tmishlarini yaxshiroq tushunishga va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini aniqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar o'rta maktab o'quvchilarining mentalitetiga ham ta'sir qiladi. Turmush darajasi, ta'limning mavjudligi, o'zini o'zi anglash imkoniyatlari - bularning barchasi o'spirinlarning o'z mamlakatlari va umuman jamiyat haqidagi g'oyalarini shakllantiradi.

Xulosa. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash turli xil ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va individual jihatlarni hisobga olishni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Ushbu omillarni tushunish madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash, milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan samarali ta'lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir. O'rta maktab o'quvchilarining milliy mentalitetini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda turli omillar bir-biriga mos keladi va o'zaro ta'sir qiladi. Oila, maktab, ommaviy axborot vositalari, tarix, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar o'smirlarning qadriyatlari, munosabatlari va dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ushbu omillarni tushunish o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish va o'rta maktab o'quvchisining shaxsini o'z millatining madaniy an'analari va qadriyatlariga muvofiq barkamol rivojlanishi uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Касаткина, Н. Э. «Факторы, влияющие на социализацию личности старших школьников в условиях образовательного учреждения.» Сибирский педагогический журнал 6 (2007): 290-298.
2. Isoqulov, Mamadolli. «Юқори синф ўқувчилари онгида жаҳолатга қарши кураша олиш тафакурини ривожлантиришда оила ва мактаб ҳамкорлиги.» Журнал Педагогика и психологии в современном образовании 1.4 (2021).
3. Norqulova, Soraxon. «Юқори синф ўқувчиларини тарбиялашда виртуал стендлардан фойдаланиш масалалари.» Мир исследований 1.1 (2021).



4. Перегудова, Татьяна Владимировна. «Модель педагогической работы по патриотическому воспитанию старшеклассников в детском оздоровительном лагере.» Вестник Московского государственного университета культуры и искусств 3 (65) (2015): 166-171.
5. Иванова, Лилия Михайловна. «Формирование толерантности в системе современного менталитета учащихся старшего школьного возраста.» (2003).
6. Чикаева, Татьяна Александровна. «Факторы, влияющие на самоидентификацию личности в условиях модернизации национальной жизни.» Россия: тенденции и перспективы развития 10-1 (2015): 703-705.
7. Дикарева, А. В., and Н. И. Короткова. «Менталитет и социальные установки. Из детства во взрослую жизнь.» Наука и современность 16-1 (2012): 215-220.
8. Ардашев, Александр Николаевич. Национально-региональный компонент как фактор поликультурного образования сельских школьников. Diss. 2006.

РЕЗЮМЕ

Maqola o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida milliy mentalitetni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan. Muallif o'rta maktab o'quvchilarining aqliy xususiyatlarini belgilaydigan asosiy omillarni aniqlash uchun o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalarini taqdim etadi. Asarda yoshlarning mentalitetini shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy, tarixiy, oilaviy, ma'rifiy va psixologik jihatlar ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan tahlil o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida milliy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ta'lim muassasalarida samarali ta'lim strategiyalari va madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена исследованию факторов, оказывающих влияние на формирование национального менталитета среди старшеклассников. Автор представляет результаты эмпирического исследования, проведенного с целью выявления основных факторов, определяющих ментальные характеристики учащихся старших классов. В работе рассматриваются социокультурные, исторические, семейные, образовательные и психологические аспекты, которые могут оказывать влияние на формирование менталитета молодежи. Представленный анализ помогает лучше понять процессы формирования национального самосознания среди старшеклассников и может быть полезен для разработки эффективных образовательных стратегий и межкультурного взаимодействия в образовательных учреждениях.

SUMMARY

The article is devoted to the study of factors influencing the formation of a national mentality among high school students. The author presents the results of an empirical study conducted to identify the main factors determining the mental characteristics of high school students. The work examines socio-cultural, historical, family, educational and psychological aspects that can influence the formation of the mentality of young people. The presented analysis helps to better understand the processes of formation of national identity among high school students and can be useful for developing effective educational strategies and intercultural interaction in educational institutions.



YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI BAHOLASHGA DOIR TALABLARNING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARIDA VA O'QUV DASTURLARIDA IFODALANISHI

Parpiyev O.O
Qo'qon universiteti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, DTS, o'quv dasturi, Milliy o'quv dasturi, kompetensiya, yozma fikr, 4 K.

Ключевые слова: начальное образование, DTS, учебная программа, Национальная учебная программа, компетенция, письменное мнение, 4 к.

Key words: primary education, DTS, curriculum, National curriculum, competence, written opinion, 4 K.

Ta'lim jarayoni murakkab bo'lib, amalda bir qancha omillarga bog'liq hisoblanadi. O'quvchilarga ta'lim berish umumiy o'rta maktablarda amalga oshirilgan ekan, belgilangan maqsad va vazifalar ularni global kompetentli shaxs bo'lib shakllanishlariga hissa qo'shishi kerak.

“Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida”gi Nizomda umumiy o'rta ta'limning maqsadi quyidagicha ifodalangan: “Davlat ta'lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tshkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi”. Xuddi shu Nizomda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarni egallashni ta'minlashga yo'naltirishi qayd etilgan.

Ta'limni tashkil etishda uning maqsadi, vazifalari belgilab olinib, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka talablari ishlab chiqiladi. Shundan so'ng mos

mavzular tanlab olinib, Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida ifodalanadi. Shu o'rinda davlat ta'lim standarti (DTS) va o'quv dasturi tushunchalariga izoh bersak. Bu tushunchalar turli ilmiy, nazariy va metodik adabiyotlarda atroflicha sharhlangan. Jumladan, B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" darsligida shunday ta'rif bergan: "Davlat ta'lim standarti - uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar". A.Nosirov esa Davlat ta'lim standarti nima? degan savolga quyidagicha javob bergan: "Davlat ta'lim standarti muayyan davlat ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini belgilab beradigan, ta'limga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqadigan muhim me'yoriy hujjatdir. Bu hujjat ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini belgilaydi, amalga oshiradi, ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan me'yorlar, malaka talablarini tashkil etadi". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 16.08.1999-yildagi 390-son qarorida DTS quyidagicha izohlangan: "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, DTS ta'lim mazmunini belgilovchi asosiy hujjat bo'lib, unda ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari, tuzilishi, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, baholash mezonlari aks etadi.

Shuni unutmash kerakki, jamiyat rivojlanishi bilan amaldagi DTS va o'quv dasturlari mazmunida o'zgarishlar ro'y beradi. Jumladan, Respublika ta'lim tizimida shu kunga qadar taraqqiyot talablari asosida DTS va o'quv dasturlari mazmuniga 3 marta o'zgartirishlar kiritildi. Biz qabul qilinib, amaliyotga tatbiq



etilgan DTS va o'quv dasturlarini o'rganib, tahlil qilib, faqat boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga qo'yilgan malaka talablariga to'xtalamiz.

1999-yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'ta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-son qarori tasdiqlandi. "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari o'quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilindi. Ushbu DTS umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning minimal darajasini belgilab berdi. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

Mazkur DTSni o'rganar ekanmiz, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagicha belgilangan:

- o'qish texnikasi bo'yicha egallanadigan me'yorlar;
- matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi;
- diktant yozish malakasi;
- fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bo'yicha egallanadigan me'yorlar. Bu qismda harflarni to'g'ri talaffuz etish, so'zlarni to'g'ri o'qish, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qish, gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish, sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish, so'z urg'ulariga rioya qilish, ohangga rioya qilish, ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish kabilar belgilangan.

Matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi bo'yicha esa og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli, monologik va dialogik nutqning izchil bo'lishiga erishish belgilangan.

Diktant bo'yicha 75-80 so'zdan iborat diktant yoza olish miqdoriy ko'rsatkichi belgilanib, imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik, ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi, berilgan izohlarning aniqligi, lug'atlarning to'g'ri va aniq berilishi talablari keltirilgan.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha o'quvchilar 5-6 gapdan iborat bo'lgan matnni yarata olishi va bunda quyidagi talablar belgilangan:

- harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish;
- husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish;
- so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash;
- tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;

- matnda soʻzlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qoʻllay olish;
- matnda xat boshlarning yaxlitligi va fikr izchilligini taʼminlash;
- uyadosh soʻzlardan foydalana olish.

Mazkur davlat taʼlim standartini oʻrganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ona tilidan egallashi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar berilgan, lekin ularning BKMlarini baholash mezonini haqida hech narsa keltirilmagan;
- bundan shunday fikr kelib chiqadiki, boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oʻq bilim salohiyatidan kelib chiqib oʻquvchilarning fanlardan olgan bilimlarini baholaydi.

2010-yilga kelib Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi vazirligi tomonidan “Oʻzbekiston uzluksiz taʼlimining Davlat taʼlim standartlari: Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti” ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur DTSni oʻrganish jarayonida oʻquv dasturi va boshlangʻich sinflarning ona tili va oʻqish darsliklarida grammatik bilimlarni oʻzlashtirish ustuvor ekanligiga, fikrni yozma ifodalshga ham eʼtibor qaratilganligiga guvoh boʻldik. Lekin boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqiy kompetensiyalari – jumladan, yozma nutqni baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2017-yil 6-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 187-son qarori taqsdidlendi. Mazkur DTSda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining davlat taʼlim standartlriga asoslangan holda fanlarni oʻrganish bosqichlari belgilangan:

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
A1+	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi

Koʻrinadiki, A1 daraja boshlangʻich taʼlimning oddiy sinflari uchun moʻljallanib, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinf bitiruvchilari ona tili fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasini, A1+ standart darajasi esa fanlar chuqurlashtirib oʻtiladigan boshlangʻich sinflar uchun yaratilib, bunda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining ona tili fani chuqur oʻrganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari ona tili fanini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasini egallashlari kerak.



Bundan tashqari DTSda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar sifati ichki nazorat, tashqi nazorat, davlat-jamoatchilik nazorati, milliy va xalqaro darajada baholash asosida amalga oshirilishi qayd etilgan.

Ushbu DTS oldingilariga qaraganda ancha takomillahtirilgan, lekin bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni baholash uchun mezonlar, topshiriqlar hamda metodikasi belgilanmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini, tayanch va variativ o'quv rejalar, o'quv dasturlari, darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish belgilab berilgan bo'lib, bugungi kunda Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar maktab ta'limiga tatbiq etilib, tajriba-sinov ishlari amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Milliy o'quv dasturi 2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilib, 2026-2027-o'quv yiliga qadar to'liq amaliyotga joriy etilishi kerak edi. Boshlang'ich ta'limda 2021-2022-o'quv yilida 1- va 2-sinflar, 2022-2023-o'quv yilida 3-sinflarga Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Milliy o'quv dasturi 6 qismdan iborat bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

1. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari.
2. Umumta'lim fanlarining konsepsiyalari.
3. Umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi.
4. Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari.
5. Umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi.
6. Baholash tizimi.

Shu o'rinda 2017-yilda qabul qilingan DTS bilan Milli o'quv dasturini o'rganib chiqish shuni ko'rsatmoqdaki, yangi ishlab chiqilib, tajriba-sinovdan o'tayotgan Milliy o'quv dasturi 2017-yildagi DTSdan takomillashtirilgani bilan farq qiladi. Jumladan, Milliy o'quv dasturida umumta'lim fanlari mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyotga yo'naltirilib, spiralsimon shaklda o'qitilayotgan bo'lsa (2017-yildagi DTSda: umumta'lim fanlari o'quv dasturlari mazmuni 80% nazariya, 20% amaliyotga yo'naltirilib, chiziqli o'qitishga asoslangan), umumiy o'rta ta'limning bitiruvchilari va har bir sinf bo'yicha o'quvchilar faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan (2017-yildagi DTSda: 12 yillik ta'limning A1, A2, B1 darajalari bo'yicha bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari mavjud), har bir umumta'lim fan bo'yicha Konsepsiya ishlab chiqildi (2017-yildagi DTSda: umumta'lim fanlari uchun



konsepsiya mavjud emas), baholashning Milliy tizimi yaratildi (2017-yildagi DTSda: baholashning bitta “summativ” metodikasi joriy etilgan).

O‘quv dasturlarini o‘rganib chiqar ekanmiz, boshlang‘ich ta‘limning sinflar kesimida ona tili fanidan qo‘yiladigan malaka talablari nutqiy kompetensiyalar: og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash (o‘qish va tushunish, tinglab tushunish) asosida o‘quvchilarning yosh va o‘zlashtirish darajalaridan kelib chiqib, ishlab chiqilganining guvohi bo‘ldik. E‘tiborli jihati shundaki, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan lingvistik kompetensiyalar ancha soddalashtirilib, bu qoidalar o‘quvchilarning yozma fikrlarini qiynalmay, oson ifodalashlariga yaqindan yordam beradi.

Milliy o‘quv dasturiga olim M.Pardayeva shunday fikr bildiradi: “Xalq ta‘limi tizimida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi tizimli va yaxlit ishlab chiqilayotgan 6 komponentli milliy hujjat bo‘lib, 2017-yilda joriy etilgan 2 komponentli Davlat ta‘lim standartini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o‘qitish va baholashning samarali metodologiyalari asosida bosqichma-bosqich joriy etish orqali ta‘lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi”.

2023/2024-o‘quv yilidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 K tamoyili asosida yaratilgan darsliklar asosida ta‘lim olmoqda. “4 K modeli”, “4 K yondashuvi”, “4 K tamoyili” kabi nomlarda atalayotgan bu yangi innovatsion yondashuv mazmunini tashkil qilgan 4 ta kompetensiya – kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik o‘quvchilarni XXI asr ko‘nikmalari asosida hayotga tayyorlaydi.

Boshlang‘ich sinf darsliklari bilan tanishish, dars jarayonlarida ishtirok etish orqali amaldagi darsliklarning jahon andozalari asosida tayyorlanganining hamda uni amaliyotga joriy qilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan katta mahorat talab qilishini guvohi bo‘ldik.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga 1-ilova. Toshkent sh., 2017-yil 15-mart.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
3. A.Nosirov. Amaldagi va yangi DTS. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. 2017-yil, 6-son. 4-7 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16.08.1999-yildagi 390-son qarori. <https://lex.uz/docs/-316337#-316375>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-son qarori. <https://lex.uz/docs/-316337#-316350>



6. O'zbekiston uzluksiz ta'limining Davlat ta'lim standartlari. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Toshkent – 2010.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 6-aprelidagi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3153714>.

8. M.D.Pardayeva. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini yaratish: tanqiddan-tahlil, tajribadan-natija, sifatdan-taraqqiyot sari. Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.: 2020-yil, avgust.

9. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). Boshlang'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>

10. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari yozma nutq kompetensiyasiga qo'yilgan talablarning DTS va o'quv dasturlarida ifodalanishiga e'tibor qaratilib, qabul qilingan DTSlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini baholash o'zaro solishtirilib, yutuq va kamchiliklar qayd qilingan. Muallif fikrlari soha mutaxassislarining maqolalaridan iqtiboslar keltirish orqali isbotlab berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье делается акцент на формулировке требований к компетенции письменной речи учащихся начальных классов в ДТС и учебных программах, сравниваются оценки письменной речи младших школьников в принятых ДТС, отмечаются достижения и недостатки. Авторское мнение доказано цитированием статей экспертов отрасли.

SUMMARY

The article focuses on the formulation of requirements for the competence of writing of primary school students in DTS and curricula, compares the grades of writing of younger students in accepted DTS, highlights achievements and shortcomings. The author's opinion is proved by quoting articles by industry experts.



КРЕАТИВ ПЕДАГОГИКА ИННОВАЦИОН ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА

Хашимова М.К.

Ташкентский университет информационных технологий

Таянч сўзлар: креативлик, педагогика, “Креатив педагогика” фани, фаннинг максуди, фаннинг вазифалари, фаннинг объекти, фаннинг предмети, фаннинг таркибий тузилмаси, фаннинг асосий категориялари,

Ключевые слова: креативность, педагогика, наука «Креативная педагогика», цели науки, задачи науки, объект науки, предмет науки, структура науки, основные категории науки.

Key words: creativity, pedagogy, science «Creative pedagogy», goals of science, tasks of science, object of science, subject of science, structure of science, main categories of science.

Креативлик (лат. creatio - ижодкорлик) - инсоннинг стандарт ғоялар, қоидалар ва шаблонлардан четга чиқиш қобилияти ва у шахсда прогрессив ёндашув, тасаввур ва ўзига хослик мавжудлигини ўз ичига олади. Креативлик» ва «Ижодкорлик» ўхшаш, аммо бир хил тушунчалар эмас. Ижодкорлик-бу инсон томонидан санъат буюмларини яратиш жараёни. Креативлик ижодкорлик учун алоҳида шартдир.

Маълумки, мутахассисини тайёрлашга қўйиладиган талаблар таълим тизимидан ташқарида шаклланади. Улар давлатнинг иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий мақсадларидан келиб чиқади. Ривожланишни ҳис этиш ва башорат қилиш олий ва касб-хунар таълимини бошқаришнинг шартлардан биридир. Шунинг учун таълим илгарилаб борувчи характерга эга бўлиши лозим.

Башорат қилинишича бугунги кунда мавжуд кўпгина касблар йўқолиб, ўрнига замона талабаларига кўра янги касблар вуждга келиши кутилмоқда. Бу ўзгаришлар мутахассилардан ижодкорлик, яратувчанликни талаб этади. Ана шундай яратувчиларни шакллантириш бугун таълим тизимини тубдан ўзгартириш, таълим олувчиларни янги позицияга кўтаришни талаб этмоқда. Бу объектив омиллар педагогик фанларнинг тармоқларида янги



фанларни юзага келишига олиб келмоқда. Ана шундай янги фанлардан бири “Креатив педагогика” десак муболаға бўлмайди.

Креатив педагогиканинг ўзига хос хусусияти ижодкорликни шакллантиришдир.

Олимлар креатив педагогикани ижодий ўқитиш фани ва санъати деб билишади. Профессор В. В. Попов ва акад. Г. Круглов таъкидлашича: «ижодий педагогика шахсни, унинг қобилиятини фаол ривожлантириш ва шакллантириш бўйича мақсадли фаолиятни ўрганади. Педагогиканинг объекти шахс эмас, унинг психикаси, балки унинг ривожланиши билан боғлиқ педагогик ҳодисалар тизимидир: мақсадли фаолият жараёнида инсон шахсининг ривожланишини белгилайдиган воқелик ҳодисасидир. Таълим ҳам умумий, ҳам креатив педагогикани ўрганиш объекти ҳисобланади, аммо иккинчисининг асосий хусусияти шундаки, у ижодий ривожланиш таълимига эътибор қаратади».

Креатив педагогика таълим олувчиларни ижодий ўрганишга, ўзларининг яратувчилари ва келажагининг яратувчилари бўлишга ўргатади.

Креатив педагогика математика, физика, тиллар ёки иқтисодиёт бўлсин, ҳар қандай фан учун қўлланилиши мумкин. Маълум даражада, биз ўрганиш мавзуси муҳим эмас деб айтишимиз мумкин, ижодий методологияларнинг киритилиши ўрганиш жараёнини ўзгартиради.

Муайян ўқув материални (ўқув предметини) ўзлаштириш учун субъектга педагогик таъсирни ўз ичига олган, бунда талаба таъсир объекти даражасидан ижод (ижодкорлик) субъекти даражасига қўйилади.

Креатив педагогиканинг мақсади ҳар қандай мавзунини ижодий ўқувчиларни тарбияладиган, таълимни ижодий ўқув жараёнига айлантиришдир. Креатив Педагогиканинг фан сифатидаги мақсади-педагогик жараёни шундай ташкил этишни назарда тутадикки-унда креатив фикрладиган, рақобатбардош шахс ва мутахассис шаклланиши. Креатив педагогиканинг объекти -педагогик жараённинг ижодий аспекти ҳисобланади. Креатив Педагогиканинг-предмети креатив шахсни шакллантириш қонуниятлари, шакллари, методлари ва воситалари ҳисобланади.

Креатив педагогикани педагогиканинг янги тури сифатида жорий этишга одатий эътироз қуйидагича: -ҳар қандай педагогика ижодкордир. Тўғри, маълум даражада. Аммо бу ҳолда уларда эришилган ижодий ривожланиш даражаси қандай ва узлуқсиз методикаси мавжудми?-деган савол деган савол туғилади. Албатта йўқ, шунинг учун ҳам креатив педагогика фани янги тармоқ сифатида тан олинди.

Педагогиканинг тармоқларини ривожланиши жамият эҳтиёжларига боғлиқ. Жамият йиғувчилар, балиқчилар ва овчиларга муҳтож бўлган даврлар-



да, оддий ибтидоий педагогика (ўқитиш) мавжуд эди («мен каби қилинг! Менга эргашиг!»). Бу йиғувчилар, балиқчилар, овчилар ва ҳатто жангчиларни тайёрлаш (тарбиялаш) учун етарли эди.

Жамият нотиклар ва файласуфларга муҳтож бўлганида, риторика дарсларида, жамоатчилик муҳокамаларида нотик ёки файласуфни тарбиялашга қаратилган педагогика (қадимги Юнонистон студиялари) пайдо бўлди.

Жамият кўпроқ усталарга муҳтож бўлганида, ушбу жамиятда техник кўникмалар ва кўникмаларни ўргатиш учун техник мактаблар (устахоналар) ва шунга мос равишда педагогикалар пайдо бўлди.

Жамиятга кўпроқ маълумотли муҳандислар ва шифокорлар керак бўлганда, унда билим олиш педагогикаси (мактаблар, коллежлар, университетлар) пайдо бўлди. 20-асрнинг ўрталарида ўқитиш ва муаммоларни ҳал қилишнинг мавжуд усуллари жамият эҳтиёжларини қондириш учун етарли эмаслиги аниқланганда, муаммоларни ижодий ҳал қилишни ўргатиш учун мактаблар, ижодкорликни ўқитиш мактаблари ва ушбу ривожланиш натижасида янги педагогика пайдо бўлди ҳамда креатив педагогика деб номланди.

Шунинг учун креатив педагогика ҳаётнинг тобора ўсиб бораётган мураккаблигини ва жамиятнинг жадал ривожланишини енгишга қодир ижодкорни тарбиялашга интилаётган педагогика сифатида пайдо бўлади.

Асосий қисм

Креатив педагогика Уоллес (Граҳам Валлас), Осборн (Алекс Осборн), Гордон (Гордон), Гилфорд (Ж. П. Гуилфорд), Парнес (Сид Парнес), Торрансе (Еллис Паул Торрансе), Девис (Гарй Девис), Генрих (Генрих Альтшуллер) каби муаллифларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантириш соҳасидаги тадқиқотларнинг натижаларини ўз ичига олади.

Креатив педагогика ўзида қуйидагиларни умумлаштиради:

- санъат дарслари;
- техник ижодкорлик;
- ижодкорлик психологияси;
- ижодий муаммоларни ҳал қилиш;
- ижодий йўналтирилган ўқув дастурлари.

Креатив педагогика — ўқитувчиларга ижодий ўқитишни ўргатиш фани ва санъати бўлиб, ўқувчиларга эвристик фикрлашни ўргатиш креатив педагогиканинг бир қисми бўлса, ўқитувчининг эвристик тафаккурини ривожлантириш креатив мета — педагогиканинг бир қисмидир.

Бугунги кунда кератив педагогикани структурасини қуйидагича ифода-лаш мумкин(1.1-расм).



1.1-расм. Креатив педагогика структураси

“Креатив педагогика” фани бутунги кун талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳар бир шахсни шу жумладан, бўлажак мутахассисларнинг ижодкор шахс сифатида касбий камол топишлари учун зарур шарт-шароитни яратишга хизмат қилади ва бунинг учун икки жараёнини ўрганиши лозим:

• **Табақалаштириш** (лот. “diferentia” – “фарқланиш”,

“даражаланиш”) – бутуннинг турли босқич ёки даражаларга ажратилиши.

• **Даврлаштириш** (юн. “peridos” – “доира бўйлаб айланиш”) – муайян ҳодисанинг қандайдир яқунланган жараёнини қамраб олган вақт бирликларига ажратилиши.

• **Креатив педагогиканинг долзарб вазифалари:**

- Таълим жараёнини мазмунини ўрганиш ва уни ижодий қобилиятини ривожлантиришга мослаштириш (стандарт, ўқув режа дастурлар);
- Ўқув жараёнини ташкил этиш тактика, стратегиясини ижодий фаолиятга мослаштириш;
- Креативлик лаёқатини аниқлашнинг психологик ва педагогик диагностикасини такомиллаштириш;
- Креатив шаклланишни прогностлаштириш ишларини ташкил этиш;
- Креатив жараёнини бошқариш тизимини такомиллаштириш

Айтиш жоизки, “Креатив педагогика” қуйидаги икки ҳолатни кафолатлай олиши зарур:

- паст ўзлаштираётган ўқувчи-талабалар эътиборларини фан асосларини ўзлаштириши учун янгича ёндашишни ишлаб чиқиш;
- ўқитувчи-талабаларда креатив фикрлаш ва ижодий шакллантирадиган стратегия ва тактикасини ишлаб чиқиш.
- Креатив педагогика мустақил фан сифатида қуйидаги йўналишларда фаолият олиб боради (1.2-расм).

Борис Павлович Никитин-ҳар бир ўқитувчининг вазифаси жуда ёшлигидан болалар учун тўғри ривожланаётган муҳит ва «етакчи» шароитларни яратишдир деган ғоянинг асосчиси. Никитиннинг техникаси ҳар бир бола болалигидан ҳар қандай фаолият учун улкан қобилиятга эга эканлигига ва

энг муҳими, уларни амалга ошириш лозим, акс ҳолда, қобилиятлар йўқолади деган ғояга асосланади.

Б.П.Никитин фикрига кўра “Тадқиқот жараёнида шахнинг учта ташкил этувчиси (ментал, эмоционал, жисмоний) ажратиб кўрсатилган.

Никитинлар методологиясида таълимнинг 4 асосий принципи мавжуд:

- Болалар, албатта, катталар назорати остида қизиқиш уйғотадиган нарсалар билан шуғулланишлари керак.


- Ҳеч қандай чекловлар бўлмаслиги керак. Болаларга тўлиқ ижодий эркинлик бериш керак.

- Болани ўраб турган нарса уни қизиқтириши ва янги нарсаларни ўрганишга ундаши керак.

- Бола иложи борича мустақил бўлиши керак.

Сўнгги йилларда етакчи хорижий мамлакатларнинг таълим тизимида ўқувчи ва талабаларда креативлик сифатларини шакллантириш масаласига алоҳида, жиддий эътибор қаратилмоқда. Буни Бронсон, Меррийман (2010 й.), Кен Робинсон (2007 й.), Фишер, Фрей (2008 й.), Бегетто, Кауфман (2013 й.), Али (2011 й.), Треффингер (2008 й.) ва б. томонидан олиб борилган кўплаб тадқиқотлар, уларнинг натижалариан кўриш мумкин. Биргина Кен Робинсон томонидан 2007 йилда тайёрланган “Мактаб креативликни барбод этяптими?” номли видео лавҳани YouTube сайтида 5 млн марта томоша қилинган. Қолаверса, ўқитувчилар креативлик асосларини ўрганишга жиддий киришганлар (Бегетто, Кауфман, 2013 й.). Ўқитувчиларда педагогик фаолиятни креатив ёндашув кўникма, малакаларини шакллантириш ҳамда ривожлантиришга доир адабиётлар чоп этиляпти, Таълим департаменти томонидан тайёрланган видео лавҳаларга асосланувчи ноанъанавий дарслар ташкил этиляпти (Али, 2011; Таълим департаменти, 2013 й.).

Кен Робинсон англиз олим (педагог), китоблар муаллифи, давлат ва жамоат ташкилотларида ижодий фикрлаш, таълим тизимлари ва инновация-



1.2-расм. Креатив педагогиканинг фаолият йўналишлари



ларни ривожлантириш масалалари бўйича маърузачи ва маслаҳатчи. У дунё ўзгариб бормоқда ва бугунги кунда биз қилишимиз керак бўлган асосий нарса болаларни ностандарт ечимларни излашга ўргатишдир. Бунинг учун сиз уларга ижодкорлик маҳоратни сингдиришингиз керак. Лекин таълим тизимимиз академик қобилият тушунчасига асосланади.

Ижодкорлик-бу маълум бир қийматга эга бўлган оригинал ғояларни яратиш жараёни. Дивергент фикрлаш эса ижодкорлик учун зарурий шартдир. Бу муаммонинг кўплаб мумкин бўлган ечимларини топиш, муаммонинг ҳолатини бошқача талқин қилиш қобилиятидир. Унинг тажрибасида 50 га яқин боғча ёшидаги болалар иштирок этди. Тахмин қилишга ҳаракат қилинг неча фоиз даҳо бўлиб чиқди? 80-98 %. Экспериментнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у вақти-вақти билан амалга оширилган. Кейинчалик худди шу болалар 8-10 ёшида яна синовдан ўтдилар. Натижалар қандай эди? 50%. Яна 5 йил ўтгач, болалар 13 ёшдан 15 ёшгача бўлганида, тажриба яна такрорланди. Натижа жуда кутилмаган ва аксинча бўлиб чиқди. Назарий жиҳатдан, инсон ёши улғайган сари тобора яхши натижаларни кўрсатиши керак, аммо бу тажриба асосида иккита хулоса чиқариш мумкин. Биринчиси, барча одамлар ижод қилиш қобилиятга эга. Иккинчиси-ёши улғайган сайин, агар улар билан алоҳида шуғулланилмаса, у одатда йўқолиб боради.

Хулоса. Кўриб турганимиздек бугунги кунда креатив педагогика ўта муҳим вазифаларни ҳал этишга бел боғлаши лозим, у бир томондан педагогларнинг креативлигини ошириш учун бўлажак педагогларни ижодий фаолиятга тайёрлаш вазифасини бажариши, иккинчи томондан таълим олувчиларни креатив потенциалини ошириш каби муаммоларни ҳал этиши лозим.

Бунинг учун қуйидаги йўналишларда ишни ташкил этиш керак:

1. «Ўқитувчининг креатив компетенцияси» тушунчасини конкретлаштириш ва унга оид мезонларни ишлаб чиқиш лозим;

2. Бўлажак ўқитувчиларининг креатив компетенциясини шакллантиришнинг аниқ моделини ишлаб чиқиш керак бўлади.

3. Илмий ижодда бўлажак ўқитувчининг креатив компетенциясини шакллантириш жараёнини мониторинг қилишнинг мезонлари, диагностика аппаратини ишлаб чиқиш.

4. Таълим олувчиларнинг креативлигини ва ижодкорлик даражасини аниқлаш механизмларини ишлаб чиқиш.

5. Таълим олувчиларнинг креативлик потенциалини аниқлаш ва индивидуал ёндашув методологиясини шакллантириш.

Юқорида қайд этилган масалалар креатив педагогика олдида турган энг долзар вазифалардур, уларни амалга ошириш таълим самарадорлигини оширишнинг муҳим шарти сифатида майдонга чиқади.



Адабиётлар:

1. Андреев, В. И. Эвристика для творческого саморазвития / В. И. Андреев. -Изд. 2-е. - Казань : Центр инновац. технологий, 2008. - 223 с.
2. Балановская, Л. А. Креалогия. Теория творческой деятельности / Л. А. Балановская. — Балашов: Николаев, 2005. - 194 с.
3. Барышева, Т. А. Психологическая структура креативности (опыт эмпирического исследования) / Т. А. Барышева // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. - 2012. — № 145.-С. 54-64.
4. Барышева, Т. А. Психолого-педагогические основы развития креативности : учеб. пособие / Т. А. Барышева, Ю. А. Жигалов. - СПб. : СПГУТД, 2006. - 268 с.
5. Батищев, Г. С. Введение в диалектику творчества / Г. С. Батищев. - СПб. : Изд-во РХГИ, 1997. - 464 с.
6. Берму с, А. Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании [Электронный ресурс] / А. Г. Берму с // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. - Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>.
7. Богоявленская, Д. Б. Психология творческих способностей : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Д. Б. Богоявленская. - М. : Академия, 2002.
8. Боно, Э де. Серьезное творческое мышление / Э.де Боно. - М. : Попурри, 2005.-416 с.
9. Бос, Э. Как развивать креативность / Э. Бос ; пер. с нем. К. А. Петросян -Ростов н/Д : Феникс, 2008. - 189 с.
10. Брякова, И. Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 / И. Е. Брякова. - СПб., 2010.-463 с.
11. Бухвалов, В. А. Развитие учащихся в процессе творчества и сотрудничества / В. А. Бухвалов. - М.: Педагогический поиск, 2000. - 144 с.
12. Воронин, А. Н. Интеллект и креативность в совместной деятельности: дис. ... д-ра псих. наук : 19.00.13 / А. Н. Воронин. -М., 2004. - 376 с.
13. Робинсон, Кен Р58 Школа будущего. Как вырастить талантливого ребенка / Кен Робинсон и Лу Ароника ; пер. с англ. О. Медведь. — М. : Манн, Иванов и Фербер, 2016. — 386 с.
14. Хохлова Д. А. Актуализация статуса креативной педагогики в современном междисциплинарном знании // Вестник Университета (ГУУ). №15/2012. с. 297-301.

РЕЗЮМЕ

Мақолада креатив педагогика фанининг мақсади, вазифалари, бугунги кундаги долзарб муаммолари ва ахамияти хусусида фикр юритилади. Креатив педагогиканинг фан сифатида шаклланишининг сабабалари, креатив педагогика структураси, бугунги кун талабаларидан келиб чиққан ҳолда фан олдида турган долзарб вазифалар таҳлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье автор размышляет над такими вопросами, как цели, задачи, актуальные проблемы креативной педагогики, а также ее значимость в настоящее время. Анализируются такие вопросы, как причины становления креативной педагогики как науки, структура креативной педагогики, актуальные задачи, стоящие перед наукой в настоящее время.

SUMMARY

In the article, the author reflects on such issues as the goals of the task, the actual problems of creative pedagogy, as well as its significance at the present time. Analyzes such issues as the reasons for the formation of creative pedagogy as a science, the structure of creative pedagogy, the current challenges facing science at the present time.



ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

Усаров. Ж. Э

Чирчиқ давлат педагогика университети

Умаров Э.Д.

Тошкент Ахборот Технологиялар Университети

Самарқанд филиали

Таянч сўзлар: мустақиллик, қобилият, хусусият, ўқитиш, фаолият, баҳолаш, дидактика, билим, малака, кўникма.

Ключевые слова: самостоятельность, способность, свойство, обучение, деятельность, оценка, дидактика, знания, умения, навыки.

Key words: independence, ability, property, learning, activity, assessment, didactics, knowledge, skills, skills.

Олий таълим муассасаси талабаларининг шахсий ривожланиши уларнинг ижтимоий-шахсий қизиқишларининг касбий йўналиш касб этиши, мустақил фикрлашлари, ижодкорликлари, фаолликлари, муносабатларининг чуқурлашиб, бойиб бориши, характер ва дунёқарашларининг турғунлашуви ҳамда ўз-ўзини тарбиялашга бўлган эҳтиёжларининг шаклланиши каби ҳолатлар билан тавсифланади. Бўлажак мутахассис учун олий таълим муассасасида таълим олиш жараёни – бу инсонда фаолиятни муваффақиятли амалга оширишда касбий жиҳатдан аҳамиятли саналган сифат, билим, кўникма ва малакаларни ривожлантириш ҳамда ўз-ўзини такомиллаштиришнинг энг мақбул давридир. Талаба ушбу жараёнда билимларни жамлаш, сақлаш, узатиш, уларнинг мантикий тузилмасини яратиш ва келажак касбий фаолиятини ташкил этишда ҳамда самарали фойдаланиш каби ҳолатларни ўзида мужассам эттиради. Педагогик-психологик фаолият билан боғлиқ қараш, қадрият ҳамда мотивациялар моҳиятан ўзгариб, такомиллашиб боради.



Узлуксиз таълим тизимида мустақил таълимни ташкил этиш муаммоларини П.Н.Андрианов, Ж.Толипова, Ш.Юнусова ва бошқаларнинг тадқиқот ишларида ўрганиб чиқилган [17, 38, 48].

Талабалар мустақил фаолиятини ташкил этишнинг педагогик-психологик асослари борасида кўплаб педагогик тадқиқотлар амалга оширилганлигига қарамай, талабаларни мустақил фикрлаш қобилиятлари ва Давлат таълим стандартларига жавоб берадиган малакали мутахассис қилиб тарбиялашда мустақил таълим масаласи етарлича ўрганилмаган. Айниқса, бугунги кунда мустақил таълимни ташкил этиш долзарб педагогик муаммо бўлиб, у чуқур илмий-методик изланишларни тақозо этмоқда.

Шунингдек, мустақил фаолиятни ташкил этиш методлари, шакллари, воситалари ҳамда вазифалари етарли даражада тадқиқ этилмаган. Бундан ташқари, бу соҳада илмий асосланган усул, йўллар, ташкил этиш шакллари илмий асосланмаган, ишлаб чиқилган тадқиқотлар ҳам етарли эмас.

Назарий жиҳатдан мустақил фаолиятнинг технологик асослари бугунги кунга қадар ҳам тўла ривожланмаган. Мустақил билим олишда автономлик - ўқиш мақсадлари, тамойиллари, мазмуни, методи ва воситаларини аниқлаш ҳамда танлаш, уларни қийналмасдан ва ташқи таъсир ёрдамисиз амалга ошириш қобилиятидир.

Мустақиллик – шахснинг алоҳида хусусияти, лаёқати, фаоллиги диққатини жамлаш қобилияти, қўйилган мақсадга эришиш йўлида бор кучини сарф этиш каби сифатлар бирлигидир.

Мустақиллик ҳолати намоён бўлиб, бироқ автономлик хусусияти кўзга ташланмаса бу ҳол мустақил билим олишни эмас, балки муаммоли ўқитишнинг мавжудлигидан далолат беради. Демак, автономлик – мустақил билим олишдан фарқ қилувчи, моҳиятли белги ҳисобланади. У ўқув ва касбий фаолият мустақиллигини белгилайди. Бу сифатлар ўқув-педагогик топшириқларнинг турли вариантларини тушунишда ва мавжуд ҳолатни танқидий баҳолашда намоён бўлади. Мустақил билим олишнинг муваффақиятли ривожланиши кўп жиҳатдан ўз-ўзини бошқариш қобилиятининг ривожланиши билан боғлиқ. Мустақил билим олишда дидактика тамойиллари ҳамда назария ва педагогик технологиялар асосий ролни ўйнайди.

Мустақил билим олиш сабабларининг ривожланиши субъектни фаолинка ундайди ва шу билан бирга, унинг олдига - мустақил билим олиш қандай бўлиши керак деган саволни қўяди. Мустақил ўқиш педагогик технологияга нисбатан жиддий талабларни қўяди. Ўқитувчи ва талаба ҳамкорлигидаги фаолиятнинг яқуни олдиндан аниқ бўлган ўқитиш жараёнидан фарқли равишда мустақил билим олишда субъект аниқ бўлмаган ва олдиндан



режалаштирилмаган натижани қайд этиши керак, яъни билим, малака ва кўникмаларнинг аниқ ҳажмини ўзлаштириши керак.

Мустақил билим олиш технологияси ва мустақил билим олиш сабаблари бир-бири билан боғлиқдир: аниқ натижага эриша олишига ишонмаслик талабани мустақил билим олишдан ҳар қандай бошқа сабаблардан кўра кўпроқ кўнглини совутади. Мустақил билим олиш технологиясини яратиш бир неча алоҳида муаммоларни ҳал этишни кўзда тутади. Улар орасида мунтазам билим олишнинг мақсадини кўйиш муаммоси алоҳида ажралиб туради. Агарда таълим олиш умумий ривожланишни таъминлашга хизмат қилса, мустақил билим олишнинг мақсади эса – касбий шаклланиш ёки касбий малакасини ривожлантириш, ўстириш ҳисобланади.

Агар қутилмаган вазиятда талабадан юқори даражадаги мустақилликни намоён этиб, топшириқларни бажариш талаб этилса, у ҳолда талаба топшириқларни бажара олмаслиги мумкин, натижада ўз кучига бўлган ишончни йўқотади. Бундай ҳолат содир бўлмаслиги учун дастлаб топшириқларни шу тахлитда бериш керакки, натижада субъект топшириқнинг бирор қисминигина мустақил бажарсин, сўнгра ўқитувчи билан биргаликда натижаларининг тўғрилигини таҳлил қилиб чиқиши керак.

Мустақил билим олиш технологиясига мувофиқ педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли-вазиятли топшириқларни ишлаб чиқиш қоидалари куйидагилардан иборат:

1. педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли-вазиятли топшириқлар ҳақиқий педагогик ва ишлаб чиқариш вазиятлари билан боғлиқ муаммоларга эга бўлиши керак;

2. муаммоли-вазиятли топшириқлар асосини ташкил этувчи муаммони ҳал этиш тушунчаларини юзага келтирувчи ақлий фаолиятни турли усуллар (анализ, синтез, таққослаш, солиштириш, умумлаштириш ва бошқалар) ёрдамида амалга оширишни кўзда тутади;

3. муаммоли-вазиятли топшириқлар тушунчалар мазмунида акс эттирилган ҳодисалар ва жараёнлар ўртасидаги муҳим боғлиқликни объектив равишда кўрсатиши керак;

4. муаммоли-вазиятли топшириқлар исботини аниқлаш ва талабалар онгида, ҳодисалар ва жараёнлар ўртасидаги боғлиқликни мустаҳкамлаш асосида тушунчаларни юзага келтириш имкониятларини кўзда тутиши лозим;

Moturidiy va Nasafiy ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy hamjihatlik va axloqiy xulq-atvorni mustahkamlashdagi rolini alohida ta'kidlaganlar. O'qituvchilar rahmshafqat, hamdardlik va adolat kabi qadriyatlarni singdirish orqali o'quvchilarni jamiyatning mas'uliyatli a'zosi bo'lib, o'z jamoalariga ijobiy hissa qo'shishlari mumkin. Ta'limga bunday yondashuv jamoaviy mas'uliyat hissini uyg'otadi va ijtimoiy totuvlikka yordam beradi.

Bugungi xilma-xil va ko'p madaniyatli jamiyatlarda ta'lim xilma-xillik va plyuralizmni o'z ichiga olishi kerak. Madaniy, diniy va intellektual xilma-xillikni hurmat qiladigan va nishonlaydigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish uchun o'qituvchilar Moturidiy va Nasafiy ta'limotlaridan foydalanishlari mumkin.

Muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantirish orqali ta'lim bag'rikenglik va farqlarni hurmat qilishni rag'batlantirish uchun kuchli vositaga aylanadi.

Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning ilmga va e'tiqodga bo'lgan munosabatning ahamiyati haqidagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ta'lim-tarbiyaning intellektual jihatdan qiziquvchan, odobli va ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda o'zgartiruvchi imkoniyatlarini ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z tushunchalarini o'zlashtirib, o'quvchilarga chuqur axloqiy va ma'naviy yaxlitlik tuyg'usini tarbiyalagan holda atrofda dunyo bilan tanqidiy munosabatda bo'lishga yordam beradigan o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning ilm va e'tiqodga munosabatning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari zamonaviy ta'lim tizimlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z tushunchalarini o'zlashtirib, o'rganishga yaxlit yondashuvni rivojlantirishi mumkin, bu esa intellektual jihatdan qiziquvchan, axloqiy jihatdan to'g'ri va ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalaydi. Quyida ularning nuqtai nazaridan kelib chiqadigan ba'zi asosiy ta'lim natijalari keltirilgan:

O'qituvchilar ilmiy izlanish va diniy e'tiqod bir-biriga qarama-qarshi ob'ektlar sifatida emas, balki inson tushunchasining bir-birini to'ldiruvchi jihatlari sifatida qaraladigan ta'lim muhitini targ'ib qilishlari mumkin. Ilmiy bilimlarni ma'naviy donolik bilan birlashtirib, talabalar barcha bilim sohalarining o'zaro bog'liqligini tan oladigan yaxlit nuqtai nazarni rivojlantirishlari mumkin.

Moturidiy va Nasafiylar ta'lim-tarbiyada tanqidiy fikrlash va axloqiy mulohaza yuritishning ahamiyatini ta'kidlaganlar. O'qituvchilar bu ko'nikmalarni talabalarni diniy ta'limotlardan kelib chiqadigan axloqiy tamoyillarga asoslab, jiddiy intellektual izlanishlarga undash orqali rivojlantirishlari mumkin. Bunday yondashuv nafaqat kognitiv qobiliyatlarni oshiradi, balki axloqiy yaxlitlik va axloqiy xulq-atvorni ham rivojlantiradi.

Ta'lim nafaqat intellektual rivojlanishga, balki ma'naviy ong va axloqiy ongni tarbiyalashga ham qaratilishi kerak. Ma'naviy ta'limotlar va amaliyotlarni o'quv dasturiga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining e'tiqod an'analarni chuqurroq tushunishlariga va ilohiylik bilan bog'lanish tuyg'usini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ta'limga bunday yaxlit yondashuv shaxsiy o'sishni va ma'naviy qoniqishni rag'batlantiradi.

Moturidiy va Nasafiy ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy hamjihatlik va axloqiy xulq-atvorni mustahkamlashdagi rolini alohida ta'kidlaganlar. O'qituvchilar rahm-shafqat, hamdardlik va adolat kabi qadriyatlarni singdirish orqali o'quvchilarni jamiyatning mas'uliyatli a'zosi bo'lib, o'z jamoalariga ijobiy hissa qo'shishlari



mumkin. Ta'limga bunday yondashuv jamoaviy mas'uliyat hissini uyg'otadi va ijtimoiy totuvlikka yordam beradi.

Bugungi xilma-xil va ko'p madaniyatli jamiyatlarda ta'lim xilma-xillik va plyuralizmni o'z ichiga olishi kerak. Madaniy, diniy va intellektual xilma-xillikni hurmat qiladigan va nishonlaydigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish uchun o'qituvchilar Moturidiy va Nasafiy ta'limotlaridan foydalanishlari mumkin. Muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantirish orqali ta'lim bag'rikenglik va farqlarni hurmat qilishni rag'batlantirish uchun kuchli vositaga aylanadi.

Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning ilmga va e'tiqodga bo'lgan munosabatning ahamiyati haqidagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ta'lim-tarbiyaning intellektual jihatdan qiziquvchan, odobli va ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda o'zgartiruvchi imkoniyatlarini ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z tushunchalarini o'zlashtirib, o'quvchilarga chuqur axloqiy va ma'naviy yaxlitlik tuyg'usini tarbiyalagan holda atrofdagi dunyo bilan tanqidiy munosabatda bo'lishga yordam beradigan o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Xulosa:

Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning ilm va e'tiqodga munosabatning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari ta'lim doirasida empirik bilimlar va ma'naviy hikmatlarning integratsiyalashuvi haqida chuqur tushunchalar beradi. Ularning ta'limotlari aql va vahiyning uyg'unligini ta'kidlab, o'rganishga yaxlit yondashuvni targ'ib qiladi, bu ham intellektual qobiliyatga, ham axloqiy yaxlitlikka ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalaydi.

Ularning nuqtai nazarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ko'rib chiqsak, ilmiy izlanishni ham, diniy e'tiqodni ham qadrlaydigan ta'limga yondashuv koinot va insoniyatning undagi o'rnini yanada to'liqroq tushunishga yordam berishi ayon bo'ladi. Empirik kuzatishni ruhiy aks ettirish bilan birlashtirgan holda, o'qituvchilar bilim sohalarining o'zaro bog'liqligini qadrlaydigan va fan va e'tiqod o'rtasidagi ichki uyg'unlikni tan oladigan shaxslarni tarbiyalashlari mumkin.

Qolaversa, Moturidiy va Nasafiy kabi allomalarning ma'naviy-axloqiy merosini o'zlashtirib olish o'quvchilarda ma'naviy mas'uliyat va axloqiy xulq-atvor tuyg'ularini singdirish orqali ta'lim-tarbiya ishlarini boyitishi mumkin. Ta'lim ham empirik dalillarga, ham ma'naviy qadriyatlarga asoslangan bo'lsa, inson bilimlari ufqlarini kengaytiribgina qolmay, balki axloqiy ong va ma'naviy ongni tarbiyalovchi o'zgartiruvchi kuchga aylanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylar ta'limotlari ilmga, e'tiqodga munosabatning tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlab, aqliy izlanishni axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'lovchi ilm-

fanga yaxlit yondashuvni targ'ib qiladi. Pedagoglar o'z qarashlarini o'zlashtirib, intellektual jihatdan qiziquvchan, axloqiy jihatdan to'g'ri va ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalashlari va shu orqali ham shaxsning ravnaq topishiga, ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Leaman, Oliver. «An Introduction to Classical Islamic Philosophy.» Cambridge University Press, 2002.
2. Goldziher, Ignaz. «Introduction to Islamic Theology and Law.» Princeton University Press, 1981.
3. Makdisi, George. «The Māturīdite Concept of Sunnah.» In «Islamic Theology and Philosophy: Studies in Honor of George F. Hourani,» edited by Michael E. Marmura, pp. 193-204. State University of New York Press, 1984.
4. Koca, Özgür. «The Concept of God in Māturīdism.» In «The Oxford Handbook of Islamic Theology,» edited by Sabine Schmidtke, pp. 253-264. Oxford University Press, 2016.

РЕЗЮМЕ

Ilm-fan va e'tiqodning kesishishi uzoq vaqtdan beri turli intellektual an'analar doirasidagi tafakkur va munozara mavzusi bo'lib kelgan. Islom tafakkurida Imom Moturidiy, Abul Muin Nasafiy kabi allomalar ilm-fan va e'tiqodga munosabatni shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Ushbu maqolada ularning istiqbollarning tarbiyaviy ahamiyati o'rganilib, har tomonlama intellektual rivojlanishni ta'minlashda ilmiy izlanishlar va ma'naviy qadriyatlarining integratsiyasi ta'kidlanadi. Ularning ta'limotlarini o'rganib chiqib, ushbu maqola ilm-fan va e'tiqodni ta'lim doiralarida qamrab olishning chuqur oqibatlarini ochib beradi.

РЕЗЮМЕ

Пересечение науки и веры уже давно является темой размышлений и дискуссий в различных интеллектуальных традициях. Большой вклад в формирование отношения к науке и вере в исламской мысли внесли такие учёные, как Имам Мотуриди, Абул Муин Насафи. В данной статье рассматривается образовательная ценность их взглядов и подчеркивается интеграция научных исследований и духовных ценностей в обеспечении всестороннего интеллектуального развития. Изучая их учение, эта статья раскрывает глубокие последствия применения науки и веры в образовательных учреждениях.

SUMMARY

The intersection of science and faith has long been a topic of thought and debate within various intellectual traditions. Scholars such as Imam Moturidi, Abul Muin Nasafi made a great contribution to the formation of the attitude to science and faith in Islamic thought. This article examines the educational value of their perspectives and emphasizes the integration of scientific research and spiritual values in ensuring comprehensive intellectual development. By examining their teachings, this article reveals the profound implications of embracing science and faith in educational settings.



AMIR TEMUR DAVRIDA AYOLLARGA BO‘LGAN MUNOSABAT

Nurboeva H. B

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Tayanch soʻzlar: talim tarbiya, farzand, milliy-qadriyatlar, maʼnaviyat, taʼlim, maʼnaviy qadriyatlar, jamiyat.

Ключевые слова: воспитание, ребенок, национальные-ценности, духовность, образование, духовные ценности, общество.

Key words: talim upbringing, child, national-values, spirituality, education, spiritual values, society.

Maʼlumki, moʻgʻullar istilosi natijasida Movarounnahr siyosiy jihatdan parchalanib, davlat tartibi izdan chiqqan, boshsiz qolgan ogʻir bir tarixiy sharoitda Amir Temur siyosiy maydonga chiqdi. Amir Temur davr talabini, yaʼni mamlakatni moʻgʻul bosqinchilaridan tozalab, yagona, kuchli markazlashgan davlat tiklash kerakligini tushunib yetdi. Buyuk davlatchilikka asos solib, oʻzbek davlatchilik madaniyatini yangi tarixiy bosqichga koʻtardi.

Amir Temur Movarounnahrni tiklashni rejali asosda, qurultoylar oʻtkazishdan boshladi. Bu anjumanlarda shahzodalar, amaldorlar, amirlar, lashkarboshilar, olimu-ulamolar bilan bir qatorda saroy malikalari ham qatnashib, davlat hayotiga oid barcha muhim masalalarni bahamjihat hal qilganlar. Zarur qarorlar qabul qilib, tadbirlar belgilanganlar. Jahongir bunday ish uslubini keyin ham davom ettirib, katta yurishlar oldidan saroy xonimlari bilan hisoblashgan. Chunki ular Movarounnahr davlatining siyosiy, madaniy hayotida muhim oʻrin tutganlar va katta hissa qoʻshganlar.

Amir Temur Sharq ayollaridagi tengsiz nafosat, matonat va insoniy fazilatlarini oʻz vaqtida payqab olgan. Shuning uchun ham ularga barcha imkoniyatalar yaratib berilgan. Movarounnahr va Xuroson oʻlkalari koʻplab maʼrifatli, odil davlat arboblari, sarkardalar va mutafakkirlarning yetishib chiqqanligining sababi ham ana shunda boʻlsa kerak.

Amir Temur davlati idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda, obodonlashtirish, temuriy shahzodalarni tarbiyalashda “uning xotinlardan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika (Saroy Mulk xonim)” Bibixonimning xizmatlari cheksiz bo‘lgan. Sohibqiron bu oqila ayolga nabiralari, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Halil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzolarni tarbiyalash vazifasini ishonib topshirgan. U o‘zining maftunkor latofati, yorga sadoqati, dono va hozirjanoblighi, cheksiz insoniy fazilatlariga ega bo‘lganligi bilan boshqa malikalardan ajralib turgan, shuning uchun ham Saroymulkxonim Amir Temurning samimiy hurmati, sadoqatiga sazovor bo‘lgan.

Amir Temur sharqqa harbiy harakatlar bilan band bo‘lib qolib, armiyani boqishga mo‘ljallagan mablag‘i tugab qoladi shunda u maxsus kishi orqali Saroymulkxonimga maktub yo‘llab, zar berib yuborishni so‘raydi. Bu holatdan xabardor bo‘lgan Saroymulkxonim “Amiri Sohibqiron zaringiz tamom bo‘lgan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?” – degan mazmunda javob maktubi yo‘llaydi.

Sohibqiron 1399-yil Hindiston safaridan qaytganidan so‘ng Bibixonim sharafiga machit va madrasa qurishga buyruq beradi. Hozir ham bu muhtasham bino Samarqand ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi.

Amir Temur hukmronligi davrida saroyning obro‘-e‘tiborli boshqa malikalari uchun ham bog‘lar, maqbaralar bino qilingan. Samarqanddagi “Bog‘ibehisht” Amir Temurning suyuqli xotini Tuman og‘a sharafiga qurilgan.

Amir Temur o‘g‘illari va nevaralariga kelin tanlashda o‘zi ishtirok etgan. Bo‘lajak kelinni oilasi, nasl-nasabi va ta‘lim - tarbiyasiga jiddiy e‘tibor bergan. Shu o‘rinda Sohibqiron Amir Temurning ayolga, oilaga muqaddas deb qaraganini isbotlovchi fikrlari mavjud: «O‘g‘illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e‘tibor berdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘lik-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabasi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusrlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomoshga berib, kelin tushirdim.» Manbalar ma‘lumotiga ko‘ra sohibqiron shahzoda Halil Sulton tanlagan qaylig‘i (Shodimulk xonim) ni ko‘rikdan o‘tkazganda undan ko‘ngli to‘lmaydi va to‘y qilishga rozilik bermaydi. Shunga qaramasdan Halil Sulton unga uylanadi. Tarixdan ma‘lumki, bu ayol Halil Sulton taqdirida fojeali rol o‘ynadi, Halil Sulton o‘zboshimchalik bilan Samarqand taxtini egallab olgandan so‘ng Amir Temurning xotini Bibixonim Shodimulk xonim tomonidan zaharlab o‘ldirildi.

Bulardan tashqari Amir Temur saroyida bo‘lgan xorijlik sayyohlar o‘z ustaliklarida Amir Temurning ayollarga bo‘lgan munosabatlari haqida ham



yoziq qoldirgan. Ispan elchisi Klavixo Amir Temurning Samarqand yaqinidagi Konigilda bergan katta to'y marosimida ayollar ham ishtirok etgani haqida keng ma'lumotlar beradi.

Manbalarga ko'ra Temuriylar davrida xotin-qizlar uchun alohida maktablar ochilgan. Bu yerda otinbibilar o'qituvchilik qilganlar. Oddiy xalqning qizlariga ta'lim beradigan maktablar ham mavjud bo'lib, ular mahallalarda tashkil etilgan. Maxsus ta'lim olgan otinbibilar bu maktablarda qizlarga saboq berganlar. Lekin, biz o'sha davr maktab ta'limi mazmunini afsuski yaxshi bilmaymiz.

Amir Temur nafaqat saroy malikalari balki, raiyatning oqila ahli ayollarining fikrlarini inobatga olganligiga ham tarix guvohlik beradi: "Qarshi qal'asin zabt etolmay, dilga kadar tugib qaytmoqda edim. Qizil daryodan kechib, bir qishloqqa qo'ndik. Men bir kulbani ixtiyor etdim. Unda ushoqqina kampir yashar, tirikchiligi yolg'iz echkidan erkan.

Men momodan biror ovqat qilib bermoqni o'tindim. Ko'p o'tmay og'och tovoqqa suzilgan atala dasturxonda paydo bo'ldi. Och erdim. Og'och qoshiqni tovoqdagi atalaga mo'ldirib, yutoqib yegan edim, og'zi-tilim kuygandan-kuydi.

Shunda momo dedi:

– Sen-da Amir Temurga o'xshash shoshqoloqlardan ekansan.

– Temurbekning shoshqoloqligini qaydin bildingiz, momo, - so'radim.

– Eshitishimcha, Amir Temur Qarshi qal'asiga tik borib, uni ololmabdi. Magarki, avval qal'a atrofidagi kichik-kichik qishloq va mahallalarni egallab, kuch to'plab, so'ng qal'aga hujum qilmoq lozim edi. U esa bir yo'la bekligni olmoqchi bo'ldi-yu, shashdi sindi... Shunga o'xshash sen ham shoshding va og'zingni kuydirding. Atalani avval tovoqning girdidan olib, sekin-sekin yalab ko'radi, sovuganini bilgach, so'ngra qoshiqni to'ldirib yeydi-da...

Shunda xatoimni anglaganday bo'ldim. Va dedim:

– Darxon momo, o'shal shoshgich Amir Temur mendirman. Tanbehingizni bosh ustiga oldim. Tilang tilagingizni...

Darxon momo odamlar uchun ariq qazib suv chiqarib berishni so'radi. Oradan ko'p o'tmay Tanqos daryosidan ariq qazib, suv chiqarib berdim."

Yuqoridagi fikrlardan shuni ko'rishimiz mumkinki o'sha davr ayollarining sadoqatli, oqila va ma'naviyatli bo'lganligi sababli ularga bo'lgan munosabat ham yuksak bo'lgan.

Sharq xalqlariga xos ayollarga bo'lgan hurmat ehtirom, mustaqillik davriga kelib yanada oshdi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ayollarning jamiyatdagi mavqei alohida ta'kidlab, "Ming yillar davomida har qaysi jamiyatning ma'naviy barkamolligi va madaniy darajasi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi" – degan edilar. Bu fikrning amaliy isboti

sifatida 1999-yilni “Ayollar yili”, 2000-yilni “Onalar va bolalar yili” deb e’lon qilinishi va jamiyatda ayollar o’rnini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligini aytib o’tishimiz mumkin. Hozirgi kunda ayollar jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida mehnat qilmoqdalar. O‘zbekiston respublikasi siyosiy hayotida ham faol ishtirok etmoqdalar. Misol uchun O‘zbekiston respublikasi Parlamentining qonunchilik palatasida 21 ta ayollar bo‘lib, Navoiy viloyatimizdan ikki ayol (Anora Bobomurodova, Matluba Burxonova) deputat etib, Senatda 15 ta ayollar bo‘lib, bir ayol (Valiyeva) senator etib saylandilar.

Bizning fikrimizcha, hozirgacha uzoq asrlar davomida ayollarning jamiyatdagi o‘rni yetarlicha o‘rganilgani yo‘q. Tarixchilar, sotsiolog, faylasuf olimlar tarixiy qo‘lyozma asarlar va boshqa manbalar orqali bu muammoni tadqiq qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur davrida ayollarga bo‘lgan munosabatni o‘rganish yoshlar uchun ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy g‘ururni yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – T.: “Mehnat”, 1992, 83-bet.
2. Amir Temur saboqlari. T.: “Universitet”, 2001, 45-bet.
3. Amir Temur o‘g‘itlari. T.: “Navro‘z”, 1992, 58-bet.
4. Izoh: kadam – g‘am, qayg‘u, alam, g‘urbat.
5. Amir Temur o‘g‘itlari. T.: “Navro‘z”, 1992, 52-53 betlar.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: “O‘zbekiston”. 1999, 95-bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Amir Temur Sharq ayollaridagi tengsiz nafosat, matonat va insoniy fazilatlarini o‘z vaqtida payqab olgan. Shuning uchun ham ularga barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida ko‘plab ma’rifatli, odil davlat arboblari, sarkardalar va mutafakkirlarning yetishib chiqqanligining sababi ham ana shunda bo‘lsa kerak.

РЕЗЮМЕ

В этой статье Амир Тимур вовремя заметил непревзойденную утонченность, стойкость и человеческие качества женщин Востока. Вот почему им предоставлены все возможности. Вероятно, именно это и является причиной того, что на землях Мавераннахра и Хорасана выросло много просвещенных, праведных государственных деятелей, полководцев и мыслителей.

SUMMARY

In this article, Amir Temur noticed in time the incomparable elegance, perseverance and human qualities in oriental women. That is why they were given all the opportunities. That is why many enlightened, righteous statesmen, warlords and thinkers have matured in the Movarounnahr and Khurosan regions.



MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Isroilova X.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: madaniyat, san'at, tarbiya, taraqqiyot, barkamol yoshlar, madaniyat markazlari, teatr, loyiha.

Ключевые слова: культура, искусство, образование, развитие, зрелая молодежь, культурные центры, театр, проект

Key words: culture, art, education, development, mature youth, cultural centers, theater, project

Kirish. Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ong-u tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, bu madaniyat va san'atdir. Inson qadrini ulug'lagan yurt, kelajagi buyuk davlatdir. Milliy qadriyatlarimiz, urf odat va ananalarimiz orqali xalqimizning qadr-qimmatini yuksak cho'qqilarga ko'tarish. Xalqimizning madaniy-ma'rifiy tushunchalarini oshirish eng oliy maqsadimizdir.

Madaniyat - tushunchasi bu jamiyat, insonning ijodiy kuch va qobiliyatlarining tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasidir. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boylıklarida ifodalanadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol

shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti".

Shuning uchun madaniyat va san'at hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib boroqda. Har bir inson tug'ilibdiki, san'atning eng oddiy va oliy na'munasi ya'ni timsoli hisoblanmush – ona allasi bilan dunyoni taniydi, hayotni idrok etadi. Quvonchli kunlarimizda ham, qayg'uli kunlarimizda ham kuyu-qo'shiq bizga hamroh bo'ladi. Sirasini aytganda, san'atga shaydo bo'lgan insondan yomonlik chiqmaydi. Maqomlar, dostonu laparlar, spektakllar, muzey eksponatlari, sirk tomoshalari har birimizni olijanoblik, mehr-oqibat, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashga hizmat qiladi.

Shu bois o'zini hurmat qilgan har qanday xalq o'z milliy san'atini asrab avaylaydi va ardoqlaydi. Uni keying avlodlarga bus-butun yetkazishga harakat qiladi. Navoiy, Ogahiy, Lutfiy, Atoiy, Nodira, Uvaysiy, Munis kabi asl san'at sohiblaridir.

O'zbekiston madaniyati ko'plab xalqlarning xalqona musiqasi, raqslari, rassomchilik san'ati, amaliy san'ati, milliy taomlari va milliy liboslarida o'z aksini topgan bo'lib, eng xilma-xil an'alarining o'ziga xos uyg'unlashuvidir. O'zbek xalq madaniyati bir necha ming yillik asrlar davomida shakllangan va Sharqning boshqa madaniyatlari orasida o'z o'rni, o'ziga xos va jo'shqin xususiyati bilan ajralib turadi. Qadimgi Eron xalqlari, keyinchalik ko'chmanchi turkiy qabilalar, so'ngra arablar, xitoyliklar va ruslar o'z hissalarini qo'shdilar. Respublikaning ko'plab aholisi, ayniqsa qishloq joylarida, hali ham uzoq o'tmishga borib taqaladigan ko'plab an'analarga rioya qilishadi.

O'zbek xalq musiqasi beqiyos bo'lib, turli janrlari, mavzularining serqirraligi bilan ajralib turadi. Barcha qo'shiqlar va cholg'u asarlar vazifalariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Ba'zilar turli marosimlar, mehnat jarayonlari, teatr tomoshalari va o'yinlar bilan bog'liq holda muayyan sharoitlarda va ma'lum bir vaqtlarda ijro etiladi. Boshqalar istalgan vaqtda ovoz chiqarishi mumkin.



O'zbek musiqiy merosida haqli ravishda o'zbek professional og'zaki musiqasining cho'qqisi hisoblangan lirik-qahramonlik mazmunidagi dostonlar – doston ertaklari, shuningdek, maqomlar – vokal va cholg'u asarlar sikllari alohida o'rin tutadi.

Milliy madaniy an'analarga g'amxo'rlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish, yo'qolgan an'analarni va milliy hunarmandchilikni bosqichma-bosqich tiklash, ijodiy yondashuv milliy an'analarni yanada rivojlantirish va o'zbek xalq madaniyatining oltin fondini boyitishga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek tasviriy san'ati va me'morchiligining barcha turlari va janrlarida erishilgan yutuqlar bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy o'zlikni tiklash, ko'p asrlik an'ana va urf-odatlar, din va adabiyot, milliy san'at va madaniyatning turli yo'nalishlari rivojlanib bormoqda. Bu davrda o'zbek tasviriy san'ati har bir musavvirning ijodiy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, namoyon bo'lishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Respublikamizda milliy badiiy madaniyatga munosib hissa qo'shgan noyob bir asarlar yaratilmoqda. Ularning aksariyati keng e'tirofqa sazovor bo'lib, davlatimiz tomonidan yuksak qadrlanib kelinmoqda. Bugungi kun ijodkorlarining erishgan yutuqlari bizni quvontiradi albatta, chinakam go'zallik har bir narsa hayotni chuqur bilish, o'zbek klassikasida mujassamlashgan an'analarni ijodiy rivojlantirish, san'atning tarixiy taraqqiyotidagi davomiylik asosida tug'iladi.

Jamiyat hayotida badiiy madaniyatni mustahkamlashning dolzarb zarurati biz ijodkorlarni hamisha zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga, xalqning keng ko'lamlil ishlarini o'z asarlarimizda hamisha munosib aks ettirishimiz kerak degan savol ustida jiddiy o'ylashga majbur qiladi. Realistik uslub asosida yaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega har bir asar zamonaviy badiiy jarayonning ustun xususiyati hisoblanadi.

Xulosa. Bugungi kunda madaniyat va san'at sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik namunasini yuqorida bir qator misollar bilan keltirib o'ttik. Bu kabi sohani rivojlantirishga doir chora-tadbirlar hamda yuksak e'tibor va imzolangan farmon, qarorlarning ijrosini ta'minlash doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sohaga qaratilayotgan g'amxo'rlik va imkoniyatlar yaqin kelajakda tub o'zgarishlarga olib keladi va o'z samarasini ko'rsatadi desak xato bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida. - Toshkent: 2017

2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi. www.lex.uz
3. A. Haydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. “Oltin meros press” nashriyoti. 2021 yi
4. A. Haydarov. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. “G‘ofur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2016. 178-b
5. Z. Mo‘minova. Sharqning billur ovozi “Saodat” jurnali 11-son -2021. nou. -32 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada asosan madaniyat va san’atning o‘tmishi, buguni va ertasidan so‘zlovchi va uni dunyoga tanituvchi vosita ekanligi keltirilgan. Hozirgi kunda madaniyat va san’at sohasiga qaratilayotgan e’tibor, sohaga doir amalga oshirilayotgan va kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar xususida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье преимущественно утверждается, что культура и искусство являются средствами рассказа о прошлом, настоящем и будущем нации и представления ее миру. Говорили о внимании, уделяемом сфере культуры и искусства, реализуемых и планируемых к реализации мерах.

SUMMARY

This article is devoted to that culture and art are the means of telling about the past, present and future of the nation and introducing it to the world. They talked about paying attention to the sphere of culture and art, the measures being implement and planned in the future.



ABDURAUФ FITRATNING “OILA” ASARI ASOSIDA TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ismoilova M.H.

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Tayanch soʻzlar: pedagogik taʼlim, talaba, mustaqil hayot, urf – odat, milliy gʻurur, ilmiy-nazariy, asos, takomillashtirish, Abdurauf Fitrat, oila, ehtiyoj, baxtli boʻlish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar, oʻz fikri, yuksak maʼnaviyat.

Ключевые слова: педагогическое образование, студент, самостоятельная жизнь, научно-теоретическая, фундамент, совершенствование, Абдурауф Фитрат, семья, потребность, счастье, государство, общество, власть, возможность, молодость, собственное мнение, высокая духовность.

Key words: pedagogical education, student, tradition, national pride, independent life, scientific-theoretical, basis, improvement, Abdurauf Fitrat, family, need, being happy, state, society, power, opportunity, youth, own opinion, high spirituality.

Bugungi kunda nafaqat bizda balki jahondagi barcha demokratik dunyoviy davlatlarda oilani mustahkamlash, tarbiyani yaxshilash, xotin – qizlar, bolalarning huquqlarini himoya qilish, jismoniy va maʼnaviy sogʻlom avlodni tarbiyalash masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda. Fitrat shunday degan: “Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogʻlik. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shuncha kuchli boʻladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yul qoʻysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam ekanini koʻramiz. Masalan Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulugʻbek singari ulugʻ allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutaffakkirlar, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriydek

ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqolada muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalar mustaqil hayotga tayyorlanishda ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini anglay olish lozim. Jamiyatning yetuk mahsuli, yaxshi fazilatlar va hayotiy kasb - hunarga ega bo'lgan barkamol shaxsni yetkazib berishdir. Mustaqillik yillarida tarixiy tajribalardan foydalanishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning "Oila" asarini pedagogik tadqiq etish, oila tarbiyasiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish - har bir xalqda doimiy muammo bo'lib, u muayyan millat va jamiyatda o'zining ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga ega. Shunga ekan, Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asarini tahlil etar ekanmiz asosan pedagogik turkum fanlar sirasiga mansup bo'lib, oila tarbiyasining vazifalari keng yoritilgan. D.Axatova., Abdujalilova Sh.A., M.E.Axmedova kabilarning pedagogik tadqiqotlari salmoqli o'rin tutadi. Adabiy ta'lim sohasida B.Ergashev., B.Qosimov., N.Karimov., I.G'aniyev., H.Boltaboyev, Sh.Vohidov, D.Toshqulov, Jumladan, professor B.Hosimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy - siyosiy va adabiy faoliyati masalasiga, professor N.Karimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy faoliyatiga yuksak baho beradi. I.G'aniyev Abdurauf Fitratning filologik faoliyatini uning she'riyati, adabiy asarlari va "Abulfayzxon" drammasi misolida tadqiq etib, nomzoddik dissertatsiyasi va "Abdurauf Fitrat drammalari poetikasi" (1998) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. H.Boltaboyev "XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shuningdek, Abdurauf Fitratning ilmiy, adabiy merosini to'plab, uch jilddik kitob sifatida chop ettirgan. Abdurauf Fitrat merosi falsafa va huquqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilgan.

Har bir millatning o'ziga xos tarixi, milliy urf-odatlar, qadriyatlari bo'lgani kabi O'zbek xalqining ham o'ziga xos qadriyatlari mavjud. Biz bu ulkan merosdan foydalanib kelyapmiz va bundan keyin ham foydalanamiz. Yoshlarimizni ayniqsa talaba yoshlarimizni mustaqil hayotga tayyorlashda



buyuk merosimizning ahamiyati kattadir. Shu o' rinda Fitratning "Oila" asarining biz uchun muhim manba ekanligi barchamizga ma'lum. Shu ma'noda, mutaffakkir Abdurauf Fitratning: "Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir", degan so'zlarida chuqur ma'no bor. Bizning kelajagimiz hisoblangan yoshlar sog'lom va barkamol bo'lib yetishishlari mamlakatimizning muhim vazifalaridan sanaladi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarziga xos mezon vazifasini o'taydi. Milliy g'urur, iftixor, milliy urf-odatlarimiz asosida talabalarni tarbiyalashda Fitratning "Oila" asaridagi ma'lumotlar o'z ahamiyati bugun ham dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko'rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, bani Odam ning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z - «bola tarbiyasi» dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'z-galarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z otonalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bir hakim aytgan ekan: «Bani Odam bolalarining tarbiya-sini menga qoldirsalar, odamlarning ahvolini butunlay o'zgartirib yuborar edim».

Bunda Fitrat yoshlarni tarbiyalashda ota ona, jamiyat, millat birgalikda harakat qilishi kerakligini ochiq oydin ifoda etgan. Bugun jamiyatimizni rivojlantirish uchun, talaba yoshlarni mustaqil hayotga tarbiyalashda OTM larning ahamiyati, ulardagi o'qitish dasturiga kiritilgan "Ijtimoiy Pedagogika", "Tarbiya" darslarida Fitratning "Oila" asariga ehtiyoj mavjud. Talbalarni oilaviy hayotga tarbiyalash nafaqat ota-onaning balki jamiyatning ham vazifasi sanaladi. Shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an'analariga sodiq bo'lishsin. Zero Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yangi O'zbekistonni azm-u shijoatli yoshlarimiz bilan birga bunyod etamiz!"

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Fitratning ilmiy – pedagogik merosi hamda "Oila" asarida bayon etilgan oila tarbiyasiga doir g'oyalari, talabalarni

mustaqil hayotga tayyorlash va inonparvarlik tamoyili asosida talabalarni oilaga tayorlashning ilmiy-nazariy asoslari mantiqiy tuzilmasi komponentlarining mazmuni takomillashtirilgan ta'limida tutgan o'rni va vazifalar hamda Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid ilmiy pedagogik g'oyalari o'rganilgan, bir tizimga keltirilgan hamda talabalarni ijtimoiy jihatdan oilaga moslashish kompetensiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishish mumkin. Jismonan sog'lom, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizga tayanib ish ko'rishimiz mamlakatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qo'yish bilan barobardir. Oiladagi ikki muhim masala talaba yoshlarda sog'lom oila haqidagi tushunchani shakllantirishdadir. Yoshlar oilaning buyuk ma'naviyat, qadriyat burch va ma'suliyat ekanini anglab Yetishlari zarur. Yoshlarni bo'sh vaqtini band etish, huquqiy madaniyatini shakllantirish ham ma'naviy yetuk insonni tarbiyalashning muhim shartidir.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy- ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi –T. O'zbekiston 2022
2. Abdurauf Fitrat "Oila" Cho' lpon nashriyoti T. 2013
3. Ergashev B. Iz istorii stanovleniya i razvitiya obshestvenno - politicheskix idey djadidizma, ideologiya mladobuxarsev: Tarix fanl.dokt. diss.avtoreferati. - Toshkent, 1993;
4. Qosimov B. Milliy uyg' onish. - Toshkent, Ma'naviyat, 2002. 349 -373 -b;
5. Karimov N. So'nggi so'z. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. - Toshkent, Ma'naviyat, 2000. 203 -206 -b.
6. G'aniev I. Abdurauf Fitrat: E'tiqod va ijod. - Toshkent, Kamalak, 1994. Abdurauf Fitrat dramalari poetikasi Fil.fanl.dokt...diss. - Toshkent, 1998;
7. H.Boltaboev XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.
8. Tashkulov D. Osnovniy napravleniya politiko - pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XX - pervoe chetverti XX vv: Fals.fanl.dokt. diss.Avtoreferati, -Toshkent, 1995
9. G'oyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b
10. Sh.Olimov Fitrat merosini o'rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. 314 bet
11. K. Xoshimov, Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. - Toshkent, O'qituvchi, 1996 - 307 -320.

PEZIOME

Maqolada muhim ahamiyatga ega har bir millatning o'ziga xos tarixi, milliy urf- odatlari, qadriyatlari bo'lgani kabi O'zbek xalqining ham o'ziga xos qadriyatlari mavjud. Biz bu ulkan merosdan foydalanib kelyapmiz va bundan keyin ham foydalanamiz. Yoshlarimizni ayniqsa talaba yoshlarimizni mustaqil hayotga tayyorlashda buyuk merosimizning ahamiyati kattadir. Shu o'rinda Fitratning "Oila" asarining biz



uchun muhim manba ekanligi barchamizga ma'lum. Milliy g'urur, iftixor, milliy urf-odatlarimiz asosida talabalarni tarbiyalashda Fitratning "Oila" asaridagi ma'lumotlar o'z ahamiyati bugun ham dolzarbligini ko'rsatmoqda. Xulosa qismida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini Oila asari asosida metodik takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье основное внимание уделяется совершенствованию научно-теоретических основ подготовки студентов к самостоятельной жизни, что становится важным в современном педагогическом образовании, социальным семейным навыкам на основе работ Абдурауфа Фитрата "Семья". Международные исследования также изучают уровень развития жизненных навыков студентов в различных аспектах. В частности, учебники по теории и истории педагогики, социальной педагогике, педагогике ограничивая развитием социалнопедагогических навыков и компетенций по подготовке учащихся к жизни в семье. В заключении представлен предложения по методическому совершенствованию научно-теоретических основ подготовки студентов к самостоятельной жизни на основе работ Семи.

SUMMARY

The article focuses on improving the scientific-theoretical foundations of preparing students for independent life, which is becoming important in modern pedagogical education, on the social family skills based on Abdurauf Fitrat's work "Family". International studies are also examining the development levels of students' life skills in various aspects. In particular, the theory and history of practical pedagogy, social pedagogy, and educational textbooks are limited to the development of social pedagogical skills and competencies in preparing students for family life. In the conclusion, proposals for methodical improvement of the scientific and theoretical foundations of preparing students for independent life based on the work of the family are presented.

БЭКОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ТАРИХИЙ ВА СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ

Маллаева Э.

Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали

Таянч сўзлар: илмий мерос, ижтимоий-тарихий, фалсафий ва сиёсий қарашлар, “Тақаббуруна донолик”, янги давр, “Генрих VII даври тарихи”, “Табиий тарих”, “Тажрибалар ёхуд ахлоқий ва сиёсий ўғитлар”.

Ключевые слова: научное наследие, социально-исторические, философские и политические взгляды, “высокомерная мудрость”, “новая эпоха”, “история эпохи Генриха VII”, “Естественная история”, «эксперименты или морально-политические учения».

Key words: scientific heritage, socio-historical, philosophical and political views, “arrogant wisdom”, “new era”, “history of the era of Henry VII”, “Natural history”, «experiments or moral and political teachings».

Бэконнинг илмий-фалсафий меросида ижтимоий-тарихий ва сиёсий муаммоларга бағишланган асарлар муҳим ўрин тутди. У натурфалсафани ўрганиш ёки илмий методлар яратиш етарли эмаслигини яхши англаган, шунинг учун “Генрих VII даври тарихи”, “Табиий тарих” ва “Тажрибалар ёхуд ахлоқий ва сиёсий ўғитлар” деган асарларида ижтимоий-тарихий ҳамда сиёсий қарашларини баён этган. Бэконнинг ижтимоий-тарихий ва сиёсий қарашлари ҳанузгача объектив баҳоланмаган. Унинг порахўрликда, таъмагирликда айбланишини илмий-фалсафий меросига “тушган соя” деб баҳолайдиганлар ҳам йўқ эмас. Агар у фақат илм-фан, фалсафа билан шуғулланганида, шубҳасиз, янада йирик ва бетакрор асарлар яратган бўларди, деган фикрлар ҳам учраб туради. Ф.Бэкон қанчалик зиддиятли, Л.Фейербах айтганидек, “маънавий-руҳий иккига бўлинган” бўлмасин, унинг илмий-фалсафий изланишлари аниқ, буюк мақсадга-табиат қонунларини, ижтимоий-тарихий тараққиёт йўлларини универсал методология нуктаи назаридан очиқ беришга қаратилгандир. Ижтимоий-сиёсий фаолиятида Бэкон, В.Ф.Асмус ёзганидек, “монолит фигура” бўлмаса-да, унинг характери, хулқ-атвори ва дунёқарашида зиддиятли томонлар у



яшаган даврга хосдир. Бэкон “Генрих VII даври тарихи” асари орқали инглиз тарихчилигида историографик (тарихий) ёндашишни бошлаб берган. Асарда тарихий манбалардан фойдаланишга катта эътибор берилган ҳамда хотиравий ҳужжатларга, манбаларга асосланилган.

1600 йилгача Англия университетларида, ўқув юртлирида асосан антик давр тарихи ҳамда христианлик католик черкови тарихи ўқитилган. Бэкон ушбу анъанани бузади, у Англия тарихини ўрганиш зарурлигини асослаб беради. Бэкон Генрих VII нинг портрети орқали янги синфнинг тарих саҳнасига чиқаётганини тасвирлаган.

“Генрих VII нинг юриш-туришида феодал урушлари давридаги инглиз қиролларига хос бўлган қирол-жангчи, биринчи рицар каби сифатлар аста-секин йўқолади. Бироқ унда савдогарларга хос бойлик тўплашга ўчлик пайдо бўлади. Қирол учун, деб кўрсатди Бэкон, уруш доимо пул сандиғини тўлдиришга қаратилган савдолашиш манбаи эди. Қиролнинг Францияга қарши олиб борган урушдаги хулқ-атвори шундай эди”. Генрих VII бойлик тўплашда ўзининг очкўз амалдорларидан, судхўрлардан асло қолишмаган. Англия кўшини Булонни ўраб олади, лекин шу заҳоти тинчлик, ўртада келишув ўрнатилади. “Ўз юришига кетган сарф-харажатлари учун, - деб киноя қилади, Бэкон, - Генрих 745 минг дукат нақдини ва ундан ташқари ҳар йили 520 минг крон оладиган бўлди. Бу аслида тинчлик шартномаси эмас, балки савдо-сотик иши эди”. Генрих VII портретини яратар экан, Бэкон у бойлик тўплаш учун юришлар уюштирганини, ушбу йўл билан аслзодаларни, феодалларни ҳамда халқни янги-янги солиқлар тўлашга мажбур қилгани ҳақида ёзади. “Қирол қанот чиқариш учун аслзодалар ва халқни титди”. Бэконнинг Генрих VII берган қуйидаги баҳоси: “У доно қирол эди, бироқ унинг очкўзлиги ҳайрат уйғотади”. Бэкон доноликни, донишмандликни бошқача, яъни уларни бир-бирига зид воқеликлар деб тушунган. Бу борада унинг “Такаббурона донолик” деб аталган афоризмларини келтиришимиз мумкин. “Қумурсқа ўзи ўзича доно мавжудот, аммо у боғда зарарлидир. Одамлар ҳам шундай, такаббурлар жамиятга зарар келтирадилар. Манманлик билан ижтимоий бурч орасини танла...”. Донолик билан манманлик ёки ўзини, ўзининг манфаатларини ўйлаш бир-бирига мувофиқ келадиган фазилатларми? Ҳа ва йўқ, чунки аниқ бир вазият, шахс ҳатти-ҳаракатларини таҳлил қилишгина бу саволга тўла жавоб бера олади. Бэкон мисолида Генрих VII ўз даврига хос хусусиятларни, жангчи, рицарь ўрнига ўзини, давлат хазинасини бойитишни ўйлайдиган, янги синф - буржуйларга хос фойда кетидан чопадиган шахс сифатида келади. Бундай шахс ҳаммани, шу жумладан халқини, лашкари-

ни, амалдорларини, ҳатто давлатни ҳам алдаши ёки ўз манфаатлари учун сотиб юбориши мумкин. Янги синфда ана шундай сифатлар, утилитаризм борлигини файласуф Генрих VII образи орқали очиб берган.

Бэконни юрист сифатида Генрих VII давридаги қонунчилик, суд ишлари, бошқаришга оид манбалар қизиқтирган. Унинг фикрига кўра, қонунлар “давр портретини чизиб беради”. У Генрих VII ни фуқаролар урушини (Бу ўринда файласуф Қизил ва Оқ Рангул урушларни назарда тутаяди) бартараф этган ёки ватанини ташқи босқинчилар зулмидан, мустабидлигидан халос қилган Цезар Август, Веспасиан, Аврелиан, Теодорих, каби машҳур шахслар билан ёнма-ён жойлаштиради. У Генрих VII ни, адолатли қонунлар ишлаб чиққан ва қабул қилган қирол, деб ҳисоблайди. Генрих VII нафақат фуқароларини, кўли остидаги сарой аёнлари ва амалдорларини қонунларга бўйсунтиришга ундаган, ўзи ҳам уларга амал қилган. Қиролнинг парламент билан ҳамкорлик қилганига Бэкон ибратли мисол деб қарайди. Ю.П.Михаленконинг фикрига кўра, буни Бэкон парламентни менсимасан Яков I ва Карл I га ибрат, намуна сифатида келтиради. Бэкон, қонун ва сиёсат уйғундир, деб билади. У ёзади: “Адолатли қонунлар ва оқилона сиёсат бир-бирига душман деб ҳеч ким ўйламасин, чунки улар бир-бирисиз ҳаракат қилолмайдиган темирлар ва мускулларга монандир. Айниқса, файласуфнинг халқ руҳсатига мувофиқ солиқ тўлаш ҳақидаги фикри ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Қирол қонунлари орқали, давлатни, халқни бошқарган, аслзодаларни, амалдорларни итбатда ушлаб турган. Шу билан бирга, Бэкон қирол оддий халқ ҳақида кам қайғурганини ёзади. У крепостнойларни озод қилади, шу билан бирга ишсизларни, иш топиш ғамида юрган дайдиларни ушлаш ва жазолаш ҳақида қонун қабул қилади. Бэкон қиролнинг бундай зўравонлигини қўллаб-қувватламайди, балки норозиликларга олиб келадиган моддий сабабларни ўрганишни, ҳал этишни таклиф қилади. Бу файласуфдаги либерал ғояларга мойиллик эди.

Бэкон яшаган даврда ижтимоий-тарихий жараёнларни, жамият тараққиёти қонунларини, кишиларнинг, халқларнинг тарихдаги ўрнини ўрганувчи тарих фани ҳали йўқ эди. Ижтимоий-тарихий жараёнлар, айниқса, туб ўзгаришлар бошланган даврда, зиддиятларсиз, ҳатто уюштирилмайдиган норозиликларсиз, исёнларсиз кечмайди. Бэкон ушбу воқеаларни ижтимоий-сиёсий, тарихий аҳамиятини тўғри англамайди, унинг назарида исёнлар «буюк очарчилик ва буюк норозиликлар» сабабли пайдо бўлади. «Айтиш мумкинки, - деб ёзади у, - давлатда хароб этилганлар қанча бўлса, исёнга тайёрлар ҳам шунча бўлади». Тўғри, қашшоқлик ва



норозилик давлатнинг барқарорлигига хавф солувчи исёнларни келтириб чиқариши мумкин. Лекин Бэкон ушбу исёнлар сиёсий тузум, давлатнинг ғайриинсоний режалари туфайли содир бўлишини англаб етмайди. Файласуф исёнларни келтириб чиқарувчи омилларни бартараф этишга чақиради, бироқ уни қуйидаги даъватлари таажжуб уйғотади. У ёзади: «Норозиликка қарши энг яхши усуллардан бири халқни санъаткорона ва абжирона умидлар билан овунтиришдир, кишиларни бир умиддан бошқа бир умидга етаклашдир. Ҳақиқатда ҳам кишиларни умидлар билан аллалайдиган ҳукумат оқилдир...». Бу ўринда файласуф, халқни алдаш, овунтириш, қўйинини пуч ёнғоқлар билан тўлдириш мумкин, демокчи бўлди. Бэконнинг ёзишига кўра, ҳар бир давлатда икки қатлам: аслзода ва оддий халқ бўлади. Оддий халқ исёнга тез қўзғалавермайди; аслзодаларнинг норозилиги эса бартараф этиладиган ҳолдир. Агар оддий халқ қўзғалганида унга аслзодалар қўшилса, исён ҳақиқатан ҳам ҳукмдор, давлат учун хавфлидир. Шунинг учун давлат, ҳукмдор оддий халқнинг ўзига ён босишига, қўллаб-қувватлашига умид қилиши ишончлидир”.

Бэкон халқнинг ижтимоий-тарихий жараёнларнинг бош субъекти сифатида қарамаса-да, унинг давлат барқарорлигида муҳим роль ўйнашини инкор қилмаган. Файласуф давлатни, ҳукмдорни улуғлашга интилади. “Ҳукмдорлар ёруғлик таратувчи осмон жисмларига ўхшайди, уларнинг ён босишига мувофиқ даврлар яхши ёки ёмон бўлади”. Чиндан ҳам Бэкон монархнинг кучига, қудратига, унинг ҳар нарсага қодир куч эканлигига ишонган. Монарх ҳокимияти, Бэкон фикрига кўра, “худо томонидан ўрнатилган”, шунинг учун қироллар давлатни “худо топшириғига мувофиқ бошқаради”. Ижтимоий-тарихий жараёнларни, сиёсий тузумнинг самарали фаолият олиб боришини монарх шахси билан боғлайди. У қиролни қонунлар доирасида бошқаришга, парламент билан ҳамкорлик қилишга, буржуазиянинг ҳаддан ташқари бойиб, давлат манфаатларига хавф уйғотишининг олдини олишга, халқни қашшоқлаштириб юбормасликка даъват этади.

Ижтимоий-сиёсий ҳаётда христианлик динининг ўрни катта эди. Монарх руҳонийлар, айниқса Рим черкови қоҳинлари билан маслаҳатлашиши, давлат ишларини олиб боришда уларга таяниши табиий ҳол эди. Армияда кальвинизм ёйилаётган бўлса-да, у руҳонийларнинг дунёвий давлатнинг фаолиятини ҳанузгача идора этарди. Шунинг учун Бэкон, “христианлик икки қиличга эга – бу маънавий ва дунёвий; уларнинг иккаласи ҳам иш олиб боришда ўзига хос ўрнига ва аҳамиятига эга”. Аммо “дунёвий қилич ўта эҳтиёткорлик билан динни ҳимоя қилишда ўз қини-

дан чиқарилиши зарур, айниқса ушбу қилич билан халқни қуроллантириш бутунлай даҳшатлидир”, деб таъкидлайди.

M.Makklyuen[3] tomonidan turli xil kommunikatsiya vositalarini definitsiya qilish uchun tarqatilgan "media" atamasi endi oddiy "fazo" ni bildirmaydi. M.Makklyuen "media"ga ommaviy axborot vositasi sifatida emas, balki "madaniyat kodlari ishlab chiqariladigan, estetik alashiriladigan va uzatiladigan ko'p funksiyali muhit" sifatida o'ziga xos ta'rif beradi. M.Makklyuen [3] xatlarni, yo'llarni, sonlarni, kiyim-kechakni, elektr yorug'ligini, shaharni, pulni, soatlarni, nashrni, reklamani, avtomatik qurilmalarni, qurolni, fotografiyalarni, o'yinlarni, matbuotni, telegrafni, yozuv mashinkasini, televideniye va boshqa ko'plab narsalarni mediaga kiritadi. Bu barcha bir-biri bilan qo'shilmaydigan tushunchalarni "insonning atrof olam bilan kommunikatsiyasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritadigan, uning idrok etish usulini va turmush tarzini qayta tashkil qiladigan vositachilar" ekanligi bildiradi. M.Makklyuen [3] "media" o'ziga xos "insonning tashqi kengaytmalari, uning tanasining, sezgi organlarining va qobiliyatlarining texnik davomi" deb hisoblaydi.

Ba'zi tadqiqotchilar "media" ta'rifining barcha murakkabliklari xorijiy tillarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi, deb hisoblaydilar, chunki "media" tushunchasiga ekvivalent atamani topish qiyin deb hisoblaydilar. Masalan, I.M.Dzyaloshinskiy [4] "media" va "kommunikatsiya" kabi jaranglaydigan so'z qobiqlari bor, ammo ularni qo'llashda yuzaga keladigan ma'nolar ko'pincha lotin madaniyatida bu tushunchalarga birlashtirilgan chuqur ma'nolarga mos kelmaydi, deb hisoblaydi.

X.Nekboyev[5] mediata'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib talabalarni pedagogik faoliyatda kasbiy-tanqidiy yondashuvini rivojlanganlik darajasining ko'rsatkichlari va mezonlarini aniqlash, natijalarni matematik-statistik qayta ishlab chiqilgan.

Media tushunchasi borasida biz I.V.Jilavskayaning [6] nuqtai nazariga qo'shilamiz, u "media" ma'noli qo'shimchasiga ega bo'lgan ko'p sonli yangi hosil bo'lgan so'zlar ko'pincha ichki o'zaro qarama-qarshi lingvistik, ba'zan hech qanday ma'noga ega bo'lmagan mashqlarni ifodalaydi, deb hisoblaydi. Adekvat til shaklini izlab topishning qiyinligining sabablari avval mavjud bo'lgan axborot muhitidan tamoyildan farq qiladigan mediamuhitni tadqiq qiluvchilarning oldiga qo'yilgan vazifalarning yangiligi va tuturiqsizligidir.



U «medium» atamasi o'rta asrlarda "ma'jusiylar ruhoniysi", "jodugar", "shaman" kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lganligini, bugun esa turli Yevropa mamlakatlarida "vosita", "vositachi", "ta'sir o'tkazishga oson beriladigan" degan ma'noni bildiradi. Shuningdek bizga "media"ning I.V.Jilavskaya [6] taklif qilgan ta'rif ko'proq yoqadi. U «media» – bu hayotning barcha sohalariga kirib boradigan, jamiyatni ko'rinadigan va ko'rinmaydigan iplar bilan mustahkamlaydigan hamda individ uchun aynan uning uchun qulay bo'lgan axborot fazosining konfiguratsiyasini yaratadigan yashash muhitidir" deb ta'kidlaydi.

Aslini olib qaraganda "Media" mediamuhit deb ataluvchi majmuaviy va ko'pqirrali tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dunyoda mediata'limning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tashkilotining tavsiyalarida alohida ta'kidlab, mediata'lim rivojlanishini qo'llab-quvvatlangan (media edusation barcha turlari - elektron, bosma, grafik, media va boshqalar).

Медианинг глобал характери, айниқса рақамли медиа ва Интернетга yoshlarning jalb qilinishi, ularning OAVda ishtiroki, YUNESKOning asosiy strategiyasini qaytadan belgilashiga undaydi.

YUNESKO hujjatlari mediata'limni (ingl. media edusation, lotincha media-vosita) quyidagicha aniqlaydi: Mediata'lim (media edusation) media (bosma va grafik, tovush, ekran va boshqa) va har xil texnologiyalar turlari bilan bog'liq; u bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar vositalarini qay tarzda qo'llanilishini tushunishga, dars o'tish jarayonida mediadan mohirona foydalanishga imkoniyat beradi;

Quyidagilardan kengroq foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi:

mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;

mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va madaniy manfaatlarini hamda kontekstini aniqlash;

media tomonidan tarqatilayotgan mediamatnlr va qadriyatlarini sharxlash;

media matnlarni yaratish, ularni tarqatish hamda ularga qiziqish bildirgan auditoriyaga ega bo'lish maqsadida tegishli medialarni tanlash;

qabul qilish va ishlab chiqarish maqsadida mediaga erkin ravishda kirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Tadqiqotlarni o'rganish jarayonida bevosita pedvagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni yetarlicha emasligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlillar biz tanlagan muammo bo'lajak boshlang'ich



siny o'qituvchilarini mediakompetentligining asosida yotuvchi ko'pgina masalalarni hal qilish zarurligini tasdiqlaydi. Eng muhimlarining orasida quyidagilarni qayd qilish zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirishda:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini media ma'daniyatini shakllantirish bo'yicha aniq dastur mavjud emas;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar vositalari tizimlashtirilmagan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning mediakompetentligi rivojlantirish bosqichlari, metodlari va vositalari takomillashtirishni talab etadi;

mediakompetentlikni samarali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari belgilanmagan.

Keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Halqaro tajribalardan kelib chiqib ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning bir necha yutuqli taraflari mavjud:

ta'limda mustaqil faoliyatni tashkil etish – bu orqali talabalarda mustaqil fikrlash va mustaqil bilim olishi imkonini beradi;

ta'limda ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish imkonini beradi;

pedagogning pedagogik faoliyatini soddalashtiradi: ma'lumki raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash pedagoglardan juda ko'p energiya va vaqt talab etadi, raqamli ta'limda bu faoliyat maslahat berish yoki yo'l ko'rsatish orqali masofadan ishlash imkonini beradi bo'lajak mutaxassislar faqatgini muammoli vaziyatlardagina pedagogga murojat qilishadi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish masalasini ommaviy va har tomonlama o'rganish bilan tavsiflanadi, deyishimiz mumkin. Shuningdek, mediakompetentlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish jarayoniga bog'liq bo'lgan jihatlarini izlash va tizimlashtirish, bu muammoni umumiy kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari qatoriga ko'tarish lozim. Bu esa mediakompetentlikni raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish muammosini dolzarb va ahamiyatli qatoriga olib chiqadi.

Biz o'rganayotgan muammoning mamlakatimizda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimida yuz berayotgan asosiy o'zgarishlar bilan, kompetentli yondashuvni majmuaviy ta'lim asosi sifatida butunlay tan olinishi bilan, shu jumladan, bo'lajak



boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqotlarning soni va sifati ortib borayotganligi bilan tavsiflanishini aniqladik.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish ilmiy-tadqiqotchilik nuqtai nazaridan qaratilgan e'tibordagi o'zgarishlarni hisobga olib o'rganilgan tadqiqotimiz rivojlanishi ikkita yo'nalishga bog'liq ekanligini aytib o'tamiz:

1) media, mediakompetentlikni pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini rivojlantirish muammosini pedagogik, psixologik, texnik jihatdan o'rganish;

2) pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositalari asosida rivojlantirishning muammolarini aniqlash va yechim sifatida o'quv jarayonidagi metodlarni takomillashtirish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. www.lex.uz

2. Ежова, Е.Н. Медиа–рекламная картина мира: структура, семиотика, канал трансляции: дис... д-ра фил. наук: 10.01.10 / Ежова Елена Николаевна. – Ставрополь, 2010. – с. 180.

3. Макклюэн, М. Понимание медиа: внешние расширения человека / Г.М. Ма–кьюэн. – М.: Жуковский: «КАНОН–пресс–», 2003. – 464 с.

4. Дзялошинский, И.М. Гражданские коммуникации и гражданское общество / И.М. Дзялошинский // Электронная библиотека «Гражданское общество России». – Режим доступа: / URL:<http://www.sivisbook.ru/files/File/Fragment%20knigi12.pdf>

5. Nekboyev X.X. Mediata'lim asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-tanqidiy yondashuvini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020.

6. Жилавская, И.В. Медиаповедение личности: учебное пособие / И.В. Жилав–ская. – М.: РИЦ МГТУ им. Шолохова, 2012. – 91 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu ishda media kompetentlik tushunchasi, media va mediakompetentlikning tadqiqotchilar tomonidan o'rganilganlik darajalari hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediakompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается понятие медиакompetентности, уровни медиакompetентности и медиакompetентности, изучаемые исследователями, а также важность цифровых технологий в развитии медиакompetентности будущих учителей начальных классов в педагогических высших учебных заведениях.

SUMMARY

This article examines the concept of media competence, the levels of media competence and media competence studied by researchers, as well as the importance of digital technologies in the development of media competence of future primary school teachers in pedagogical higher educational institutions.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Qayumxo‘jayeva F.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: kreativ fikrlash, pedagog roli, o‘yin faoliyati, ijodiy loyihalar, tasavvur, ta’lim muhiti, individual yondashuv.

Ключевые слова: творческое мышление, роль педагога, игровая деятельность, творческие проекты, воображение, образовательная среда, индивидуальный подход.

Key words: creative thinking, the role of a teacher, play activities, creative projects, imagination, educational environment, individual approach.

Bashriyatning g‘ayrioddiy tafakkuri muammosi insonlarda har doim katta qiziqish uyg‘otgan. Biroq ilgari jamiyatning kreativ fikrlashni o‘zlashtirishiga ehtiyoj kam edi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davridagi hayot tobora xilma-xil va murakkablashib bormoqda. Va bu stereotipli, odatiy harakatlar emas, balki harakatchanlik, fikrlashning moslashuvchanligi, tez yo‘naltirish va yangi sharoitlarga moslashish, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Agar deyarli barcha kasblarda aqliy mehnatning ulushi doimiy ravishda o‘sib borayotganini, ijrochilik faolligining ortib borayotgan qismini mashinalarga o‘tkazilishini hisobga olsak, insonning kreativ tafakkurini uning aql-idrokining eng zaruriy qismi sifatida e’tirof etish lozimligi va uni rivojlantirish vazifasi hozirgi zamon kishisi ta’lim-tarbiyasidagi eng muhim vazifalardan biri ekanligi ayon bo‘lib qoladi [1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashning rivojlanishi zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifasidir. Ijodiy fikrlash muammolarni hal qilishda innovatsion, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvga qodir bo‘lgan shaxs shakllanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonining pedagogik xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Kreativ fikrlash tushunchasi haqida quyidagi ma'lumotlarni bilish katta ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlash - bolaning yangi g'oyalar hosil qilish, muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvlarni topish, qiyinchiliklarni dastlabki usullar yordamida bartaraf etish qobiliyatidir. Shuningdek fikrlashda o'ziga xoslik va moslashuvchanlikni ko'rsatish qobiliyati hamdir. "Kreativ fikrlashning rivojlanishi vaqt o'tishi bilan ilgari surilgan zaruriyat bo'lib, o'quv davrida kreativ fikrlashning shakllanishi boshlang'ich sinfda boshlanishi tavsifa etiladi. Ijodiy fikrlash qobiliyati bilim va tajribaga asoslangan bo'lib, shuning uchun maqsadli shakllanish fani bo'la oladi" [2]. Bu erta yoshdan shakllangan shaxs rivojlanishining muhim jihati hisoblanadi. Bu termin standart usullardan oshib ketgan holda muammolarni kreativ hal qilish qobiliyatini tavsiflaydi. Ijodiy fikrlash bir nechta asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi fikrlar yaratish	2. Fikrlarning moslashuvchanligi	3. Fikrlarning o'ziga xosligi	4. Muammoni hal qilish	5. Ijodiy jarayon
---------------------------	----------------------------------	-------------------------------	------------------------	-------------------

Yangi fikrlar yaratish bu turli muammolarga yangi g'oyalar va yechimlar keltirish imkoniyati tushuniladi.

Fikrlarning moslashuvchanligi deganda vaziyatlarga turli nuqtayi nazardan qarash va muammolarni hal qilishning turli xil yo'nalishlarini topish qobiliyati anglashiladi.

Fikrlarning o'ziga xosligi bu muhitdan ajralib turish hamda o'ziga xos original va betakror g'oyani taklif qilish qobiliyatidir.

Muammoni hal qilish bu dolzarb muammolarni hal qilishning kreativ yo'llarini topish imkoniyati hisoblanadi.

Ijodiy jarayon tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, dizayn va boshqalar kabi ijod aktlarini o'z ichiga oladi.

Kreativ fikrlash innovatsiya, o'z-o'zini ifoda etish, atrofimizdagi tez o'zgarib borayotgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishda muhim o'rin tutadi. Ushbu qobiliyat nafaqat intellektual rivojlanishni rag'batlantiradi, balki shaxsiy o'sishni va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini ham ta'minlaydi. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashning rivojlanishini zamonaviy usullar orqali shakllantirish jarayonining pedagogik xususiyatlarini ishlab chiqish lozim.

Boshlang'ich sinfda kreativ fikrlashni rivojlantirishda qiziquvchanlikni qo'zg'atuvchi, tasavvurni rivojlantiruvchi va ijodiy muammolarni hal qilish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish darkor.



Kreativ fikrlashni shakllantirish uchun bolalarning qiziqishini ragʻbatlantiruvchi muhitni yaratish kerak. Bunga qiziqarli darslar, nostandart oʻquv materiallari va usullaridan foydalanish orqali erishish mumkin. Shuningdek, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tasavvurni rivojlantirishga oʻz hissasini qoʻshadigan tadbirlar, rolli oʻyinlar va ijodiy loyihalar ham ahamiyatli. Taʼlim oluvchilar ijodkorlik elementlarini oʻquv jarayoniga kiritishi, bolalarni oʻz hikoyalari, chizmalari, oʻyinchoqlarini yaratishga undashi mumkin. Bolalarni nostandart yechimlarni talab qiladigan vazifalar bilan taʼminlash muhim. Muammoni hal qilishning muqobil usulini topish, gʻayrioddiy loyihani yaratish yoki kollektiv ijodiy faoliyat boʻlishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kreativ fikrlashning rivojlanishi bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan murakkab va koʻp qirrali jarayon hisoblanadi. Bu oʻrinda bir nechta asosiy jihatlarni taʼkidlash lozim:

1. Oʻyin faoliyati. Oʻyin bolalar ijodkorligi rivojida muhim rol oʻynaydi. Qurilish, rol oʻynash, ijod loyihalari fantaziya, tasavvur va original fikrlashning rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

2. Kreativ loyihalar. Bolalarni rasm chizish, haykaltaroshlik, musiqa yaratish yoki teatr sahnalari kabi ijod loyihalariga jalb etish nafaqat ularning kreativ tafakkurini rivojlantiradi, balki oʻz gʻoyalarini sanʼatning xilma-xil turlari orqali ifodalashga yordam beradi.

3. Qiziquvchanlikni qoʻllab-quvvatlash. Qiziquvchanlikni qoʻzgʻatuvchi muhit yaratish bolalarga atrofdagi dunyoni faol oʻrganishga, savollar berishga, javob izlashga yordam beradi. Bu ularning kreativ fikrlash qobiliyatiga taʼsir qiladi.

4. Tasavvurni rivojlantirish. Oʻqish, hikoya qilish, oʻz hikoyalari yaratish kabi tasavvuriy jarayonlar yosh oʻquvchilarda kreativ fikrlashni targʻib qiladi.

5. Oʻquv-uslubiy materiallardan foydalanish. Turli xil oʻquv materiallari, jumladan, kitoblar, oʻyinchoqlar, interaktiv vositalar bolalarning dunyoni turli formatlarda oʻrganishi va tadqiq qilishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

6. Hamkorlik koʻnikmalarini shakllanishi. Guruh loyihalari va hamkorlikdagi ijodiy vazifalar hamkorlik koʻnikmalarini, fikr almashuvini, oʻzaro ilhomlanishni taʼminlanishi kreativ fikrlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

7. Oʻziga boʻlgan ishonchni ragʻbatlantirish. Bolalarni qaror qabul qilishga oʻrgatish, fikrlarni keltirish, muammolarga qutbdan tashqarida boʻlgan yondashuvlarni sinab koʻrish ularning mustaqil boʻlishiga, ijodkor fikrlashiga turtki beradi.

Umuman olganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kreativ fikrlashning rivojlanishi taʼlim-tarbiya jarayoniga turli usullar, oʻyinlar va loyihalarni



birlashtirishni, shuningdek, o‘quvchilarning ijod qilish va o‘z-o‘zini ifoda etish erkinligini ta’minlovchi qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratishni talab etadi, deyish mumkin.

“Kreativlik tagmatnga qaratilgan bo‘lib, mahsulotlarni yaratish, ham yangi, ham mos bo‘lgan g‘oyalari va yechimlarni paydo qilari” [3] ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish va uni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha ushbu muhitda *ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlash, tadqiq qilish, tasavvur qilish, bajarish, aks ettirish* kabi metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

Kreativlik		
Ko‘nikma	Usuli	G‘oyalarni ulashish va yechim toppish
Tadqiq qilish	Biror bir g‘oyaga aynan o‘zidan yangi g‘oya berish yoki boshqa fan sohasiga qiyoslash.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematika fanini o‘zlashtirishsa, boshqa fanlarni osonlik bilan o‘zlashtirishadi. Shu fikrga qandauy qaraysiz?
Tasavvur qilish	Ko‘p g‘oyalarni taqdim etish.	Biz matematika fanini o‘zlashtirishsak, kreativ tafakkurimiz yaxshi rivojlanadi. Matematika fani aql charhi.
	Urinib ko‘ring va rivojlantiring.	Matematika qiziqarli fan, xotirani ham yaxshilaydi.
	Kutilmagan yoki xavfli fikrlar bering.	Matematika fani kreativ fikrlashni tezlashtirmaydi. Boshqa fanlarni o‘zlashtirishda yordam bermaydi.



Bajarish	Taklif berish, noyob g'oya yaratish, yechim.	Taqdim etilgan g'oyalarning qaysi biri maqbulini aniqlash uchun quyidagi takliflar beriladi: O'quvchilarga ko'paytirish jadvalini yod olishni tavsiya etish. Mental arifmetika bilan darsdan bo'sh vaqtlarida shug'ullanishni taklif etish.
Aks ettirish	Taklif etilayotgan yechimlarning yangiligini va ulardan foydalanishning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholash.	Ushbu taklif etilayotgan yechimlarni amalda qo'llab ko'rish orqali o'quvchilarni boshqa fanlarni o'zlashtirish natijasini tekshirish va baholash.

“Bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish juda yoshligidan tavsiya etiladi. Shu sababdan boshlang'ich ta'limda ijodkor, nafaqat reproduktiv, fikrlash uslubini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayni paytda intellektual, kommunikativ va kreativ qobiliyatlarni shakllantirish maqsadida bolaning rivojlanayotgan xulq-atvoriga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini takomillashtirishda psixologlar, o'qituvchilar, ota-onalar ehtiyoji mavjud” [2].

Kreativ tafakkurning shakllanishida o'qituvchining o'rni beqiyos. Chunki ta'lim va tarbiya bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda o'qituvchi rolining bir nechta asosiy yo'nalishlari mavjud.

O'qituvchida boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan o'ziga xos individual yondashuv, qiziquvchanlikni qo'zg'atuvchi va ijodiy ta'lim muhitini yaratish, o'z-o'ziga tayanish bo'yicha treninglar o'tkazish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ijtimoiy o'zaro ta'sirning rivojlanishini ta'minlash, kreativ muammoni hal qilish usullarini o'rgatish, o'z-o'zini ifodalashning ruhlantirishi kabi yo'nalishlarga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bunda har bir bolaning ijodkorlik darajasi, qiziqishlari, o'quv-bilish sur'atlarini tahlil qilish ham bor. Shaxsiy usul va yo'nalishlarning yaratilishi kreativ fikrlashni yanada samarali rivojlantirishga imkon beradi.



Pedagogik metodlar bolalarning qiziqishini ragʻbatlantirishi kerak. Qiziqarli maʼlumotlarni taqdim etish, muammoli vazifalarni belgilash va qiziqarli darslar oʻtkazish oʻquvchilarni bilimlarni faollashtirishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Oʻqituvchi kreativ qulay muhit yaratishiga ijodiy ish joylarini tashkil etish, turli xil oʻquv materiallari va vositalariga kirishni taʼminlash, ijodiy mashgʻulotlar va loyihalarni oʻtkazish muhimlik kasb etadi.

Oʻqituvchi bolalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllantirishi kerak. Taʼlim vazifalari doirasida tanlov erkinligini taʼminlash va tashabbusni ragʻbatlantirish mustaqillik va bunyodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijodiy fikr-mulohazalarni yaratish va oʻquvchilarni ijodiy ishlarida ragʻbatlantirish muhim. Oʻqituvchining maqtov orqali qoʻllab-quvvatlashi oʻquvchilarni ijodiy fikrlashni yanada rivojlantirishga undaydi.

Ijodni shakllantirishda guruh yoki sinf doirasida hamkorlik va fikr almashish ham muhim rol oʻynaydi. Oʻqituvchi bolalar fikr almashishi va bir-biri bilan oʻzaro muloqot qilishi mumkin boʻlgan jamoaviy loyihalarni tashkil qilishi mumkin. Pedagogik jarayon oʻquvchilarga ijodiy muammolarni hal qilishning turli texnikasi va strategiyalarini oʻrgatishni oʻz ichiga olishi kerak. Bunga aqliy xaritalash texnikasi, birlashma oʻyinlar va ijodiy fikrlashni ragʻbatlantiradigan boshqa texnikalar kiritilishi mumkin.

Pedagog bolalar oʻz fikr va gʻoyalarini erkin ifoda eta oladigan muhitni yaratishi shart. Bunga aloqa darslari, ommaviy soʻzlashuv, shuningdek, chizmachilik, yozuv va sanʼatning boshqa turlari orqali ijodiy ifoda etish uchun sharoitlar yaratish kiradi.

Ijodkor tafakkurni shakllantirishda tarbiyachining oʻrni oʻquvchilarda oʻz ijodkorligini rivojlantirish, oʻz gʻoyalarini ifodalashda oʻzini ishonchli his etish, yaratuvchanlik jarayonlarida ishtirok etish mumkin boʻlgan ragʻbatlantiruvchi va qoʻllab-quvvatlovchi muhit yaratishdan iborat.

Shunday qilib, kreativ tafakkurini rivojlantirishda oʻqituvchining roli boshlangʻich sinf oʻquvchilarining kreativligini faol rivojlantiradigan va kelajakda muvaffaqiyatli ijod qilish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni shakllantiradigan qoʻllab-quvvatlovchi, ragʻbatlantiruvchi va ilhomlantiruvchi taʼlim muhitini yaratishdir.

Ushbu maqolada quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kreativlikni rivojlantirishning ahamiyati nafaqat intellektual koʻnikmalarning shakllanishida, balki shaxsni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli oʻz-oʻzini ifoda etish va moslashishga tayyorlashda ham namoyon boʻladi. Taʼlim oluvchilar bu jarayonda qoʻzgʻatuvchi oʻquv muhitini yaratish, bolalarning individual ehtiyojlarini



qo‘llab-quvvatlash, turli ijodiy fikrlash texnikasini o‘rgatish orqali asosiy o‘rin tutadi.

2. Ushbu yondashuv o‘yin-kulgi usullaridan, ijodiy loyihalardan foydalanish, qiziqish va tasavvurni rag‘batlantirish, hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik faoliyat har bir o‘quvchi individualligini rivojlantirishga, uning o‘z fikrini bildirishga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlashga va tashabbusni rag‘batlantirishga hissa qo‘shishi kerak.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashning shakllanishi ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijodkorlik nafaqat bolalarning shaxsiy o‘shini boyitadi, balki tez o‘zgarib borayotgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishda ham asosiy omil hisoblanadi. Bizningcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirish kelajakka investitsiya bo‘lib, bugungi dunyoning qiyinchiliklarini bartaraf etishga tayyor bo‘lgan moslashuvchan, zamonaviy va ijodkor shaxslarni shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Жакупова, Г.Ш. Педагогические условия формирования креативного мышления младших школьников // Молодой ученый. 2023. №12 (459). - С. 151-153. Захарова И.И. Теоретические основы развития креативного мышления у младших школьников и диагностика творческого мышления младших школьников / URL: <https://moluch.ru/archive/459/100917/>

2. Захарова И.И. Теоретические основы развития креативного мышления у младших школьников и диагностика творческого мышления младших школьников / URL: <https://moluch.ru/archive/459/100917/>

3. Стехов А.В. Педагогические технологии развития критического и креативного мышления // Педагогические технологии. №4. 2019. Pedag.Tech.№4.2020_Stekhov.pdf (vbudushee.ru)

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari mavzusiga bag‘ishlangan. Dastlab ijodiy fikrlash tushunchasi ko‘rib chiqilgan, uning asosiy tarkibiy qismlari va zamonaviy jamiyat kontekstidagi ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish, o‘yin faoliyati, ijodiy loyihalarning muhimligi ta‘kidlangan, qiziqish va tasavvurni rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining roli haqida so‘z yuritilib, individual yondashuv, qiziquvchanlikni rag‘batlantirish, ijodiy ta‘lim muhitini yaratish va mustaqillik ko‘nikmalarini o‘rgatish usullari yoritilgan. O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ijtimoiy o‘zaro ta‘sirni rivojlantirish va ijodiy muammolarni hal qilish usullarini o‘rgatish muhimligi ta‘kidlangan. O‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning dolzarbligi, bolalarning kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish uchun rag‘batlantiruvchi muhitni yaratishda pedagogik rolning muhimligi ko‘rsatilgan.

РЕЗИОМЕ

Данная статья посвящена теме педагогические особенности развития творческого мышления у младших школьников. Первоначально было рассмотрено понятие творческого мышления, выделены его основные компоненты и значение в контексте современного общества. В процессе начального образования подчеркивается важность развития творчества, игровой деятельности, творческих проектов, уделяется внимание развитию интереса и воображения. Также рассказывается о роли учителя в процессе развития творческого мышления, освещаются методы индивидуального



подхода, стимулирования любознательности, создания творческой образовательной среды, обучения навыкам самостоятельности. Подчеркивается важность поддержки и поощрения со стороны учителя, развития социального взаимодействия и обучения творческим методам решения проблем. Показана актуальность развития творчества у обучающихся, важность педагогической роли в создании стимулирующей среды для раскрытия творческого потенциала детей.

SUMMARY

This article is devoted to the topic of pedagogical features of the development of creative thinking in younger schoolchildren. Initially, the concept of creative thinking was considered, its main components and significance in the context of modern society were highlighted. In the process of primary education, the importance of developing creativity, play activities, creative projects is emphasized, attention is paid to the development of interest and imagination. It also tells about the role of the teacher in the process of developing creative thinking, highlights the methods of an individual approach, stimulating curiosity, creating a creative educational environment, and teaching independence skills. The importance of teacher support and encouragement, the development of social interaction and teaching creative methods of problem solving is emphasized. The relevance of the development of creativity among students, the importance of the pedagogical role in creating a stimulating environment for the disclosure of children's creative potential is shown.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSH TOVUSHLAR

Jo‘rayeva Sh.K.

Farg‘ona davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, nutq, talaffuz, artikulyatsion tovush, bo‘g‘iz undoshi, shovqin, ovoz, sonor, kreativ.

Ключевые слова: звонкие согласные, глухие согласные, речь, произношение, артикуляционный звук, слоговой согласный, шум, голос, сонорный, творческий.

Key words: voiced consonants, deaf consonants, speech, pronunciation, articulatory sound, syllabic consonant, noise, voice, sonorous, creative.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan zamonaviy bilim olish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar egallash istagida bo‘lgan yoshlarning ta‘lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib, ularga ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning kasbiy mahoratini, intilishlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvatlash maqsadida bir nechta qarorlar qabul qilindi:

1. 2022-yil 1-oktyabrdan boshlab axborot texnologiyalari sohasida bilim olish uchun ta‘lim krediti ajratish.

2. Axborot texnologiyalari sohasida tahsil olish uchun ta‘lim kreditlari bo‘yicha tijorat banklarini muolijaviy resurslar bilan ta‘minlash

3. “Ijtimoiy ximoya yagona reystri”ga kirgan oilalar farzandlari bo‘lgan hamda “Yoshlar daftari”ga kirgan yoshlar 2023-yil 1-avgustga qadar “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini tamomlagan va sertifikat olgan bo‘lishini ta‘minlash. Va yana shu kabi bir nechta qarorlar qabul qilindi, amalga oshirilishi tashkillandi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tovushlar, ularning turlari haqida ma‘lumotlar berish, boshlang‘ich sinflarda jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning qo‘llanilishi yangilangan ona tili darsliklarida jarangli va



jarangsiz undosh tovushlari tadbiqu, darslik tahlili, yangiliklar yaratish va yangi metodlar bilan uyg'unlashtirish.

Tovush (tilshunoslikda) nutq tovushi – kishining murakkab artikulyatsion faoliyat natijasi, muayyan akustik (eshitilish) va perseptiv (idrok etilish) xususiyatlari bilan ajralib turadigan eng kichik nutq birligi hisoblanadi. Talaffuz usuliga muvofiq tovushning akustikasi, artikulyatsiyasi va persepsiyasi haqida fikr yuritish mumkin. Har bir nutq tovushi artikulyatsion jihatdan talaffuz a'zolarining murakkab harakati davomida paydo bo'ladi. Akustik jihatdan esa, har qanday boshqa tovush singari, havo muhiti orqali tarqaladigan tebranma harakat sifatida ta'riflanishi mumkin. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi vosita (tebrantiruvchi kuch) o'pkada nafas yo'li orqali chiqib, avval bo'g'izga so'ng undan og'iz bo'shlig'iga, ba'zan burun bo'shlig'iga o'tadigan havo oqimidir. Ovoz, asosan, bo'g'izda hosil bo'ladi. Unda ko'ndalang joylashgan elastik, yupqa tovush paychalari mavjud bo'lib, so'zlash paytida o'pkadan chiqayotgan havoning kuchi bilan titraydi va ovoz yuzaga keladi. Unlilar, sonorlar va jarangli undoshlardagi ovoz ana shuning hisoblanadi. Bo'g'iz orqali o'tgan havo oqimi til, tanglay, tish yoki ikki labning to'sqinligiga duch kelib, shovqin paydo qiladi, natijada jarangsiz undoshlar hosil bo'ladi. Tovushlar so'z va grammatik ko'rsatkichlarni shakllantirish hamda ularni bir-biridan farqlash, ajratish uchun xizmat qiladi. Bunday xususiyatli tovushlarni fonema deyildi, lekin barcha tovush ham fonema bo'la olmaydi. Tovush (fonema)lar bir necha jihatdan tasnif qilinadi. Ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra, ular avvalo 2 ga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab hosil bo'ladi, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar hisoblanadi. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg'alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o'tishi mumkin. Natijada turli jihatdan bir-biridan farqli undosh tovushlar hosil bo'ladi.

Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

- 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra;
- 2) hosil bo'lish o'rniga (nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra);
- 3) hosil bo'lish usuliga ko'ra;

4) palatalizatsiyaga (tilning qattiq tanglay tomon ko'tarilishiga) ko'ra. Ushbu tasniflarni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi 24 ta [b, v, g, d, j (jyuri), j (jo'ja), y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h] undosh tovushlar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, undosh tovushlar 2 asosiy turga bo'linadi: sonorlar va shovqinlilar. Sonorlar (m, n, ng, l, r) tarkibida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladi. Shovqinlilar esa



faqat shovqindan yoki shovqinga ovoz qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan undosh tovushlar hisoblanadi. Ovozning qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko‘ra, shovqinli undoshlar ham 2 turga bo‘linadi: jarangli undoshlar va jarangsiz undoshlarga bo‘linadi.

Jarangli undoshlar (b, v, g, d, z, y, j , j, g‘, l, m, n, r, ng) shovqinga ovoz qo‘shilgan undoshlardir.

Jarangsiz undoshlar esa (p, f, k, t, s, sh, ch, x, q, h) faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘ladi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, undosh tovushlar 3 ga bo‘linadi:

lab undoshlari lab-lab undoshlari (p, b, m) va lab-tish undoshlari (v, f)dan iborat;

til undoshlari — til oldi (b, p, d, t), til orqa (k, g), til o‘rta (y) va chuqur til orqa (q, g‘, x) undoshlaridan iborat;

bo‘g‘iz undoshi (h). Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, undosh tovushlar 2 ga bo‘linadi; portlovchilar — nutq a‘zolarining jipslashuvi va havo oqimi bosimining shu a‘zolari yorib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladigan p, b, t, d, k, g kabi undoshlar; sirg‘aluvchilar — nutq a‘zolari bir-biriga yaqinlashib, havo oqimi shu tor oraliqdan sirg‘alib chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan v, f, z, s, j, sh, x, g‘ kabi undoshlar.

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalanishi. O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratib olinadi. Kuzatishda o‘quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko‘rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan masalan, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy kabi so‘zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi). Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undosh tovushlar dastlab ikki turga bo‘linadi: 1) shovqinli undoshlar (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko‘p yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar bo‘lib, bu guruhga b, v, g, d, j (ajdar), j (jiyan), z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q , g‘, h undoshlari kiradi. Shuning uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarning ishtirokiga, tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko‘ra, ikkiga bo‘linadi: a) jarangli undoshlarni (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar

shu bilan sonorlardan farq qiladi: v, b, g, d, j (garaj), j (jo‘xori), z, y, g‘, b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h. Ba’zi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar hosil bo‘lish o‘rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: b – p, v – f, g – k, d – t, j(qorishiq) – ch, j(sirgaluvchi) - sh, z - s, g - x . 2) sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar (jami 5 ta) tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo‘lib, ularga m, n, ng, l, r undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo‘lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi – bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo‘ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin turadi. Ammo bu undoshlar o‘pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo‘ladi.

Yangilangan ona tili darsliklarida jarangli va jarangsiz undosh tovushlar 2-sinf 1-qismida berilgan. Mavzuning nazariy qismiga o‘tishdan avval bolalarga mavzuning mohiyatini tushunib olishlari uchun amaliy bajarilishi kerak bo‘lgan bir nechta amaliy mashqlar va savollar berilgan:

Tovush paychasi qayerda joylashgan?	Tovush paychasining qanday vazifalari bor?
b, y, z, tovushlarini talaffuz qilganda tomog‘ingizda tovush paychasining tebranayotgani seziladimi?	p, t, s, tovushlarini talaffuz qilganda tovush paychasining tebranishi deyarli yo‘qolgani seziladimi?

Masalan: 48-sahifa

O‘pkadan chiqayotgan havo oqimlarining tovush paychasini tebratish ovozni hosil qiladi.
O‘pkadan chiqayotgan havo oqimining til, tish, yoki lab to‘sig‘iga uchrashi shovqin hosil qiladi

Ushbu qoida asosida o‘qituvchi albatta har bir ko‘rinishga mos harflar asosida amaliy bajarilishini tashkillash lozim, chunki kichik yoshdagi bolalar nazariy ma’lumotlardan ko‘ra amaliy holatda olingan bilimi xotirada uzoq saqlaydi.

49-sahifa

O‘zbek tilida jarangli va jarangsiz undosh tovushlar bor.
Jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin va ovoz eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda faqat shovqin eshitiladi




Shu bilan bolalarga jadval asosida jarangli va jarangsiz soʻzlar berilgan

Jarangli undoshlar		Jarangsiz undoshlar
b	d	p
g	v	t
z	gʻ	k
j	j	f
l	m	s
n	r	x
y	ng	ch
		sh
q		
h		

Yuqordagi jadval asosida darslikda turli xil mashqlar berilgan. Bu orqali oʻquvchilar dars davomida oʻrgangan nazariy bilimlarini amaliy tarzda mustahkamlashi ancha yuqori darajadagi samarani koʻrsatadi.

51-sahifa 4-mashq. Soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqing va yozing.



51-sahifa 8-mashq

omad
maktab
kitob
odob
barg



omadi
maktabi
kitobi
odobi
bargi



Berilgan jadval asosida darslikda turli usuldagi mashqlar keltirilgan. Bu holat o'quvchilarning bir harf orqali so'zlarning o'zgarishi va bu jarayonda har bir so'z alohida-alohida ma'no anglatishini oson o'rganib olishlari uchun yordam vazifasini bajaradi.

1. Berilgan so'zlarni birma-bir ovoz chiqarib o'qiganda ohirgi undosh tovushning talaffuzida qanday o'zgarish bo'lyapti?

2. Ikkinchi ustundagi so'zlarda undoshdan keyin kelgan unli tovush nimani o'zgartiryapti?

54-sahifa

So'z oxirida kelgan jufti bor undosh tovush yozilishini tekshirish uchun undoshdan so'ng unli tovush qo'shib aytamiz.

Tekshiruvchi so'z deb so'z oxirida undosh keyin unli tovush qo'shilgan so'zga aytiladi: umid-umidi

Maqolada boshlang'ich sinf darslarida jarangli va jarangsiz undosh tovushlarining qo'llanilishi, ularga doir qoidalar va mashqlar tahlili, izohi yangilangan ona tili darsligida mavzuni berilishi, uning tahlilini uchratishingiz mumkin. Bundan tashqari darslikdagi mavzuga oid qoidalar asosida berilgan jadvallarning na'munalari ham keltirilgan. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar mavzusiga oid fikr, tafsiyalar va xulosalarni ketma-ketlik asosida berildi. Kichik yoshdagi bolalar uchun ushbu mavzu yuzasidan chalg'ituvchi holatlarni bolalar diqqatini tortadigan metodlar orqali foydalanish haqida fikr berildi.

Adabiyotlar:

1. 2-sinf ona tili darsligi 1-qism
2. www.president.uz
3. © 2023 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
4. K. Qosimova, S. Matchanov, X.G'ulomova "Ona tili o'qitish metodikasi"
5. T.: "Nosir" nashriyoti.
6. N. Jo'rayeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari.
7. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov. O'zbek adabiy tili. T.: 1978
8. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001.
9. Jamolxonov.N, Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: O'qituvchi,2005.
10. Nurmonov.A O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O'zbekiston,2002
11. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. T. 1978
12. O'zbek tili leksikologiyasi. T. 1981.
13. Fuzailov.S, Xudoyberganova.M, Yo'ldasheva.Sh T.: Ona tili „O'qituvchi“ nashriyoti
14. Rahmatullayev Sh, Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: "O'qituvchi"
15. w.w.google.uz

**РЕЗЮМЕ**

Yangilangan ona tili darsligimizda jarangli va jarangsiz undoshlar yangi bir ko'rinishda va kreativ mashqlar bilan berilgan. Unlilar, sonorlar va jarangli undoshlardagi ovoz ana shuning hisoblanadi. Bo'g'iz orqali o'tgan havo oqimi til, tanglay, tish yoki ikki labning to'sqinligiga duch kelib, shovqin paydo qiladi, natijada jarangsiz undoshlar hosil bo'ladi.

РЕЗЮМЕ

В нашем обновленном учебнике по родному языку сленговые и неслоговые согласные представлены в новом виде и с творческими упражнениями. Так считается звук в гласных, сонорных и звонких согласных. Воздушный поток, проходящий через горло, сталкивается с препятствием на языке, небе, зубах или обеих губах, вызывая шум, который приводит к неслоговым согласным.

SUMMARY

In our updated textbook on the native language, syllabic and non-syllabic consonants are presented in a new form and with creative exercises. This is how the sound in vowels, sonorous and voiced consonants is considered. The airflow passing through the throat collides with an obstacle on the tongue, palate, teeth, or both lips, causing noise that leads to non-syllabic consonants.



O'QUVCHILARGA MATN MAZMUNIDAN CHETGA CHIQUISH TAVSIFIDA BERILADIGAN UY VAZIFALARINI TASHKIL ETISH

Qoraboyev H.K.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, uyga vazifa, mustaqil fikrlash, ijodiy topshiriq, natija, hamkorlikdagi faoliyat, samaradorlik.

Ключевые слова: начальное образование, домашнее задание, самостоятельное мышление, творческая задача, результат, совместная деятельность, эффективность.

Key words: primary education, homework, independent thinking, creative task, result, cooperative activity, efficiency.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni o'qish materiallari asosida mustaqil fikrlashga o'rgatishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Tabiat hodisalari, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, inson hayoti haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarni o'yga solishi, ular haqida mushohada yuritishi matn doirasida cheklangan holda kechsa, matn mazmunidan chetlashish fikrlash erkinligi, ko'proq o'ylash uchun yo'l ochadi. Zero, matnlardagi ma'lumotlarga, hayot haqiqatlariga qiziqish uyg'otish uchun matnlarda keltirilgan faktlar bilan chegaralanib bo'lmaydi. Uy vazifasini olgan o'quvchi o'zida uyg'ongan fikrlarga dastlab matndan javob qidiradi, voqea-hodisalarning sabablari haqida mushohada yuritadi va ularni tushunishga harakat qiladi, o'z hayot tajribasini ishga soladi, ko'rgan-kechirganlarini ko'z oldiga keltiradi. Bu jarayonlar darsda to'liq amalga osha olmaydi: u uyda o'quv matni ustida ishlash zaruriyatini his etadi. Matn ustida darsda olib boriladigan ishlar ko'p aspektli bo'lgani uchun hammasini bajarishning sira ham iloji yo'q. Ayrim holatlarda o'qituvchi keyingi darsda yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlashga ko'proq vaqt ajratish zaruriyatini sezsa, uy vazifasi hajmini nisbatan toraytirishi mumkin. Lekin bu uy vazifasini shu darsda nazorat qilishdan voz kechish kerak degani emas.



Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovavlarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, “...uy vazifasi sifatida matnni qayta o‘qishni emas, balki kuzatish ishlarini, tajribalar o‘tkazishni, har xil ijodiy ishlarni bajarishni topshirish lozim. Aks holda bu ixtiyorsiz ravishda o‘quv materialini mexanik tarzda eslab qolishga olib keladi” [1.24]. Uy vazifalarini bajarish sinfdan, maktabdan tashqari ishlar sirasiga kirmaydi, ular maktab ta’limining bir ko‘rinishi sifatida amal qiladi.

“Методика преподавания русского языка в школе” nomli darslikda o‘quvchilarni turli ma’lumotnomalardan foydalanishga o‘rgatish foydali ekanligi ta’kidlanar ekan [2.53], bu ish ko‘proq uyda ado etilishi uchun imkoniyatlar ko‘proqligiga urg‘u beriladi. Albatta, buning uchun qisman 3-sinfda, asosan 4-sinf bolalarini barcha turdagi ma’lumotnomalardan, jumladan, izohli lug‘atdan qay tarzda foydalanish mumkinligi bilan tanishtirish, shu ishga odatlantirish zarur. Ma’lumotnomalar so‘zlarning, so‘z shakllarining ma’nosini anglashga yordam beradi. Ayni paytda, o‘quvchilar fikr bayon qilish, o‘z fikrlarini gaplar vositasida ifodalash ehtiyoji bilan tegishli qoidalarni qidiradilar. Matn tuzishga doir ayrim qoidalar o‘qituvchi tomonidan berib borilishi mumkin. Bu ishda muallimga N.I.Bekniyazovanning “Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida)” nomli monografiyasi [3.143] asqotishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish bo‘yicha matndan chetga chiqqan holda uy vazifalarini belgilashda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini nazarda tutish kerak bo‘ladi. E’tirof etish zarurki, darslarda bunday imkoniyatlarni yaratish juda qiyin: sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan yalpi ishlar jarayonida ularni har mashg‘ulotda birday ijodiy faoliyatga undashning iloji bo‘lmaydi. Bu holatni matndan chetga chiqib belgilanadigan uy vazifalari tavsifidan ham bilish mumkin.

Uy vazifasi boshlanishi berilgan matnni davom ettirish mazmunida bo‘lsa, topshiriq darsda bajarila boshlaydi. Ikki-uch o‘quvchi o‘z variantini aytadi. Uyga har kim o‘z variantini o‘ylab topsin degan vazifa ma’lum qilinadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning fantaziyasini ishga tushiradi: bolalar turli voqealarni o‘ylab topishga usta bo‘ladilar. O‘qituvchi uyga vazifa berganda uni tekshirish yo‘sinini ham o‘ylab qo‘yadi. O‘quvchining matnni nima deb davom ettirganligini og‘zaki gapirtirish orqaligina nazorat qilishni mo‘ljallab qo‘ygan bo‘lsa, keyingi darsda o‘quvchilarning hammasini tinglashning iloji yo‘q, albatta. Shuning uchun nazoratning yozma ko‘rinishidan ham foydalanish



imkoniyatini qidirdigan ma'qul. Bu o'rinda o'qituvchi uch xil topshiriqdan birini tanlashi mumkin:

- tayanch (kalit) so'zlardan uch-to'rttasini yozish;
- bir-ikki gapni reja sifatida yozish;
- nima haqda gapirishini mavzu sifatida aks ettirish.

Metodik qo'llanmalarda kalit so'zlar bilan ishlashga katta e'tibor beriladi. Kalit so'zni ajratish uchun o'quvchi avval fikr predmetini aniqlaydi; matnni muhim va ikkinchi darajali mantiqiy bo'laklarga ajratadi; kalit so'z va tushunchalarni topadi; matnning qisqa mohiyatini ifodalash uchun tayanch nuqtalarni belgilab oladi va shularga asoslanib uning muhim jihatlarini ajratadi. Tayanch (kalit) so'zlarni ajratishda o'quvchi ularning ma'nosi va o'zi bayon qilmoqchi fikrlarning umumiy mazmunidan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar bilan ishlalanadigan uy vazifalarini berishda peyzajni tasvirlash juda qo'l keladi. Peyzaj atrof olam narsa-buyumlarini, tabiat ne'matlarini ifoda etadi. O'quvchi ijodiy faoliyat orqali tasvirni so'z bilan ifodalashga harakat qiladi.

Uyga berilgan vazifa matndagi biror tushunchani (insoniy fazilatni) qanday tushunganliklarini bayon qilish, ertak qahramonining xatti-harakatiga munosabat bildirishni talab etsa, o'quvchi o'z fikrlarini yozma bayon qiladi. 3-sinf darsligida shunday vazifalardan namunalar berilgan. Masalan:

4-sinf "O'qish kitobi" darsligiga yozilgan "O'qish" nomli o'qituvchilar uchun mo'ljallangan metodik qo'llanmada [4.38] ikki rukn ajratilgan: "Uyga vazifa berish" va "Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash".

«Uy vazifasini so'rash» ruknida tilga olingan ikki uy vazifasi insho yozish bilan bog'liq:

O'quvchilarning "Ma'naviyat – qalb quyoshi" bo'limidagi she'r va hikoyalar asosida "Inson odobi bilan go'zal" mavzusida yozib kelgan insholari tekshiriladi. Ayrim insholarni o'qib beradilar (56-b.).

O'quvchilar "Mehnat kishini ulug'laydi" mavzusida yozib kelgan kichik hikoyalarini o'qib beradilar (95-b.).

Matnda har xil fazilatli o'quvchilar haqida gapirilgan bo'lsa, ulardan shu fazilatlar haqida fikr bildirish talab etilishi mumkin. Kimningdir yaxshi fazilatini ajratib olish uchun bir necha fazilatdan muhimini tanlab aytishi kerak. Bu o'rinda o'quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berish orqali insoniy fazilatlar ko'pligiga ishora qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar uy vazifasi sifatida matnda tasvirlangan bolalarning, ertak qahramonlarining xatti-xatti-harakatlarini tahlil qilishlari, bergan baholarini



matndan misollar keltirib asoslashlari kerak bo‘ladi. Bu narsa ularning bilimini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Vazifa matn mavzusida uy inshosini (yoki hikoya, maqola) yozish bo‘lsa, o‘quvchilardan biror mavzuda bir nechta gap yozish talab etiladi. Aslida boshlang‘ich sinflarda insho yoki maqola yozish kabi vazifalar juda kam beriladi. Bu ish ko‘proq 3 - 4 - sinflarda bajariladi.

Insho dastlab nima haqdadir bayon qilish mazmunida bo‘ladi. Keyinroq o‘quvchiga o‘zining mustaqil mulohazalarini qog‘ozga tushirish vazifasi beriladi. Insho bolalarning mustaqil fikrlashini o‘stirishga xizmat qiladi. O‘quvchilardagi fikr mustaqilligining o‘shishini nazorat qilishga imkon beradi.

Insho ijodiy mashq bo‘lgani uchun o‘quvchilarga darslar oralatib uchto‘rttadan gap yozish mashqini topshirib turish foydali. Dastlab so‘z topish, gapni shakllantirish, fikrni izchil davom ettirish kabi qiyinchiliklar tug‘iladi. Shuning uchun o‘quvchilarning amaliy harakatlarini osonlashtirish maqsadida insho yozishni topshirmasdan, ikki-uchta gap yozing deb vazifa bergan ma‘qul.

Aslida insholar inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat‘iyalashtirish va ma‘naviyatni shakllantirish omili hisoblanadi. O‘quvchining fantaziyasi, xayolot olami beradigan imkoniyatlardan uning o‘zi uchun foydalanish kerak. Uning hayotiy tajribasi kattalarnikiga nisbatan ancha kam, atrof-muhitga munosabati ham sodda va jo‘nroq. O‘quvchini ijodkorlikka yo‘naltirish uning ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtiradigan mavzuda yozishga, eng muhimi, tuyg‘ularini, munosabatini so‘z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg‘otilganda yengil amalga oshadi[4.54].

O‘quvchilarga ularni o‘ylantiradigan, qiynaydigan yoki sevintiradigan tuyg‘ularga hamohang mavzularda insholar yoqadi. Shuning uchun ularni faqat o‘zi yaxshi bilgan narsasi, ko‘rgan-kechirgan voqea-hodisalari haqida yozishga o‘rgatish kerak.

Uyga matn mazmunida, lekin undan qisman uzoqlashib suratni bir necha gap bilan tasvirlash topshirilsa, vazifa surat mazmunini bayon qilish (nima qanday tasvirlanganini yozish) mashqi sifatida bajariladi. Surat matn mazmunini kengroq tushunishni taqozo etib, o‘quvchilar ma‘naviy kamolotiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Suratda matn bilan bog‘lanmagan holda biror voqea yoki hodisadan lavha tasvirlangan bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quvchiga rasmda tasvirlangan hodisaning boshi yoki oxirini o‘ylab topish, voqea yoki hodisani bir necha gap yozib, og‘zaki hikoyalash uchun turtki beradigan tayanch tayyorlash lozimligi eslatiladi.

Uyga berilgan vazifa tarqatilgan kartochkalardagi topshiriqlar ustida ishlashdan iborat bo'lsa, bunda, masalan, ertaklar mazmuni doirasidan chetga chiqish imkonini beradigan kartochkalar, jumladan, rasimli kartochkalardan foydalaniladi.

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligiga yozilgan “O‘qish” nomli o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan metodik qo‘llanmaning [4.162] “Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash” qismida rasimli kartochka ustida qay tarzda ishlash mumkinligi haqida so‘z yuritilgan.

O‘quvchilarga ertak mazmuniga ishlangan rasimli kartochkalar tarqatiladi. So‘ng o‘quvchi tarqatmadagi rasm asosida ertakning rasmda aks ettirilgan qismi mazmunini so‘zlab beradi (133-b.). Darsda boshlangan ushbu mazmundagi ishni yozma bajarish uyga vazifa qilib topshirilishi mumkin, lekin bu safar kartochkalar almashtirilgan holda tarqatilgani ma’qul.

Uy vazifasi matnning til xususiyatlari bilan bog‘liq mashq bajarish mazmunida bo‘lsa, asosan gaplarni o‘qish (sintagmatik o‘qish), gaplarni o‘zaro bog‘lash (bog‘lovchili bog‘lanish, olmoshli bog‘lanish), gaplardan fe‘llarning zamon shakli jihatidan uyg‘unligini izohdash kabi o‘qish fanini ona tili fani bilan integratsiyalash imkonini beruvchi til hodisalari ustida ish olib boriladi. Ushbu masalalar R.Yo‘ldoshev, M.Risiyeva, K.Mavlonova, Ya.T.Umarovalar tomonidan keng yoritilgan.

“Методика преподавания русского языка в школе” nomli darslikda ona tiliga doir ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash haqida shunday fikr bildiriladi: “O‘qituvchilar amaliyotida yana bir funktsiya – ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash funktsiyasi keng amalga oshiriladi. Bu narsa o‘quvchilar tomonidan ko‘pincha na uy vazifasi va na asosiy yangi mavzu bilan bog‘lanmagan bir qator umumsinfy va individual mashqlarni bajarishda o‘z ifodasini topadi. Natijada uy vazifasini tekshirish jarayoni cho‘zilib ketadi...”. Bizningcha, matnning til xususiyatlari bilan bog‘liq mashq bajarish o‘qish bo‘yicha darsda olib boriladigan ishlar mazmunini boyitadi, chunki matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, fikrni yozma bayon qilish ana shunday mashqlarning darsda bajarilishini va uyda davom ettirilishini taqozo qiladi.

Matn tahlili bevosita o‘qish savodxonligi bilan bog‘langani uchun bunday ishlar ham darsda boshlanib, uy vazifasi sifatida topshirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Menga yoqqan sahifa” mavzusi ustida ishlash uchun avval o‘quvchi tomonidan o‘rganilgan asardan o‘ziga ma’qul bo‘lgan sahifa ajratib olinadi. So‘ng parcha mazmuniga mos sarlavha topish; uning asar umumiy mazmuniga ta’siri; sahifaning badiiy qiymati; uni tanlashga asos bo‘lgan sabablar; olingan taassurotlar; bu sahifa o‘quvchida qanday fikr, tuyg‘u



va orzularni uyg'otgani kabi masalalar yoritiladi. Shundan keyingina aytish yoki yozish lozim bo'lgan fikrlar rejalashtiriladi. Qarash va xulosalar yozma yoki og'zaki tarzda bayon etiladi.

Uy vazifasi biror matnni mustaqil o'qish bo'lsa, matn o'tilayotgan mavzudan chetga chiqadigan mazmunda bo'lsa, kitobxonlik savodxonligi ustida olib boriladigan ishlar sirasida o'ziga xos ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Bunda ayrim o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqilishi ularni hayotda duch kelinadigan turli vaziyatlarga tayyorlash (masalan, biror tibbiy dori-darmon yo'riqnomasini o'qish, kelgan biror xat bilan tanishish va h.k.) xizmat qiladi. Lekin shunday asarlar borki, ularni o'quvchilar o'qituvchining yordamisiz o'zlashtirishlari qiyin. Ular hajman uncha katta bo'lmasa-da, lekin til xususiyati jihatidan murakkab bo'ladi. Tabiiyki, bunday matnlar mustaqil o'qish uchun berilmaydi. Notanish matnni mustaqil o'qish asosan bolalarning so'z boyligi ancha oshgan davr – 3-sinfdan boshlanadi. Shubhasiz, o'qituvchi matnning tili, o'quvchilarning bilim saviyasi, yosh xususiyatlari, hayot tajribasini hisobga olgan holda matn tanlaydiki, shu jarayonning o'zida samaraga erishish ma'lum darajada bashorat qilinadi. O'quvchilar matn ustida qanday ish olib borish kerakligi haqida muayyan tajriba orttira boshlaganlari uchun ushbu tajribalarini yangi vaziyatda ishga soladilar. Ayni paytda o'qituvchilari ulardan nimalarni so'rashi mumkinligini chamalab ham qo'yadilar.

Ilgari mazmuni tanishilmagan matnni mustaqil o'qib mazmunini tushuna olish malakasi o'quvchilarda o'z qobiliyatiga qat'iy ishonch, har qanday vaziyatga tayyor bo'lish, o'z mehnatidan qanoatlanish hissini shakllantirish imkonini beradi. O'quvchida shu yo'l bilan tanishilgan ma'lumotlarni kimgadir aytish, kim bilandir shu ma'lumotlar haqida suhbatlashish istagi ham paydo bo'ladi. Bu hol ta'limning informativ qiymatini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim oluvchilarning mutolaaga bo'lgan qiziqishini tarbiyalaydi.

Adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. – 259-b.
2. Методика преподавания русского языка в школе: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Т. Баранов, Н. А. Ипполитова, Т. А. Ладыженская, М. Р. Львов; Под ред. М. Т. Баранова. - М.: Издательский центр "Академия", 2001.– с. 73.
3. Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2012. – 160 b
4. O'qish: 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova, Shahnoza Muslimova, Fotima Karimova, Gulsara Saydaliyeva, Zahro Kabilova. – T.: "Sharq", 2016. – 176 b.



5. Umarova Ya.T. Til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish ... PhD diss. – Namangan, 2020. – 155 b.;;

6. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 157 b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matn mazmunidan chetga chiqish tavsifida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishning ilmiy- metodik jihatlari o'rganilgan. Matn mazmunidan chetga chiqish tavsifida beriladigan uy vazifalar o'quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'rnini asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучаются научно-методические аспекты организации домашнего задания учащимся начальных классов по описанию отклонений от содержания текста. Роль домашнего задания в развитии самостоятельного мышления учащихся основана на описании отклонений от содержания текста.

SUMMARY

In this article, the scientific-methodical aspects of the organization of homework given to primary school students in the description of deviations from the content of the text are studied. The role of homework in the development of students' independent thinking is based on the description of deviation from the content of the text.



МАКТАБГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИСИНИНГ ПЕДАГОГИК ИМИДЖИ ВА КОМПЕТЕНТЛИГИ

*Soliyev I.S., Yigitaliyeva O.G.
Farg'ona davlat universiteti*

Tayanch so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, professionallik, strategiya, kasbiy pedagogik kompetensiyalar, etalonga mos mezonlar.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, профессионализм, стратегия, профессиональные педагогические компетенции, контрольные критерии.

Key words: competence, competence, professionalism, strategy, professional pedagogical competencies, benchmark criteria.

Respublikamizda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas'ul bo'lgan jamiyat a'zolari birinchi galda o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan tarbiyachi kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" deb ta'kidlangan. Chunki jamiyatimiz taraqqiyoti yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Tarbiyachilar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining ichki va tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim. Ichki go'zallik uni bolalarga samimiy muloqotida, kasbdoshlari bilan o'rnatgan yaxshi muomalasida, o'zini tutishida ko'rinadi. Tashqi qiyofa orqali bolalarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish ish jarayonini samaradorligini oshiradi.

Lug'aviy jihatdan "imidj" (ing. —imeje") tushunchasi siymo, timsol, qiyofa va obraz ma'nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko'ra esa ushbu tushuncha yordamida joziba, maftunkorlik ma'nolarini ifodalaydi.



Imidj - aniq bir insonga bo‘lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob’ekt qiyofasi hamdir.

Pedagogik imidj - pedagogning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikdir. Buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko aytganidek: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo‘lishini bilishi lozim, U o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o‘qitsin”. Bunday malakaga ega bo‘lgan pedagog o‘z-o‘zini nazorat qila oladi, pedagogik faoliyati davomida sog‘lom asab tizimini o‘zida tarbiyalay oladi, asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo‘riqlashlardan o‘zini asraydi.

Aytib o‘tish lozimki, bolalarga ularning individual ritmda rivojlanishlari va individual potensialini hamda qiziqishni, aqliy rivojlanish va ijodiy qobiliyatini oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta’minlash uchun tarbiyachi shaxsi muayyan kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Kompetentlik – kasbiy mahorat belgisi sifatida pedagogdan talab qilinayotgan xususiyat ekanligi qator adabiyotlarda qayd etilgani holda qo‘shimcha qilish mumkinki, “kompetentlik” so‘zining ma’nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi.

Kompetensiya – shaxsiy sifat bo‘lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malakalar hisoblanadi. Shiddat bilan o‘zgarayotgan yangi O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy-shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib borishi lozim.

Hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy-ong va huquqiy-madaniyat, teran-dunyoqarash, sog‘lom-e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviyat, fuqaroviy madaniyat kabilar shakllantiriladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, tarbiyachining e’tiborsizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir. Bolalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish - maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifasi. U ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishni axboriy-uslubik hujjatlar bilan ishlash, bevosita tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish va uning natijalarini tahlil etish asosida amalga oshiradi.

Zamonaviy tarbiyachi psixologik-pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan holda bola shaxsi rivojlanishi uchun uning ta’sirini hech narsa, hatto yuqori toifali ta’lim muassasasi ham bosa olmaydigan oila ekanligini anglab yetadi.



Tarbiyachi ota-onalarning pedagogik madaniyatini mun-tazam oshirib borishi, bolalar tarbiyasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muhtojlik sezuvchi oilalar bilan alohida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachining oilalarga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni:

- 1) ta'limiy - ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) psixologik - ruhiy jihatdan qo'llab-quvatlash, ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf etish va qayta tiklash;
- 3) vositachilik - tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi kasbiy funksiyalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish;
- 2) oila va maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyaviy ta'sirini boshqarish hamda uyg'unlashtirish.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoyev 7-fevral 2017-yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmoni.
3. Abdullaeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2019. – 61 b.
4. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: "O'qituvchi" 2005 y.
5. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.

РЕЗЮМЕ

Yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidjiga baho berish va kompetentligi va uni shakllantirish, rivojlantirish yo'llarini aniqlab berishda hamda pedagogik shart-sharoitlarini belgilashdan iborat.

РЕЗЮМЕ

Он заключается в оценке педагогического образа педагога новой эпохи и определении путей его формирования и развития, а также определении педагогических условий.

SUMMARY

The new period consists in evaluating the pedagogical image of the pedagogue and defining the ways of its formation and development, as well as defining the pedagogical conditions.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN MULTIMEDIADAN FOYDALANISH USULI VA O‘YINNING AHAMIYATI

*Soliyev I.S., Tursunaliyeva D.G.
Farg‘ona davlat universiteti magistranti*

Tayanch so‘zlar: Internet va multimedia texnologiyalari, o‘yinlar, qiziqarli tarqatma materiallar.

Ключевые слова: Интернет и мультимедийные технологии, игры, интересные раздаточные материалы.

Key words: Internet and multimedia technologies, games, interesting handouts.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorga imzo chekishlari ham bolalarga berilayotgan imkoniyatlar eshigini yanada keng ochmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasida bolalarni tarbiya qilish bilan bir qatorda chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan layoqatlarini oshirishga ham alohida urg‘u berilayotgani bejiz emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlariday: “Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta’lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliylik va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o‘qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan ularning maktabgacha ta’lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir”.

1. Multimedia orqali o‘qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bolalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko‘tarish va ularning e’tiborini uzoq



vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bolalarning tilga bo‘lgan ko‘nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin. Agarda mavzuyimiz “Animals” bo‘lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o‘qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e‘tibor qaratishadi, va shu zahotiy oq cat, tiger, bear....deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi.

Xitoyda yangi ommaviy multimedia vositalari ta‘lim sohasida keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda o‘quv vositalari sifatida, Internet va multimedia texnologiyalari bolalar bog‘chalarida samarali qo‘llanilib, kichik yoshdagi bolalarning ta‘limiga yangi ko‘nikmalarni olib kelmoqda. O‘zbekistonda bolalar bog‘chasida yangi multimedia texnologiyalari dasturni rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim mavzudir. Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta‘limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta‘lim asosida bolalarni tarbiyalash va o‘qitish zarur. O‘zbekistonda yangi ommaviy multimedia vositalarini bog‘chalarga tadbiiq qilish, bu kelajak avlod chet tilini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi.

2. Bolalik davrida insonining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt deb hisoblash mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalarining o‘qituvchilari bolalarning ehtiyojlariga(qiziqishlariga) asoslanib fanni qo‘llashlari kerak. fikrlash mashqlari va aqliy rivojlantirishni yangi multimedia texnologiyalari yordamida, eshitish, rang bilish, shakl tanlash qobiliyatini shakllantirib borish zarur. Bolalarning tashqi axborotni qabul qilish qobiliyatini oshirish va ko‘p qirrali fikrlashini rivojlantirishga ko‘maklashish juda zarur.

3. Biz maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarda chet tilida eshitish qobiliyatining oqsoqligini ko‘p uchratishimiz mumkin, bu bolalarning yetarli darajada eshitish darslarini egallamagini bildiradi. Real hayotda bolalalarimiz televizor ostida animatsion multfilmni jimgina tamosha qilishlarini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda bog‘chalarning yuqori texnologiyalar bilan taminlash vaqti yetib keldi. Ularga doimiy chet tillaridagi multfilm darslari eshiritish lozim, bolaning bo‘g‘cha davridan chet tili qobiliyatini rivojlantirish uning keyingi bosqichda barcha bilimlarni yengil qabul qilishga yordam beradi.

4. Bog‘cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko‘pgina ro‘llar ko‘pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo‘ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta‘lim vositasi sifatida qo‘llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba‘zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo‘lgan qiziqishidan juda tashvishga



tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun, o'qitishda biz Amerika Qo'shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya'ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o'zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo'llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o'rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun xizmat qiladi.

Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish bolaning umumiy aqliy rivojlanishiga, nutq madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va umumiy muloqotni kengaytiradi. Maktabgacha yoshda bolalarni shu yoshidanoq chet tilidagi muloqotga qiziqtirish va shu bilan birga maktabda chet tilidagi kommunikativ kompetentsiya shakllanadigan asoslarni qo'yish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar dialogik va monologik nutqda elementar kommunikativ bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Dialogik aloqa-o'rganilayotgan til mamlakatining nutq odob-axloq qoidalariga muvofiq kattalar va bolalar bilan salomlashish va xayrlashish qobiliyati, o'qituvchi, tengdoshlari bilan suhbat paytida savollarga yetarli darajada javob berish qobiliyati. Monologik nutq asoslarini shakllantirish, birinchi navbatda, o'zi, oila a'zolari haqida boshlang'ich darajada gapirish, o'yinchoqlar, sevimli hayvonlar, o'yin xonasidagi mebel buyumlari va boshqalarni tasvirlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshda bolalar faqat og'zaki nutq faoliyatini o'zlashtiradilar: listening, ya'ni. tinglash va tushunish, dialog va monolog shaklida gapirish.

Bolalarda leksik birliklarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchi an'anaviy vositalarni, mavzu va rasmlar ko'rinishini innovatsion vositalar bilan birlashtirishi kerak, bu esa bolaning atrofidagi dunyoni bilish bilan qiziqishi va qiziquvchanligini rag'batlantirishga imkon beradi. Ushbu vositalardan biri multimedia taqdimotidir.



Multimedia taqdimotlari - bu kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni taqdim etishning qulay va samarali usuli. Multimedia -bu kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va audio seriyalarning kombinatsiyasi bo'lib, ular yagona muhitda tashkil etilgan va inson e'tiborini uzoq vaqt ushlab turadi. Multimediyaning asosiy didaktik xususiyatlari-bu turli xil ma'lumotlarni (matn, tovush, video va boshqalar) birlashtirish, insonning bir nechta hissiy organlariga ta'sir qilish, o'quvchining hissiy reaksiyasini va tinglovchilar bilan interaktiv o'zaro ta'sirni keltirib chiqarish, ya'ni. O'quvchi, o'rganuvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qilish, ularning bilim faoliyatini rag'batlantirish. Ushbu ikkita xususiyat multimediani boshqa o'quv vositalaridan ajratib turadi.

Y. S. Polatga ko'ra, ushbu xususiyatlar multimedia taqdimotining didaktik funksiyalarini o'quv jarayonidagi maqsadi, roli va o'rni orqali o'qitish vositasi sifatida belgilaydi: turli xil ma'lumotlarni bitta ob'ektga birlashtirish, hissiyotlarga ta'sir qilish; kognitiv jarayonni rag'batlantirish; talabalar bilan interaktiv ravishda o'zaro aloqada bo'lish; o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun haqiqatga eng yaqin sharoitlarni yaratish va boshqalar.

Masalan, «Hayvonlar» mavzusini o'rganayotganda, tematik lug'atni takrorlash uchun «Biz izdosh» o'yinidan foydalanish mumkin. Slaydlardan birida siz o'rmondagi hayvonlarni izlardan «qidirishingiz» mumkin, ikkinchisida - ularning ovozlari tinglash, uchinchisida - o'rmonni diqqat bilan o'rganib chiqib, butalar orqasida, gullar orqasida, daraxtlar orqasida yashiringan hayvonlarni aniqlang, bu yerda faqat ko'z, quyruq yoki oyoqni ko'rish mumkin.

Bolalar leksik birliklarni yaxshi bilsalar, ularning ma'nosini bilsalar, ularni to'g'ri talaffuz qilsalar, jumladan ishlatsalar, ilgari o'rganilgan lug'at bilan qanday birlashtirishni bilsalar, masalan, rang, o'lchamni bildiruvchi sifatlar, tarbiyachi kommunikativ mashqlardan foydalanishi mumkin. Bunday mashqlarning maqsadi tasvirlash, aytib berish, so'roq qilish va h.k. ushbu mashqlarni aniq belgilangan didaktik tuzilishga ega bo'lgan rolli o'yin shaklida ham bajarish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. SH.M2016 yil 29 dekabrda PQ-2707 sonli "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
2. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning 2002.
3. Liu wang. ertong xinglixue kaocha 2017-18.
4. Feng Wang. Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education Early Childhood Educ.
5. Sanaeva S.B. Preschool education instructions principles and innovativetechnologies o f educational processing. // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019.



6. Palmer H. Scientific study and teaching of languages. – London, 1922. – 243 p
7. Kurbanova M.A, Yusupova D.R, Effective ways to teach mathematics at the initial stage of teaching English. - T.: Young teacher, 2016. - What? 44-45.
8. Hashimov A. «Methods of teaching English» 1998 y.
9. Yo'ldosheva D.A. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari. 2022.
10. G'aniyeva X. B. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari. 2022y
11. <https://icytales.com/advantages-knowing-foreign-language/>
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamonaviy-metodikalari>

РЕЗЮМЕ

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, chet tillarini bilish darajasini oshirish dolzarb muammo sifatida ko'rilmoqda va o'z o'rnida sohani rivojlantirish maqsadida qator chora tadbirlar ko'rilmoqda.

РЕЗЮМЕ

Обеспечение качества обучения иностранным языкам подрастающего молодого поколения на всех этапах системы непрерывного образования, кардинальное совершенствование системы подготовки специалистов, свободно владеющих иностранными языками, обеспечение целостности и преемственности образовательных программ в этом направлении. Повышение уровня владения иностранными языками рассматривается как актуальная проблема, и принимается ряд мер по развитию этой сферы.

SUMMARY

Ensuring the quality of teaching foreign languages to the younger generation at all stages of the continuing education system, radically improving the system of training specialists who are fluent in foreign languages, ensuring continuity and continuity of educational programs in this direction, improving the level of foreign language proficiency are considered as an urgent problem and a number of measures are being taken to develop the industry.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI BAHOLASH XALQARO DASTURLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Xudayqulova F. B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, axborotlar almashinish, PIRLS, TALIS, TIMS, dasturlari, tadqiqotlar, xorij tajribasi.

Ключевые слова: международные программы оценки, информационный обмен, PIRLS, TALIS, TIMS, программы, исследования, зарубежный опыт.

Key words: international assessment programs, information exchange, PIRLS, TALIS, TIMS, programs, research, foreign experience.

Kirish. Mamlakatimizda davlat hamda jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar bilan bir qatorda, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan, TIMSS, PISA va PIRLS dasturlarida qatnashishga muvaffaqiyatli erishildi.

Bugunki kun maktab o'quvchilarini va ta'lim jarayonlarini jahon xalqaro baholash dasturlari asosida o'qitish, kelajak yoshlarini og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, nutq madaniyatini notiqlik ko'rinishiga etkazish zamon talabidir.

Asosiy qism. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat



O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya’ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Qolaversa, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning TIMSS, PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitib borish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish darajasini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shish maqsadida oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

PISA va PIRLS baholash dasturlari bo‘yicha 2020 yil aprel oyida o‘tkazilishi rejalashtirilgan tajriba-sinov tadqiqotlari COVID-19 koronavirus pandemiyasi sababli kechiktirildi.

Shu jarayonlarda xalqaro baholash dasturlariga tayyorlovchi onlayn test platformasi yaratildi (Stesting.uz).

Testda 129 ta topshiriq joylashtirilgan, bo‘lib, 61 ming 400 dan ortiq o‘quvchi foydalanishga muvaffaq bo‘ldi.

Testlar o‘quvchilar uchun juda katta yangilik sifatida qabul qilindi. Dars jarayonlarida o‘zlashtirgan bilimlari bilan bir qatorda o‘qituvchi ko‘magi asosida qo‘shimcha murakkab bo‘lgan topshiriqlar ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirdi. Shuningdek boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun axbarotlar izlash va ma’lumot to‘plash haqidagi tushunchalarini kengaytirdi. Albatta buning zamirida qo‘shimcha ishlash jarayonlari takomillashdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 2023 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasiga asosan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida Respublika bo‘yicha 348 ta tayanch maktab belgilandi. Tayanch maktablarga qolgan maktablar birlashtirildi.

Hozirgi kunda davlatimizda ish olib borayotgan Milliy markaz barchaga ma’lum. Shu milliy markazning ishtiroki natijasida 2023 yilda TIMSS va 2024 yilda TALIS tadqiqotlarida ishtirok etish uchun turli seminar va vebinarlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, Ta’lim inspeksiyasi, tegishli ta’lim vazirliklari bilan Jahon banki o‘rtasida o‘rnatilgan hamkorlik asosidagi “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish”, “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” kabi loyihalari umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishning ko‘plab yo‘nalishlari qatorida ta’lim sifatini baholash tizimini ham takomillashtirish yo‘lida moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi zamin yaratildi



Turli davriylikda 1995 yildan buyon tashkil etib kelinayotgan xalqaro tadqiqotlarning qamroviga e'tibor beradigan bo'lsak, unda ishtirok etayotgan mamlakat va iqtisodiyotlarning soni ortib borayotganini kuzatish mumkin. Misol uchun, TIMSS dasturining dastlabki tadqiqotida 45 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019 yilga kelib ishtirokchilar soni 64 taga etdi. PIRLS dasturida esa, 2001 yilda 35 tagina davlat qatnashgan bo'lsa, 2016 yilda 50 taga etdi, 2021 yildagi tadqiqotda esa 60 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston qatnashishi kutilmoqda. Dunyo bo'ylab nufuzi ortib borayotgan PISA dasturining 2000 yildagi ilk tadqiqotida 43 ta davlat qatnashgan bo'lsa, 2018 yilda ishtirokchilarning qamrov darajasi 78 tani tashkil etdi, 2022 yildagi tadqiqotida esa 88 ta davlat va iqtisodiyotlar, shu jumladan O'zbekiston qatnashishi kutilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat xorijiy mamlakatlar xam o'zining ta'limga oid siyosatini belgilash, Milliy baholash tizimini takomillashtirishda xalqaro tadqiqotlarning tajribalari, natijalari va solishtirma tahlillari muhim o'rin tutadi, unda ishtirok etish orqali milliy jamoa va mutaxassislarining salohiyatini rivojlantiradi.

O'quvchilar o'qilgan matn mazmunini tushunish ko'nikmasini yanada chuqurroq egallashlari, matematika tushunchalari va yuqori darajadagi matematika ko'nikmalarini yangi vaziyatlarga tatbiq qilishga ko'proq e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Ma'lumotlar viloyat va til guruhlarida kesimida ko'rsatkichlar orasidagi farqni ham yuzaga chiqardi. Bu esa vazirlikka O'zbekistondagi barcha o'quvchilar uchun ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan puxta qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Tahlillarga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'limga 3 yoshdan 22 yoshgacha o'rtacha 210 ming dollar sarflanib va natijada 3,1 mln. dollar foyda keltirar, Janubiy Koreyada 130 ming dollar sarflanib va 2,1 mln. dollar foyda keltirar ekan. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga sarflangan har 1 so'm 13 barobar hisobida qaytadi. O'zbekistonda esa 16 ming dollar sarflanib, buning evaziga 70 ming dollar foyda olinar ekan SHu o'rinda ta'lim sifatini baholash bo'yicha ishtirok etiladigan xalqaro tadqiqotlar haqida gapirib o'tish maqsadga muvofiq:

PIRLS - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi baholash;

TIMSS - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

PISA - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash:



TALIS - umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari va o'qituvchilari bilan so'rovnoma o'tkazish orqali maktabda o'qitish va ta'lim olish jarayonlari samaradorligini baholash kabi tadqiqotlar dasturi shular jumlasidandir.

Yuqoridagi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- Har bir o'qituvchi, maktab direktori o'z ustida mustaqil ishlashi, doimiy izlanishi;
- berilgan materiallarini o'rganish, tahlil qilish va boshqalarga o'rgatish;
- Xalqaro tadqiqot dasturi, undan ko'zlangan maqsad va vazifalarni o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalarga tushuntirish;
- O'quvchilarni PISA yoki PIRLS topshiriqlariga emas, mustaqil hayotga tayyorlanayotganini tushuntirish.
- Maktab o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi hamda ijodiy fikrlash salohiyatlarini aniqlashga qaratilgan sinov materiallari bazasini shakllantirish;
- Maktablarda o'quvchilarning kompyuterda test sinovlarini topshirish ko'nikmalarini rivojlantirib borishga e'tibor qaratish;
- Matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha to'garaklar doirasida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalari va kompyuter savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil qilish;
- O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi topshiriqlardan keng foydalanish;
- O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini, mantiqiy va ijodiy fikrlashini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borishimiz kerak.

PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rganish o'rniga, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

XULOSA

O'quvchilarning xalqaro tadqiqotlarida munosib ishtirok etishi uchun ularda maktabda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

- ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish;
- xalqaro ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
- xalqaro tadqiqotlar asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish;



- xalqaro tadqiqotlar yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlarini integratsiyalash;
- xalqaro tadqiqotlarga asoslangan holda tegishli fanlardan o‘qitishning shakllari, metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish hamda bu borada o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlarini keng ko‘lamda ommalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining barcha oliy ta‘lim o‘quv yurtlarida professor o‘qituvchilar talabalarga chet el adabiyotlari va bolalar adabiyotlari bilan tanishib borishlari, shuningdek, yangi baholash mezonlarini ochib beruvchi seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy agentligi Xalq so‘zi 03 Апрель 2022 yil
2. O‘quvchilarning ta‘limdagi yutuqlarini baholash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning nazariy va institutsional asoslar. DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.28.34.014> Ismailov Abduvali Abdumalikovich, Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi direktori.
3. AQSH ning Toshkentdagi elchixonasi sahifasi
4. Худойкулова, Ф. Х. (2019). Узлуксиз таълим тизимида укувчиларда лингвистик компетенци-яни шакллантиришда назарий билимлар бериш муаммолари. Таълимдаги инновациялар ва ислотлар контекстида замонавий кластер тизими, 1(6), 117-120.
5. Ходжамкулов, У. Н.; Худайқулова, Ф. В. (2021). Kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(3), 130-135.
6. Худайқулова, Ф., Хикматова, М., & Панжйева, М. (2023). Boshlang‘ich sinflarda xalqaro dasturlar asosida dars o‘tishning afzalliklari. Interpretation and researches, 1(1).

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, jahon baholash nizomlari talablariga javob bera oladigan ta‘lim tizimini joriy qilish, shuningdek boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axborotlar izlash va axborotlar almashish ko‘nikmasini shakllantirish, xorij tajribalarining ahamiyati, o‘quvchilarning kognitiv hayotda o‘z dunyoqarashi va fikrlash doirasi asosida vaziyatlarga javob bera olish ko‘nikmasini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается подготовка учащихся начальных классов к международным оценочным программам, внедрение образовательной системы, которая может соответствовать требованиям мировых правил оценивания, а также формирование у учащихся начальных классов навыков поиска информации и обмена информацией. информации, значимости зарубежного опыта, думается о формировании умений учащихся реагировать на ситуации с учетом их мировоззрения и структуры мышления в познавательной жизни.

SUMMARY

The article discusses the preparation of primary school students for international assessment programs, the introduction of an educational system that can meet the requirements of the world assessment rules, as well as the formation of information retrieval and information exchange skills among primary school students. information, the importance of foreign experience, it is thought about the formation of students' skills to respond to situations, taking into account their worldview and the structure of thinking in cognitive life.



BIRINCHI SINIF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA IFODALANGAN HIKOYALARNI KREATIV TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH METODIKASI

*Adizova N. B., Bobomurodova Sh.
Buxoro davlat pedagogika instituti*

Tayanch so‘zlar: kreativ, ijodkorlik, kategoriya, Olti shlyapa, milliy dastur, interfaol metodlar, lingvistik kompetensiyalar, ma’nodosh, zid ma’noli, uyadosh so‘zlar.

Ключевые слова: креатив, творчество, категория, Шесть шляп, национальная программа, интерактивные методы, лингвистические компетенции, синонимы, антонимы, вложенные слова.

Key words: creative, creativity, category, Six hats, national program, interactive methods, linguistic competences, synonyms, antonyms, nested words.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o’sha jamiyat fuqarolarining ma’naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog‘liq. O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to‘g‘risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega bo‘lgan, g‘oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniquqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo‘lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifalardan biridir. Shunday ekan, ma’naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to‘laqonli shakllangan shaxsda o‘z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg‘usi bo‘ladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi.



Albert Enshteyn “Tasavvur-bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Buyuk allomamiz ta’kidlaganlaridek, kishining fe‘l-atvori hammadan ko‘ra hayotning dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo‘lgan sifatlar, mustahkam o‘rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas’uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o‘qituvchining har bir gapi, har bir hatti-harakati ta’sir ko‘rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatidan jiddiy ta’sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, u bergan topshiriqlarni bekami-ko‘st bajarishga intiladilar.

Bugungi ta’lim tizimida ham aynan shu jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan quyidagi hikoyada kreativ yetkazish orqali o‘quvchilar ongiga kirib borish va yaxshi saqlanib qolishini ta’minlash mumkin. Misol tariqasida “Hoshimjonning oilasi” hikoyasini “Sehrli qalpoqcha” filmi yoki mutifilmni eslatish orqali obrazli tushuntirish mumkin.

Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish, isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda filologiya fanlari doktori M. Ayimbetov ham o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga doir o‘z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to‘xtab o‘tgan. Olim “kreativlik” va “ijodorlik” tushunchalarini bevosita qo‘llanmagan bo‘lsa ham, ijodkor o‘qituvchining sifat ko‘rsatgichlarini yoritib berishga doir fikrlarni bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o‘qituvchining strukturaviy komponentlarini ko‘rsatib bergan.

1-sinf darsligidagi yana bir hikoyani kreativ yoritib o‘quvchilar ongida obrazli saqlanib qolishiga erishish mumkin. Masalan, “Aborning bir kuni” hikoyasini yetkazishda har bir o‘quvchining o‘z kun tartibini so‘ragan holda



hikoya qahramoni Aborning kun tartibi bilan solishtirishni va shu orqali qiziqarli eslab qolishga erishish mumkin.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, o'zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta'sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo'ladi.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Enshteynning maktabdan haydalanishi yoki Dmitriy Mendeleevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

"Olti shlyapa" usuli. Edvard de Borno taklif etgan "Olti rangli shlyapa" usulida biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shlyapalar kiyiladi: oq - diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora - kamchiliklar aniqlanadi; sariq - mavjud holat tahlil etiladi; yashil - yana yangi bir necha g'oyalar qo'shiladi; qizil - emotsional munosabat bildiriladi; ko'k - ish xotimalanadi. Masalan, boshlang'ich sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ifodalangan hikoyalarni ushbu kreativ topshiriqdan foydalanib tahlil



qilish mumkin. Bundan tashqari, bu usulni bolalar tiliga moslashtirib juda ko‘p topshiriqlarni samarali yetkazishda foydalanish mumkin.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko‘ngilochar sohada o‘z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi - hayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya’ni, xayolparast rovida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg‘unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi — barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko‘rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug‘i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O‘zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so‘rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ldi. Endi yangi g‘oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

Tasodiflarga befarq bo‘lmang. Juda ko‘plab ixtirolar favqulodda va tasodifiy holatlarda amalga oshirilgan. Ya’ni, taqdirning o‘zi insonga nozik ishoralar beradi. Bu Isaak Nyutonning boshiga tushgan olma, antibiotikni kashf etgan olim Aleksandr Flemingning yuvilmay qolib, mog‘orlagan laboratoriya idishlari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni bog‘lash. Mobil telefon va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o‘rnatilib ko‘chma stansiya, qayiqqa osib qo‘yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo‘lgan. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o‘g‘li tosh yo‘ldan velosipedda yurib qiynalar edi. Danlop bog‘ini shlang bilan sug‘ora turib, uning yengil prujinasimon sakrashiga e’tibor berdi. Natijada birinchi bo‘lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog‘liq jihatlari, ya’ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

Demak, boshlang‘ich sinfo‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yo‘l topa olishi



vaholanki bola shaxsiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreativlik nafaqat o'quvchilarda balki har bir insonning yopiq, yashirin qirralarini ochib, yuzaga chiqishiga turtki beruvchi kuchdir. Undan to'g'ri foydalanish inson hayotiga yangi g'oyalar yangi kashfiyotlar kirib kelishiga yo'l ochadi.

Adabiyotlar:

1. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
2. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. *International journal of scientific & technology research*, 9(03).
3. Avezova R.R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini shakllantirish yo'llari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7.*
4. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi. Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurbonov, Shokir Tursun.
5. M.M. Madraximova Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari. *Mag.diss. Nukus, - 2014.*
6. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. «Interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish.» *E Conference Zone. 2023.*
7. Nodira, Adizova. «Creative activity of students in mother language teaching methodology lessons importance of development.» *Open Access Repository 4.04 (2023): 53-56.*
8. Adizova, N. B., and S. U. Olimova. «Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati.» *The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young Students: International Scientific-Practical Conference (Czech).. 2023.*
9. Nodira, Adizova. «Creative activity of students in mother language teaching methodology lessons importance of development.» *Open Access Repository 4.04 (2023): 53-56.*

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida ifodalangan hikoyalarni kreativ topshiriqlar asosida tahlil qilish metodikasi haqida fikr yuritiladi. Kreativ shaxsni tarbiyalash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish mazmuni haqida gap boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается методика анализа рассказов, изложенных в учебнике родного языка и чтения для первого класса, на основе творческих задач. Воспитание творческой личности заключается в содержании формирования и развития устойчивых творческих качеств человека в процессе обучения творчеству и творческому самовыражению.

SUMMARY

This article discusses the methodology of analyzing the stories presented in the first grade mother tongue and reading literacy textbook based on creative tasks. Educating a creative person is about the content of formation and development of stable creative qualities in a person in the process of teaching creativity and creative self-expression.



«4К» MODELIGA ASOSLANGAN INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Adilova M.F., Xodjayeva N.A.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, kommunikativ kompetentsiya, faol izlanish, ta'lim muhiti, ilg'or bilim, ilmiy tadqiqot, pedagogik mahorat, kasbiy tayyorlash, «4K» model, innovatsion yondashuv, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, shaxsiy va kasbiy rivojlanish.

Ключевые слова: высшее образование, коммуникативная компетентность, активный поиск, образовательная среда, продвинутые знания, исследования, педагогические навыки, профессиональная подготовка, модель «4К», инновационный подход, сотрудничество, коммуникативность, творческое мышление, критическое мышление, личностное и профессиональное развитие.

Key words: higher education, communicative competence, active search, educational environment, advanced knowledge, research, pedagogical skills, professional training, «4K» model, innovative approach, cooperation, communication, creative thinking, critical thinking, personal and professional development.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Zamonaviy texnikalar asosida faol izlanish sharoiti mavjud bo'lgan yangicha ta'lim muhiti ilg'or bilim, ilmiy tadqiqot tajribasi va pedagogik mahoratga ega mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu sabab kasbiy tayyorgarlikka yuqori talablar qo'yilmoqda. Bo'lajak o'qituvchining bilimi, saviya va madaniyat darajasi mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirish yo'llarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bilan birga mehnat bozoridagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardosh mutaxassis shaxsini kasbiy rivojlantirishda maqsadli yondashuv orqali muloqot qobiliyatlari ko'proq yordam beradi.



O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan har qanday faoliyatning samaradorligi, nafaqat maqbul usullarni tanlash, balki muloqot qobiliyatga ham bog'liq. Muloqot ayniqsa, ta'lim oluvchilar bilan hissiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, yangi usulda pedagogik munosabatlar o'rnatish, yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal etishga zamin yaratadi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisining mahorati ifodalangan kommunikativ masalalar ularning bilim, saviya va madaniyat darajasiga tayangan holda psixologik va pedagogik qonuniyatlar asosida hal etiladi.

Muloqotning psixologik-pedagogik asoslari dastlab rus tadqiqotchilari -A.A.Bodalev, B.A.Ananyev, A.A.Leontyev, V.A.Kan-Kalik va N.V.Kuzminalarning ishlarida yoritilgan [1].

Shu o'rinda rus psixolog olimi A.A.Leontiev nutq orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayishi ta'siriga e'tibor berib, bunda psixologik nuqtai nazardan og'zaki muloqot muhim ahamiyat kasb etishligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, hozirgi zamonaviy jamiyat kommunikativ munosabatlar bilan to'yingan bo'lib, barcha sub'ektlar o'rtasida shaxsiy va kasbiy aloqalar o'rnatilgan.

Ko'plab xorijlik tadqiqotchilar - K.Devis, A.Maslou, S.Kovi va J.N.Kaplanlar o'qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini o'rganishgan [2].

So'nggi paytlarda psixolog-pedagog olimlar - I.A.Zimnyaya, E.F.Zeer, M.I.Lukyanenko, va V.V.Sokolovalar "kompetentlik" tushunchasini tahlil qilib, ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv mazmunini ko'rib chiqib, undan foydalanishning ahamiyati va zaruratini tadqiq qiladilar [3].

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni eng yaxshi o'zlashtirish va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini beradi [4].

Hozirgi vaqtda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish nafaqat o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi amaliy muammo darajasida, balki metodogik jihatdan huquqiy-meyoriy hujjatlar bilan ham asoslangan. Jumladan: O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (2020-yil 23-dekabrda O'RQ-637-son).

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari va 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarida ta'kidlanganidek, kommunikativ kompetensiya o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, samarali pedagogik muloqotning etakchi omilidir. Shu bilan birga, kommunikativ harakatlar asosida qurilgan ta'lim undagi muammolarni to'liq hal qilishga imkon beradi.



O'qituvchining muloqot qobiliyatlari boshlang'ich ta'limda, ayniqsa muhimdir. Chunki bola endigina maktabga qabul qilinganiga qaramay o'qish, til va nutq qoidalarida juda ko'p imloviy va stilistik xatolarni hosil qiladilar [5].

Psixologlar bu kamchiliklarni bolalarda nutqni qurish ko'nikmalarining pastligi, shuningdek, ular nutqining to'g'ri idrok etilmasligi natijasidir deya talqin etishadi.

Har qanday kasbiy faoliyatda muloqot qobiliyatlarini o'zlashtirish juda muhimdir. Ayniqsa, o'qituvchining kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentsiyaning muhimligi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda asoslab berilgan. Biroq innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ (hamkorlik) kompetentlikni rivojlantirish jarayoni etarli darajada yoritilmagan va alohida maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq qilinmagan.

O'quv jarayonidagi barcha bilimlar muloqot qobiliyatlari orqali uzatiladi. O'qituvchi har bir o'quvchiga o'rnakdir. Ayniqsa, kichik maktab yoshida bola kattalarning xatti-harakatlaridan namuna sifatida xulq-atvoriga nusxa oladi.

Turli mutaxassisliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlardan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuvdir. Qolaversa, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida amalga oshirish ta'lim jarayonidagi nazariy tayyorgarlik bilan amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga imkon beradi [6].

Oliy ta'lim jarayoni egallangan bilimlarni zamonaviy ta'lim sharoitida kasbiy faoliyat uchun zarur bo'ladigan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish juda muhimdir. Ushbu maqola doirasida biz mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda kompetensiyani tushunchasining tahlili keltirilgan mavjud yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Jumladan, «bilim, ko'nikma, malaka» tushunchalari bilan birgalikda "kompetensiya" shaxs tomonidan ta'lim jarayonida va undan tashqarida o'zlashtirilgan qadriyat, yo'nalish, mahorat va tajribaga asoslangan yanada murakkab shaxsiy tuzilma sifatida qaraladi.

Psixologik-pedagogik yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda gumanistik yondashuv asosida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi insonparvarlik munosabatlarining asoslari quriladi. Gumanistik pedagogika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sub'yekt-sub'yekt munosabatlariga asoslanadi va dialogga asoslangan o'rganishni nazarda tutadi, uning asosiy farqlovchi xususiyati fikr va muloqot almashishdir [7].



Ta'limning gumanistik paradigmasi g'oyalarini inobatga olgan holda qurilgan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar jarayonida biz butun ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish haqida gapiramiz, bu esa yuksak ma'naviyatni belgilash va unga erishishga qodir erkin shaxsni tarbiyalashga yordam beradi.

O'quv faoliyatining gumanistik yo'nalishi mavjud rollarning mohiyatini o'zgartiradigan jarayonlarga yordam berdi, ya'ni o'qituvchi bilimlar majmuasini uzatuvchi vositachi va talaba bu bilimlarni idrok etuvchi passiv sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Gumanistik yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim oluvchi pedagogning sherigi sifatida fikrlashni, yaratishni va aks ettirishni biladigan faol sub'ekt sifatida qaraladi. Talabalarga mana shunday o'qitish usullarini o'rgatishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yagona innovatsion yondashuvga asoslanishi kerak [8].

Biroq olib borilgan tadqiqotlarning ko'pligiga qaramasdan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga etarlicha e'tibor berilmayapti.

Zamonaviy oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kommunikativ faoliyatini shunday muvofiqlashtirish kerakki, bunda o'quv jarayoni haqiqatan ham uning o'ziga qoniqish olib kelishga qodir bo'lsin. Ana shundagina ular o'z maqsadlariga erishadilar.

Milliy ta'lim tizimidagi so'nggi tendensiyalar har bir ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoniga insonparvarlik paradigmasini joriy etish kontekstida ko'rib chiqiladi. Shaxsga yo'naltirilgan insonparvar va demokratik ta'lim jarayonida o'qituvchi ta'lim oluvchi shaxsining muhimligini tan olgan holda, uni o'quv faoliyati ob'ektidan bevosita o'z ta'limi natijasi bilan qiziqadigan faol sub'ektga aylantiradi [9].

Shu o'rinda biz asosiy vazifalardan biri o'qituvchi va talaba o'rtasida insonparvarlik yo'nalishi bilan ajralib turadigan bunday munosabatlarni o'rnatish haqda to'xtalib o'tmoqchimiz.

Zamonaviy oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini «4K» modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi asosida tashkil etish ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, bunda quyidagi asosiy kompetensiyalar qamrab olinadi:

Kollaboratsiya asosida o'qitish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berib, ularda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.



Kommunikativlik asosida o'qitish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularni o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, ma'lumotni til vositasida yetkazishdan unumli foydalanishga undaydi.

Kreativ fikrlash asosida o'qitish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy fikrlash va yangiliklar yaratish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llash, muammolarni hal qilish uchun ijodiy va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash metodologiyasi asosida o'qitish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish bilan birga ular muammolarga analitik va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini ifodalashga o'rganadilar.

Kommunikativ faoliyat o'zaro ishonch, mas'uliyatni singdirish, o'quv amaliyotida ta'lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beruvchi imkoniyatlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini o'qituvchining ma'lum darajadagi muloqot qobiliyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kommunikativ faoliyat uning barcha amaliy ko'nikma va malakalarining asosidir. Bu komponent bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida shakllanadigan kommunikativ kompetentsiyaning tarkibiy qismidir.

Oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini innovatsion yondashuv metodologiyasi asosida tashkil etish nafaqat bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli kadr bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy rivojlantirishga qaratiladi [10].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar dastlab oliy ta'limda shakllantirilib, so'ngra kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy professionalizm darajasida rivojlantiriladi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasasi insonning kelgusi hayoti va faoliyatidagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'ladigan maskandir. Aynan shu sababdan ham bo'lajak mutaxassisning kasbiga mehrini qozonishda kommunikativ kompetentsiya muhim hisoblanib, bu mehnat bozoridagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimi uchun ham o'ta dolzarbdir.

Adabiyotlar:

1. Adilova M.F. (2022). Innovation yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish. Integration of science, Education and practice. Scientific-methodical journal, 3(7), 99-106.



2. Adilova M.F. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. Eurasian Scientific Herald, 10, 53-58.

3. Adilova M.F. (2022). Psychological and pedagogical factors of innovative approach to the formation of communicative competence of the future teacher. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 304-308.

4. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021)– Б.567-570.

5. Салаева М.С. Педагогинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / “Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети, 2021 йил 21 апрель. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.

6. Салаева М.С. Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак педагогларнинг виртуал академик мобиллигини шакллантириш // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.

7. Салаева М.С. Педагогинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришининг психологик механизми // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» журналы № 6/3 - 2022 жыл. – Б. 83-88.

8. Салаева М.С., М.Джумабаева. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali. ISSN (E) – 2181 – 1334. Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021. Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz

9. Salaeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 83–91. ISSN 2181-3558. Volume 1, ISSUE 3. August 2022. DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>

10. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадрият сифатида намоён бўлиши // Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022. – Pp. 183-188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>

РЕЗИОМЕ

Maqolada zamonaviy oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini «4K» modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi asosida tashkil etish, shuningdek, ularni shaxsiy va kasbiy rivojlantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗИОМЕ

В статье освещаются вопросы организации процесса профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов в современном высшем образовании на основе методики инновационного подхода, основанного на модели «4К», а также их личностного и профессионального развития.

SUMMARY

The article highlights the issues of organizing the process of professional training of future primary school teachers in modern higher education based on the methodology of an innovative approach based on the «4K» model, as well as their personal and professional development.



МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLANING O‘YIN FAOLIYATIGA PEDAGOGIK RAHBARLIK QILISH

Jo‘rayeva N. T., Marasulova D. N
Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: o‘yin, psixik taraqqiyot, jamoaviy o‘yinlar, individual yondashuv.

Ключевые слова: игра, психическое развитие, командные игры, индивидуальный подход.

Key words: game, mental development, team games, individual approach.

O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan davlat o‘quv dasturiga 2022 yil o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Davlat o‘quv dasturining birinchi nashrini qayta ko‘rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo‘ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta‘limda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari 1;
- 2021-yilda Respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta‘lim boshqaruv organlari mutaxassislari, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o‘rtasida o‘tkazilgan manzilli milliy so‘rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;
- maktabgacha ta‘lim dasturlarini yaratish bo‘yicha o‘tgan yillar davomida to‘plangan xalqaro tajribalar kiritildi.

Davlat o‘quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo‘lib, ta‘lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat maktabgacha ta‘limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.



Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar davlat o'quv dasturining quyidagi jihatlari o'z aksini topdi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari dasturning shaxsga yo'naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta'minlash zaruratini ta'kidlash uchun batafsil ochib berildi va umumlashtirildi;
- kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to'ldirildi;
- bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni «bolaning ovozi eshitish», uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga;
- loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga;
- individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga;
- kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lim olishni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

Odam oldida turgan masalaning qo'yilishi va hal qilinishi tafakkurning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Kichik yoshdagi bolalar faqat tamomila konkret tarzda qo'yilgan masalalarnigina hal qiladilar. Bunda ular o'sha masalani ko'pincha faqat bir usul bilan – harakat qilish usuli bilan hal qiladilar. Bunday tafakkur xarakteri kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda ancha vaqtgacha saqlanib qoladi.

Bola o'zining «nima uchun» va «nimaga» deb to'xtovsiz beradigan savollari orqali fikrlashni bilib olishidan ancha ilgari ongli harakat qilishga o'rganib oladi. Masalan, bolaning o'yinlarida yoki uning har kungi oddiy ish-harakatlarida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Haqiqatdan ham o'yin har bir yosh bosqichida bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof




muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlarini o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlarini o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulqatvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiiylik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarini namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.




Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.


Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan tasurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini



ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashqilotchilik va ijodqorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to'zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.



Qoidali o'yinlar MTTda talim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Qoidali o'yin talim bilan bevosita bogliqdir.



Ularning har biri bola shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, biroq o'yinning u yoki bu turiga mansub deyish uning asosiy tarbiyaviy ta'siriga ko'ra aniqlanadi. Masalan: «Oq terakmi ko'k terak, bizdan sizga kim kerak» harakatli o'yinida bolalardagi chaqqonlik, zehnlilik, chidamlilik malakalari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi.

O'yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki



narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash xolatidan kelib chiqib, sub'ekt yin paytida faol qapakat kilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan xarakat rejasidan tasavvur qilinayotgan. fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi xarakat rejasiga utadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy kyirinishga utishida unga tayanch nuqtasi bulishi kerak, voxolanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini utovchi narsalarning aksariyatidan yyinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi.

O'yin faoliyatida mazkur jismlar kandydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar tugrisida fikrlash uchun xizmat kiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi xarakatning yakkol narsa bilan boglik jixatini aks ettiradi. YUKorida aytilganidek, narsa bilan yin xarakatlarining takomillashuvi xarakat shakli xususiyati, boskichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish xisobida amalra oshiriladi. O'yin xarakatlarining kisqarishi va umumlashuvi ularning akliy kurinishidagi mantikan izchil yigiq shaklga utishning asosini tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va 33 hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi. Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatni shunday turiki uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini o'zgartirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyat ta'lim jarayonidir.

«Nimadan nima bo'ladi?»

Bolalar davra qurib o'tiradilar. Olib boruvchi navbat bilan bolalarga murojaat etib savol beradi: «Nimadan nima bo'ladi?» Tuxum, jo'ja boshqalar. Agar bolalardan javob chiqmasa, olib boruvchi har bir so'zga bir necha variantlarni aytib berishi mumkin. Masalan tuxumdan jo'ja... Qaysi bola eng ko'p variantlarni aytsa, uni g'olib deb topiladi. Mashq diqqat, tasavvur, fikrlash, nutqni rivojlantiradi. «Nima bo'ladi, agar ...» Har bir bolaga biron tirik jonzot to'g'risida (odam, xayvon) ertak, hikoya o'ylab topish taklif etiladi. Har bir bola o'ylab topgan hikoyasini qolganlarga aytib beradi. O'ylab topish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Mashq tasavvur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi.



Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli qarori
2. "Ilk qadam" takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi 2022 y
3. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" 2018 y
4. N.T.Jo'rayeva Ijtimoiy va pedagogic psixologiya 2022 y
5. G'oziev. Tafakkur psixologiyasi. T. O'qituvchi, 1990
6. Qodirova F.R. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi fanidan. T.: 2001
7. G.Q.Jalolova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. metodik tavsiyanoma. T.: 2004.
8. L.Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o'ynaladigan o'yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2005

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyatining psixologik xususiyatlari va o'yinlarning bolalar psixik taraqqiyotidagi o'rni hususida mulohazalar yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются психологические особенности игровой деятельности детей дошкольного возраста и роль игр в психическом развитии детей.

SUMMARY

The article examines the psychological characteristics of play activity in preschool children and the role of games in the mental development of children.



MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Kayumova N.M.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch soʻzlar: demokratik jarayon, ijtimoiy munosabat, erksevarlik, moddiy farovonlik, milliylik, odamiylik, mehr-oqibat, psixodiagnostik, faoliyat.

Ключевые слова: демократический процесс, общественное отношение, мужественность, материальное благополучие, национальность, человечность, доброта, психодиагностика, активность.

Key words: democratic process, human social attitude, tyranny, material well-being, nationality, humanity, kindness, psychodiagnosics, activity.

Qadriyatlar hamisha muayan faoliyatlar koʻrinishida namoyon boʻlib kelgan. Insonlarning voqelikka boʻlgan munosabatlari mazmunini ifoda etib, ularning feʼl atvorlari, say harakatlari yoʻnalishlari tarzida ifodalangan. Qadriyatlar maʼlum bir xalqning koʻp ming yillik tarixiy- madaniy tajribalari sifatida shakllanib, ularning turmush tarzi, tafakkur mahsuli sifatida yaratilgan. Xalqning qadimiy urf- odatlari, anʼanalari, marosimlari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mansublik ifodasidir. Qadriyatlar qaysidir millat va xalqlarning hursandchilik va qaygʻuli oʻtmishi, tarixiy, madaniy tajribalari, sabr bardoshi, baxtiyor kunlarining ifodasidir. Bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi umumjamiyat ahamiyatiga ega boʻlgan, insoniyatning mavjudligi, oʻtmishi, buguni va kelajagini, yashash tarzining asosiy yoʻnalishlari, tartib qoidalarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini oʻzida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining obʻektiv asosini ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyat tashkil etadi. Umuminsoniy qadriyatlar zaminida birinchi galda tinchlik, demokratik islohatlar tufayli shakllangan inson baxt-saodati, ozodlik, erkinlik kabi umumijtimoiy maʼno va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat



tushuncha mavjud. Bir soʻz bilan aytganda “Qadriyat” tushunchasi bizga arabcha “qadri” soʻzidan kirib kelib, borliq va jamiyatda biror bir narsa va hodisaning insonlar oʻrtasidagi oʻzaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qoʻllanilib kelinmoqda. Bu masalaning biinchi tomoni edi. Masalaning ikkinchi tomoni shundan iboratki, “qadriyat” soʻzi qadim zamonlarda paydo boʻlgan va barcha xalqlar tillarida mavjud. Bu tushuncha bir necha ming yillik tarixga egadir.

Milliy qadriyatlar, ularning ahvoli, kelajak taqdiri kishilarni doimiy qiziqtirib kelgan muammolardandir. Afsuski, oʻtmishda ushbu masalaga jamiyatimiz tomonidan yetarli darajada eʼtibor berilmadi. Endilikda demokratik jarayonda koʻp millatli mamlakatimiz milliy qadriyatlarni qayta idrok etish va anglashni talab etadi. Milliy qadriyatlar tushunchasi tor va keng maʼnoda ishlatiladi. Tor maʼnoda quydagicha ifodalanadi: milliy qadriyatlar muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlari yigʻindisini, mazmunini tashkil etadi. Keng maʼnoda quydagicha ifodalanadi: milliy qadriyatlar muayyan bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaati va qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yigʻindisidir.

Milliy qadriyatlar asosida axloqiylik sifatleri har bir shaxsda quyidagicha namoyon boʻladi:

- oʻz millatining milliy va maʼnaviy sohada erishgan yutuqlari, uning obroʻ-eʼtibori bilan gʻururlanish, faxrlanish hissini oʻzida his qilishi, millatning har qanday muammolariga befarq boʻlmaslik va unga javobgarlik hissini anglashi;

- oʻz xalqi, millatiga gʻamxoʻrlik qilishi;

- oʻz xalqining, millatining moddiy-maʼnaviy meʼrosini ardoqlash, asrab-avaylashi;

- xalqning milliy- maʼnaviy, umumbashariy qadriyatlarini, milliy anʼanalarini, milliy urf-odatlarini hurmat qilishi, ularni boyitishga bir soʻz bilan aytganda takomillashtirishga oʻz hissasini qoʻshishi;

- oʻz xalqiga, millatiga boʻlgan mehr-muhabbatini amalda koʻrsata olish kabilar

Milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarbiyalash bu oʻzligini anglash, milliy oʻz-oʻzini anglash bilan bevosita bogʻliqdir. Zotan, milliy qadriyatlar asosida axloqiylik millatning qadr-qimmatini, or-nomusini, shon-sharafini tushunib yetgan, anglagan insondagina boʻladi. Demak, har bir jamiyat aʼzosi, ota-onalar, pedagog-tarbiyachilar oldiga yosh avlodni qalbida milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarkib toptirish jarayonida axloqiy sifatlarni ham shakllantirish lozimdir. Ayniqsa, maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarkib toptirish va



tarbiyalash nihoyatda muhim bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalarda qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarbiyalash jarayonida ularning ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'sir etishi va mazmun- mohiyati bilan mos bo'lishi kerak. Millatning milliy-madaniy merosdan bahramand bo'lishi, o'z asriy tarixi, o'ziga xos qadimiy san'ati, ma'naviy qadriyatlari, diniy va dunyoviy bilimlari asosida kamtarlik, mehnasevarlik, erksevarlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik, saxiylik, poklik kabi axloqiy tushunchalar milliy g'ururni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ongi, ularning xulq- atvori mehnatsevarlik, adolatparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarning negizi hisoblanadi. Axloqiy ong vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi tuyg'ular insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi.

Bolalarning axloqiy ongi va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Ularda milliy g'ururni shakllantirish jarayonida estetik g'oya, estetik did, go'zallikdan zavqlanish qobiliyati ham o'sadi.

Xalq pedagogikasida ifodalangan g'oyalar, u yaratgan milliy qadriyat namunalari, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Munis Xorazmiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ajdodlarimizning asarlarida o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida milliy g'ururni shakllantirish tarbiyasi asosiy o'rin tutadi. Shaxsning kamolotida axloqiylik, milliy iftixor, o'z-o'zini anglash, faxrlanish tuyg'ularining zaruratini tan olish, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyat namunalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar ongida milliy o'zbekona iftixor tuyg'usini shakllantirish va axloqiylikni tarbiyalashda va muammolari ustida ishlashda, albatta bolaning yoshi dunyoqarashi va oilaviy sharoiti inobatga olinishi kerak.

Maktabgacha yosh davri shaxsning axloqiy sifatlarni rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar taqdim etadi. Bunga ularning bo'ysunuvchanliklari va ma'lum darajada ishonuvchanliklari, kattalar va tengdoshlariga nisbatan taqlidga moyil bo'lishlari, asosiysi bolalarga kattalarning do'stona munosabatlari yordam beradi. Shuning uchun bu yosh davrida bolaning hayotida uning ota onasi, oila a'zolari va pedagog-tarbiyachining o'rni muxim bo'lib, ular bola shaxsining ijtimoiy jarayonlarga kirib borishiga, axloqiy xulq-atvorning shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabgacha yosh davrida, ma'naviy axloqiy me'yorlar va xulq qoidalarini o'zlashtirish sodir bo'la boshlaydi. Bola shaxsining ijtimoiy yo'nalganligi shakllanib boradi .



Maktabgacha yoshdagi bolalarning xarakteri ayrim xususiyatlar bilan o'ziga xoslikda ajralib turadi. Ko'pincha ular ta'qiqlar, undovlar ta'siri ostida o'ylamay, mavjud sharoitlarni hisobga olmsdan, tezlikda harakat qilishga moyil bo'ladilar. Buning asosiy sababi xulqdagi irodaviy sifatlarini tartibga solishning yoshga oid zaifligida faol tashqi turtkiga ehtiyoj hisoblanadi. Ijtimoiy tajribaning ortishi bois bolalarda fazo, vaqt, harakatni idrok qilish ko'lami kengayib boradi, bolalar o'z oldilariga qo'yilgan savollarga javob topishga intila boshlaydilar.

Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash haqidagi muammolar G.I. Baturina, M.N. Bratuxinalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ma'naviylik, milliy madaniyatga va xalq tarixiga jalb etishning o'ziga xos omili sifatida tushuniladi, bular an'anaviy talim-tarbiya yo'nalishi vositasida bolalarni har tomonlama qobiliyatli bo'lib voyaga etishlariga imkon yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni shakllantirish keng imkoniyatlarga ega. Milliy qadriyatlar asosida bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonida bolaning ijodiy imkoniyatlari amalga oshiriladi. Xalq ijodining shaxsda milliy iftixor, milliy qadriyatlar tuyg'ularini shakllantirish vositasi sifatidagi ta'siri bola ijod sub'ektiga aylanganida kuchayadi. Bizningcha, zamonaviy pedagogik tizimning asosiy vazifalaridan biri bolalarni ijodiy jarayonning ishtirokchilariga aylantirib, ularni faol ijodiy darajada xalqning ma'naviy merosi olamiga olib kirishning samarali metodlaridan foydalanish hisoblanadi. Kundalik hayot va bayramlarda, an'ana va urf-odatlarda, mahalla va oilaviy o'zaro munosabatlarda milliy qadriyat g'oyalari ifodalangan va rivojlangan. Shu sababdan ham xalq an'analari qo'llanilgan, asrlar davomida sinalgan barkamol shaxsni tarbiyalash vositalaridan voz kechib bo'lmaydi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim davri yetakchi o'rinni egallaydi. Mana shu davrdan boshlab bola shaxsida intensiv rivojlanish va sifat o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Maktabgacha yosh davrida milliy g'urur, "men" konsepsiyasi motivlarini shakllantirishda bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ijtimoiy, ma'naviy axloqiy qoidalarni o'zlashtirishlarida senzitiv hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda istiqomat qilib, ijod etgan, dunyo tan olgan buyuk allomalarimizning aytgan fikrlari bugungi kunda ta'lim-tarbiyani tashkil etishda ibrat maktabi vazifasini o'tamoqda. Avlod-ajdodlarimiz bizga qoldirgan meroslarida pedagogik, umumbashariy qadriyatlarini hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish, mustaqillik yillarida ta'lim tizimida



amalda qo‘llanayotgan metodlar, pedagogik fikr rivojini o‘rganish, tadqiq etish bugungi kun talabidir.

Jismoniy baquvvat va aqliy jihatdan etuk bolalar – eng avvalo, sog‘lom va ahil oilaning mevasidir. Hurmat- izzat, milliylik, odamiylik, mehr-oqibat, vatanga muhabbat, xalqiga sadoqatli bo‘lish kabi oliyjanob xislatlar aynan oila muhitida shakllanib sayqallanib boradi. Shuning uchun ham vatanparvarlik, baynalmillik, kamtarlik, xalollik kabi tuyg‘ularini bolani yoshiga, uning ruxiyatiga mos tarzda o‘rgatish maktabgacha ta‘lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardir.

Or-nomus, shonu sharaf, Vatan va millat sha‘nini har narsadan ustun bilgan Imom Al Buxoriy, Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi buyuk allomalarimiz xalqni ma‘rifatli qilish, ilm mash‘ali bilan G‘arb va Sharqni yoritishga uringan bo‘lsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari sarkardalarimiz millatning g‘ururini baland qilish uchun butun hayotlarini safarbar etganlar.

Olimlarning fikrlariga ko‘ra, maktabgacha yosh davri alohida qulay idrok etish xususiyatiga egadir. Bolada ko‘rgazmali -obrazli fikrlash va tasavvur jadal rivojlanadi, nutqi rivojlanadi, psixik hayotida tajriba bilan boyiydi, olamni idrok etish va tasavvur bo‘yicha harakat qilish yuzaga keladi. Narsa-buyumlar va turli hodisalar haqidagi umumlashgan bilimlarning vujudga kelishi milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy hayot bilan tanishishning muhim bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limning zamonaviy pedagogikasida milliy qadriyatlarning roli va o‘rni ko‘rsatilgan tadqiqot e‘tiborlidir. Milliy qadriyatlar – erta bolalik davrlarida boshlab tarbiyani insonparvarlash yuzasidan amaliy metodi ekanligi ta‘kidlanadi.

Yuqorida ifodalanganlarni umumlashtirgan holda shuni aytish joizki, yosh avlod o‘z asriy o‘tmishini, ya‘ni uzoq tarixi haqida bilishni, hozirgi zamon va kelajakni to‘g‘ri anglashni istagan har bir inson tarbiyaning noyob durdonasi hisoblangan milliy qadriyatlardan unumli foydalanishi kerakligini ta‘kidlaymiz. Uning ahamiyati shundaki, yosh avlod uchun uning barcha ilgari surilgan g‘oyalari jumladan, go‘zallik, yaxshilik, tinchlikka intilish kabi fazilatlarini ularni ongiga muhrlash va ilgari surishimiz bilan bog‘liq. Kattalarning vazifasi esa – bolalarga xalq an‘analari va urf-odatlarini o‘rganishning zaruratini tushunishlarini ta‘minlashdan iborat.

Ota-onalar bilan xamkorlikda maktabgacha ta‘limda milliy qadriyatlar asosida musiqaviy, adabiy kompozitsiyalarni tayyorlash o‘rinlidir. Milliy qadriyatlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy urf- odatlar, laparlar, alla, yor-yor kabilarni e‘zozlab qadrlashga o‘rgatish zarur. Maqol va matallar



adabiy tilni boyitish, uning ifodaliligi, aniqligini rivojlantirish uchun ulkan ahamiyatga ega.

Ko'pgina maqollarning mazmuni nafaqat grammatik qoidalarni o'rganish uchun xizmat qilishi bilan birga, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun ham manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbatli bo'lishga, mehnatsevarlikka, hozirjavob bo'lishlariga yordam beradi. Masalan: —Elda bori – senda bori, —Har kimning o'z fikri bor, —Har qush o'z uyasida erkin, —Vataning tinch – sen tinch, —Oltin olma, duo ol, —Elga hurmat, oliy ximmat kabi maqollar maktabgacha yoshdagi bolalarda, vatanparvarlik, o'z vatani bilan faxrlanishga undaydi. Topishmoqlar bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, hodisalarni taqqoslashga, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Topishmoqlar bolalarni nutqini tez va ravon qilishga yordam beradi. Topishmoq bolaning aqliy salohiyatini o'stiradi,estetik didni shakllantiradi, nafaqat topqirlikni rivojlantiradi, balki tashqi olam to'g'risidagi tasavvurni boyitadi va kengaytiradi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishida,ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar xalq tomonidan yaratilgan va insonlarning kundalik hayotidagi voqea va hodisalarni aks ettirgan ,o'zida musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Inson go'daklik davridan tashqi olamni anglay boshlaydi. Bunda o'yinchoqlar bolaga atrof olam haqida tassavurga ega bo'lishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida xalq o'yinlaridan foydalanish ham milliy qadriyatlarimiz sanalib ularni mustaqil bajarishga o'rgatish bolalarning mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishlarini oshiradi. Bolalar bu bilan o'zlarida jo'shqinlikni his etadilar.

Milliy qadriyatlarning muhim jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatani sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas.Bolaning kelajagi qanday bo'lishida albatta oilaviy muhitning ahamiyati juda kata. Oila qanchalik bolaga namuna bo'la oladigan va o'zaro munosabatlarda samimiylkni aks etib tursa, ota -onaning farzandiga bergan tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi .Farzandlarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish barcha ota- onalarning, tarbiyachi-pedagoglarning, keng jamoatchilik a'zolarining ona Vatan oldidagi burchlaridir. Shuning uchun bolalarining ota-onalari bilan ham mafkuraviy ta'lim ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Каюмова Н.М.(2022 November) Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации.In international scientific and praktikal conference"the time of scientific progress (Vol. 1.No.3.pp.102-107)



2. Каюмова Н.М., & Якубова З.З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. In Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp.92-95).

3. Qodirova, F. R., Toshpo'latova, S. Q., Kayumova, N. M., & A'zamova, M. N. (2019). Maktabgacha pedagogika. T.: -2019.

4. Kayumova, N. M. (2013). Maktabgacha pedagogika. O' quv Qo' llanma.

5. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. In international scientific and practical conference» the time of scientific progress» (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107).

6. Qodirova, F. R., Toshpulatova, S. Q., Kayumova, N. M., & A'zamova, M. N. (2018). Preschool pedagogy. Textbook) Tashkent-2018.

7. Kayumova, N. M., & Ro'ziyeva, M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni. Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 102-104.

8. Каюмова, Н. М., & Базарбаева, З. О. (2023, October). Речь детей как психолого-педагогическая проблема. In international scientific conference» innovative trends in science, practice and education» (vol. 2, no. 8, pp. 68-73).

9. kayumova, n. m. (2023). educating children in the spirit of national values in preschool educational organizations and in the family. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(6), 33-38.

10. Kayumova, N. M., & Turg'unova, M. R. (2023, January). "Ilk qadam" davlat o 'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish. in international conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 609-612).

11. Kayumova, N. M., & Turg'unova, M. R. (2023, January). Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahorati. in international conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 605-608).

12. Kayumova, N. M., & Murodxo'jaeva, Z. M. (2023, January). Tarbiyachining faoliyatlarni tashkil etilish jarayonidagi ijodkorligi. In international conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 601-604).

13. Каюмова, Н. М., & Якубова, З. З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 92-95).

14. Kayumova, N. M. (2019). Peculiarities of teaching english in esp classes. modern scientific research, 128.

15. Каюмова, Н. М., & Пирмухамедова, М. Э. (2019). Руководитель дошкольной образовательной организации и его функциональные обязанности. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 42.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada xalqning qadimiy urf- odatlari, an'analari, marosimlari umuminsoniy va milliy qadriyatlarinig yosh avlod tarbiyasiga ta'siri, ularni milliy qadriyatlar asosida axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается влияние древних традиций, обычаев, общечеловеческих и национальных ценностей народа на воспитание молодого поколения, важность их нравственного воспитания на основе национальных ценностей.

SUMMARY

In this article, the impact of the people's ancient traditions, customs, universal and national values on the education of the young generation, the importance of educating them morally on the basis of national values is highlighted.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TEXNOLOGIYA DARSLARIGA JALB QILISHDA TANQIDIY TIKLASH USULLARI ORQALI KLASTER YONDOSISH

Pardaboeva D.G'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, texnologiya, faoliyat, fikrlash, qobiliyat, tanqidiy fikrlash, pedagogik faoliyat, klaster usuli, vaziyatdan chiqish, yo'lini topish, qiziqish, axborot to'plash.

Ключевые слова: начальный класс, учащиеся, технология, деятельность, мышление, способности, критическое мышление, педагогическая деятельность, кластерный метод, выход из ситуации, поиск пути, интерес, сбор информации.

Key words: primary school, students, technology, activity, thinking, abilities, critical thinking, pedagogical activity, cluster method, way out of the situation, pathfinding, interest, information collection.

Hozirgi vaqtda ta'lim jamiyatning ehtiyojlariga javob beradigan, o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, tanqidiy vaziyatlardan chiqish yo'lini topa oladigan, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganishga qodir bo'lgan shaxslarni tarbiyalash maqsadida modernizatsiya qilinmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya darslarini joriy etilishi barcha faoliyat turlarida faol va fikrlash qobiliyatiga ega "yangi" shaxsni tarbiyalash zaruratini keltirib chiqardi. Texnologiya darslarini qiziqarli tashkil etish uchun turli xil texnologiyalar qo'llaniladi, ulardan biri tanqidiy fikrlash texnologiyasidir. "Tanqidiy fikrlash o'z aqliy faoliyati, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar, savollar bilan ishlash qobiliyati, analitik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, boshqa odamlarning o'xshash imkoniyatlarini baholash qobiliyatini aks ettirish qobiliyatini o'z ichiga oladi". Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish umum ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlanish kerak, chunki tanqidiy fikrlash har bir insonning eng muhim qobiliyatidir, bu nafaqat ta'lim jarayonida, balki insonning kelajakdagi hayotida ham zarurdir. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda nafaqat voqelikning o'zgaruvchan



sharoitlari bilan bog‘liq holda, balki o‘quvchilarning charchoqlarining oldini olish uchun faoliyat turlarini o‘zgartirish zarurati tufayli ham doimo o‘qitishning yangi klasterli yondashuvlarini izlash kerak. Turli xil yondashuvlar orasida maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlari va samarali fikrlashlarini yaxshilashga yordam beradiganlarga ustunlik berish kerak. Tanqidiy fikrlashning juda ko‘p usullari bo‘lib, o‘qituvchiga darsni boshqalardan ko‘ra farqliroq o‘tish uchun qo‘l keladi. Bu jarayon usullari - og‘zaki, vizual, amaliy ish bajarishni qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Tayyorlanadigan topshiriqlar bolaning «zerikishga» vaqti bo‘lmaydigan tarzda tayyorlanishi va o‘rgatilishi lozim. Tanqidiy fikrlash usullari maktab o‘quvchilariga mustaqil ravishda bilim olish, o‘z nuqtai nazarini ifoda etish, sinfdoshlarning fikrlarini tinglash, xulosalar va umumlashmalar qilish imkoniyatini beradi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning turli usullari mavjud, masalan: juftlikda o‘qish-jamlash, sinxronlash, to‘xtash, burchaklar, mantiqiy zanjir va boshqalar. Biz klaster usulini ko‘rib chiqamiz. Klaster usuli materialni grafik tarzda taqdim etish usuli bo‘lib, mavzuni o‘rganish yoki umumlashtirishda fikrlash jarayonining natijasini tasavvur qilish imkonini beradi. Klaster chiziqli bo‘lmagan fikrlashning aksidir. O‘qitishda klaster usulidan foydalanilganda o‘quv materiali munosabatlarni kuzatgan holda ixcham va mantiqiy bayon qilinadi. Ushbu usul kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini o‘qitishda, shuningdek, bolalarda vizual va xayoliy fikrlashning ustunligi bilan bog‘liq. Ma’lumotlar ularga klaster - diagramma ko‘rinishida taqdim etilsa, yodlash darajasi ancha yuqori bo‘ladi, shuningdek, bolalarga berilgan mavzular bo‘yicha mustaqil ravishda klasterlar tuzganda, ular muhim fikrlarni xotirada saqlab qoladilar. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalangan holda rivojlantirishda rivojlanishning uchta asosiy tarkibiy qismi, bosqichlari bo‘lishi kerak.

1. Anglash.
2. Tushunish.
3. Refleksiya.

Birinchi bosqichda – muammoning paydo bo‘lishi sodir bo‘ladi, o‘qituvchi barcha bolalarni ishga jalb qiladi, ular mavzu bo‘yicha allaqachon ega bo‘lgan bilimlarini takrorlaydi, mulohaza yuritadi va javob berilishi kerak bo‘lgan savollarni beradi.

Ikkinchi bosqich – tushunish bosqichida o‘quvchilar axborot bilan ishlaydilar, matnlarni o‘qiydilar. Ular rasmlarga qaraydilar, misol va masalalarni yechadilar, shu jarayonda olingan faktlarni tahlil qiladilar. Mulohaza bosqichida bolalar mustaqil ravishda olgan bilimlarini tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar.



Bosqichlarga muvofiq klaster usuli ularning har qandayiga qo‘llanilishi mumkin. Test bosqichida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘zlarining mavjud bilimlarini sxematik tarzda tuzadilar va shu bilan o‘zlarini ushbu mavzu muammolarini yanada o‘rganishga undaydilar. Qiyinchilik bosqichida bolalar taqdim etilgan barcha materiallarni tuza oladilar.

Uchinchi bosqichda – maktab o‘quvchilaridan olingan bilimlarni

tizimlashtirish va umumlashtirish taklif etiladi. Klaster usuli boshlang‘ich maktabdagi har qanday dars uchun qo‘llaniladi, u bir vaqtning o‘zida bir nechta bosqichlardan o‘tishi va bir bosqichdan ikkinchisiga silliq o‘tishi mumkin. Bu usuldan foydalanishda o‘qituvchi ham, sinf ham, juftlik ham, individual ish shakllaridan foydalanishi mumkin. Klaster usuli sinfda ham, uyda ham, uy vazifasini bajarishda ham qo‘llaniladi.

Tanqidiy fikrlash - bu o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini rag‘batlantiradigan pedagogik texnologiya xamda klaster va uning usullaridan (texnikalaridan) biridir.

Klaster - asosiy semantik birliklar aniqlanganda va ular orasidagi barcha bog‘lanishlarni ko‘rsatadigan diagramma shaklida qayd etilganda axborotni tashkil qilishning grafik shakli. Bu o‘quv materialini tizimlashtirish va umumlashtirishga yordam beradigan tasvirdir.

Boshlang‘ich sinf darslarida klaster usulidan foydalanishni ko‘rib chiqamiz. Masalan, matematika darsida masala va uning asosiy qismlari bilan tanishishda tegishli klaster tuzish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).

1. Guruh. Klaster bo‘yicha 1 topshiriq. (1-rasm)


Atrofdagi dunyo bo‘yicha darsda “Ekotizim” mavzusini o‘rganishda siz tegishli klasterni yaratishingiz mumkin. (2-rasm)


3. Guruh. Klaster bo‘yicha topshiriq ekotizim. (2-rasm).

Rus tili darslarida qoidalar va mavzularni osonroq o‘rganish uchun klasterlar yaratishning ko‘plab turlari mavjud, masalan, “So‘zning tarkibi”. (3-rasm).


4. Guruh. Klaster bo‘yicha topshiriq so‘z birikmasi. (3-rasm)

Boshlang‘ich maktab sinflarida tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish juda muhimdir. Bu juda oddiy va hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydigandek





tuyulishi mumkin, ammo tanqidiy fikrlash usullarini qo'llash uchun ham o'qituvchi, ham bolalarni tayyorlash kerak. Shunga qaramay, tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish quyidagilarga imkon berishini ta'kidlash lozim:



- maktab o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirish;
- motivatsiyani kengaytirish;
- bolalarning yangi ma'lumotlarni idrok etish samaradorligini oshirish;
- olingan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bularning barchasi fikrlash, xulosa chiqarish, har qanday vaziyatdan chiqish yo'lini topish, qo'yilgan muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan komil shaxsni shakllantirishga yordam beradi.



Adabiyotlar:

1. Абдураимова Г.О. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини технология фанини ўқитишга методик тайёргарлигини такомиллаштириш: Пед. фан. Фалс. док. (PhD) дисс. –Тошкент, 2022. – 24 б.
2. Боброва, С.Я., Жукова, Н.В., Ярлова, В.В. Актуальные вопросы фор-мирования кластеров как инструмента повышения конкурентоспособности региона // *Фундаментальные исследования*. – 2007. – № 12 – С. 508-509.
3. Волков, В.Т. Фрактально-кластерная теория управления образовательными структурами: монография / В.Т.Волков. - Казань: Издательство Казанского гос. ун-та, 2000. – 303 с.
4. Ахмадалиев Б.С. Педагогик кластер ёндашуви асосида тарбиявий ишларни такомиллаштириш механизмлари // Пед. фан. Фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Чирчик, 2022. –18 б.
5. Pardabaev J.E. “STEAM” – Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852.
6. Попов, О.А. Кластерный анализ. Просто о сложном // *Статистика в психологии и педагогике* / Режим доступа: <http://psystat.at.ua/publ/1-1-0-18>.
7. Селевко Г.К. Компетентности и их классификация / Компетентность и компетентность: сколько их у российского школьника // *Народное образование*. – 2004. - № 4. – С. 136-144.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish umum ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlanish kerak, chunki tanqidiy fikrlash har bir insonning eng muhim qobiliyatidir, bu nafaqat ta'lim jarayonida, balki insonning kelajakdagi hayotida ham zarurdir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье развитие критического мышления следует начинать с младших школьников, ведь критическое мышление – важнейшая способность каждого человека, оно необходимо не только в учебном процессе, но и в дальнейшей жизни человека.

SUMMARY

In this article, the development of critical thinking should begin with primary schoolchildren, because critical thinking is the most important ability of every person; it is necessary not only in the educational process, but also in a person's future life.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING USLUBIY ASOSLARI

Axmadaliev M.M.

Andijon davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi.

Tayanch so'zlar: pedagogik jarayon, o'quv va amaliy mashg'ulotlar, zamonaviy usullar, an'anaviy usullar, pedagogik texnologiya.

Ключевые слова: педагогический процесс, учебно-практическая подготовка, современные методы, традиционные методы, педагогическая технология.

Key words: pedagogical process, educational and practical training, modern methods, traditional methods, pedagogical technology.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida yuksak o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida bo'lajak mutaxassislardan kasbiy bilimlarni, yuksak madaniyatni, ma'naviy yetuklikni va keng dunyoqarashni talab etadi. Ushbu talablar va intilishlar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Pedagogik jarayonga ta'lim va tarbiyaning turli usullari va vositalari jalb etila boshlangan hozirgi paytda matematika o'qitish jarayonini loyihalash muhim. Pedagogik texnologiya usuli, to'g'ri loyihalangan mashg'ulotlarni qayta takrorlash imkonini beradi va shu jihatidan o'qituvchi hamda pedagogning metodik mahorati, shaxsiy fazilatlaridan qat'iy nazar o'quv va amaliy mashg'ulotlarni yuqori natijalarga olib kelishga sharoit yaratadi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davr talabi bo'lib turgan bir sharoitda, ilmiy axborot hajmini kundankunga jadal su'ratlar bilan oshib borishi, ayniqsa, umumta'lim maktabida ta'limning chegaralanganligi, unda o'qitilayotgan fanlar mazmunini qisqartirish imkoniyatlarining kamligi mazkur jarayonni amalga oshirishni murakkablashtirmoqda. Ilmiy-didaktik, ilmiy-metodik izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish va ko'zlangan



maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri ta'lim tizimiga zamonaviy innovatsion-pedagogik va modulli texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Davlat ta'lim standartlari (DTS), Malaka talablari (MT)lari [7] darajasida ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni egallanishida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan quyidagi uchta toifagi pedagogik usullar muhim o'rin tutadi:

1) "An'anaviy usullar". Bunday pedagogik usullar ta'lim oluvchilarga bilimlarni "Etkazib berish" tamoyiliga;

2) "Noan'anaviy" yoki "Interaktiv" usullar. Mazkur pedagogik usullar ta'lim oluvchilarni bilim egallashlarida "Faollashtirish" tamoyiliga;

3) "Ilg'or yoki Zamonaviy usullar". Bu usullar ta'lim jarayonini "Jadallashtirish va samaradorligini oshirish" tamoyiliga asoslanadi. Bugungi kun o'qituvchilar zamonaviy usullar haqida yetarli bilimlarga ega bo'lishi va ksbiy faoliyati jarayonida ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olishlari talab etiladi. Chunki: ta'lim oluvchilarni bilish jarayoniga qiziqtirishda; ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda; anglagan holda bilim olishga va mustaqil o'z bilimlarini oshirib borishga o'rgatishda; fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda; mantiqiy fikrlashga o'rgatishda; ta'lim samaradorligini oshirish va takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarsiz oldindan kafolatlangan ta'lim maqsadlariga erishib bo'lmaydi. boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy o'qituvchilarga turli yondashuvlar belgilangan. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi hamda barcha oliy ta'lim muassasalarida yangi, milliy pedagogik texnologiyani yaratish ustida izlanishlar olib bordi va hozirgi kunda ham bu borada tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda ta'lim texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari yaratildi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvning vujudga kelishi va rivojlanishini shartli ravishda 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich. O'qituvchi.

2-bosqich. O'qituvchi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar.

3-bosqich. O'qituvchi va ta'lim oluvchi, ular uchun turli ta'lim vositalari, o'rgatuvchi mashinalar, dasturlangan ta'lim.

Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy printsip va qonuniyatlarni tushunishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishni nazarda tutadi. Bu, asosan, amallarning xossalarini, ular orasidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga,



bolalarda shakllana- yotgan amaliy o'quv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqlidir. Nazariya amaliy uquv va ko'nikmalarni egallashga yordam beribgina qolmay, nazariya va amaliyotning qarab chiqilayotgan masalalari orasida matematik munosabatlarni o'rnatishga, matematika o'qitish samaradorligini oshirishga o'qituvchiga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir.

Zamonaviy matematika fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati jarayonida quyidagi omillarga asoslanishi muhim hisoblanadi:

- ta'lim maqsadlariga erishishni davlat ta'lim standartlari talablari darajasida kafolatlash;

- ijodiy va izlanuvchan xarakterdagi masalalarni mustaqil yecha olishi;
- o'qituvchining ma'naviy va ahloqiy salohiyatining uning kasbiy faoliyatidagi o'rni hamda ahamiyatini anglab yetgan holda o'z ustida mustaqil izlanib borishi;

- zamonaviy ta'lim va tarbiyaning ilg'or texnologiyalarini, mamlakat va chet el ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni uzluksiz ravishda egallab borishi;

- fanlararo integratsiyasini talab etuvchi yangi murakkab kasbiy pedagogik muammolarni hal etishga har tomonlama tayyor bo'lishi;

- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini yetarli darajada o'rganish va pedagogik, psixologik hamda fiziologik jihatdan tahlil qila olishi;

- zamonaviy ta'lim tizimida kompleks (majmuaviy) o'zgartirishlar qila olish va undagi qarama-qarshiliklarni yengga olishi.

Boshlang'ich matematikani o'qitish metodikasi - bu matematika o'qitish jarayoni haqidagi ob'ektiv bilimlar ishlab chiqiladigan va nazariy tizimlashtirilgan aniq pedagogik faoliyat sohasi.

O'qituvchi uchun bu fan matematikani oqilona o'qitish vositasiga o'xshaydi. Matematika metodikasi asosan insonning o'ziga, uning aql-zakovati, ijodiy qobiliyatlari, tafakkur madaniyatini rivojlantirishga, uning rivojlanishi uchun ma'naviy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Ma'lumki, matematika metodologiyasi o'rganish bilan bog'liq uchta asosiy savolga javob berishga mo'ljallangan:

1. Nima uchun matematikani o'rgatish kerak?
2. Matematikadan nimani o'rganish kerak?
3. Matematika qanday o'qitiladi?

Ana shu uch vazifadan kelib chiqib aytishimiz mumkin, "Matematikani boshlang'ich o'qitish metodikasining predmeti matematikani boshlang'ich o'qitish maqsadlarini asoslash (matematika nima uchun o'qitilishi kerak), matematika o'qitish mazmunini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, o'zida



mujassamlangan. dastur (nimani o'rganish kerak), o'qitish usullari (qanday o'qitish kerak), o'qitish degan ma'noni anglatadi - darsliklar, ko'rgazmali qo'llanmalar va texnik vositalar (nimani o'rgatish yordami bilan). Muhim vazifa - o'qitishni tashkil etish va jarayonni o'rganish. va talabalar tomonidan matematik bilimlarni o'zlashtirish natijalari.

Boshlang'ich maktabda matematikani o'qitish bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilishga imkon beradi:

bolalarda intellektual faoliyat (mantiqiy va ramziy-ramziy fikrlash), fazoviy tasavvur, matematik nutq qobiliyatini rivojlantirish;

boshlang'ich maktab o'quvchilarini mulohaza yuritishga, o'z nuqtai nazarini muhokama qilishga, asossiz va asosli hukmlarni farqlashga, ma'lumotni qidirishga o'rgatish (faktlar, harakat variantlari, ob'ektlarni tartibga solish sabablari va boshqalar);

bolalarga asosiy matematik bilimlarni berish - kattaliklarning ma'nolarini va ularni o'lchash usullarini tushunishga, syujetli vaziyatlarni hal qilishda arifmetik usullardan foydalanishga, matematikadan foydalangan holda amaliy va o'quv masalalarini hal qilishga, arifmetik amallarni bajarish algoritmlari bilan ishlashga o'rgatish; bolalarda matematikaga qiziqish va matematik bilimlardan kundalik hayotda foydalanish istagini shakllantirish.

Boshlang'ich maktabda matematika o'qitishning mashhur usullari

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida ko'pincha quyidagi usullar qo'llaniladi:

Tushuntiruvchi va illyustrativ. Bunda o'qituvchi bilim namunasini beradi, masalan, misol yoki masalani yechish yo'llarini ko'rsatadi va bolalardan uni qayta ishlab chiqarishni, ya'ni bir xil misolni, bir xil masalani mustaqil yechishlarini so'raydi.

Qisman qidirish mumkin. Bu usul bolalarning muammoni hal qilishda qisman ishtirok etishini o'z ichiga oladi. O'qituvchi berilgan topshiriqni alohida bosqichlarga bo'lib, ularning bir qismini o'zi bajaradi, bir qismini esa o'quvchilarga topshiradi. Masalan, murakkab misolda o'qituvchi bolalarga yangi matematik amal - ko'paytirish yoki bo'lish - ko'rsatishi va mustaqil bajarish uchun sinfga tanish ayirish va qo'shish bosqichlarini berishi mumkin.

Tadqiqot. Ushbu usuldan foydalanganda bolalar o'qituvchi rahbarligida o'zlari uchun yangi bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llarini izlaydilar. Buning uchun o'qituvchi muammoli vaziyatlar, mantiq va zukkolik uchun topshiriqlar va boshqalarni taklif qiladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishda nimalarga e'tibor berish kerak?



Yangi materialni tushuntirishda o'qituvchi uni avval o'tilgan mavzular bilan bog'lashi kerak. Buning uchun o'qituvchi talabalarni birgalikdagi ishlarga jalb qiladi, ularni mavjud bilimlarni takrorlashga va o'tgan ta'lim tajribasiga tayanishga undaydi. Bunda illyustrativ jadvallar, mavzu bo'yicha qo'llanmalar, didaktik tarqatma materiallar, chizmalar, sxemalar va boshqa ko'rgazmali elementlardan keng foydalaniladi. Boshlang'ich maktabda matematikani o'qitish usuli yangi materialni to'liqligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. U mantiqiy tugallangan kichik qismlarga bo'linadi. Pedagogik usullarni tanlashda har bir bolaning individual imkoniyatlari, o'quv materialining mavjudligi, texnik va ko'rgazmali o'qitish vositalarining mavjudligi hisobga olinadi.

Pedagogika ta'lim muassasasida o'quv predmeti sifatida matematikani o'qitish metodikasi ikki bo'limdan iborat:

1) Matematika o'qitishning umumiy metodlari (masalan, o'qitish metodikasini o'rganish, matematika o'qitish jarayonini tashkil etish va boshqalar).

2) Matematika o'qitishning xususiy metodlari (masalan, raqamlashni o'rganish, o'n ichida qo'shish va boshqalar).

“Matematikani boshlang'ich o'qitish metodikasi” o'quv fanining asosiy mazmuni tegishli matematika darsliklarida berilgan “Matematikani qanday o'qitish kerak?” degan savolga javobdir. Qolgan ikkita savolga javob: «Nima uchun matematikani o'rgatish kerak?» va «Matematikada nimani o'rganish kerak?» asosan boshlang'ich sinflarning o'quv dasturi va darsliklarida metodika bo'yicha qaysi darsliklar tuzilganligini hisobga olgan holda o'z aksini topgan.

Matematika o'qitish metodikasi pedagogik ta'lim muassasasida o'rganiladigan boshqa fan va fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, pedagogika inson tarbiyasi, ta'lim va ta'lim jarayoni haqidagi fandir. U ta'lim nazariyasini, didaktikani, ya'ni, o'rganish nazariyasi va maktab fanlari. Pedagogika umumiy nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi. Masalan, o'qitish usullarini nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqsak, u o'qituvchi va talabalarining belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan o'zaro ta'sir qilish usullarini belgilaydi. Agar matematikani o'qitish jarayonida ushbu o'zaro ta'sir usullari allaqachon ko'rib chiqilsa, u holda o'qitishning amaliy funksiyasini bajaradigan pedagogika qisman matematika pedagogikasiga yoki so'zning tor ma'nosida matematika o'qitish metodikasiga aylanadi. Pedagogikadan o'qitish metodlari matematika o'qitish metodlariga konkretlashtiriladi. Matematika metodologiyasi va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi misollardan biri, masalan, muammoli ta'limdir. Psixologiya psixik hodisalarni, xususan idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va boshqalarni o'rganuvchi fandir. Matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayoni inson psixikasining shaxsning bilish



jarayonlari deb ataladigan ushbu jihatlarini hisobga olmasdan mumkin emasligi sababli, matematika o'qitish metodikasi oldiga aniq vazifa qo'yiladi: bo'lajak o'qituvchiga ularni rivojlantirish usullarini o'rgatish. Bu, birinchi navbatda, metodologiya va psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikdir. Afsuski, matematika o'qitish psixologiyasiga oid masalalar haligacha pedagogika institutlari va kollejlari uchun dastur va darsliklarda yetarlicha o'z aksini topmagan. Metodika kurslarida psixologiya bo'yicha tavsiyalar ko'p hollarda deklarativ xarakterga ega: «biz rivojlantirishimiz kerak ...», «e'tibor bering ...» va hokazo. Shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, keyingi paytlarda ko'pgina didaktik tizimlar va o'qitish texnologiyalarida hamda ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarida aynan matematika o'qitishning psixologik-pedagogik muammolari birinchi o'ringa chiqmoqda. Pedagogika ta'lim muassasasida o'quv predmeti sifatida matematikani o'qitish metodikasi ikki bo'limdan iborat:

1) Matematika o'qitishning umumiy metodlari (masalan, o'qitish metodikasini o'rganish, matematika o'qitish jarayonini tashkil etish va boshqalar).

2) Matematika o'qitishning xususiy metodlari (masalan, raqamlashni o'rganish, o'n ichida qo'shish va boshqalar).

“Matematikani boshlang'ich o'qitish metodikasi” o'quv fanining asosiy mazmuni tegishli matematika darsliklarida berilgan “Matematikani qanday o'qitish kerak?” degan savolga javobdir. Qolgan ikkita savolga javob: «Nima uchun matematikani o'rgatish kerak?» va «Matematikada nimani o'rganish kerak?» asosan boshlang'ich sinflarning o'quv dasturi va darsliklarida metodika bo'yicha qaysi darsliklar tuzilganligini hisobga olgan holda o'z aksini topgan.

Matematika o'qitish metodikasi pedagogik ta'lim muassasasida o'rganiladigan boshqa fan va fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, pedagogika inson tarbiyasi, ta'lim va ta'lim jarayoni haqidagi fandır. U ta'lim nazariyasini, didaktikani, ya'ni. o'rganish nazariyasi va maktab fanlari. Pedagogika umumiy nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi. Masalan, o'qitish usullarini nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqsak, u o'qituvchi va talabalarning belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan o'zaro ta'sir qilish usullarini belgilaydi. Agar matematikani o'qitish jarayonida ushbu o'zaro ta'sir usullari allaqachon ko'rib chiqilsa, u holda o'qitishning amaliy funksiyasini bajaradigan pedagogika qisman matematika pedagogikasiga yoki so'zning tor ma'nosida matematika o'qitish metodikasiga aylanadi. Pedagogikadan o'qitish metodlari matematika o'qitish metodlariga konkretlashtiriladi. Matematika metodologiyasi va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi misollardan biri, masalan, muammoli ta'limdir. Psixologiya psixik hodisalarni, xususan idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va boshqalarni o'rganuvchi fandır. Matematik



bilimlarni o'zlashtirish jarayoni inson psixikasining shaxsning bilish jarayonlari deb ataladigan ushbu jihatlarini hisobga olmasdan mumkin emasligi sababli, matematika o'qitish metodikasi oldiga aniq vazifa qo'yiladi: bo'lajak o'qituvchiga ularni rivojlantirish usullarini o'rgatish. Bu, birinchi navbatda, metodologiya va psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikdir. Afsuski, matematika o'qitish psixologiyasiga oid masalalar haligacha pedagogika institutlari va kollejlari uchun dastur va darsliklarda yetarlicha o'z aksini topmagan. Metodika kurslarida psixologiya bo'yicha tavsiyalar ko'p hollarda deklarativ xarakterga ega: «biz rivojlantirishimiz kerak ...», «e'tibor bering ...» va hokazo. Shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, keyingi paytlarda ko'pgina didaktik tizimlar va o'qitish texnologiyalarida hamda ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarida aynan matematika o'qitishning psixologik-pedagogik muammolari birinchi o'ringa chiqmoqda[1].

Xulosa. Mantiq - ob'ektiv dunyoni tushunishga qaratilgan to'g'ri fikrlashning qonuniyatlari, shakllari va usullari haqidagi fan. Mantiqning asosiy maqsadi haqiqiy bilimga erishish shartlarini oydinlashtirish, fikrlash jarayonining tuzilishini o'rganish, bilishning to'g'ri usulini ishlab chiqishdir. Mantiq kursi, xususan, tushunchalar va ular bilan mantiqiy operatsiyalar, hukmlar, xulosalar va dalillar kabi masalalarni o'rganadi. Bu savollar fikrlashning matematik uslubining asosini ifodalaydi. Shuning uchun ularni hal qilish bo'yicha maxsus ish boshlang'ich maktabda boshlanishi kerak. Metodika va mantiq o'rtasidagi bog'liqlik, eng avvalo, bo'lajak o'qituvchi va kelajakda uning o'quvchilarining fikrlash madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi. Talabalar matematika boshlang'ich kursining nazariy asoslari kursida barcha kerakli mantiqiy savollarni o'rganadilar. Faqat ularni to'g'ri assimilyatsiya qilish o'qituvchiga o'z o'quvchilarining mantiqiy rivojlanishi muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi. Matematika o'qitish metodikasi boshqa fanlarni o'qitish metodikasi bilan ko'p umumiyliklarga ega. Ularning barchasi birgalikda boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishning umumiy ta'lim, o'quv va amaliy muammolarini hal qiladi.

Adabiyotlar:

1. Вапняр Н.Ф., Чекин А.Л. Число и цифра. К вопросу о терминологии// Начальная школа.1991. №8.
2. Волина В.В.Праздник числа. – М., Знание, 1993.
3. Григорьева Ж.В.Развитие визуального мышления первоклассников на первых уроках математики// Начальная школа. 2011. №8.
4. Жикалкина Т.К. Система игр на уроках математики. М. 1995.
5. Иванова Т.И.Моделирование состава чисел в пределах 10// Начальная школа. 2004. №10.
6. Истомина Н.Б. Комплект наглядных пособий по математике 1 класс. - М.Линка-Пресс. 2009.



7. Карпушина Н.А. Учитывать индивидуальные особенности детей // Начальная школа. 2000. №2.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning innovatsion usullari va pedagogik yondoshuvlar taxlil etilgan. Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy printsiplarni va qonuniyatlarni tushunishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются инновационные методы и педагогические подходы преподавания математики в начальных классах. Курс математики охватывает умение учащихся обобщать учебный материал, понимать общие принципы и закономерности, лежащие в основе изучаемых математических фактов, понимать связи между наблюдаемыми явлениями.

SUMMARY

This article analyzes innovative methods and pedagogical approaches of teaching mathematics in elementary grades. The mathematics course covers the ability of students to generalize the educational material, to understand the general principles and laws underlying the mathematical facts being studied, and to understand the connections between the observed phenomena.



MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH

Jumayev X.X.

Termiz davlat universiteti “Musiqqa ta’limi” kafedrası, “Madaniyat va san’at sohasini tashkil etish hamda boshqarish asoslari” fani o’qituvchisi

Tayanch soʻzlar: qaror, qaror qabul qilish, tamoyillar, madaniy ma’rifiy tadbirlar, dasturlar tuzish, nazorat funksiyasi.

Ключевые слова: решение, принятие решений, принципы, культурно-просветительская деятельность, программирование, функция контроля.

Key words: decision, decision-making, principles, cultural educational activities, programming, control function.

Rejalashtirish boshqaruv jarayonining eng asosiy va birinchi, mazmun-mohiyati jihatdan gʻoyatda muhim vazifasi hisoblanadi. Agar tashkilot faoliyatini toʻgʻri tashkil etish uchun ishlab chiqilgan rejaviy koʻrsatkichlar va belgilangan vazifalar yetarli darajada asoslanmagan boʻlsa, tashkilot keyingi bosqichlarda qanchalik yaxshi ishlamasin, natija past boʻladi. Shuning uchun ham boshqaruvning sifati va natijasi rejalashtirishning toʻgʻri shakllantirilgan tamoyillariga bogʻliqdir.

Barcha sohada boʻlgani kabi madaniyat va san’at sohasi faoliyatini ham reja asosida yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq. Chunki, aniq va puxta ishlab chiqilgan rejaga tayanib qilingan har bir ish oʻzining ijobiy samarasini beradi. Shu oʻrinda bir savol tugʻiladi, reja oʻzi nima?

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida reja termini quyidagicha izohlanadi:

Reja: – 1) biror ishni yoki muayyan dasturni tartibi bilan oʻz vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki tahminiy moʻljal. 2) muayyan narsani koʻrib chiqish, yondashish usuli, nuqtai nazar, belgili tartib; 3) qilinayotgan ishning toʻgʻri chiqishi uchun tortilgan ip, sim, chiziq va shu kabilar. 4) iqtisodiyotda – xoʻjalik subʼekti, boshqaruv tizimining ayrim boʻgʻinlari faoliyatining dasturi. Ichki ishlab chiqarish rejasi.

Rejalashtirish – ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish shakllari. Rejalashtirishning turlari: joriy, qisqa muddatli (oylik, choraklik, yillik), o‘rta muddatli (5 yillik) va istiqboldagi – uzoq muddatli (10 – 15 yillik).

Davlatning rejalashtirish faoliyatida davlat buyurtmalari, kontraktlar tizimi vositasida amalga oshiriladigan biron-bir tarmoqni rivojlantirishga doir umumiy va maxsus davlat dasturlari hamda loyihalari – dasturlar bo‘yicha boshqarish markaziy o‘rinni egalaydi.

O‘zbekistonda ham hukumat tomonidan vazirliklar va idoralar ishtirokida strategik rejalashtirish tizimini barpo etish, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishning besh, o‘n, o‘n besh yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Rejalashtirishning turlari orasida ijtimoiy rejalashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunday rejalashtirish milliy iqtisodiyotning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish, ijtimoiy jarayonlarni oqilona boshqarishning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Bunday rejalashtirishda ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda aholi turmush darajasi va sifatini tavsiflaydigan boshqa barcha ko‘rsatkichlarni rejalashtirish nazarda tutiladi.

Madaniy-ma’rifiy faoliyat nazariyasini o‘zlashtirishda ularning mohiyati va ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rnini bilish muhim bo‘lganidek, madaniyat va san’at sohasi faoliyatini rejalashtirishda sohaning ishlash tamoyillari, o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalarini ilmiy asosda o‘rganish ham katta ahamiyatga egadir.

Mustaqillik respublikamiz madaniy-ma’rifiy muassasalari zimmasiga bo‘sh vaqt sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyatini ifodalaydigan va uning yo‘nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan eng umumiy qoidalarni – madaniy-ma’rifiy faoliyat tamoyillarini shakllantirish imkonini ham berdi.

Madaniy-ma’rifiy faoliyatning o‘ziga xos tamoyillari ularni tashkil qilishda yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadigan asosiy manba hisoblanib, ular quyidagilardan iboratdir:

- hayotiylik;
- ommaviylik;
- ixtiyoriylik;
- ilmiylik.

Hayot bilan, mustaqil davlatimizni rivojlantirish amaliyoti bilan hamohanglik, buning uchun kishilarga oldida turgan vazifalarning mohiyatini



tushuntirish, ularni mustaqillikni mustahkamlash va kelajagi buyuk davlat yaratishdagi tarixiy rolini anglash ruhida tarbiyalash madaniy-ma'rifiy faoliyatning hayotiyligidan darak beradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning hayotiylik tamoyili aniqlik va maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, madaniyat muassasasidagi har bir tadbir muayyan xususiyatga ega bo'lishi va mustaqillik davri talablari bilan bog'lik holda aniq ifodalangan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, u o'zining butun tabiati va mazmuni bilan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni rag'batlantiradi, insonga o'z qobiliyati va talantini namoyon qilish, rivojlantirish uchun keng imkoniyat beradi, inson hayotiga rang-baranglik kiritadi, tabiat bilan muloqotda bo'lishiga yordamlashadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning ommaviylik tamoyili bir qator ijtimoiy jihatdan ahamiyatli vazifalarni bajaradi, ya'ni ommaning ijtimoiy-madaniy ijodiyotini hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi, ommaviy muloqotda bo'lishni tashkil etadi va shular asosida jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shaxsga ta'sir etish nuqtai nazaridan ommaviylik tamoyilining o'ziga xos jihati shundan iboratki,- har bir kishi madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faqat tomoshabin yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki ro'y berayotgan hodisalarning faol qatnashchisi, o'z qarashlarini isbot qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga ommaviylik tamoyili insonga ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilish imkonini ham yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruhida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat hamma vaqt to'la ixtiyoriylik tamoyillari asosida quriladi.

Agar mehnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga ko'ra belgilansa, madaniy-ma'rifiy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'ladi.

Boshqacha aytganda, madaniy-ma'rifiy muassasa jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning ahamiyati madaniy-ma'rifiy muassasaga qatnashning ixtiyoriyligi, u yoki bu madaniy-ma'rifiy uyushmalarda ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib qolmaydi. Ixtiyoriylik madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan taklif qilinadigan ko'plab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bo'sh vaqt sharoitida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ishlari ko'lamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli sohalarning o'zaro aloqasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili- bu madaniy-ma'rifiy faoliyatning ko'zga ko'ringan tamoyillaridan biri hisoblanadi. U madaniy-ma'rifiy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar – pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir qator belgilarda namoyon bo'ladi. Ular orasida ob'ektivlik belgisiga birinchi o'rinni ajratish mumkin. Madaniy-ma'rifiy ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi kerak bo'lgan ob'ektning haqiqiy holati va bunday ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda, umuman jamiyat va alohida shaxs rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini bilib olish va ulardan oqilona foydalanish asosida qurilishi lozim va shunday bo'lishi kerak.

Ilmiylik voqealar, faktlar va ularning mohiyatini ochishni, ijtimoiy hayotning real manzarasini va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy taraqqiyotning borishini belgilab beradigan kuchlarni aniqlash imkonini beradi. Voqelikni qabul qilishning tasodifiy ta'sirlarining oldini olish va bizni o'rab turgan dunyo haqida chinakam ilmiy tasavvurni paydo qilish madaniy-ma'rifiy faoliyatning muhim vazifasi hisoblanib, ilmiylik tamoyili shaxs dunyoqarashi shakllanishini kuchaytirishga katta hissa qo'shadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning tamoyillari bir-biridan alohida holda mavjud bo'lmaydi, ular yaxlit tizimni tashkil etadi va ularning har biri bo'sh vaqt sharoitida ommaning ijtimoiy-madaniy faoliyatida yagona jarayonning ajralmas qismini ifodalaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyatning tamoyillari ijtimoiy-madaniy faoliyatning mavjud qonuniyatlarini aks ettiradi va barchasi birgalikda madaniy-ma'rifiy ishlarning xarakteri, mazmuni va shakllarini belgilaydi. Bu tamoyillardan birining bo'lmasligi umumiy bir butunlikni, ya'ni rejalashtirishning buzilishiga olib keladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat aholining dam olishini tashkil qilish, ommaga axborot va bilim berish, ommani havaskorlik ijodiyotiga jalb qilish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Demak, madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos tashkiliy xususiyatlariga murojaat etish muhim o'rin tutadi. Chunki har xil madaniy-ma'rifiy faoliyat shaklini tashkil qilishda bu vazifalardan birdek foydalanilmaydi. Ba'zi shakllarda ko'prok axborot beriladi, ba'zilari, asosan, dam olish uchun xizmat qiladi, boshqalari ko'proq madaniy-ijodiy jarayonga qatnashtirishga yordam beradi.



Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatini bilish shu sohaga oid bilimlarni konkretlashtiradi, ularni egallashga aniqlik kiritadi, tadbirlar mohiyati va xususiyatini to'larok yoritib berishga ko'maklashadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatdagi tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - u bir marta tashkil qilinib, asosan, bir marta namoyish qilinadi. Agar spektakllar, kinofilmlar tayyorlanganidan so'ng yuzlab marta namoyish qilinsa, madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tadbirlar, asosan, takroran qo'yilmaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat tadbirlarining deyarli hammasi xuddi shu xususiyatga ega. Faqat badiiy targ'ibot-tashviqot jamoalari, ba'zi mavzuli konsert dasturlari bir marta tayyorlanib, har xil joylarda bir necha marta namoyish etilishi mumkin. Ular ma'lum vaqt davomida (masalan, ma'lum mavsumda, ish jarayonida, ya'ni paxta, g'alla yig'im-terimida) bir necha marta namoyish qilinishi mumkin. Lekin ma'lum muddatdan so'ng, albatta, boshqa yangi dastur tuzishga tayyorgarlik ko'riladi.

Agar teatrda qo'yilgan pesani yana bir necha yildan keyin qaytadan sahnalashtirish mumkin bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarida bu holat takrorlanmaydi. Biror tadbir ssenariysi sxemasini ikkinchisiga qo'llash mumkin emas. Har qanday yangi ssenariy yangi tuzilishni, yangi mehnatni talab qiladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning yana bir xususiyati - ular, asosan, mahalliy aholi uchun, ularning real hayotidan olingan materiallar asosida tuziladi. Tadbirlarning bosh qahramoni sifatida muayyan joyda mehnat qilib, mahalliy aholi orasida namuna bo'layotgan kishilar namoyon bo'ladi. Masalan, "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlangan bayramni olaylik. Bunda mahalliy joyda yashaydigan urush qatnashchilari, mehnat faxriylarining ko'rsatgan jasoratlariga asosiy urg'u berilishi kerak. Urush qahramonlarining o'z so'zlarini eshitish tadbirni jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatning navbatdagi xususiyati shundan iboratki, ularda juda keng ko'lamda ta'sirchan vositalar birlashtiriladi. Tadbirlar real hayotning o'zini tashkil qilishi bilan birga, undagi muhim voqealarni o'z mazmuniga singdiradi. Ularning mohiyatini ochish va ahamiyatini yoritish uchun ta'sirchan vositalarga murojaat qilinadi. Tadbirda mazmun ma'lum bir kompozitsion tuzilish holatiga kelishi uchun undagi barcha ta'sirchan vositalar ham bir-birlari bilan birlashtiriladi, uyg'unlashtiriladi. Aks holda tadbirning mazmuni puch, shakli esa samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda uyushtiriladigan tadbirlarni ommaviy deb atashning boisi shundaki, u omma uchun uyushtiriladi va ommaning ishtirokida o'tadi. Agar teatr, kino xamda televizorda asar qatnashchilari va tomoshabinlar



o'rtasida ko'rinmas "devor" mavjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarida esa ommaning aktiv ishtiroki ko'zda tutiladi. Albatta, tadbirlarda hammani birday faol qatnashtirish qiyin. Uning asosiy qatnashchilari oldindan belgilab qo'yilgan badiiy havaskorlik jamoalarining a'zolari hamda so'zga chiqadigan kishilardir. Lekin tadbir tashkilotchisi bu asosiy qatnashchilar bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ommani ham faollashtirish, tadbir ishtirokchisiga aylantirish yo'llaridan foydalanmog'i lozim. Buning uchun tadbir ishtirokchilari o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, savol-javoblar kabi maxsus tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda sohaning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Azamat Haydarov. "Ijodiy faoliyatni nrejalashtirish va boshqarish" O'quv qo'llanma . Toshkent: 2019-yil, 197 bet
2. S. To'ychieva . "Boshqaruv texnologiyalari". O'quv qo'llanma. Toshkent-2019-yil, 152 bet.
3. Qoraboyev U.X. "Madaniy tadbirlar". O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2006. – 152 b.
4. S.To'ychieva Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish.. Darslik.- Toshkent, 2020-yil, 263 bet.
5. A.Haydarov. "Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari" .O'quv qo'llanma. Toshkent: "Kamalak". 2019-yil, 164 bet .

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos tamoyillari: hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik, ilmiylik tamoyillarining mohiyati batafsil yoritiladi. Madaniyat va san'at sohasida rejalashtirishning turlari hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно раскрыта сущность конкретных принципов культурно-просветительской деятельности: жизнеспособность, публичность, добровольность, научные принципы. Обсуждаются виды планирования в сфере культуры и искусства и особенности культурно-просветительской деятельности.

SUMMARY

This article describes in detail the essence of specific principles of cultural and educational activity: vitality, publicness, voluntariness, scientific principles. The types of planning in the field of culture and art and specific features of cultural and educational activities are discussed.



XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIKNI TO‘G‘RI YO‘LGA QO‘YISH HAMDA CHOLG‘U OILALARINING TASHKIL ETILISHI

Choriyev B.B.

Termiz davlat universiteti “Musiq ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: madaniyat, san’at, musiqa, kuy, g‘ijjak qobus bas, tembr, g‘ijjak, dutor, chang, qonun, temperatsiya, orkestr, ansambl, unison.

Ключевые слова: культура, искусство, музыка, мелодия, гиджак кабус бас, тембр, гиджак, дутор, чанг, канун, оркестр, ансамбль, унисон.

Key words: culture, art, music, tune, g‘ijjak kabus bass, timbre, g‘ijjak, dutor, dust, law, temperance, orchestra, ensemble, unison.

Milliy musiqa madaniyatimizni chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni yurtimizda keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublika miqyosida barcha sohalarda jadal sur’atda islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayondagi islohotlar musiqa san’atini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Buning yorqin dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 02.02.2022-yildagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qaroridir. Mazkur qarorda musiqa fani o‘qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etishga o‘rgatish va maktab o‘quvchilarining attestatida cholg‘uni o‘rganganlik bahosi qayd etilishi kabi jumlar keltirilgan. Ushbu qarorning mazmuni esa o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish bilan birgalikda ularning qalbini san’atga, musiqaga oshno qilish va milliy qadriyatlarimiz uyg‘unligida kamol toptirishdir.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida qolgan cholg‘ular qatori “G‘ijjak qobus bas” cholg‘usi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan cholg‘u hisoblanadi. Bu cholg‘u o‘zining jarangdorligi va kishi qalbiga yoqimli ovozi bilan yaqinligi qolaversa cholg‘ular ichida jozibali hamda muhim diapazondagi tovushlarni



o'zida mujassamlashtirganligi bilan xalqimizning sevimli cholg'usiga aylangan. Hozirgi kunda Z.Xisamiddinova, D.Saidkarimova, Sh.Qoraboyev, B.Muhiddinov, Sh.Tolipov, O.Safarov, A.Rahimov, J.Ne'matjonov, I.Karimov, Z.Nosirov, B.Yusupov, Q.Akbarov, S.Soliyev kabi moxir sozanda-pedagoglar g'ijjak bas mutaxassisligi bo'yicha yosh-o'quvchi talabalarni ta'lim olishida o'zlarini ulkan hissalarini qo'shib kelishmoqda. G'ijjak qobus bas cholg'usida xalq kuylari bilan bir qatorda barcha qardoshlarimiz kuylarini hamda klassik kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlarni ham maromiga yetkazib ijro etish mumkin. G'ijjak qobus bas cholg'usida mohirona kuylarni ijro etish uchun sozanda o'z cholg'usini va tanlagan kasbini sevishi unga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Undan tashqari tinimsiz mehnat qilishi, eshitish qobiliyati ustida ishlashi, varoqdan nota o'qish ko'nikmasini rivojlantirish kabilarni mukammal o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikni o'rganish musiqa ta'limi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalariga milliy musiqa madaniyatimizni chuqur anglab yetish va uni keng targ'ib qilish bilan bir qatorda, xalq sozandachilik merosini o'rganish, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik mahoratini yuksaltirish, o'zbek xalq kuylari ijrosi bilan birgalikda O'zbekiston hamda jahon miqyosidagi kompozitor-bastakorlarning asarlarini mohirona ijro etish, kuylarni erkin tahlil qilish, notalarni varoqdan ravon o'qish, ijroda badiiylikka e'tibor qaratish, ijrochilikda o'z ustida ishlashning zamonaviy interfaol uslublarini o'zlashtirish, shuningdek, ularning usul va kuy o'lchovi, milliy bezaklarning o'ziga xos ijro yo'llarini mukammal shakllantirish va mustahkamlashni nazarda tutadi.

Fan tizimida o'zbek xalq milliy kuylarini ijro qilish ko'nikmalarini hosil qilish bilan bir qatorda jahon klassik musiqa durdonalari ijodi bilan tanishish, ularning magnit tasmlariga yozilgan ijrolarini, cholg'uchilikda musiqiy-hududiy uslublarni o'rganish va tahlil qilish ijodiy jarayonlarida kasbiy mahoratini shakllantirish fanning asosiy maqsad va vazifalarini belgilaydi. Fanni o'zlashtirishda kelib chiqadigan vazifalar – talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu fan bo'yicha talabalar mukammal ravishda milliy cholg'ularda ijrochilik mahorati ustida ishlashning amaliy ijro jarayonlarini o'zlashtirishning uslubiy ko'nikmalarini o'rganadi. O'zbek xalq cholg'ulari zamonaviy ijrochilik talab darajasiga yetgunga qadar ko'plab takomillashtirish ishlarini boshdan o'tkazgan. Cholg'uda ijrochilik va cholg'ular takomillashuvi qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha davom etib kelmoqda. Bunga misol tariqasida Abu Nasr Farobiyning “Katta musiqa kitobi”, Abu Ali Ibn Sinoning “Davolash kitobi”, Al-Xorazmiyning “Bilimlar kitobi”, Safiuddin Urmaviyning “Oliyjanoblik



haqida kitob”, Abdurahmon Jomiyning “Musiqqa haqida risola”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida cholg‘u ijrochiligi hamda milliy cholg‘ularimiz haqida kerakli manbaalar yozib qoldirilgan.

Milliy cholg‘ularimiz faqatgina xona sharoitida ijro qilishga moslashgan bo‘lib, ularni sahnalarda ijro qilish tembr jihatidan anchagina sust bo‘lgan. Keyinchalik XX asrning boshlarida hofiz Shorahim Shoumarov, sozanda Matyusuf Xarratov, Usta Usmon Zufarov, Usta Ro‘zimatxon Isaboyevlar tomonidan cholg‘ularimiz yana ham zamonaviy talab darajasida takomillashtirildi. Shorahim Shoumarov tomonidan g‘ijjak cholg‘usining kosasi turli materiallardan tayyorlangan turlari mavjud bo‘lib, ulardan eng afzali hamda qulayi deb kosasi yog‘ochdan yasalgan g‘ijjak cholg‘usi maqsadga muvofiq cholg‘u deb topildi. Matyusuf Xarratov diapazoni kichik va diatonik tovushqatorga ega bo‘lgan chang cholg‘usiga qo‘shimcha torlar qo‘shish evaziga cholg‘u diapazonini kengaytiradi. Keyinchalik Usta Ro‘zimatxon Isaboyev ham 1902-yillarda Qashqardan kelgan Ramazonoxunning chang cholg‘usida ijrosidan ilhomlanib o‘ziga chang cholg‘usini yasaydi va xar bir tovush balandroq eshinishi uchun to‘rtadan tor taqadi. Usta Usmon Zufarov esa tanbur, dutor va ruboblarning bir qancha turlarini yasagan. Usta Usmon Zufarov birinchilardan bo‘lib, Yunus Rajabiy taklifiga binoan ansambl jamoasi uchun past registrli cholg‘ularni ya’ni, katta dutor, katta tanbur, katta g‘ijjak cholg‘ularini yasaydi. Ular Yunus Rajabiy rahbarligidagi ansamblida cholg‘uchilar tomonidan ijro etilgan.

1934-yili V.Uspenskiy taklifi bilan ochilgan san’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qoshida maxsus cholg‘ularni takomillashtiradigan tajriba laboratoriyasida usta Usmon Zufarov o‘zining bir qancha shogirdlari bilan faoliyat olib boradi. 1936-yilda To‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil etilgan 98 nafar sozandadan iborat bo‘lgan unison orkestr tarkibida usta Usmon Zufarov yasagan katta tanbur, katta g‘ijjak va katta dutorlar sinovdan o‘tkaziladi. 1937-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek san’atining birinchi dekadasida Usta Usmon Zufarov tomonidan yasalgan barcha cholg‘ular teatr sahnasida yangraydi. 1930-yildan boshlab ko‘p ovozli orkestr va ansamblar tuzish maqsadida cholg‘ularning oilasini yaratish fikri ilgari surildi. Bu ishlarga Ashot Ivanovich Petrosyans rahbarlik qilgan. Ushbu laboratoriyada A.I.Petrosyans rahbarligi ostida S.Didenko, V.Romanchenko, A.Kevxoyans, X.Muxitdinov, A.Abdug‘ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev, F.Bortnik kabi musiqiy cholg‘u ustalari cholg‘ularni modernizatsiyalash ishlarini olib borishgan. Cholg‘ularning oilasi yaratilishi bilan bir qatorda torli-chertma cholg‘ularga 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqatorlar joriy



qilish hamda xromatik chang cholgʻusi ustida ilk tajriba ishlari olib borilgan. Ana shunday tajribalar davomida A.I.Petrosyans rahbarligi ostida S.Didenko, V.Romanchenko, A.Kevxoyans, X.Muxitdinov, A.Abdugʻofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev, F.Bortnik kabi musiqiy cholgʻu ustalari tomonidan gʻijjaklar oilasi tarkibiga kiruvchi va xalqchilligini yoʻqotmagan kamonli-torli cholgʻular oilasi ham yaratildi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asari.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli qarori.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori. Toshkent, 2017-yil, 31-may.
4. A.Tashmatova “Ijrochilik san’ati tarixi” musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik “Musiqqa nashriyoti” Toshkent-2017.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada milliy cholgʻularimizni oʻrganish, sharq allomalarining musiqa ilmiga oid asarlari va cholgʻularning takomillashuv jarayonlari haqida qisqa, ammo kerakli ma’lumotlar berildi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены краткие, но необходимые сведения об изучении наших национальных музыкальных инструментов, работах учёных-востоковедов по музыкальной науке, процессах совершенствования музыкальных инструментов.

SUMMARY

This article provides brief but necessary information about the study of our national musical instruments, the works of oriental scholars on the science of music, and the improvement processes of musical instruments.



XX ASRNING DUNYOGA DOVRUG‘I KETGAN O‘ZBEK SAN‘AT DARG‘ALARI

Xidirov K.A.

Termiz davlat universiteti “Musiqqa ta’limi” kafedrasida o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: san‘at, madaniyat, raqs, doira, nog‘ora o‘yini, pilla raqsi, qari navo, gul o‘yin, zang, sadr, muzey, festival, tantana.

Ключевые слова: искусство, культура, танец, круг, игра на барабанах, танец коконов, старик, игра цветов, ржавчина, кедр, музей, фестиваль, праздник.

Key words: art, culture, dance, circle, drum game, cocoon dance, old man, flower game, rust, cedar, museum, festival, celebration.

Yigirmanchi asrning birinchi yarmida o‘zbek xalq san‘ati dovrug‘i butun dunyoga tarqaldi. Respublika san‘at ustalarining Moskva, Sankt-Peterburg, Bakuda qo‘ygan konsertlari tomoshabinlarni hayratga solgandi. 1930-yilda Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan olimpiadada ishtirok etgan Usta Olim Komilovga milliy raqslar bo‘yicha yangi usullar yaratgan hamda ajdodlardan meros bo‘lib qolgan bir yuz yigirmaga yaqin usulni yodida saqlagani uchun «Virtuoz doirachi» degan nom berilgan edi.

1935 yili o‘zbek san‘atkorlari Usta Olim Komilov, To‘xtasin Jalilov, Abduqodir Ismoilov, Tamaraxonimlar Angliyada o‘tkazilgan xalqaro raqs festivalida qatnashish sharafiga muyassar bo‘ldilar. O‘n mingga yaqin tomoshabin yig‘ilgan London shahridagi muhtasham san‘at koshonasi Albert-Xilda turli mamlakatlardan kelgan san‘atkorlar qatorida O‘zbekistonlik san‘atkorlar ham o‘z san‘atlarini namoyish qildilar. Doirachi Usta Olim Komilov o‘zbek milliy raqslari “Qari navo” hamda “Pilla” raqsi kuyini maromiga yetkazib ijro qilganda, Albert-Xill san‘at koshonasi gulduroz qarsaklardan larzaga keldi. Xatto belgilangan vaqt adog‘iga yetganda ham tomoshabinlar o‘zbek san‘atkorlarini sahnadan qo‘yib yuborishmaydi. Ular Usta Olimdan doira kuylaridan yana chalib berishni iltimos qilishadi. Shunda u o‘zbek xalq kuylaridan “Nog‘ora o‘yini” va «Tantana»ni chalib berib, ularni

yana ham lol qoldirdi. Konsertda hozir bo‘lgan Angliya qirolichasi Yelizaveta I kuy tugagandan so‘ng sahnaga chiqib, Usta Olimning doirasini qo‘liga olib tomosha qiladi va o‘zbek san’atkorining mo‘jizakor barmoqlaridan gipsga nusxa olib, London muzeyiga qo‘yishni buyuradi. Bu barmoqlar nusxasi hamon muzeyda saqlanadi. Raqs festivalida besh nafar san’atkor oltin medalga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, shundan ikkitasi o‘zbek san’atkorlaridan Usta Olim Komilov va Tamaraxonimlar edi. London safaridan so‘ng Usta Olim Komilovning dovrug‘i Yevropaga yoyilib, ovoz yozish fabrikasida uning doiradagi ijrosida yuzga yaqin usullar yozib olingan.

Usta Olim Komilov doira uchun yaratgan asarlari xalq merosining ajralmas mulkiga aylanib ketgan. Ularning ayrimlari haqida qisqacha ma’lumotlar:

Katta o‘yin. Katta o‘yin (nog‘ora o‘yin) - qadimiy raqslardan bo‘lib, odatda xalq bayramlari va to‘y-tantalarida, katta maydonlarda nog‘ora, karnay-surnay jo‘rligida ijro etshgan. Raqsning ko‘shaloq nomlanishi uning musiqiy jo‘rligi, nisbatan davomli ijro etilishidir. «Katta o‘yin» raqsi Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» musiqiy operasiga kiritilgan. Raqs tantanavor tarzda ashula bilan ijro etilgan. Usta Olim Komilov ashulalarning usullarini jamlab tartibga keltirgan.

Pilla. Usta Olim Komilov tomonidan yaratilgan bu musiqiy asarni Mukarrama Turg‘unboeva doira jo‘rligida konsert nomeri sifatida sahnalashtirgan. Raqsda pilla qurtlarining tut bargi bilan boqilishi, shoyi matosini to‘qish va belbog‘ - qiyiqcha tikish jarayoni boshdan-oxirigacha aks ettirilgan.

Qo‘qoncha. Vodiyga xos bo‘lgan usullar majmuasi Ko‘qonda qadimdan mavjud bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi, xususan, lapar, yalla va boshqa aytishuvlarga asoslangan.

Tantana. To‘y, tantana va bayramlarda ijro etishadigan usullar tantanavor, bayramona ohangda jaranglaydi.

Dovul. «Dovul» — ikki xil ma’noni anglatadi. Birinchisi, kuchli bo‘ron, ikkinchisi, ovchilar, to‘pehi qorovullar yoki harbiylar uchun belgilangan maxsus nog‘ora. Ushbu usullar, momaqaldiroq, chaqmoq kabi tabiat hodisalarini tasvirlaydi.

Shodlik. «Shodlik»da inson hayotidagi quvonchli kunlar, yashashdan zavqlanish, yaxshi kayfiyat tasvirlangan. «Shodlik» ashula va raqs ansambli Usta Olim Komilov ijodiga mansub doira ijrosidagi ushbu kuy nomi bilan atalgan.

Qo‘shqarsak. Ushbu asar XX asrning yigirmanchi yillarida turkum ko‘rinishda vujudga kelgan bo‘lib, ikki zarb ma’nosini anglatadi. Doira cholg‘usida sozandaning ikkala qo‘l ishtirokida ijro etishi va shu bilan birga,



doirada ikkita asosiy zarb - «bum « va «bak») usullari ham bu nomlanishga asos qilib olingan. Ustoz doirachilar «Qo‘shqarsak»ni doira ijrochiligidagi barcha usullarning asosi, deya ta’riflaganlar.

Burulcha. «Burul» so‘zining lug‘aviy ma’nosi xoldor ko‘kish otni anglatadi. Raqsda esa, chaqqon burshib, aylanib o‘ynash ma’nosini beradi.

Usta Olim Komilov xalqimiz asrlar bo‘yi e‘zozlab kelgan cholg‘u asbobi - doirada kamolot kasb etganidan tashqari, raqqos, bir necha musiqa cholg‘ularining mohir ijrochisi sifatida xalq mehrini qozongan san’atkor edi. U chang, dutor, nog‘ora, doiralarni o‘zi yasay va bu cholg‘ularda chalishni ham maromiga yetkazardi. «Gul o‘yin», «Zang», «Sadr», «Pilla» kabi san’at asarlarini u Tamaraxonim bilan hamkorlikda yaratgan. U oddiy ijrochi emas, balki xoreografiya postanovkachisi ham edi. «Farhod va Shirin», «Gulsara» musiqali dramalaridagi hamda «Bo‘ron», «Buyuk kanal» operalaridagi milliy raqslarning ijodkori ham Usta Olim Komilov bo‘lgan.

Marg‘ilonda to‘quvchi-kosib oilasida dunyoga kelgan Usta Olim Komilov tavalludiga bu yil bahorda 147, London festivalida ishtirok etganiga esa 87 yil to‘ladi. Xalq san’atini yuksak darajada dunyoga namoyish eta olgan san’atkor yaratgan asarlar umri boqiyliги uning nomiga ham abadiylik baxsh etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 2017-yil, 31-may
2. A.Tashmatova “Ijrochilik san’ati tarixi” musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik “Musiqqa nashriyoti” Toshkent-2017
3. Ўызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.
4. <https://arboblar.uz/uz/people/kamilov-usta-olim>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “XX asrning dunyoga dovrug‘i ketgan o‘zbek san’at darg‘alari” mavzusini yetarlicha yoritib berishga harakat qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье предпринята попытка достаточно осветить тему «Узбекские художественные школы XX века, дошедшие до мира».

SUMMARY

In this article, an attempt was made to sufficiently illuminate the topic of «Uzbek art schools of the 20th century that reached the world.»



UD CHOLG‘USINING QO‘SHIQ IJROCHILIGIDAGI AHAMIYATI

Hakimov O.B.

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ud, qo‘shiq, soz, borbad, mug‘anniy, mutrib, rud, qobuz, g‘ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor, ruhafzo, shammoma, arg‘anun, sibizg‘i, nay, chag‘ona, bulamon, surnay, qo‘shnay, karnay, daf, doira, nog‘ora, safoil, rezonator.

Ключевые слова: уд, песня, соз, борбад, муганни, мутриб, руд, кабуз, гиджак, навха, нузха, канун, чанг, рубоб, танбур, дутор, рухафзо, шаммома, арганун, сибизги, флейта, чагана, буламон, сурнай, кушной, карнай, бубен, доира, барабан, саfoil, резонатор.

Key words: ud, song, soz, borbad, mughanniy, mutrib, rud, qobuz, gijjak, navha, nuzkha, kanun, chang, rubob, tanbur, dutor, ruhafzo, shammoma, arganun, sibizgi, nay, chagona, bulamon, surnay, qoshnay, trumpets, daf, doira, nogora, safoil, resonator.

Musiqa mislsiz ruhiy quvvat bo‘lib, inson zotini hayotga va ezgu ishlar qilishga undovchi ilohiy qudratdir. Soz ijro qilinganda, xonanda qo‘shiq aytganda, go‘yo inson tanasi junbushga kelganday bo‘lib, inson ichki tuyg‘ulari yuz, ko‘z ifodasi, ayniqsa ovozida o‘z aksini topadi. E‘tibor beradigan bo‘lsak, qadimiy manbalarda zardushtiylik kitobi “Avesto” dagi diniy madhiyalar ham qo‘shiq shaklida ijro qilingan. “Qur‘oni karim” ham Rasulullohga ovoz va ohang orqali nozil bo‘lgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, odamzoti ma‘lum bir e‘tiqodni, ezgu g‘oyalarni o‘ziga va o‘zgalarga qudratli so‘z, go‘zal ohanglar orqali singdirgan va ulardan ta’sirlangan.

O‘tgan asrlar davomida ajdodlarimiz taqdiri qanday kechgan, ularning ko‘nglida qanday his-tuyg‘ular hukmron bo‘lganligi bizgacha yetib kelgan musiqiy asarlarda o‘z ifodasini topgan.

Ma‘lumki, insonlar qadim davrlardan buyon doimo bir-biri bilan madaniy muloqotda, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy aloqada bo‘lib kelgan. Boshqa mamlakatlar bilan aloqalari uzilgan davlat yoki millat madaniyat, tafakkur, ta‘lim, musiqa va boshqa sohalarda orqada qolib borgan. Odamlar o‘zaro fikr almashib, tajribasini baham ko‘rib bugungi kunda shu darajadagi rivojlanish



holatiga yetib keldi. Bu fikr va mulohazalar madaniyat va musiqa sohasiga ham taalluqlidir. Musiqa shunday bir ilohiy qudratki, u insonlarni ruhiy boshqara olish va ularga kuchli ta'sirini o'tkazish xususiyatiga ega. Musiqani hosil qilishda muhim o'rin tutgan cholg'u sozlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Cholg'ularning ixtiro qilinishi insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, u insonni mukammalroq qilib tarbiyalashga xizmat qiladi, agar uni to'g'ri va o'z o'rnida ishlatilsa albatta. Insonlar musiqiy cholg'ular vositasida o'z fikr va mulohazalarini, dard, o'y, qayg'u va hasratlarini, shodlik, xursandchilik, baxt kabi insonga xos bo'lgan tuyg'ularni ifodalashga harakat qilishgan.

O'zbek xalqi qadimiy boy musiqiy merosga ega bo'lib, bunda musiqiy cholg'ular katta o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir. Chunki, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar o'tib yuzaga kelgan an'alarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg'ularga egadirlar.

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgidir. Asrlar osha og'zaki an'anada ajdodlardan-avlodlarga ustoz-shogird tizimida izchil singdirish yo'li bilan rivojlanib kelganligi tufayli musiqa merosi qatlamlari hisoblangan kuy, qo'shiqlardan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula va maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan.

Bizga yaxshi ma'lumki, qaysi millat, xalqning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lsa, o'sha yerda madaniyat shakllanadi. Har bir xalq o'zining milliy musiqiy merosini sevsa, uni munosib tarzda o'zlashtirsa va qadriga yetsa, o'zga xalqlar san'atini ham baholay oladi. Ma'lumki, o'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ulari o'zining mukammalligi bilan mohir sozandalar amaliyotidan munosib o'rin topgan.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda bo'lganki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa sozlarini chala olgan, balki o'zlari ham qo'shiqlar aytib, musiqalar bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'ularning yangi namunalari kashf etilishi ham o'sha uzoq davrlarga borib taqaladi. Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.



Tarixiy qo‘lyozmalar, adabiy va musiqiy risolalarda O‘rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg‘ularning nomlari o‘z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg‘ularga tegishli shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg‘ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va boshqa ma‘lumotlar keltirilgan.

Ularda torli cholg‘ulardan borbad, ud, rud, qobuz, g‘ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor, damli cholg‘ulardan ruhafzo, shammoma, arg‘anun, sibizg‘i, nay, chag‘ona, bulamon, surnay, qo‘shnay, karnay, urma cholg‘ulardan daf, doira, nog‘ora, safoil kabilar turli darajadagi ma‘lumotlar bilan keltirilgan.

Qadimda mashhur bo‘lgan Borbad cholg‘usi miloddan avvalgi VI asrda yaratilganligi haqidagi ma‘lumotlarga egamiz. Mazkur cholg‘u ko‘p manbalarda barcha torli cholg‘ularning yuzaga kelishida asos bo‘lgan deb ko‘rsatiladi.

Aytish kerakki, o‘tmishda yashagan taniqli shoirlar ham o‘zlarining badiiy asarlarida musiqa cholg‘ulariga katta e‘tibor qaratganlar. Badiiy adabiyotlardagi ma‘lumotlar ham tarixni bilish to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlarni o‘zlarida jamlaganlar. Ular musiqa cholg‘ulari nomlarini kitoblarga zikr etishda, o‘z davri yoki xalq ijodiyotida afsonaviy tarzda qo‘llanilgan cholg‘u sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ularning orasida o‘z ijodi bilan ma‘rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning kitoblarini alohida ta‘kidlab o‘tish joizdir. Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli tomonlari, mumtoz musiqaning ahamiyatli tomonlari va ijodiyotida tutgan o‘rnini, musiqiy cholg‘ularni esa o‘ta olimlik bilan ularni xarakteriga tegishli ma‘lumotlarni bayon etib berishgan. Xullas o‘zbek milliy musiqa cholg‘ularinig azal-azaldan xalqimizning ma‘naviyatini namoyon etadigan jihatlarini Alisher Navoiy asarlaridan va shunga o‘xshash kitoblardan bilib olish mumkin.

Ud cholg‘usi azal-azaldan musiqa san‘ati amaliyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Cholg‘u tarixda ko‘proq musiqa sohasining nazariy masalalarini idrok etish va tushuntirishda qo‘l kelgan. Cholg‘uni o‘rganishda uning torlari hamda pardalaridan keng foydalanilgan. Ud mizrob bilan chalinadigan cholg‘ularning eng qadimiysi bo‘lib, dunyodagi xalqlar orasida eng keng ommalashgan torli cholg‘ulardan hisoblanadi. Ud cholg‘usining undan oldingi namunalari ham kitoblarda zikr etiladi. Rifatilla Qosimov o‘zining kitobida udni quyidagicha ta‘riflaydi: - “Ud arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi turlichadir. Ud – birinchidan, yog‘ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to‘y-tomoshha, xursandchilikni ifodalaydigan «Iyd» iborasining ma‘lum shaklidir. Bu o‘rinda xushchaqchaqlik kayfiyatini bag‘ishlovchi soz ma‘nosida ham kelishi mumkin. Udning dastlabki nomi «barbad» bo‘lganligini ba‘zi manbalarda ko‘rsatib



o‘tiladi. Barbad ikki so‘zdan iborat bo‘lib, bar – qomat, bad – o‘rdak ma‘nolarida keladi. Barbad qorni katta va dastasi kalta musiqa asbobidir”. Yozma mabalarga asoslangan ta‘rif, darhaqiqat barbad cholg‘usining O‘rta Osiyo hududida yashagan xalqlar orasida keng ommalashganligini namoyon qiladi.

Tarixda “Barbad” iborasi, ijrochilik amaliyotida mashhur bo‘lgan. Qadimiy va afsonaviy sozanda Bardabning nomi ham aynan shu cholg‘uga nisbatan taxallus sifati qo‘yilganligi kitoblarda, ayniqsa Firdavsiyning “Shohnoma” kitobida ko‘p yoritilgan.

Ijrochilik amaliyotida ud nomi bilan mashhur bo‘lgan cholg‘u, turli xalqlarda ham o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan va u cholg‘ular udsimon cholg‘ular deb yuritilgan. Ajam xalqlarida-ud, Xitoyda pipa, Yevropada-lyutnya, Arablarda esa al-ud nomlari bilan atalib kelingan.

Cholg‘u sozini ud atalishiga, sozning yasaladigan daraxti asos bo‘lganligi kitoblarda qayd etiladi. Xususan, cholg‘u arablar mamlakatida o‘sadigan ud daraxtidan yasalgan. Daraxt xushbo‘y hid taratuvchilik xususiyatiga ega bo‘lgan. Ud o‘tmishdan ijrochilikda keng qo‘llanilgan, o‘rta asrlarda Farobiy, Urmaviy kabi olimlarning musiqashunoslik ilmiy tadqiqotlari uchun asos vazifasini o‘tagan. XVI-XVII asrlarga kelib ud cholg‘usini o‘rnini boshqa cholg‘ular egallaganligi sababli amaliyotda kam uchragan. Xususan, O‘zbekistonda ud cholg‘usi, XX asrning 70-80 yillariga kelib, an‘anaviy ijrochilik amaliyotida qayta tiklandi.

Cholg‘ular ansambli tarkibidan munosib o‘rinni topdi. Yakkavoz cholg‘u sifatida ommalashib, Oliy ta‘lim darajasida ta‘lim jarayoniga kiritildi. Mutaxassislar yetishib chiqib xalqimiz orasida keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ud cholg‘usi va uning ijrochiligini O‘zbekistonda qayta tiklanishda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, ustoz va mohir sozanda Rifatilla Qosimovning xizmatlari alohida ahamiyatga sazovordir.

Ud cholg‘usining o‘ziga xosligi uning past registrdagi kuchli ovozga egaligidadir. Bunday ovoz taralishi uchun mo‘ljallangan shakl muhim ahamiyatga egadir. Cholg‘uning ulkan rezonatorli katta kosasi va pardalar boylanmagan qisqa dastasi mavjud. Kosa odatda, bir-biriga mutanosib holda yopishtirilgan 10-12 ga yaqin qovurg‘asimon taxtachalardan tayyorlanib yasaladi va ustki qismiga qopqoq yopishtiriladi. Qopqoqda ovoz harakatini ta‘minlab beruvchi uchta teshiklar bo‘lib, ular naqshlar bilan bezab yasaladi. Cholg‘uning xarragi ham qopqoqga zich holatda yopishtirib qo‘yiladi.

Cholg‘u dastasi kosaga mahkam biriktirib qo‘yiladi. Uning boshlang‘ich qismida quloqlar o‘rnatiladigan qismi mavjud. Unda 11 ta torni tortish uchun mo‘ljallangan quloqlar joylashgan (5 tasi o‘ng va 6 tasi chap tomonida). Ud sozi (risolalarda yozilishicha) 5 juft va 1 ta toq torlardan iborat. Uning birinchi,

ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi torlarining orasi kvarta intervaliga sozlanadi. To'rtinchi va beshinchi, beshincha va oltinchi torlar orasi katta sekunda intervali, ya'ni 1 ton oralig'ida sozlangan. Zamonaviy o'zbek ud cholg'uchiligida esa, maqom kuylarini ijro etishda qulay bo'lishini inobatga olgan holda to'rtinchi va beshinchi torlar oralig'i sekundadan kvintaga o'zgartirilgan.

Ud cholg'usiga torlar avvallari ipdan eshilib tayyorlangan holda taqilgan. Hozirgi davrga kelib ud cholg'usining yuqoridan 1, 2, 3- torlari sun'iy ichakdan yoki kaprondan taqiladi. 4, 5 va 6-torlar pishitilgan ipak ustidan mis sim o'ralgan holda tayyorlanadi. Cholg'u maxsus tayyorlangan mezrob bilan ijro etiladi.

So'nggi yillarga kelib, ud cholg'usida kuy ijro etish san'ati yanada ommalashib bormoqda. Endilikda ud cholg'usi o'zining mayin, yumshoq va yoqimli ovozi bilan xalq cholg'u, ashula va raqs ansambllaridan mustahkam o'rin oldi hamda yakka holda ijro etiladigan cholg'u sifatida keng tarqalmoqda.

Respublikamizda ud cholg'usi bo'yicha ijrochilik san'atini ta'lim jarayonida tobora rivojlantirib, uni yangi pog'onaga ko'tarish, musiqa dunyosining durdona asarlarini keng omma orasida targ'ibot qilish, sozandalik san'atini rivojlantirish uchun tinmay mehnat qiladigan mohir sozandalarni tarbiyalash har bir o'qituvchi, ustoz-murabbiyning sharaflidir.

Respublikamizda ud cholg'usini mukammal o'rganish ishlari 1960 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasining musiqa cholg'ulari laboratoriyasida professor A.I.Petrosyans rahbarligida ustalar A.Abdug'ofurov, S.Muhiddinov, K.Oganesyan, N.Ryuxinlar tomonidan takomillashtirilib, ud cholg'usi dastasiga dutor, tanbur cholg'ulari kabi oltita pardalar bog'langan. Bu cholg'ular O'zbekiston davlat konservatoriyasi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

Ud sozining mayin, yoqimli va to'liq ovoz berishida bir necha omillar xizmat qiladi. Birinchidan ud sozining kosaxonasi nozik materialdan yasalganligi va yupqa qilib ishlanganligi; ikkinchidan kosaxonaning keng qilib ishlanganligi; uchinchidan torlarning ipakdan ishlanganligi va boshqalar.

Ud cholg'usining qo'shiq ijrochiligidagi ahamiyati haqida gapiriladigan bo'lsa, ud sozi qo'shiq ijrochiligida nay, rubob, g'ijjak va qonun singari cholg'ulardan farqli ravishda ijro etilayotgan ohanglarga bas ovozini berib, go'yoki butun ohanglarni yelkasida ko'tarib turgan tog'ni eslatadi.

Ud sozi bilan qo'shiqqa jo'r bo'lganda udning 4,5,6 – torlaridan ko'proq foydalangan ma'qul. Chunki bu torlar yo'g'on ovoz berib, qo'shiq davomida aniq eshutilib turadi. 1,2,3 – torlarda ijro etganda ular ingichka torlar bo'lib, baland ingichka ovoz chiqaradi va rubob, g'ijjak, qonun kabi baland ovozli cholg'ular ohangi bilan aralashib ketib ajralmay, eshutilmay qoladi. Shu sababli ud bilan qo'shiqqa jo'r bo'lganda ko'proq 4,5,6 – torlarda ijro qilinishi lozim.



Ud sozi qo‘shiq ijrochiligida juda muhim ahamiyatga ega. Chunki rubob, g‘ijjak, nay, qonun singari baland tovushli cholg‘ular ovozi ular toriga bir marta chertilganda tovush jarangi tezda tugasa, ud cholg‘usi bas registrlı bo‘lganligi sababli uning tori bir marta chertilganda uning obertonlari (garmonik ohangdosh tovushlari) bir qancha muddat saqlanib turadi. Shu sababdan udchi sozanda nihoyatda aniqlik bilan sof pardalar bosishga intilishi lozim. Noto‘g‘ri bosilgan parda boshqa cholg‘ulardagi baland tovushlarni ham noto‘g‘ri eshıtılıshıga sabab bo‘ladi.

Hozirgi kunda Respublikamizning barcha hududlarida tashkil etilgan maqom ansambllari tarkibida ud cholg‘usidan samarali foydalaniladi. Ud cholg‘usi maqom asarlarini ijro etishda hamda o‘zbek milliy musiqa madaniyatini, maqom asarlarining milliy xususiyatini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi.

Qo‘shiq va cholg‘u ijrochiligi azaldan bir-biriga bog‘liq va bir-biriga yaqin san‘at turlari hisoblanadi. Ularning bog‘lanish rishtalari xilma-xil va o‘ziga xos bo‘lib, qo‘shiq va cholg‘u ijrochiligi inson ongi hamda inson tuyg‘ulariga ta‘sir ko‘rsatishning nozik siru-asrorlarini o‘zida mujassam etgan. Qo‘shiq va cholg‘u ijrochiligi yuksak uyg‘unlikda biri ikkinchisini to‘ldirib, sayqal berib, yangi ijodiy qirralarni ochishga xizmat qiladi.

Barhayot an‘analarga ko‘ra cholg‘u asbobi sozanda va hofizning suyanchi va ishonchli hamrohi hisoblanadi. Darhaqiqat, cholg‘u sozi ijrochi uchun chinakam ilhom manbai, erkin ijodiy intilish va mahorat namoyish etishda uning yo‘ldoshidir.

Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub”ida quyidagi hikmatlar bitilgan: “Shodlikni oshiruvchi mug‘anniy, g‘amni ketkazuvchi mutribdir. Ularning har ikkalasiga hol va dard ahli jon fido qilurlar. Soz chalinib, yoqimli xonish qilinganda, eshituvchining hayoti, naqdi unga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngul quvvati yaxshi cholg‘uchidan, ruh ozig‘i xush ovozdandir. Xushxon mutribdan dard ahlining o‘ti tez bo‘lur, agar go‘zal bo‘lsa, hol ahli o‘rtasida qiyomat ko‘char. Har bir sozandaning sozi dardliroq bo‘larkan, uning chertishi yarali yurakka ta‘sirliroq tegadi. Porloq yuzli mutrib xalqumidan yoqimli qo‘shiq taratib, hol ahlining kuygan bag‘ridan tutun chiqaradi. Xushfe‘l mutrib, agar fahm-farosatli ersa, odam ko‘ngli toshdan bo‘lsa ham eriydi, unga tobe’ bo‘ladi, xususan, ham aytsa va ham chalsa, ko‘ngil mulkiga qanday qo‘zg‘olonlar soladi”.

San‘at sohasida ijod qiluvchi hamda ta‘lim-tarbiya beruvchi mutaxassislar fikriga ko‘ra, ijrochida cholg‘uni chalish hamda qo‘shiq kuylash ko‘nikmalari birga hosil bo‘lgan aksariyat vaziyatlarda ijro qilingan ashula yoki qo‘shiqning maromida yetganligi ta‘kidlanadi. Bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, ijrochi



cholgʻu ijrochiligi hamda qoʻshiq ijrochiligini birday mukammal egallaganda, ular bir-birini toʻldirib turadi.

Avlodan-avlodga oʻtib kelayotgan maqom anʼanalarini koʻzdan kechiradigan boʻlsak, unda sheʼr bilan musiqa shaklan va mazmunan uygʻunlashib, bir butun badiiy asarga aylanib ketganligi kuzatiladi. Maqom ijrochiligida qoʻllaniladigan cholgʻu sozlarning bevosita kuy va ashulalar bilan bogʻlanishini ikki tomonlama kuzatish mumkin. Bir tarafdin, cholgʻu sozlar amaliyoti boshlanishi, asrlar davomida shakllangan musiqiy tafakkur mahsuli boʻlsa, ikkinchidan, ijro jarayoniga bevosita taʼsir oʻtkazuvchi juda muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

Hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan maqom ansambli tarkibida ham ud cholgʻusi qoʻllanilib kelinmoqda.

Fikrimiz soʻngida shuni alohida qayd etib oʻtish lozimki, qoʻshiq ijrochiligida cholgʻu sozlarining oʻrni benihoya katta boʻlib, ushbu cholgʻularning qoʻshiq ijrosi vaqtida ansambl tarkibida boʻlishi hamda qoʻshiqchi xonandaga joʻr boʻlishda ishtirok etishi ijro etilayotgan qoʻshiqning bir butun boʻlib, mukammal tarzda tinglovchiga yetib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi. Fan. Toshkent 1993
2. Isʼhoq Rajabov. Maqomlar. Toshkent. 2006
3. Rifatilla Qosimov. Ud. Darslik. Toshkent. 2002
4. Gʻulomqodir Ergashev. Afgʻon rubobi darsligi. Bilim. Toshkent. 2004
5. Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Musiqa. Toshkent. 2004

РЕЗЮМЕ

Maqolada oʻzbek milliy cholgʻulardan boʻlgan ud cholgʻusining qadim tarixga ega ekanligi hamda oʻzbek musiqa sanʼatida oʻziga xos oʻrin tutishi, ud cholgʻusining boshqa mezbobli cholgʻularning yuzaga kelishida asos boʻlganligi kabi masalalar mufassal keltirilgan boʻlib, ud sozining qoʻshiq ijrochiligida hamohanglik kasb etishi masalasi ilmiy adabiyotlarni oʻrganish asnosida hamda shaxsiy tajribalarni inobatda olgan holda bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно рассматриваются такие вопросы, как древняя история узбекского национального инструмента уд, имеет древнюю историю и свое уникальное место в узбекской музыке, уд является основой возникновения других музыкальных инструментов, а вопрос гармонии звучания уда в песенном исполнении поясняется в ходе изучения научной литературы и с учетом личного опыта.

SUMMARY

In the article, the oud, which is one of the Uzbek national instruments, has an ancient history and its unique place in Uzbek music, the oud is the basis for the emergence of other musical instruments. Issues such as the following are presented in detail, and the issue of harmony of the oud sound in song performance is explained in the course of studying scientific literature and taking into account personal experiences.



TA'LIM OLUVCHINING BILIM OLIHIDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KO'RGAZMALILIK TAMOYILI

Gulomova N.X.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: chizmachilik, talaba, kompyuter, samarali dars, tushuncha, zaruriyat, standart, mashg'ulot, ketma-ketlik, uzviylik.

Ключевые слова: черчение, студент, компьютер, продуктивность, урока, понятия, стандарт, занятие, по очередности, продолжительность.

Key words: fine art, spatial thinking, student, a computer, lesson reproduction, rules, alternation.

Hozirgi vaqtda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllantirishda kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'lajak mutaxassisda kasbiy sifatlarni shakllantirish va tarbiyalash tizimining tarkibiy qismi bo'lib, zamonaviy ta'lim muassasalari yuqori sifatli tayanch ta'limni ta'minlashi, ish beruvchilar talabiga o'z vaqtida javob berishi, mehnat bozori talab etayotgan raqobatbardosh mutaxassislarni kasbiy tayyorlashlari uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari lozim.

Ta'limda ko'rgazmaliylik va abstrakt, aniq va umumiylik kabi tushunchalar to'g'ri taqsimlanishi lozimdir. Ko'rgazmali qurollar o'quv dasturlarning mavzulariga qattiq ravishda tayangan bo'lib, o'quv kursining mos bulimlarni mazmunini uzatishda, mavzuni mustahkamlashda va takrorlashda yordam berishi zarur. Muhandislik grafikasi fanining tashkil jarayoni yangi sifatli saviyaga ko'tarildi-endilikda qalam, chizg'ich va qog'oz o'rniga ta'lim oluvchilar darslarda maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlamoqdalar. Bu qadamlar, zamonaviy mehnat bozorining bitiruvchilarga nisbatan bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Metodik tizimning tarkibiy qismlaridan biri o'qitish vositalaridir. Ularga darsliklar, didaktik vositalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, o'qitish-ning turli texnik vositalari kiradi. O'qitish vositalariga shuningdek kompyuter, ekran va tovushli, nazorat, o'qitish dasturlari ham kiradi. Chizmachilik fanining o'ziga xos xususiyatiga ko'ra uni o'zlashtirish uchun ta'lim o'luvchilarda fazofiy tasavvurning shakllanib, rivojlanishi zarurligi talab qilinadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida chizmachilikdan o'qitish vositalarining yetarlicha bo'lishi, fan o'qituvchisining ulardan o'rinli foydalana olishi hamda talab darajasida maxsus jihozlangan kabinetning bo'lishi ta'lim samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Ta'lim oluvchining bilim olishida va ularda grafik madaniyatning shakllanishida o'quv adabiyotlari (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, topshiriqlar to'plamlari va ish daftarlari kabilar) va o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali qo'llanmalar (stendlar, plakatlar va h.o) alohida ahamiyatga ega.

Ko'rgazmalilik. Ko'rgazmalilik tamoyili boshqa fanlarni o'qitishdagi kabi Chizmachilikni o'qitish jarayonida ham asosiy va muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyil qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinayotgan mashhur o'qitish tamoyillaridan biridir.

Ushbu tamoyil shunday zaruratni keltirib chiqaradiki, unga ko'ra ta'lim oluvchilar miyasida hosil bo'ladigan tasavvur va tushunchalar bevosita o'rganilayotgan predmet, masalan, kompyuterdan olinadigan idrokiga asoslangan bo'lishi lozim. O'qituvchining bayoni, uning tushuntirishi aniq, ravshan obrazlarni o'z ichiga olishi, o'rganilayotgan savollarning mohiyatini ko'rgazmali tasvirlovchi ishonchli misollar bilan mustahkamlab borilishi kerak.

Masala yechishda, takrorlashda, ta'lim oluvchilardan so'rashda, xullas, barcha hollarda to'la ko'rgazmalilik bo'lishi lozim. Kompyuterdagi rasmlar bilan bir qatorda o'qitishda ko'rgazmalilik jadvallar, sxemalar, filmlar, multimediali videoproektorlar orqali namoyish etiladi.

Ta'limning ko'rgazmaliligi – mavhum tushunchalarni egallashda bilish uchun asos hisoblanadi. Bu yerda «ko'rgazmalilik» tushunchasi buyumlar (masalan, mashina detallari va boshqalar)ning bevosita o'zlari emas, balki ularning grafik tasvirlari bilan bog'liqligini qayd qilish zarur. Har qanday tasvir, chizma buyumni his qiladigan ko'rish organlarimiz orqali fahmlanadi. Shuning uchun ko'rgazmalilik inson miyasida chizmada ob'ekt belgilarini modellashtirish natijasida hosil bo'ladigan ko'rinish obrazi deb qabul qilinadi.

Bu tamoyil o'quvchilar materialni yaxshi o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Y.A.Komenskiy ta'limda barcha sezgi organlariga tayanish lozimligini ta'kidlangan: ko'rinadiganini -ko'rish, eshitiladiganini - eshitish, hid taratayotganini – hidlash, his qilish mumkin bo'lganini – his qilish. Hozirgi




sharoitda chizmachilik darslarida bu tamoyil faqatgina jadval, plakat, dinamik qo‘llanmalar, modellar, detallar, uzellar kabilar emas balki qo‘shimcha ravishda ko‘p sonli audiovizual vositalar (turli proeksion – apparatlar, kino, televedeniya) hamda EHM (displeylar, grafyasagichlar)dan keng foydalanib qo‘llanilmoqda.

Chizmachilikda ko‘rgazmalilikdan foydalanish meyorida asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarda fazoviy tasavvur va fazoviy obrazli fikrlashning rivojlanishiga zarur yetkazmasligi kerak.

Dinamik plakatlar

Standartlar va chizma bajarish asoslariga tegishli plakatlarining doimiy ravishda chizmachilik kabinetida yoki koridorlarda joylashtiri-lishi ularning ta‘lim oluvchilar ko‘z o‘ngida bo‘lib, beixtiyor ta‘lim oluvchilarning xotirasida saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Yangi mavzularni bayon qilishda “dinamik plakat”lardan foydalanish ayniqsa yaxshi samara beradi. “Dinamik plakat”lar odatda biror chizmani bajarish ketma-ketligi tartibini ochib beruvchi plakatlar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Bu o‘qituvchiga chegaralangan vaqt ichida ta‘lim oluvchilarda nisbatan katta hajmdagi grafik ma‘lumotlarni ko‘rsatish va tushuntirish imkonini beradi. “Dinamik” ko‘rgazmali qo‘llanmalarda turli yasashlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mohiyatini, chizmalardagi tasvirlarni o‘qish usullari va ketma-ketligini ochib berish imkoniyati katta (1-shakl).



1-shakl. Qirqim hosil bo‘lishini namoyish qilish uchun dinamik plakat

2-shakl. Qirqim hosil bo‘lishini namoyish qilish uchun dinamik plakat

1- va 2-shakllarda qirqim hosil bo‘lishini namoyish qilish uchun tayyorlangan dinamik plakatlarga misollar keltirilgan. Shakllardan ularni tayyorlash va darsda foydalanish usullarini tushunib olish oson. Bunga o‘xshash plakatlarni o‘qituvchi kursning boshqa mavzulari bo‘yicha ham loyihalashtirib, maktab ustaxonasida ta‘lim oluvchilar bilan birgalikda tayyorlashi mumkin.



Dinamik plakatlar tayyorlash uchun o'qituvchidan ko'proq bilim, mavzuni ochib berishga ijodiy yondashish hamda muammoning noan'anaviy yechimini topish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlik talab qilinadi. O'qituvchi chizmachilik mavzularini dinamik plakatlardan foydalanib tushuntirsa, ta'lim oluvchilar uni qiziqib tinglaydilar va oson tushunib, o'rganilgan material ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Ko'rgazmalilik vositalar o'qituvchining yangi mavzuni bayonida, talabalarning bilim olish va bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mustaqil faoliyati jarayonida va materiallarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda, ya'ni talaba va o'qituvchining boshqa faoliyatlarida qo'llanilishi mumkin. Darsda ko'rgazmalilikning no o'rin, asossiz va oshiqcha ishlatilishi aksincha salbiy natija berishi mumkin.

Ko'rgazmalik qo'llanmalarining quyidagi turlari ishlatiladi: turli real predmetlarni namoyishi; maket va mahsulotlarning namoyish qilish; predmetlarni tasvirlash, predmetlarni chizish jarayoni va doskada tasvirlash; tasvirlash muhiti; proeksion ekranlar.

Proeksiya jarayonida tasvirning sifatli namoyishini ta'minlab berish uchun maxsus ekranlar qo'llanishi lozim. Ekranlarni konstruksiya (ichki va tashqi tuzilishi) toifasiga qarab klassifikatsiyalash mumkin (erga o'rnatiladigan, devorga osiladigan, suriladigan (ko'chma), tahlanadigan) va ustki qoplamini sifatiga qarab, negaki undan ekranning u yoki bu proeksion vosita bilan ishlatilish imkoniga bog'liqdir.

Yerga o'rnatiladigan ekranlar maxsus yig'iladigan tagliklarga o'rnatilib tubus ko'rinishida transportirovka qiliniladi. Devoriy ekranlar asosan rulon tuziliga ega bo'lib, qo'l yoki elektr orqali boshqariladi. Ekranlar kengligi 125x125 dan 300x300 gacha va undan kattaroq. Faol ekran (AKTIVboard) interfaol doska bo'lib uning diagonali 1,25m, 1,62m, 1,99m yoki 2,46m. Shaxsiy kompyuter va ma'lumotlar proektori bilan birgalikda ishlaydi. Aktivstudio elektron konspekt tayyorladi va uni auditoriyadagilarga eng qulay taraflarini namoyish etishga yordam beradi. Elektron qalam faolekran orqali kompyuterni boshqarib Windows dasturini barcha hujjatida va elektron konspekt varoqlarida ishlash imkoniyatiga egadir. Infraqizil portli panel faol ekran bilan turli nuqtadan ishlash imkonini yaratib beradi. Videoproektorlar bu elektron optik qurilma bo'lib, uzoq masofagi ekranga elektron signal ko'rinishidagi ma'lumotlarni proeksiyalashga mo'ljallangan. Ma'lumotlar manbaasi sifatida videomagnitofon yoki video kamera bo'lishi mumkin. Qo'shimcha kompyuter darchalariga ega videoproektorlar (ma'lumotlarni bevosita to'g'ridan to'g'ri



kompyuterdan proeksiya qilishga imkoniyat yaratadi) multimediya proektorlar deb ataladi.

